O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI

# “MINTAQAVIY TURIZM VA TURISTIK RESURSLAR”

**fani bo‘yicha**

## O‘ Q U V –U S L U B I Y M A J M U A

**Andijon 2021**

*© M.Qobulova, I.Ergashev, A.Ergashev “Mintaqaviy turizm va turistik resurslar” fanidan o‘quv – uslubiy majmua. Andijon- 202___, ___ - bet*

**«TAVSIYA ETILGAN»**

*“Mintaqaviy turizm va turistik resurslar”* fanidan o‘quv-uslubiy majmua “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” kafedrasida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (Kafedra majlisining 202__ yil _______________ dagi №__ -sonli bayonnomasi)

**Kafedra mudiri** **O.Shermatov**

**«MA’QULLANGAN»**

O‘quv-uslubiy majmua «Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot» fakul’teti Kengashi majlisida muhokama qilingan va ma’qullangan. (Fakultet kengashi majlisining 202__ yil ____________dagi ____-sonli bayonnomasi)

**Kengash raisi** **S.Iskandarov**

1. I. Umarov – ADU “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari doktori
2. G. Bazarova - AndMI, “Gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

# MUNDARIJA



| I | NAZARIY MATERIALLAR. | |
|---|---|---|
| 1. | “Mintaqaviy turizm va turistik resurslar” fanining maqsadi va vazifalari | |
| 2. | Mintaqaviy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, ularning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati | |
| 3. | Mintaqaviy turizmdan foydalanishga ta’sir etuvchi omillari | |
| 4. | Mintaqalarning turistik resurlari tasnifi | |
| 5. | Mintaqalarning turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash | |
| 6. | Mintaqalarda ekologik turizmni rivojlantirish resurslari va ulardan foydalanish | |
| 7. | Mintaqalarda ziyorat turizmi markazlari va ularni rivojlantirish resurslari | |
| 8. | Mintaqalarda qishloq turizmini rivojlantirish resurslari | |
| 9. | Mintaqaviy rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik–iqtisodiy xususiyatlari | |
| 10. | Turizm industriyasida raqobatbardosh omillar asosida<br>“Buyuk Ipak yo‘li” davlatlarining guruhlanishi | |
| 11. | Markaziy Osiyo turizmi imkoniyatlarini tadqiq qilish | |
| 12. | O‘zbekistonni turistik rayonlashtirish xususiyatlari | |
| 13. | Toshkent turistik mintaqasi | |
| 14. | Samarqand turistik mintaqasi | |
| 15. | Buxoro-Navoiy turistik mintaqasi | |
| 16. | Xorazm turistik mintaqasi | |
| 17. | Farg‘ona turistik mintaqasi | |
| 18. | Jizzax-Sirdaryo turistik mintaqasi | |
| 19. | O‘zbekistonning janubiy turistik mintaqasi | |
| 20. | Qoraqalpog‘iston turistik mintaqasi | |
| 21. | Mintaqalarning madaniy-tarixiy merosi, ulardan foydalanish va muhofaza qilish | |
| 22. | Mintaqaviy turistik resurslardan foydalanishda xalqaro tajribadan foydalanish | |
| 23. | Mintaqaviy turizm asosida ekskursiya xizmatlarini tashkil etish | |
| 24. | Mintaqalarda turizm rivojlanishini ixtisoslashtirish va rejalashtirish yo‘llari | |
| 25. | Mintaqalarda agroturistik resurslarni o‘ziga xos xususiyatlari | |
| 26. | Qishloq turizmini rivojlantirish - turistik resurslarning asosiy manbai | |
| 27. | Mintaqaviy turizmda makreting tadqiqotlarini amalga oshirish jarayoni | |
| 28. | Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari | |
| 29. | Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda turistik resurslarning ro‘li | |
| 30. | Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari | |
| | **SEMINAR MASHG’ULOT MATERIALLARI** | |
| 1. | “Mintaqaviy turizm va turistik resurslar” fanining maqsadi va vazifalari | |
| 2. | Mintaqaviy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, ularning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati | |
| 3. | Mintaqaviy turizmdan foydalanishga ta’sir etuvchi omillari | |
| 4. | Mintaqalarning turistik resurlari tasnifi | |
| 5. | Mintaqalarning turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash | |
| 6. | Mintaqalarda ekologik turizmni rivojlantirish resurslari va ulardan foydalanish | |
| 7. | Mintaqalarda ziyorat turizmi markazlari va ularni rivojlantirish resurslari | |
| 8. | Mintaqalarda qishloq turizmini rivojlantirish resurslari | |
| 9. | Mintaqaviy rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik–iqtisodiy xususiyatlari | |

| | | |
|---|---|---|
| **10.** | Turizm industriyasida raqobatbardosh omillar asosida “Buyuk Ipak yo‘li” davlatlarining guruhlanishi | |
| **11.** | Markaziy Osiyo turizmi imkoniyatlarini tadqiq qilish | |
| **12.** | O‘zbekistonni turistik rayonlashtirish xususiyatlari | |
| **13.** | Toshkent turistik mintaqasi | |
| **14.** | Samarqand turistik mintaqasi | |
| **15.** | Buxoro-Navoiy turistik mintaqasi | |
| **16.** | Xorazm turistik mintaqasi | |
| **17.** | Farg‘ona turistik mintaqasi | |
| **18.** | Jizzax-Sirdaryo turistik mintaqasi | |
| **19.** | O‘zbekistonning janubiy turistik mintaqasi | |
| **20.** | Qoraqalpog‘iston turistik mintaqasi | |
| **21.** | Mintaqalarning madaniy-tarixiy merosi, ulardan foydalanish va muhofaza qilish | |
| **22.** | Mintaqaviy turistik resurslardan foydalanishda xalqaro tajribadan foydalanish | |
| **23.** | Mintaqaviy turizm asosida ekskursiya xizmatlarini tashkil etish | |
| **24.** | Mintaqalarda turizm rivojlanishini ixtisoslashtirish va rejalashtirish yo‘llari | |
| **25.** | Mintaqalarda agroturistik resurslarni o‘ziga xos xususiyatlari | |
| **26.** | Qishloq turizmini rivojlantirish - turistik resurslarning asosiy manbai | |
| **27.** | Mintaqaviy turizmda makreting tadqiqotlarini amalga oshirish jarayoni | |
| **28.** | Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari | |
| **29.** | Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda turistik resurslarning roli | |
| **30.** | Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari | |
| **II** | **MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI** | |
| **III** | **GLOSSARIYLAR** | |
| **IV** | **ILOVALAR** | |
| **1** | **FAN DASTURI** | |
| **2** | **FAN SILLABUSI** | |
| **3** | **TARQATMA MATERIALLAR** | |
| **4** | **TESTLAR** | |
| **5** | **ISHCHI FAN DASTURIGA MUVOFIQ BAXOLASH MEZONLARINI QO’LLASH BO’YICHA USLUBIY KO’RSATMA** | |
| **6** | **KEYSLAR BANKI** | |
| | **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR** | |

# MAVZULAR BO’YICHA MATN ANNOTATSIYASI VA OXIRGI YANGILIKLAR

# KIRISH

Turizm bugungi kunda jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi sohaga aylandi. So'nggi yillarda uning jahondagi tovarlar va xizmatlar savdosining salmoqli xissasiga to'g'ri kelmoqda. SHuning uchun ko'pgina mamlakatlarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning o'rni va roli g'oyat sezilarli bo'lib, bunda turizmning ahamiyati boshqa xizmat ko'rsatish sohalariga qaraganda yuqori sur'atlar bilan rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. SHuning uchun xam keyingi yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlanishi bilan bog'lik bo'lgan masalalarga juda ham katta e'tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari shakllanmokda va qaror topmokda. Mamlakatimiz turizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlariga ega. Birinchi navbatda, boy tarixiy merosi, an'analari, o'ziga xos tabiati, ya'ni turistik resurslarga boyligi buning tasdig'idir.

Respublikamiz Prezidenti SH.Mirziyoevning ko'plab chiqishlarida O'zbekiston turizmning katta salohiyatga ega ekanligini ta'kidlab "Go'zal geografik va tabiiy sharoitlar Respublika hududida ekologik turizmni rivojlatirish uchun g'oyat qulaydir. Bu borada mamlakatning tog'li hududlarida joylashgan, zamonaviy jihozlangan sayyohlik majmualarida qishki va noyob syyohlik dasturlari tashkil etilgan. Sayyohlikning yangi yo'nalishi – yirik qo'riqxonalar va bog'lar hududida tashkil etilgan tabiatshunoslik turizmi rivojlanmoqda...". deya ta'kidlab o'tdi.

Albatta turizmni shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog'liqdir. Mamlakat qanchalik turli – tuman turistik resurslarga ega bo'lsa, turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi. Turizm respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'ziningmunosib o'rniga ega bo'lishiga erishishimiz hozirgi kunning asosiy vazifasidir.

Hozirgi kunda turizm bo'yicha mutaxassislarni talab darajasida tayyorlash muhim masaladir. SHunga ko'ra o'quv rejasiga «O'zbekistonning turistik resurslari» fani kiritilgan bo'lib, mazkur fanda turizmni tashkil etishga asos bo'luvchi mamlakatimizning turistik resurslari o'rgatiladi.

Mazkur yaratilgan ma'ruzalar kursi birinchi galda turizm yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib ayrim nuqsonlar ega bo'lishi mumkin, shu sababdan oldindan kitobxonlardan uzr so'raymiz.

## I. Mavzu. Mintaqaviy turizm va turistik resurslar fanining predmeti,maqsadi va vazifalari

Reja:

1.1. O’zbekistonda turizmni mohiyati va uni mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri.

1.2. Mintaqaviy turizm va turistik resurslar fanining predmeti va ob’ekti.

1.3. Mintaqaviy turizm va turistik resurslari fanining maqsadi va vazifalari.

### 1.O’zbekistonda turizmni mohiyati va uni mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri.

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo’jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o’zining munosib o’rniga ega bo’lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo’yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. CHunki mamlakatimiz jahon tsivilizatsiya o’choqlaridan biri sifatida, o’zining asori-atiqalari bilan mashhurdir. Bizning madaniyatimiz dunyo xalqlari san’at, arxitektura, shaharsozlik va ko’pgina sohalarga o’lkan hissani qo’shgan. Tarixda ma’lumki, mintaqaning rivojlanishida ma’lum darajada turizmning ham hissasi bo’lgan. CHunki, mamlakatimiz «Buyuk ipak yo’li» markazida joylashgan, shuning uchun savdo-sotiq va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar rivojlangan bo’lib, ulardan tushgan daromatlar mamlakat xazinasiga katta ulush qo’shgan.

Mustahkam ko’p tarmoqli iqtisodiyotga ega bo’lish uchun iqtisodiy qaram bo’lmaslikkina emas, balki xar bir davlat o’z iqtisodiyotini mustaqil yaratishga va rivojlantirishga xarakat qilishi lozim. Bu jarayon davrida ushbu davlat halqning turmush darajasi yomonlashmasligi, hamda jamoatchilikdan talab qilinadigan sarf xarajat juda kam miqdorni tashkil qilishini maqsadga muvofiq deb xisoblaydi. Har qanday davlat uchun esa turizm ana shunday amaliy yo’nalishlardan biri xisoblanadi, ayniqsa xalqaro turizm iqtisodiyotning boshqa muhim manbaa tarmoqlariga nisbatan katta sarmoya talab qilmaydi.

Ayni vaqtda milliy iqtisodiyotimizda turizmning o’rniga nazar tashlasak, shu narsa ayon bo’ladiki mavjud resurslardan har doim ham samarali foydalanishga erishilmayapti. Mamlakatimizda turizm rivojlanishi jamiyatning yangilanish davriga to’g’ri kelib, u asta-sekinlik bilan sodir bo’layotgan o’zgarishlar jarayonini hisobga olganholda uning sifatini yanada yaxshilashga to’g’ri kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi turizm sohasi bilan ham bog’liq. SHuning uchun ham, bozor iqtisodi asosida xo’jalik yuritishga o’tayotgan mamlakatlarda halqaro turizmga katta e’tibor qaratish katta ahamiyatga ega.

O’zbekiston sharoitida turizmni hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish uchun yetarlicha turistik resurs imkoniyatlari borligini hisobga olsak, u holda bu sohani iqtisodiyot uchun, umuman jamiyatning rivojlanishi uchun g’oyat muhim ahamiyati borligi ma’lum bo’ladi. Ayni vaqtda, respublikamizda turizmni rivojlanishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarga, hamda mavjud resurslardan samarali foydanalish bilan bevosita bog’liqdir.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillardan boshlab iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohatlar va yangilanishlar boshlandi. SHu o’tgan davr mobaynida, mamlakatimiz o’z iqtisodiyotini rivojlantirishda jahon tajribasidan keng foydalanmoqda. SHu o’rinda turizm sohasida ham tub islohatlar olib borilib, davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezdentining 1992 yil 27 iyuldagi «o’zbekturizm» milliy kompaniyasini tashkil etish», 1995 yil iyuldagi «Buyuk ipak yo’lini tiklash va xalqaro turizmni rivojlantirishda O’zbekiston Respublikasining faol qatnashishini ta’minlash»ga oid farmonlari, 1997 yil Butunjahon Turistik Tashkiloti (BTT) ekspertlar guruhi bilan «O’zbekturizm» milliy kompaniyasi hamkorligidagi «O’zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirish rejasi», 1999 yil qabul qilingan «Turizm to’g’risida»dagi qonun hamda «Turizmni 2005 yilgacha rivojlantirish dasturi», Vazirlar Mahkamasining 2001 yildagi «CHimyon-CHorvoq kurort zonasida tabiat boyliklarini saqlash, sog’lomlashtirish va dam olishni rivojlantirishni tartibga solishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida»gi qarori turizm sohasini rivojlanishiga katta yo’l ochmoqda.

YUqoridagi qaror va Farmonlar asosida shu davr mobaynida respublikamizning ko’pgina mintaqalaridagi tarixiy, diniy obidalar, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjidu madrasalarini qaytadan tiklash va ta’mirlash ishlari keng miqiyosda amalga oshirildi. Buning natijasida turistik resurslarimiz yanada ko’paydi hamda yaxshilandi.

Turizm faoliyatini yaxshilash maqsadida tashkil etilgan yagona siyosatni amalga oshiruvchi maxsus davlat organi – «O’zbekturizm» milliy kompaniyasi qoshida viloyat va mintaqa filiallari ochildi. 1993 yil Bali (Indoneziya) shahrida bo’lib o’tgan Butunjahon turistik tashkilotini (BTT) 10 sessiyasida «O’zbekturizm» miliy kompaniyasi ushbu nufuzli tashkilotga to’la huquqli a’zo bo’ldi (To’xliyev, 1996).

1995 yil BTTning qohirada o’tkazilgan navbatdagi 11- sessiyasida o’zbekiston «Atrof muhitni muhofaza qilish kometeti»ga a’zo bo’ldi va Istambuldagi 12- sessiyasida esa Markaziy Osiyo mintaqasi «Buyuk ipak yo’li» dasturida mamlakatimizning o’rni alohida ta’kidlab o’tildi. SHuningdek, YUNESKOning O’zbekistondagi qarorgohi, madaniyat vazirligi va Fanlar akamediyasi bilan hamkorlikda «Meros» dasturi asosida «Buyuk Ipak yo’li»da joylashgan tarixiy, arxitektura, arxeologik va boshqa yodgorliklarni tiklash, ta’mirlash va ilmiy o’rganish bo’yicha amaliy ishlar qilinishi bevosita respublikada turizm rivojlanishi uchun katta turtki bo’ldi (A.S.Soliyev, M.R.Usmonov, 2005).

jadval - 1

*O’zbekistonning turistik salohiyati*

| **Noyob madaniy-tarixiy meros** | **Xilma xil noyob tabiiy - iqlimiy ko’rkam joylar** |
|---|---|
| Jahon tsivilizatsiya markazlaridan hisoblangan, «Buyuk ipak yo’li»ning markazida joylashganligi sababli buyuk tarixiy merosga ega ekanligi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning mavjudligi va boshqalar. | Mintaqada tabiatning turli ko’rinishlari – cho’llar, dashtlar, vohalar, tog’ va muzliklarning mavjudligi. Undan tashqari noyob o’simlik va hayvonat olami muhofaza etiladigan milliy bog’, qo’riqxona va |

| | |
|---|---|
| | buyurtmalarning faoliyat ko'rsatayotgani turizmni rivojlantirish resurslari hisoblanadi. |
| **Rekreatsion-gidromineral resurslar** | **Diniy – tarixiy diqqatga sazovar joylar** |
| Mamlakatimiz bir qancha mineral suv manbalariga ega. Bu o'z navbatida sog'lomlashtirishga imkon beradi. Jumladan, Janubiy Olamushuk shaharchasi va Polvontoshda (Andijon viloyati) , Buxorodagi "Citorai Mohi Xossa" Jizzax viloyatidagi Gagarin va G'allaorol shaharlarida, Muborak shaharchasida (Kashqadaryo viloyati), Kattaqo'rg'on shahri Nagornыy temiryo'l stantsiyasida (Samarqand viloyati) sanatoriya-kurort, profilaktika muassasalarida bu resurs turidan keng foydanilmoqda. | Diyorimiz Ulug' Islom dini rivojlanishiga hissa qo'shgan ulamonlar vatani hisoblanadi. Imom Al-Buxoriy, Al-Motrudiy, (Samarqand), At-Termeziy (Sur-xondaryo), Naqshbandiy (Buxoro) kabi ulug' qadamjolarning mavjudligi diniy turizmni rivojlanishi uchun asos hisoblanadi |

| **Noyob xalq urf-odatlari, marosimlari** |
|---|
| Boy o'tmishga ega xalqimizning takrorlanmas urf-odat, an'analarga ega. Xalq ijodiyoti namunalari, hunarmandchilik mahsulotlari hech kimni befarq qoldirmayi. Undan tashqari folkrolshunoslikni rivojlanganligi sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. |

Dengiz va okeanlarga chiqish imkoniga ega bo'lish, sayohatchilarning davlatlarga jalb etilishida alohida o'rin tutadi, biroq O'zbekiston bunday imkoniyatlarga ega bo'lmasligiga qaramay, u Markaziy Osiyoning yo'llar tuguni chorrahasida joylashgan. Bu esa nafaqat harakatlarning, tovar almashish, tkxnologiyalar va uskunalar ayirboshlash uchun, balki turizmni rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratadi. Masalan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, SHaxrisabz kabi qadimiy shaxarlarimiz bugungi kunda butun dunyoga mashxur Respublikamiz xududidagi 4 mingdan ortiq arxitektura yodgorliklari YUNESKO himoyasiga olingan. O'zbekistonning rekreatsiya resurslari yil mobaynida sayohatchilarning qabul qilish va ular uchun turli xildagi sayohat yo'nalishlarini tashkil etish imkoniga ega. Ko'pgina xorijiy ekspertlarning fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasi, ayniqsa, O'zbekiston kuchli turistik potentsialga ega, bu esa ko'pgina sayohatchilarni oqimini o'ziga jalb etadi. Bu esa o'z navbvtida, bizning respublikaga keladigan xorijiy turistlar sonini ko'paytirish, ularga yuqori malakali servis xizmatlarini tashkil qilishgina emas, balki vatandoshlarimizning boshqa davlatlarga turistik yo'nalishlar bo'yicha chiqishlari uchun qulay sharoitlarni ham yaratadi. Bizning davlatimizda turizm faqatgina tarixiy obidalari borligi uchungina emas, balki hukumatimiz tomonidan e'tiborni kuchaytirilganligi, turistik biznes sohasiga oid bir qator me'yoriy – xuquqiy hujjatlarning qabul qilinaytgani sababli ham rivojlanib borishi lozim.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turizmni iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida shakllantirish uchun hozirgi kundagi qilinadigan xarajatlar albatta kelajakda o'z samarasini beradi. Albatta, bunda O'zbekistonga keladigan sayyohlarning qancha vaqt turishi yoki davomiyligi ham katta ahamiyatga ega. SHuning uchun turistik resurslarni

aniqlash va undan samarali foydalanish turistik infratuzilmani shaklantirish va turistik marshrutlarni kengaytirish, turistik xizmatlarni yaxshilash kabi ko'plab muammolarni hal etishimiz kerak. O'zbekiston ko'pgina turistik resurslarga ega mintaqadir. Ulardan madaniy – tarixiy, ekologik turizm resurslari hamda diniy turizm resurslari alohida ajralib turadi.

1.2. **Mintaqaviy turizm va turistik resurslar fanining predmeti va ob'ekti.**

Ma'lumki, jahon turizmi bugungi kunda iqtisodiyot sohalari ichida daromad keltirishi bo'yicha eng yuqori o'rinlardan birini egallaydi, mehnatga layoqatli aholini ish bilan banlligini ta'minlab, ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishini taqazo etadi va shu jihatdan ham u har doim barqaror rivojlanishga moyil. SHuning uchun ham turizm sohasi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda, bu sohani harakatga keltiruvchi mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish yo'llarini qidirmokda va uni barqaror rivojlanish jarayonlariga e'tiborini qaratishmokda. SHuning hisobiga u yoki bu mamlakatga turist sifatida tashrif buyuruvchilar soni yildan – yilga ko'payib bormoqda. Va bu jarayon har doim o'zining ob'ektiv va sub'ektiv rivojlanish qonuniyatiga ega bo'lib, undan maqsadli foydalanish lozim bo'ladi. Bunga amal qilgan ko'pgina mamlakatlarda turizmning rivojlanishi yuqori samara berib kelmokda.

Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab, O'zbekistonda ham turizmni shakllantirish va qaror toptirishga katta ahamiyat berilib, bu jarayonda turistik resurslardan, ayniqsa mintaqa xududlarida mavjud bo'lgan salohiyatdan samarali foydalanish yo'l – yo'riqlari qidirilmoqda va uning imkoniyatlari o'rganilmokda.

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik resurslarga boy hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimizning betakror tabiati, tog' va tekislik, daryolari, cho'l va vaholari, ko'p va turli landshaft zonalari asosiy rekreatsiya resurslaridir. Mamlakatimizda yosh tarmoq hisoblangan turizm, kundan kunga rivojlanmoqda. Bu esa, ko'pgina ish o'rinlari ochish imkoniyati mavjudligini bildiradi.

O'zbekistonda tarixiy – madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7 mingdan ortiq ob'ektlar mavjud. Ekspert B. To'raev fikricha ulardan 545 tasi – arxitektura, 578 tasi – tarixiy, 1457 tasi – san'at yodgorliklari va 5500 dan ortig'i arxeologik ahamiyatiga jalb etilgan. 200 dan ortiq ob'ektlar ta'mirlanmoqda, 500 tasi esa ta'mirlanishga muhtoj. Ko'p mamlakatlar tajribasiga ko'ra, ta'mirlanish jarayonini o'zi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan ortiq mezeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat ob'ektlari miqdori bo'yicha Toshkentda -144 ta, Samarqandda – 118 ta, Buxoroda -201 ta, Xiva -310 tani tashkil etadi. Ammo asosiy turistik resurslarimizdan turizm maqsadidafoydalanish tashkil etilmagan. SHu sababdan milliy madaniy va tabiiy merosimizni turizm faoliyati maqsadida har jihatdan o'rganish va muhofaza etish o'ta muhimdir. YUNESKOning

«Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish» konventsiyasida har bir davlat o’z hududidagi madaniy va tabiiy merosini muhofaza etishi, uni targ’ibot etishi, bunda o’zining samarali siyosatini olib borishi lozimligi ta’kidlanadi.

O’zbekistonning turistik resurslar fanining ob’ekti sifatida mamlakatimizdagi barcha turizm faoliyatida foydalanish mumkin bo’lgan turizm ob’ektlari hisoblanadi.

Mamlakatimizning betakror tabiat go’shalari, ya’ni tog’ vodiylari, cho’lu-dashtlari, boy madaniy-tarixiy merosi, ajoyib tarixiy arxitektura yodgorliklari, urf-odatlari, milliy resurslarning bisyorligidan darak beradi.

Fanning ob’ektidan kelib chiqib, mazkur fanning predmeti kelib chiqadi. Bu fanning predmeti turistik resurslarni, turlari va mohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, hudud bo’yicha joylanish xususiyatlarini, milliy iqtisodiyotda samarali foydalanishni, ekologik-iqtisodiy xususiyatlarini, turizm faoliyatida foydalanish va muhofaza qilishni o’rganishdan kelib chiqadi.

1.3.Mintaqaviy turizm va turistik resurslari fanining maqsadi va vazifalari.

Hozirgi davrda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholini ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilashda yangi ish o’rinlarini ochish katta ahamiyatga ega. SHuning uchun qaysi tarmoqlarda yangi ish o’rinlari ochish imkoniyati bo’lsa, undan samarali foydalanish lozim. Bugungi kunda turizm jahondagi eng ko’p foyda keltiruvchi biznes ko’rinishlaridan biriga aylangan. U bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo’lib, danyoning ko’pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo’jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo’jaligi, iste’mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o’z o’rniga ega bo’lmoqda. Iqtisodiyotimizda turistik resurslardan samarali foydalanishda sohada yangi ish o’rinlari ochish katta ahamiyatga ega. Har bir hududda turizm shakllanar ekan, bu hududda turizm faoliyatida foydalanilayotgan turistik resurslar mavjud bo’ladi. Bu resurslarni turizmni tashkil etish asosi desak bo’ladi. Lekin, har bir hududning resurs salohiyati resurslarning miqdor va sifat jihatiga ko’ra farq qiladi. SHu sababli turistik resurslarni har jihatdan o’rganish, baholash, umuman olganda turizm faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini, tahlil etish ma’lum mintaqada turizmni rivojlantirish istiqbolini belgilaydi. YUqoridagi mulohazalardan kelib chiqib bu fanning maqsadi mamlkatimizning turizm salohiyatini belgilash nuqtai nazaridan turistik resurslarimizni har taraflama o’rganib chiqishdir. SHu jihatdan kelib chiqib turizm faoliyatida turistik resurslardan samarali foydalanish, uni iqtisodiy asoslarini yaratish bu fanning asosiy vazifasidir. Undan tashqari, Vatanimizning kelajagi hisoblangan yoshlar ongida Milliy merosimizga, jumladan, madaniy-tariziy, tabiiy yodgorliklar va milliy an’analarimizga bo’lgan munosabatni shakllantirish fanning asosiy maqsadidir. Xalqimiz milliy boyligimiz hisoblangan turistik ob’ektlarimizni, tabiatimizni qanchalik asrab-avaylasa, shunchalik mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari oshib boradi. Fanning vazifasi - turistik resurslar haqida tushuncha berish, turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini o’rganish, O’zbekistonning turistik resurslarini mintaqalar bo’yicha joylanishi, turistik rayonlashtirish hamda, mamlakatimiz turistik resurslarini muhofaza qilish tadbirlari to’g’risida talabalarda tasavvur hosil qilishdir.

*Nazorat savollari:*

1. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish mohiyati nimada.
2. Turizmni mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri qanday.
3. Mintaqaviy turizm va turistik resurslar fanining predmeti va ob'ekti.
4. Mintaqaviy turizm va turistik resurslar fanining maqsadi va vazifalari ni malardan iborat.

## II. Mavzu. Mintaqaviy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, ularning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati

**Reja:**

2.1. Turistik resurslarning ijtimoiy mazmuni va uni jamiyatdagi o'rni.
2.2. Turistik resurslarning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati.
2.3. O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida turistik resurslarning ahamiyati.

### 2.1. Turistik resurslarning ijtimoiy mazmuni va uni jamiyatdagi o'rni

Turizm bugungi kunda jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi sohaga aylandi. So'nggi yillarda uning jahondagi tovarlar va xizmatlar savdosining 10 % to'g'ri kelmoqda. SHuning uchun ko'pgina mamlakatlarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirishga davlat darajasida qarab, barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Mamlakatimiz turizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlariga ega. Birinchi navbatda, turistik resurslarga boyligi buning tasdig'idir. Albatta turizmni shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog'liqdir. Mamlakat qanchalik turli – tuman turistik resurslarga ega bo'lsa, turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi.

Turistik resurslarning turizmdagi ahamiyati uning ijtimoiy – iqtisodiy mazmunidan kelib chiqadi. Turizm ijtimoiy sohaning bir qismi bo'lib, uning asosiy faoliyatlarida iste'molchiga iste'mol jarayonida moddiy va nomoddiy muhitni yaratish uchun xizmatlar qilish, dam olish va faoliyat ishlarini o'zgartirish, almashtirish uchun sharoitlar yaratish, sog'liqni muhofaza qilishni ta'minlash, shuningdek, aholining umumiy ma'lumoti va madaniy – texnik darajasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda turistik resurslar orqali dam olishni tashkil qilish, insonning hayotiy kuchlarini tiklash, bo'sh vaqtdan unumli, to'g'ri foydalanish ta'minlanadi. SHuningdek, turistik resurslar shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatchining intellektual darajasini oshirishda, asabiy holatini yaxshilashda, shaxs sifatida tavsifini berishda xalqaro, davlatlararo va va shaharlararo munosabatlariga ijobiy ta'sir qiladi. Undan tashqari turistik resurslar turizmni ijtimoiy samaradorligini ta'minlaydi. Bu soha bevosita aholining ijtimoiy sohaga muhtoj qatlamini, ya'ni maktab o'quvchilarini, nafaqaxo'rlarni, talaba – yoshlarni, nogironlarni, keksa nuroniylari kabi aholining shunday toifasini sayohat qildirish tushuniladi. Eng muhimi ushbu sohaga qo'yilgan investetsiya foyda uchun emas, balki ijtimoiy qo'llab – quvvatlash uchun mo'ljallangan bo'ladi).

Aholining salomatligi va atrof-muhit sifati o’rtasida bevosita va bilvosita aloqalar mavjud. Masalan, Jahon sog’liqni saqlash tashilotining ma’lumotlariga ko’ra, axoli salomatligi 50-50% ularning iqtisodiy ta’minoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof muhitning holatiga, 20-30% tibbiiy xizmat darajasiga bog’liq bo’ladi. Xavoning ifloslanishi aholi salomatligining 43-45 % yomonlashuviga sabab bo’ladi. Zamonaviy gigiyena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining o’rtacha darajasi 20% ga oshishini aniqlagan. Bunday vaziyatda rekreatsiya faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishning muhim tarmog’iga aylangan bo’lib, u aholining ishdan bo’sh vaqtidan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi. Rekreatsiya inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo’nalishni qamrab oladi. Unda dam olish va sog’lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta’lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o’z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog’lomlashtirish, umrni o’zaytirish, insonning jismoniy va ma’naviy darajasini oshirish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni oshirish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan rekreatsiya faoliyati (turizm )shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasalliklarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdorligini oshirishnigina ta’minlab qolmay, balki 20-50 % ga yurak-tomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo’lishining oldini olishni ta’minlaydi.

O’zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o’ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg’ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog’ tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog’ daryolariga boy. Tog’ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko’pligi, ajoyib tog’ manzaralari nafaqat O’zbekiston fuqarolarining, balki Qozog’iston, Qirg’iziston va Tojikiston kabi qo’shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm ob’ektlariga aylanishiga imkon beradi. O’zbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga ko’plab odam tashrif buyuradi. Hozirgi kunda bu manbalardan 121 tasi faoliyat yuritmoqda. CHimyon va To’rtko’l kabi tog’ - chang’i sportini rivojlantirish mumkin bo’lgan bir qancha tog’ maskanlari mavjud. Baland qorli tog’lar alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog’ turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. SHifobaxsh giyohlarning ko’pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va o’simliklar yig’ish uchun turlarni tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Bu esa ko’plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg’otadi.

Turistik resurslar xalq madaniyati, urf-odatlari, rusumlari, ma’naviyatini ko’rsatuvchi, belgilovchi milliy boylikdir. Xattoki, buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur “Bizni qudratimizni bilmoqchi bo’lsangiz, biz qurdirgan inshootlarga boqing” deb bejiz ta’kidlamagan. Ana shu qadimiy arxitektura yodgorliklari, madaniy ob’ektlar hamda atrof-muhit, tabiatning qay ahvolda ekanligiga qarab o’sha joyning aholisining ma’naviy-madaniy darajasini belgilash mumkin.

## 2.2. Turistik resurslarning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati

Turizmni barqaror rivojlanishida turistik resurslarning iqtisodiy mazmuni yotadi. Hozirgi kunda ko’pgina mamlakatlarda turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanmoqda.

Hozirgi davrda jahon xo’jaligida bu sohada band ishchi kuchining ulushi yildan – yilga oshmoqda. Butunjahon sayyohlik va turizm kengashi (World Travel and Tourism Council) ma’lumotlariga ko’ra 2010 yil turizm sohasida 225 mln. ish o’rni mavjud bo’lgan bo’lsa, 2020 yilga kelib, yana 130 mln. ish o’rni ortdi. Hozirgi vaqtda turizm sohasida jahondagi mavjud har 10 ta ishchi kuchining biri band. Ayrim mamlakatlarda bu ko’rsatgich yanada yuqori. Masalan, Ispaniyada turizm sohasida iqtisodiy faol aholining 8,3 foizi, Barbadosda – 10,5 foizi, Maltada – 15 foizidan ortig’i band.

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo’jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o’zining munosib o’rniga ega bo’lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo’yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi.

Turizm turistlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Mutahassislar turistlarni 6 ta asosiy ehtiyojlarini ajratadi:

1. Rekreatsiya, dam olish
2. Og’ayni va tanishlarini ko’rish bo’yicha;
3. Ish va professional maqsadlar bo’yicha;
4. Davolanish;
5. Diniy va ziyoratchilik bo’yicha;
6. Insonlarning jismoniy, iqtisodiy va ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqibva boshqa maqsadlar bo’yicha.

YUqoridagi ehtiyojlarni qondirishga turistik faoliyatni amalga oshirish yotadi. Bu o’z navbatida iqtisodiy turizm hisoblanib, uni qo’yidagilar asosida shakllantiriladi:

- turistik xizmatlarni ishlab chiqish;
- turistik mahsulotni shakllantirish;
- turistik mahsulotni sotish;
- turistik ehtiyojni qondirish.

Turizm iqtisodiy kategoriya bo’lib, davlatlardan kelgan turistlarga mahalliy xizmatni sotadi, o’z ishchilariga ish-joy sharoitini yaratadi, kirib kelayotgan valyutadan daromat oladi. Bir tomondan turizm sohasi turistlarga bevosita xizmat qiluvchi tarmoqni taklif qiladi, ikkinchi tomondan turizm bozoriga yo’naltirilgan xizmat qilish va moddiy ishlab chiqarish kabi bir-biriga qo’shilgan tarmoqlarning o’zaro bog’langan tizimni belgilaydi.

Turizm – bu ishlab chiqarish va iste’molchining yakdil jarayonidir. Iste’mol ob’ekti turistik tovar va xizmatlar hisoblanib, iste’mol davrida iste’molchining bu tovarlar va xizmatlar qoniqtirishi lozim. Bunda turizmning iste’mol qiymati foydali buyumlar tovarlar, qulaylik va tabiat manzaralari va xizmatning har xil usulidan kelib chiqadi.

Turistik iste’mol bir tomondan tovarga va pullik xizmatga ega bo’lishi, ikkinchi tomondan tovarlar ko’rinishiga ega bo’lmagan joy, yaxshi muhitni o’z ichig oladi.

Turizmni iqtisodiy samarali keluvchi turistlar soni bilan bevosita bog'liq. Turistlar sonni oshib borishi bilan, turizm orqali kelayotgan daromad ham oshib boradi. O'z navbatida turistlar sonini oshishi turistik qiziqshni orttiradigan ob'ektlarga turistik resurslarga bog'liqdir.

Turizmning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydalidir. Xususan u turizmni rivojlantrish evaziga o'z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi va unga erishadi, xalqaro aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko'payadi va h.k. Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, qattiq valyuta tushumini ta'minlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli shou dasturlarda qatnashadilar. Bularning hammasi naqd pul, ko'p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko'payishini ta'minlaydi. SHu sababdan turistik resurslarning turizm faoliyatida iqtisodiy mazmuni oshib boradi.

SHunday qilib, turistik resurslar iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bulardan tashqari resurslar mamlakat hayotiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Buning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta'minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularning turli an'ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining an'ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar vaunitilganlarini tiklaydilar.

Turistik resurslarning iqtisodiy ahamiyati yana shundan iboratki, mamlakat tabiati ham turizmni rivojlantirish katta foyda beradi. Xususan, mamlakat ekologik barqarorlikni ta'minlash tadbirlari qo'llaniladi, tabiat resurslaridan turistlarning rohatlanishi uchun foydalanladi, manzarali maydonlarning yaratilishi imkoniyatini tug'diradi, suv, havo, o'rmonlarning tabiiy holda saqlanishi uchun harakat qilinib, turistlarni jalb qilinadi.

### 2.3. O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida turistik resurslarning ahamiyati

O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o'ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog' tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog' daryolariga boy. Tog'ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi, ajoyib tog' manzaralari nafaqat O'zbekiston fuqarolarining, balki Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi qo'shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm ob'ektlariga aylanishiga imkon beradi. O'zbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga ko'plab odam tashrif buyuradi. Hozirgi kunda bu manbalardan 121 tasi faoliyat yuritmoqda. CHimyon va To'rtko'l kabi tog' - chang'i sportini rivojlantirish mumkin bo'lgan bir qancha tog' maskanlari mavjud. Baland qorli tog'lar alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog' turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. SHifobaxsh giyohlarning ko'pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va

o'simliklar yig'ish uchun turlarni tashkil etishga ikmoniyat yaratadi. Bu esa ko'plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg'otadi. Turizmning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, O'zbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Infratuzilmaning rivojlanmaganligiga raqobat va takomillashishni rag'batlantirish imkonini bermagan avvalgi ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sababchi hisoblanadi. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini ko'paytirish va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko'paytirish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoli turizmning rivojlanishi va mamlakat imidjini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishmaguncha turizmga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Respublikaning turistik salohiyati to'g'risida ob'ektiv ma'lumotlar va reklama umuman bo'lmagan. Turistik imkoniyatlar sobiq strukturalarning tor manfaatlari orqali bir tomonlama yoritilgan. Natijada turizm, xizmat ko'rsatish va ko'ngilocharlik infratuzilmasi rivojlanmagan, turistlarga xizmat ko'rsatish darajasi past bo'lib, jaxonning yetakchi turistik korxonalari bilan aloqalar ko'ngildagidek emas. O'zbekiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan. Toshkent shahri va viloyatida respublika turizm salohiyatining 36 % qismi jamlangan. Yirik infratuzilma salohiyatiga to'rt viloyat (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm) va Toshkent shahri ega, Farg'ona vodiysi 19 % turizm infratuzilmasiga ega.

Turizmga faqat bo'sh vaqtida dam olish, uni faol o'tkazish usuli sifatida qaralishi ham uning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Ko'p hollarda boshqa hududlarga sayr qilish, tomosha, o'rganish kabi holatlar odamlarni xizmat safariga jo'natganda ham sodir bo'lishi mumkin. Lekin bu yerda maqsad ma'lum ishni bitirishga qaratilganligi tufayli uni turizmga kiritib bo'lmaydi. Bunda bu narsaga urg'u berish kerakki, turizm bilan bog'liq tadbirlar odamlarning bo'sh vaqtida sodir bo'lishi lozim ekan. Xulosa qilib aytganda, odamlarimizning bo'sh vaqtini boshqa joyda o'tkazishi (pul topish maqsadidagi harakat bunga kirmaydi) turizmga kirar ekan.

Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, qattiq valyuta tushumini ta'minlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli tomoshalar qiladilar. Hammasi naqd pul, ko'p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko'payishini ta'minlaydi.

Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy sohasi hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. SHu tufayli ushbu sohaga davlat alohida e'tibor berib ma'lum imtiyozlar ham belgilaydi. Odamlar bu imtiyozlardan faqat turist bo'lganliklari uchun foydalanadilar. Bu ham turizmning o'ziga xos xususiyati va katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi. Imtiyozlar turistlarning bojxona postlaridan o'tishda, soliq to'lashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, avia va temir yo'l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishlarda namoyon bo'ladi.

SHunday qilib, turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida o’ziga xos xususiyatlarga ega ekan. Bulardan tashqari turizm mamlakat xayotiga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Turizmdan birinchi galda turistlar uchun foyda qiladilar, ya’ni ularning dunyoqarashi kengayadi, jismoniy jihatdan sog’lomlashadi va ma’naviy boyligi ko’payadi, atrof muhitni idrok qilish bilan ulardan ta’sirlanish orqali rohatlanadi.

Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta’minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo’ladilar va ularning turli an’ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati ega bo’ladilar, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo’ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o’zlarining an’ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar, mehmon kutishning jozibador an’analarini tiklash bilan birga mehmondorchilik an’analarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham mutassil o’sib boradilar.

Turizmning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydalidir. Xususan u turizmni rivojlantrish evaziga o’z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko’payishini ta’minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga harakat qiladi va unga erishadi, xalqaro aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko’payadi va h.k.

Atrof muhitga ham turizmni rivojlantirish katta foyda beradi. Xususan, mamlakatning biomaydoni asl holida saqlanishiga harakat qilinadi, ekologik barqarorlikni ta’minlash tadbirlari qo’llaniladi, tabiat resurslaridan turistlarning rohatlanishi uchun foydalanladi, manzarali maydonlarning yaratilishi imkoniyatini tug’diradi, suv, havo, o’rmonlarning tabiiy holda saqlanishi uchun kurashiladi.

Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. *Ijobiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:*

- ish o’rinlarini yaralishi;
- daromadni ko’payishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshishi ;
- urbanizatsiya jarayonini tezlashishi, shaharcha xizmat, infrastruktura, madaniyat tashkilotlarini rivojlanishi;
- ijtimoiy va madaniy jarayonlarin tezlashishi;
- mahalliy madaniyat o’choqlarning yaralishi, xalq ijodiyoti, an’analari, rusumlarini rivojlanishi;
- qishloq xo’jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabni oshishi;
- mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;
- tabiiy komplekslarni kengayishi
- mintaqa jozibadorligini oshishi;
- mahalliy madaniy hayotni jonlanishi;

*Salbiy xususiyatlari quyidagilar:*

- malakasiz mehnat ulushining o’sishi;
- umumjamiyat normasini buzulishi oshishi; (ichkilik, fohishabozlik,

bezorilik)

- oila “eroziyasi” (oilaviy ajralishlar, yoshlarni hayotga yengil qarashi);
- mahalliy aholi va turistlar o’rtasidagi kelshmovchiliklar va boshqalar.

*Nazorat savollari:*

1. Turistik resurslarning ijtimoiy mazmunini tushuntiring.
2. Turistik resurslarning jamiyatdagi o’rni nimada.
3. Turistik resurslarning iqtisodiy mazmuni tushuntiring.
4. Turistik resurslarning iqtisodiyotdagi ahamiyati.
5. O’zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida turistik resurslarning ahamiyati nimada.

## *III Mavzu. Mintaqaviy turizmdan foydalanishga ta’sir etuvchi omillari*

Reja:

3.1. Turistik resurslardan foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish ahamiyati.
3.2 Barqaror omillar va ularni turlari.
3.3 O’zgaruvchan omillar va ularni turlari.
3.4 Turizm infrastrukturasi.

### 3.1.Turistik resurslardan foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish ahamiyati

Jahon bo’yicha xalqaro turizmni rivojlanishi mintaqalar bo’yicha bir xil taqsimlanmagan. Albatta, bu o’sha mintaqaning turistik-rekreatsion resurslarga qanchalik ega ekanligiga, undan tashqari turizm infratuzilmasi va industriyasishakllanishi uchun shart- sharoitning qanchalik qulayligiga ham bog’liqdir.

jadval - 3

**O’zbekistonda turistik resurslarga bo’lgan talab va undanfoydalanish.**

| **Ресурслар** | **Маҳаллий саёҳатчилар талаби** | **Хорижий саёҳатчиларнинг талаби** | **Ресурс салоҳияти** | **Фойдаланиш даражаси** |
|---|---|---|---|---|
| Рекреация ва экологик туризм ресурслари | паст | юқори | ўрта | паст |
| Маданий ва этнографик туризм ресурслари | ўрта | юқори | юқори | паст |
| Тарихий, меъморий ва археологик танишув ресурслари | ўрта | юқори | юқори | ўрта |
| Диний туризм | юқори | ўрта | юқори | ўрта |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| ресурслари | | | | |
| Экзотик муҳит ва ҳар хил саргузашт ресурслари | паст | ўрта | ўрта | паст |
| Сервис сифати | паст | юқори | паст | паст |

Turistik resurslar asosiy tuzilishiga ko'ra qo'yidagicha tavsiflanadi:

- jozibadorligi, ko'rkamligi;
- iqlimiy sharoiti;
- borish mumkinligi;
- ekskursion ahamiyati;
- manzarali tuzilishi;
- ijtimoiy – demografik tarkibi;
- qayta ishlab chiqarish darajasi;
- foydalanishga qodirligi;
- noyobligi va boshqalar.

YUqori jadvaldan ko'rish mumkinki, mamlakatimiz turistik resurslariga bo'lgan talab yuqoridir. SHu sababdan kelib chiqib, turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni har jihatdan tahlil etish o'ta muhimdir. Turizmni rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Asosiy omillarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Bular, ***barqaror*** va ***o'zgaruvchan*** omillar.

## 3.2. Barqaror omillar va ularni turlari

Barqaror (o'zgarmaydigan) omillar vaqt nuqtai nazardan kam o'zgarish xarakteriga ega. Bu omillarga tabiiy-iqlimiy, geografik, madaniy-tarixiy kabi omillar kiradi. SHular ichidan geografik omillarni tahlil etadigan bo'lsak, bu omillar sayyohlik marshrutlarini to'g'ri tanlash, trasportning qulayligi, rekreatsiya resurslarining bahosi, turizmni mavsumga qarab rivojlantirish kabi jihatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'z navbatida, geografik omillarni ikki guruhga bo'lish keng tus olgan. Bular:

- ***tabiiy geografik omillar;***
- ***iqtisodiy geografik omillar.***

Mintaqalarda xalqaro turizmni rivojlanishiga tabiiy sharoitning katta ta'siri bor. Hozirgi jamiyatimizning o'ta sanoatlashib borishi tufayli, insonlarning yovvoyi tabiatga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Tabiiy geografik omillar ko'pgina jihatlar bilan baholanadi. Quyida asosiylariga to'xtalib o'tamiz.

***Iqlim,*** turizmni davriyligiga ta'sir ko'rsatib, ayrim sohil bo'yi dam olish joylari yil bo'yi issiq iqlimga ega ekanligi (misol tariqasida Mavrikiy orollarini ko'rsatish mumkin) tufayli, uzluksiz turistlar bilan gavjum bo'lishiga olib kelgan. Tabiiy iqlim sharoiti turizm harakatini mavsumiy xarakterga aylantiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Tabiatda ob-havoning o'zgarishi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanish hodisalari, tabiat

injiqliklari turistlar oqimining keskin kamayishiga sababchi bo’ladi. SHu sababli turizmning eng rivojlangan mintaqalari yer sharining mutadil iqlim zonalariga to’g’ri keladi. Jumladan, O’rtaer dengizi, Qora dengiz, Karib dengizi, Adriatika dengizi, Boltiq dengizi, YApon dengizi, Janubiy Xitoy dengizi qirg’oqlarida joylashgan mamlakatlarda turizm xalqaro ahamiyatga ega.

***O’simlik va hayvonot olami*** **h**am katta qiziqish uyg’otuvchi omildir. O’rmonlar dam oluvchi va tabiat qo’yniga sayr qiluvchi sayyohlarni o’ziga tortadi. O’rmon o’zining kislorodga boy zahirasi bilan, sog’ligini tiklovchilar uchun muhim turistik ob’ekt hisoblanadi. SHu bois, botanika bog’lari, turli oromgohlar, milliy bog’lar sayyohlarning gavjum joylari hisoblanadi. Xorijiy sayyohlarni o’ziga ko’proq jalb qiluvchi omillardan biri - bu ekzotik (g’alati, ajoyib) hayvonlar yashaydigan joylar qo’riqxonalar, davlat buyurtmalari, milliy bog’lar, ov qilish uchun ajratilgan maxsus hududlardir. Bunday hayvonat va o’simlik dunyosining markazlari yuzdan ortiq bo’lib, Afrika, Osiyo, yevropa, Avstraliya, Amerika (AQSH, Kanada) ning sayyohat qilish mintaqalari va hududlari hisoblanadi.

***Suv resurslari*** hisoblangan okean va dengizlar, daryolar, ko’llar ham katta turistik imkoniyatlarga ega. Keyingi paytlarda dunyo okeani bo’ylab sayohatga chiquvchilar soni oshmoqda. Daryo va ko’llar ham o’ziga xos mikroiqlim xususiyatlariga ega bo’lib, kishilarning asosan mavsumiy dam olishi, suv sporti, baliq tutishi uchun ob’ekt vazifasini bajaradi. SHuning uchun hozirgi paytda ko’plab dam olish uylari ushbu turistik ob’ektlarga qurilmoqda. Okean va dengiz suvlarining cho’milishi uchun qo’lay bo’lgan qirg’oqlari tarkibiga quyidagi elementlar kiradi. Mikroiqlim, dengiz va okean suvlarining quruqlikka tutash bo’lgan joylarida suvning harorati, chuqurligi, suv to’lqinlari, ko’tarilishi, qaytishi, oqimlar, suvning shifobaxshligi, tozaligi, tiniqligi, dengiz suvi tagining relefi, suvdagi yirtqich qonxo’r baliqlar (akula) va hayvonlarning bor-yo’qligi h.k., qirg’oq chiziqlarining tuzilishi, plyajlardagi qumlar va yotqiziqlarning sifati, rangi, shakllari va qolaversa bir qator omillar ta’sir etadi.

***Relef,*** ikki xil ta’sir ko’rsatuvchi xarakterga ega bo’lib, uning noqo’layligi tufayli transport tarmoqlarini rivojlantirishga qiyinchilik to’g’diradi va turizm infratuzilmasini to’liq shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ikkinchi tomondan, tog’li hududlar asosiy rekreatsiya resurslaridan biri bo’lib xizmat qiladi. Tog’li, xush manzarali, murakkab relef tuzilishiga ega bo’lgan o’lkalar turistlar oqimini o’ziga ko’proq jalb qilishadi. Murakkab tog’ relfi landshafti estetik jihatdan tekislik, yassi hududlarga nisbatan turistlarni ko’proq jalb etish imkoniyatiga ega. Tog’li o’lkalar o’zining toza va sof havosi bilan ajralib, tog’ sportini rivojlantirish imkonini tug’diradi. SHveytsariya, Frantsiya, Avstriya, Germaniya, Italiya, CHexiya mamlakatlarida joylashgan dunyoga mashhur alp sayyohlik kurortlari bunga tasdiqbo’ladi.

Iqtisodiy geografik omillarga turizmning moddiy texnika bazasi, ya’ni mehmonxonalar fondi, umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran tarmoqlari), sport inshootlari, tomosha va sayr qilish, dam olish, bir qator servis xizmati ko’rsatish ob’ektlari ichki va tashqi kommunikatsiya tarmoqlari avtomobil, temiryo’l, havo yo’llari, dengiz va daryo transporti, aloqa vositalari, Internet tarmog’i kiradi. Iqtisodiy geografik

omillar mavjud resurslardan unumli foydalanishga ta’sir ko’rsatib, o’z navbatida quyidagilar orqali anilanadi:

- turstlarni qabul qiluvchi mamlakatlar, mintaqalar, hududlarning iqtisodiy-geografik o’rni, joylanishi;
- sayyohlarni qabul qiluvchi mamlakat (mintaqa, rayon)ning umumiqtisodiy darajasi;
- ichki turizmni rivojlanish darajasi;
- urbanizatsiya darajasi;
- turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning mehnat resurslari bilan ta’minlanish darajasi (malakali kadrlarning soni, ularning tayyorgarlik darajasi );
- ma’lum bir hududda rekratsion resurslarning qiymati, transport xizmatlari turi, oziq-ovqat mahsulotlarning narxi, mehmonxonalarda joylashish narxlari (xizmat ko’rsatish tarmoqlarini saviyasi);
- trasport, aloqa vositalarining hududda tutgan o’rin va holati bilan xarakterlanadi.

YUqoridagilarning har biri o’ziga xos ahamiyatga ega. Misol uchun, iqtisodiy geografik o’rnini qulayligi, mintaqaning asosiy turistik bozorlar, dunyo transport tarmoqlariga nisbatan qulay joylashganligini bildirib, shu mintaqa turizmini rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda mamlakat va hududning ***geografik o’rni*** ya’ni uning dengiz va okeanga yaqinligi, qirg’oq chiziqlarining xususiyati, turli xil suv, avtomobil va temir yo’llar bilan kesishish joyi, tog’li va o’rmon manzarali joylarga yaqinligi, ular bilan ta’minlanganlik darajasiga ham bog’liqbo’ladi.

Xalqaro turizmning rivojlanishida ***madaniy-tarixiy shart-sharoitlar,*** etnik shart-sharoitlar bilan qushilib ketadi. Arxitektura ob’ektlari, muzeylar, rasmlar galereyasi, mahalliy musavvirlar ishlari, tarixiy yodgorlik, obidalari ham xorijiy turistlarni o’ziga jalb qiladilar. Tarixiy yodgorliklar va boshqa xalqlar madaniyatiga qiziqish xalqaro turizmning eng muhim stimullaridan biridir.

## 3.3. O’zgaruvchan omillar va ularni turlari

Davr mobaynida o’zgaruvchanlikka ega omillarga ***siyosiy, ijtimoiy-demografik, moliyaviy-iqtisodiy*** *va* ***texnikaviy*** omillar kiradi.

Turistik biznesni rivojlantirishda, mamlakatdagi siyosiy vaziyatning qay ahvolda ekanligi katta ahamiyatga ega. CHunki xalqaro munosabatlarning rivojlanganligi, xavfsizlik kafolati turizmni bir moramda rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, mamlakatdagi ichki vaziyatning qay darajada turg’unligi ko’p hollarda xalqaro turizm oqimining yo’nalishini belgilaydi. Tabiiyki, davlatlararo turistlarni almashtirishda, mamlakatlar o’rtasidagi o’zaro kelishuvchilik munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Odatdagi diplomatik aloqalar, turizm sohasidagi kelishuvlar, shartnomalar, kommunikatsiyalar va transport vositalaridan hamkorlikda foydalanish, turistik reklamalarni bir-birlari bilan almashtirish-bularning hammasi turizmning rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Demografik omillar. Dunyo mamlakatlarida demografik jarayonlar (aholining tug'ilishi, o'limi, tabiiy ko'payishi, aholi migratsiyasi kabilar) ham xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. yer sharining turli davlatlarida, hududlarida va mintaqalarida aholi sonining ko'payib borishi, ayniqsa shahar aholisi aglameratsiya doirasining borgan sari kengayib borishi kishilarning dam olishi va sayyohlikka chiqishni taqazo qiladi. SHu borada turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi demografik omillarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- dunyo xalqlaridagi bir-biriga o'xshashlik bo'lish umumiy tomonlari, ularning qiziqishlari h.k;
- ayrim malakaviy sohalaridagi kishilarning maxsus sayyohlik guruhda faol ishtirok etishning kuchayib borishi;
- turizm tarkibidagi Xotin-qizlar va yoshlar salmog'ining ortib borishi;
- xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan kurort va sanatoriyalar tarmog'ining ko'payib borishi, ularda davolanishga mail bo'lgan kasallar sonining ortib borishi;
- kishilarning atrof muhitga bo'lgan qarashlari, tushunchalari vamunosabatlarning o'zgarib borishi h.k.

Turizm rivojlanishiga, har bir davlatning ichki iqtisodiy imkoniyati, barcha iqtisodiyot tarmoqlarining integratsiyalashuvi muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida aholini ishga doir harakatchanligini oshirib, xizmat turizmni rivojlantiradi. Odatda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda xalq ommasining turmush farovonlik darajasi bir muncha yuqori bo'lganligi sababli, turizm harakati ommaviy tusga egadir. YA'ni buning asosiy sababi ishchilarning oylik ish haqi miqdori, ularning tatil paytida oladigan tatil pulining ko'pligi, nafaqaxo'rlarning nafaqa pulining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy-demografik omillar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Turizm rivojlanishiga aholi sonining oshishi, asosan shahar aholisining ko'payishi ta'sir ko'rsatadi. Psixologlarning fikricha, shaharcha hayot shaklida, aqliy mehnatning ko'pligi, o'ta sanoatlashish, yovvoyi tabiatdan ayriligi shahar aholisini sayyohlikka intilishini kuchaytiradi. Undan tashqari aholi o'rtasida o'rtacha umr uzunligini oshishi va tug'ilishning nisbatan pasayishi kuzatilmoqda. SHuning uchun turizm industriyasini tashkillashtirishda yuqoridagi holatlarni e'tiborga olish lozim. YA'ni qo'shimcha meditsina xizmati, diyetik ovqatlar, madaniy marosimlar, sayr qilishlarni oshirishga e'tiborni qaratish muhim sanaladi.

YUqoridagi omillardan tashqari xalqaro turizmni rivojlanishiga tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarni quyidagi 2-chizma orqali ko'rish mumkin:

***Xalqaro turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar***

***2-chizma***




YUqorida qayd qilingan barcha omillar turizmni shakllanishi va rivojlanishiga o'z ta'siriga ega. SHuning uchun bu omillarni tahlil qilish, ularning qaysi birlari asosiy ahamiyatga ega ekanligini aniqlab ish yuritish, o'z navbatida turistik resurslardan samarali foydalanishimizga olib keladi.

## 3.4. Turizm infrastrukturasi

Turizmning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, O'zbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini ko'paytirish va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko'paytirish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoli turizmning rivojlanishi va mamlakat imidjini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishmaguncha turizmga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Respublikaning turistik salohiyati to'g'risda ob'ektiv ma'lumotlar va reklama umuman bo'lmagan. Turistik imkoniyatlar sobiq strukturalarning tor manfaatlari orqali bir tomonlama yoritilgan. Natijada turizm, xizmat ko'rsatish va ko'ngilocharlik infratuzilmasi rivojlanmagan, turistlarga xizmat ko'rsatish darajasi past bo'lib, jaxonning yetakchi turistik korxonalari bilan aloqalar ko'ngildagidek emas.

O’zbekiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan. Toshkent shahri va viloyatida respublika turizm salohiyatining 36 % qismi jamlangan. Yirik infratuzilma salohiyatiga to’rt viloyat (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm) va Toshkent shahri ega, Farg’ona vodiysi 19 % turizm infratuzilmasiga ega.

Mintaqada turizmni rivojlantirish uchun mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga erishishimiz kerak. Bunda mintaqaning turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish asosiy o’rinni egallaydi.

*Turizm infratuzilmasi* deganda – turistlarning turistik resurslaridan foydalanishni ta’minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, yo’llar, turizmning xilma-xil korxonalari hamda turizm korxonalarining ishlatilishini ta’minlashga imkon yaratilishi tushuniladi. Bu avtomobil va temir yo’llar, yo’l harakatini, havo yo’llarini, dengiz va daryo yo’llari harakatini tartibga soluvchi tizimlar, issiqlik, elektr va telefon aloqalari bilan ta’minlash va boshqalardir.

chizma - 3



Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida “Turizm to’g’risida”gi qonun, hamda 2030 yilgacha O’zbekistonda turizmni rivojlantirish bo’yicha davlat dasturi to’g’risida qator me’yoriy hujjatlar turistik infratuzilmalarni rivojlanitirish uchun kuchli turtki bo’ldi. Respublikamizda 20 dan ziyod turistik yo’nalishlar chet ellik turistlarni o’ziga jalb etib kelmoqda. Bu yo’nalishlar asosan YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan madaniy tanishuvlar dasturi asosida tayyorlangan bo’lib, O’zbekiston Markaziy Osiyodagi muvofiqlashtiruvchi markazlardan biri sifatida ko’rsatilgan.

O’zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlantirishda barcha infrastruktura ob’ektlarini jahon andozalariga yetkazib, turistlar talabini qondirish kerak. Buning uchun turizm infrastrukturasining tarkibiy qismlari mehmonxona, transport, oziq- ovqat, dam olish, davolash va boshqa ko’ngil ochar xizmatlarni yuqori darajada ko’tarishimiz lozim.

Turistik resurslardan samarali foydalanishda ***transport tuzilmasining*** hissasi katta. O’zbekistonda turizmning rivojlanishiga «O’zbekiston Havo Yo’llari» milliy aviakompaniyasining ham hissasi qo’shilmoqda. Hozirga kunda milliy aviakompaniyamiz tasarrufida 12 ta aeroport mavjud bo’lib, ulardan beshtasi — Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch va Termiz aeroportlari xalqaro maqomga ega.

Toshkent aeroporti 2001 yilda qayta ta’mirdan chiqarilgan bo’lib, unda soatiga 1000 yulovchiga xizmat ko’rsatish imkoniyati paydo bo’ldi. Har yili Toshkent aeroporti xizmatlaridan 2 million kishi foydalanadi. Toshkent aeroportida yulovchilar qulayligi uchun keng va qulay mebellar bilan jixozlangan kutish maydonlari, kuni bo’yi ishlovchi pasport, bojxona, chegara nazorati xizmatlari, ma’lumotxona, yuklarni konveyerda tashish xizmatlari, xalqaro telefon, chiptalarni sotib olish va bandlash kassalari, Duty—freye do’konlari, restoranlar, barlar, tamaddixonalar, valyuta ayirboshlash punktlari, o’ta nufuzli mehmonlarga xizmat kursatish VIP maydoni, qulayligi oshirilgan SIR maydoni kabilar tashkil etilgan. Toshkent aeroportida dunyoda ishlab chiqarilayotgan barcha samolyot turlarini qabul qilish mumkin.

Samarqand aeroporti soatiga 400 yulovchiga xizmat ko’rsata oladi. Samarqanddan Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg, Simferopol, Qozon shaharlariga, shuningdek, YAponiya va yevropa mamlakatlariga yetib borish mumkin. Aeroportda VIP — va CIP — maydonlari, kutish maydonlari, ona va bola xonasi, tibbiyot punkti, aviakassalar, pochta xizmati xonasi, xalqaro va shaharlaro telefon xizmati, barlar, restoran, valyuta ayirboshlash shohobchasi bor, yangi «Duty—freye» do’koni ochilishi ustida ish olib borilmoqda.

YAngi Buxoro aeroporti 1997 yilda ishga tushirilib, xalqaro maqomga 1999 yilda erishgan, soatiga 150 yo’lovchiga xizmat ko’rsatadi. Unda keng kutish maydoni, bufetlar, dukonlar, tibbiyot punkti, yuklarni saqlash xonasi, milliy an’analarda bezatilgan VIP— va CIP— maydonlari mavjud. Buxoro aeroportidan Toshkent, Moskva, Sankt- Peterburg shaharlariga, shuningdek MDH mamlakatlari va boshqa davlatlarga uchish mumkin.

YAngi Urganch aeroporti soatiga 300 yulovchiga xizmat ko’rsatadi. Unda kutish maydoni, tibbiyot punkti, barlar, kafe, valyuta ayirboshlash shohobchasi, suvenirlar do’koni mavjud, aeroportdan Toshkent, Moskva shaharlariga va dunyoning boshqa mamlakatlariga uchib borish mumkin.

O’zbekiston turizmining rivojlanishiga «O’zbekiston temir yo’llari» davlat hissadorlik temiryul kompaniyasi ham o’zining hissasini qo’shmoqda. Bu tashkilot 1994 yilning 7 noyabrida tashkil etilgan bo’lib, O’zbekiston hududi bo’ylab 4000 kilometrga yaqin uzunlikdagi temir yullarga ega. Tashkilot tomonidan Toshkent-Samarqand orasida shinam tezyurar poyezd qatnashining tashkil etilishi turistlar uchun katta qulayliklar yaratib berdi. Tashkilot tomonidan Samarqanddan Surxondaryo viloyatiga o’tuvchi temir yul tizimi takomillashtirilmoqda, bu ham turistlarni harakatlanishini yengillashtiradi. SHuningdek, mustaqil O’zbekiston asosiy tarmog’i bo’lib hisoblangan xalqaro Traseka loyihasi asosida Toshkentdan Farg’ona vodiysi orqali qo’shni mamlakatlarga chiqib ketuvchi temir yo’lning qurilishi ham O’zbekistonga keluvchi xalqaro turistik oqimini orttirishi mumkin. Keyingi yillarda barpo etilgan, umumiy uzunligi 633 kilometrni tashkil qiladigan Navoiy – Nukus, 233 kilometrlik Toshguzar
– Boysun – Qumqo’rg’on temir yo’l magistrallari, Qamchiq dovoni orqali o’tadigan tezkor avtomobil yo’lining ham chekka hududlardagi turistik resurslardan foydalanishga imkon beradi.. Bu yo’llar mamlakatimizning barcha hududlarini yagona transport tarmog’iga ishonchli tarzda birlashtirib, turizm infrotuzilmasini rivojlantirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Turistik resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga ***mexmonxona xizmatlarini*** rivojlantirish asosiy o’rinni egallaydi. Mexmonxo na xizmatlarining sifatini boshqarish masalalarini xal qilishda mexmonxona korxonalarini shinamlik darajasiga karab tasniflash katta rol uynaydi. Bundan tashqari, xodimlarga va ularning tayyorgarligi: ma’lumoti, malakasi, yoshi, sog’ligi, chet tillarni bilishi, tashqi ko’rinishiga ham bir qancha talablar qo’yiladi. Mamlakatimizda hozirgi kunda ko’plab mehmonxonalar qurilmoqda. Ayniqsa xususiy turistik mehmonxonalar soni oshib borayapti, jumladan Samarqand viloyatida hozirgi kunda 50 ta zamonaviy va milliy uslubda qurilgan mehmonxonalar faoliyat ko’rsatmoqda. 2007 yil mobaynida zamonaviy va milliy uslubda qurilgan 10ta mehmonxona ishga tushirilib, mehmonxonalarni qabul qilish quvvati yana 320 o’ringa kupaydi. Bu yerda asosiy o’rinni sifatli xizmat ko’rsatishni ta’minlashdir.

***Ovqatlantirish infrastukturasida*** yutuqlarimiz ko’proq, mehmonxonalar qoshidagi yoki yakka tarzda restoran, bar, kafelar, yaxshi ishlab nafaqat turistlarga, balki mahalliy aholiga xizmat ko’rsatmoqda. Ayrim oqvatlantirish ob’ektlarining ahvoli, xizmat ko’rsatish darajasi talabga javob bermaydi. Agar ovqatlantirish ob’ektlari sanitariya holati nazorat qilinib, ovqatlar va xizmat ko’rsatishning turli ish shakllari joriy etilsa, ijobiy yutuqlarga erishgan bo’lamiz.

Hozirgi paytda turizmni rivojlanishida ***bank va moliyaviy tashkilotlar*** xizmatlarining o’rni katta. Turistlar sayohatda va dam olishda xilma-xil xizmat turlaridan foydalanishni hohlaydilar. YA’ni, o’z hohishi bo’yicha biror narsa sotib olishni istashadi. Bunda ular ko’ngil ochish uchun har kuni ko’p mikdorda pul sarflashadi. SHu sababli bu xizmat turini takomillashtirish turistlarga qo’layliklarni keltirib chiqaradi.

***Axborot xizmati*** ham turistik resurslardan unumli foydalanish uchun juda zarurdir. Turist sayohatga tayyorlanayotganda, hamda sayohat vaqtida o’zi boradigan joy haqida, o’sha mamlakat yoki boradigan hududning qonun-qoidalari, odatlari, mehmondo’stligi

haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarga, shuningdek, o'sha joyning xaritasiga, transport magistrallari sxemasiga muxtoj bo'ladi. Sayohat va turistlarning sarguzashtlari haqidagi ma'lumotlar ommabop va maxsus adabiyotlar ko'rinishida chop etiladi va bu holat turistlarni sayohat qilishga chorlaydi. Turizmda bo'lajak turistlarga bepul tarqatiladigan axborotlarni rang-barang ko'rinishida chop etishga e'tibor qaratish lozim. Bunda turistlar va turizm xizmatlari uchun axborot CD ROM disklarini chop etish katta samara beradi.

*Nazorat savollari:*

1. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etishning ahamiyati nimada.
2. Barqaror omillarning xususiyatlarini ayting.
3. O'zgaruvchan omillar va ularni turlarini izohlang.
4. Turizm industriyasiga tushuncha bering.
5. Turizm infrastrukturasiga tushuncha bering.

## IV Mavzu. Mintaqalarning turistik resurlari tasnifi

Reja

4.1. Turistik resurslar tushunchasi, mohiyati.
4.2. Turistik resurslar tasnifiga yondoshuvlar.
4.3. Turistik resurslar turlari.

### 4.1 Turistik resurslar tushunchasi, mohiyati

Hozirgi vaqtda ko'pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud kapital, texnologiya, hamda malakali ishchi – xodimlar orqaligina shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda turistik resurslarga ega bo'lish lozim.

Mutaxasislar turistik resurslarga quyidagicha ta'rif berishgan: turistik resurslar – tabiiy, tarixiy, ijtimoiy – madaniy va boshqa turistlarni sayohatga qiziqtiradigan, insonning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanishi ehtiyojlarini qondirishga qodir ob'ektlarga aytiladi. Rekreatsiya faoliyati nuqtai nazardan turistik resurslarga tabiiy va antropogen geosistemalar kiradi, tabiat manzaralari, rekreatsiya faoliyati ehtiyoji qiymatiga va maishiy xususiyatga ega, insonlarni ko'rsatilgan vaqtda ma'lum texnologiyalar yordamida sog'ligini tiklash va dam olishida foydalanish mumkin bo'lgan, rekreatsiya faoliyati qobiliyatiga ega resurslar kiradi.

Turistik resurslarning mohiyati shundan iboratki, turistik mahsulot shakllanishiga asos hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, aniq hududda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan barcha ob'ektlar kiradi. Turizmni rekreatsiyaning ko'rinishi sifatida olsak, «turistik resurslar» tushunchasi «rekreatsiya resurslari» bilan birgalikda uyg'unlashadi.

Turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir.Kelib chiqishi va

foydalanish xususiyatlariga ko’ra rekreatsion resurslar ikki guruhga ajratiladi: **tabiiy va antropogen** rekreatson resurslar (1-chizma).

Tabiiy rekreatsion resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go’zal tabiat go’sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko’l, dengiz bo’ylari, tog’ etaklaridagi o’simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo’lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug’ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog’lar yoki qo’riqxona va milliy bog’lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

1-chizma




Turli davrlarda inson aql – zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik vasan’at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalish mumkin bo’lgan ijtimoiy ob’ektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi. Undan tashqari,rekreatsion resurslarni qo’yidagi asosiy belgilariga ko’ra ajratish mumkin:

- landshaft – iqlimiy xususiyati;
- tabiiy resurslar potentsial zahirasi;
- jozibadorlik va sayyohlik ahamiyati;
- qo’laylik va foydalanish imkoniyati;
- manzara va ekologik xususiyati;
- ijtimoiy – demografik xususiyati.

## 4.2 Turistik resurslar tasnifiga yondoshuvlar

Turistik resurslar tasnifiga bir qancha yondashuvlar mavjud. Ulardan polyak iqtisodchisi M.Truasi (1963y) va frantsuz iqtisodchisi P.Deferem (1972y) taklif qilgan tasnifi ancha takomillashgan.

Truasi turistik resurslarni uch guruhini ajratadi:

1. Tabiiy turistik resurslar, «turistik kapital potentsiali» sifatida unga iqlim, havo, manzara, dengiz, ko'l, daryolar, tog'lar, o'rmon va boshqalar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu resurslarni tabiiy – iqlimiy resurslar deb atash mumkin.
2. Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar, ya'ni arxitektura binolari, yodgorliklar, madaniy ob'ektlar va boshqalar. Bular ekskursiya ob'ektlari hisoblanadi.
3. «Qo'shimcha» turistik resurslar, inson mehnati tomonidan yaratilgan ma'lum mintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu resurslar orqali turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini baholash mumkin.

Lekin, Rossiyalik mutaxasislar M.E.Nemolyaeva va L.F.Xodorkov qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari turistik resurslarga qo'shish mumkin emas deb hisoblashadi. CHunki, bu korxonalar mavjud turistik resurslardan foydalangan holda ish yuritadilar, aks holda bir butun turistik sayohatni qamrab olgan holda xizmat ko'rsata olmaydilar.

Defer barcha turistik resurslarni 4ta guruhga ajratadi: ***gidrom, fitom, litom*** va ***antropom.***

*Gidrom* – bunga suv bilan bog'liq turistik resurslar kiradi. Bu guruh tarkibiga ko'l, daryolar, dengiz bo'yi, muzliklar, mineral suv manbalari, gidroelektrstantsiyalar, sharsharalar va boshqalar kiradi. Misol uchun, mashhur Niagara sharsharasi, Amozonka daryosi, Ispaniyadagi dengiz bo'yi plyajlarini kiritish mumkin.

*Fitom* – tabiiy turistik resurslar, buning tarkibi ikki turda bo'lishi mumkin: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon, tog'lar, cho'qqilar, vo'lqonlar, tabiiy manzaralar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog'lar, parklar).

*Litom* – inson tomonidan yaratilgan va o'zi yoki belgilariga ko'ra turistlar qiziqishini orttiradigan resurslar bo'lib, uning tarkibiga arxitektura yodgorliklar, qadimgi insonlar yashash joylari, ochiq osmondagi muzeylar kiradi. Undan tashqari litomlarga zamonaviy qo'rilmalar: ko'priklar, aeroportlar, sport majmualari, universitetlar, akvariumlar, observatoriyalar va boshqalar kiradi.

*Antronom* – turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyati ko'rinishlarini kiritish mumkin. Antronom elementlariga insonning o'zi, uning hayoti, urf – odatlari, yuqolgan yoki yuqolish arafasida turgan, ya'ni milliy xalq bayramlari, folkrol, milliy musiqa va kiyimlarni kiritish mumkin. Undan tashqari antronomga sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, o'quv dargohlari va ijtimoiy – maishiy ob'ektlarni ham kiritish mumkin. Misol uchun Rio-de-Janeyrodagi mashhur karnaval, Frantsiyaning SHampan proventsiyasidagi mashhur uzumzorlar va vino ishlab chiqarishni ko'rsatish mumkin. Defer tasnifini xususiyati shundaki, unda ayrim turistik resurslar bir necha guruhda birdaniga uchratish mumkin.

Rossiyalik mutaxasis Xristov T.T. turistik resurslarni 5 ta asosiy turlarini ajratgan. Ularga tabiiy – rekreatsiyali, ekskursiyali, iqtisodiy, infrastruktura va axborot beruvchi resurslarni kiritgan. Bu resurslarni o'zi yana bir qancha guruhlarga bo'lingan. Masalan, ekskursiyali resurslar qo'yidagi guruhlarga bo'lingan: madaniy –tarixiy meros, ijtimoiy, ijtimoiy – madaniy va etnografik resurslar. Bu turistik resurslar tanishuv turizmida keng qo'llaniladi. Bunda madaniy – tarixiy resurslar guruhiga yodgorliklar, turli tarixiy arxitektura obidalari kirsa, ijtimoiy resurslar guruhiga diniy bayram, marosimlar, insonlarning turli an'ana va rusumlari kiradi. Ijtimoiy – madaniy resurslar negizini turli muzeylar, yarmarkalar tashkil etadi.

Infrastruktura resurs sifatida qo'yidagi guruhlarni o'z ichiga oladi: transport ta'minoti, joylashtirish tizimi, ovqatlantirish tizimi, suvener mahsilotlari ishlab chiqarish tizimi. Hozirgi kunda turizmni rivojlanishini turizm infrastrukturasini jadallashuvisiz ko'rish mumkin emas. CHunki mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishda bu resurslarning o'rni benihoya katta.

YAna bir rus olimi A.D CHudnovskiy turistik resurslarni tabiiy – hududiy turistik muasssalar asosida ularni *tabiiy – quruqlik* va *tabiiy – suvlik* resurslariga, ularni o'z navbatida *tabiiy* (qo'riqxona, daryo vodiylari va b.) *tabiiy – antropogen* (bog'lar, milliy bog'lar va b.) va *noyob* resurslarga bo'lgan[8]. Turistik resurslar turli turistik dasturlar va marshrutlar yaratishga asos hisoblanadi. Ana shu nuqtai – nazardan sayohatchilar maqsadiga ko'ra olim, resurslarni shartli ravishda 4 ta guruhga bo'lishni taklif etgan:

1. Kurortli;
2. Rekreatsiyali;
3. Diniy – madaniy;
4. Axborot – ish yuzasidan.

Umuman olganda turistik resurslarga turlicha qarashlar mavjud. SHuni ta'kidlash lozimki, turizm maqsadida turistik resurslardan to'g'ridan – to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Buning uchun ko'pgina qo'shimcha xizmatlar, ya'ni joylashtirish, ovqatlantirish, sayohat va transport xizmatini tashkillashtirish kabi xizmatlardan foydalanish orqaligina turistik resurslardan turizm faoliyatida foydalanish mumkin.

### 4.3 Turistik resurslar turlari

Turistik resurslarni foydalanish xususiyatiga ko'ra ***bevosita*** va ***bilvosita*** turlarga bo'linadi. Bevosita turdagi resurslarga turistlarni o'zlari to'g'ridan – to'g'ri foydalanidigan tabiiy va tarixiy – madaniy resurslar kiradi. Bilvosita turdagi resurslarga bevosita turistik resurslardan foydalanish asos bo'ladigan ijtimoiy – iqtisodiy resurslar – moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot beruvchi resurslar kiradi.

V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskayalar (Ekonomika turizma. M.2005, 151 b.) turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi qo'yidagi asosiy belgilarni ajratishgan:

- Qo'laylik (jozibadorlik);
- Iqlimiy sharoit;
- O'rganganlik darajasi;
- Sayyohlik ahamiyati;

- Manzara va ekologik xususiyatlari;
- Ijtimoiy – demografik xususiyatlari;
- Potentsial zahirasi;
- Foydalanish imkoniyati va boshqalar.

Turistik resurslardan sog'lomlashtirish, turistik, sport va tanishuv maqsadida foydalaniladi. Undan tashqari turistik resurslarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: **tabiiy va infrastrukturali.** Turistik biznesni rivojlanishida yuqoridagi ikki guruhni ham ahamiyati yuqori. Har qanday yuqori turistik resurs potentsialidan, kommunikatsiya, aloqa vositalari, xizmat ko'rsatish sohalarisiz foydalanib bo'lmaydi.

Umuman olganda, butun turistik resurslar majmuasini tabiiy – iqlimiy, madaniy – tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy, axborot beruvchi resurslarga bo'lish mumkin.

***Tabiiy turistik resurslar.*** Tabiiy turistik resurslarni asosiy ahamiyati shundan iboratki, insonlarning jismoniy va ruhiy qobiliyatlarini tiklashda foydalanish vositalari bo'lib xizmat qiladi. Turistlar asosiy ehtiyojlarini tabiatdan qondiradilar. Turistik faoliyatni tashkillashtirishda landshaftlar, iqlim, suv ob'ektlari, dengizlar, mineral suv va davolovchi botqoqlar asosiy resurs vazifasini bajaradi. Bu resurslar o'zi yoki inson tomonidan qayta tiklanishi mumkin. Bu resurslarni geografik, biologik, geologik va boshqa jihatlarga ko'ra baholash mumkin. Dam olishni tashkil etish uchun tabiiy turistik resurslarni tahlil etishni talab qiladi. Tabiiy resurslar sifatida alohida tabiat komponentlari yoki bir butun tabiat kompelkslarini olish mumkin. Barcha tabiiy resurslarni rekreatsiya yoki turistik potentsial nuqtai nazardan qarash lozim. Ammo tabiiy resurslardan foydalanish darajasi mintaqa ixtisoslashuvigv ko'ra har xil bo'lishi mumkin.

Tabiiy turistik resurslarning tasnifi mavjud bo'lib, u ikkiyoqlama xususiyatga ega, bir tomondan tabiiy kelib chiqishi bilan bog'liq, ikkinchi tomondan turizm uchun iqtisodiy ahamiyati tomonidan aks etishidir.

Tabiiy turistik resurslar orasida asosiy o'rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda turistlarni dam olishi va davolanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda ***noyob tabiat yodgorliklari*** asosiy turistik ob'ektlar hisoblanadi. Noyob tabiat yodgorliklari, bu – muhofaza qilinadigan ob'ekt turlaridan hisoblanadi. Ayrim hollarda tabiiy ob'ektlarni muhofaza qilish uchun katta maydonlarni ishg'ol qilinadigan qo'riqxonalar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. SHuning uchun kichikroq maydonlardagi tabiiy ob'ektlar «tabiat yodgorliklari» deb qilinadi va muhofaza ostiga olinadi. «Tabiat yodgorliklari» terminini dastlab A.Gumbolt taklif qilgan. O'tgan asrimizning boshlaridayoq yevropada tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish boshlangan edi.

*Tabiiy resurslarning guruhlanishi*

jadval – 2

| **Kelib chiqishiga ko'ra:** |
|---|
| • tabiiy - (geologik, iqlimiy, gidrologik, termal suvlar);<br>• biologik – tirik tabiat (tuproq resurslari, flora, fauna);<br>• axborot beruvchi - tabiatdan o'ziga xos maydon va landshaft sifatida foydalanish bo'lib, bu resurslar madaniy, ziyoratli kabi turizm turlarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. |
| **Rekreatsiya sifatida foydalanish turiga ko'ra:** |
| • mineral suvlar;<br>• botqoqlar;<br>• tuzlar;<br>• o'rmonlar. |
| **Resurslarning tugashi darajasiga ko'ra:** |
| • tugaydigan tabiiy resurslar, ular o'z navbatida yangilanib turadigan (chuchuk suv, o'simlik va hayvonot dunyosi) va yangilanmaydigan (minerallar) turlarga bo'linadi.<br>• tugamaydigan tabiiy resurslar, ularga quyosh energiyasi, shamol, dengiz to'lqinlari, suvlar kiradi. |
| **O'zi qayta tiklanishi va o'sishi imkoniyatiga ko'ra:** |
| • qayta tiklanadigan resurslar, bunga o'rmonlarni misol keltirish mumkin, o'rtacha 50 yilda qayta tiklanadi.<br>• qayta tiklanmaydigan resurslar. |

Tabiat yodgorliklari tabiatning o'zgarishi va unda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida ma'lum darajada aniq guvohlik beradi. Tabiat yodgorliklari ilmiy – tarixiy va madaniy – estetik ahamiyatga ega.

Umumiy xarakteriga ko'ra, tabiat yodgorliklari ***geologik – geomorfologik, botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga*** bo'linadi.

*Geologik – geomorfologik* yodgorliklarga nodir geologik tog' jinslari, karst voronkalari, relef shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar kiradi. Mamlakatimizdagi Kilsi (Qirqtog'da), Qorlug' (Ko'hitang tog'ida), Hazratidovut (Zirabuloq tog'ida), Amir Temur g'orlari, Zarafshon tizmasidagi karstlarni misol keltirish mumkin.

*Botanik* yodgorliklarga yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relikt o'simliklar kiradi. Bu yodgorliklarga Surxondaryo viloyatidagi, Urgut tumanidagi ming yillik chinorlarni kiritish mumkin.

*Peleontologik* yodgorliklarga toshga aylangan organizm va qirilib ketgan hayvonlarning izlar qolgan joylar kiradi.

*Landshaft* yodgorliklariga ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi. Bunga Ilono'tdi (Temurlang) darasi, Ko'ksuv daryosidagi sharshara, Nurota va Urgutdagi buloqlar, Katta va Kichik CHimyon soyligi, Oqtosh soyligi va boshqalar kiradi.

*Astronomik* tabiat yodgrliklariga yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar kiradi.

Tabiiy turistik resurslar orasida asosiy o'rinni rekreatsiya resurslari egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda turistlarni dam olishi va davolanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Undan tashqari tabiiy resurslardan to'g'ridan – to'g'ri foydalanish natijasidabir qancha muammolar ham kelib chiqmoqda. Bunda tabiatdan noto'g'ri foydlanish, ko'plab qurilishlarni amalga oshirish tufayli bo'lmoqda. Natijada ekosistemalar muvozanati buzilib, ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

***Madaniy – tarixiy resurslar.*** Ma'lum hududda turizmni rivojlantirishda u joyning tarixiy – madaniy resurslari potentsiali asosiy urinni egallaydi. Turistik xizmatda madaniy – tarixiy resurslardan ko'p maqsadlarda foydalanish mumkin. Madaniy majmualarning jozibadorligi ularning tarixiy va tasviriy bahosiga,foydalanish qo'layliliga bog'liq.

Mavjud resurslardan turizm faoliyatida intensiv foydalanish, ya'ni antropogen yukning oshib borishi natijasida tabiiy turistik resurslarning ifloslanishiga, tarixiy obidalarning tez buzilishiga olib keladi.

Turizmga oid Gaaga deklaratsiyasida qo'yidagi takliflar bildirilgan:

- Turistlarni mamlakat ichkarisida yoki chet elda borgan joylarida madaniy iyeros va atrof – muhitni saqlashga, ularga nisbatan hurmatda bo'lishga o'rgatish, hamda targ'ib qilish;
- Joylarda turistlarni qabul qilish darajasini aniqlash, me'yordan ortishiga yo'l qo'ymaslik lozim deb ta'kidlanadi.

Madaniy – tarixiy resurslarga moddiy va madaniy turli yodgorliklari majmuasi, ma'lum mintaqaning turistik qiziqish ob'ektlari hisoblanadi.

Mintaqalarning arxitektura yodgorliklariga boyligi turizmni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ammo oxirgi paytlarda turistik oqimning oshishi ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Bu resurslardan turizm maqsadida saqlashni quyidagicha amalga oshirish taklif qilinadi:

- mavjud tarixiy joylar, binolar va yodgorliklarni turistik qiziqish ob'ektlari sifatida qayta tiklash;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilishni faollashtirish;
- turistik ehtiyojni qondirish maqsadida atrof – muhit saqlash va yaxshilashda boshqaruv organlari ma'suliyatini oshirish

Turistik resurslar ichida jahon ahamiyatidagi madaniy ob'ekt va yodgorliklar asosiy o'rinda turadi. «Madaniy meros» deyilganda qo'yidagilar tushiniladi:

- *YOdgorliklar:* arxitektura binolari, arxiologik ahamiyatidagi joylar, ilmiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega g'orlar, yozuvlar;

- *Ansanbillar*: ilmiy, madaniy yoki tarixiy ahamiyatga ega o'zaro bog'langan binolarguruhi. Masalan, Registon ansambili;

- *Mehmondo'stlik joylari*: inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan estetik, etnografik, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, o'ziga jalb qiluvchi o'ziga xos joylar.

Butunjahon madaniy merosi ruyxatiga kiritiladigan ob'ektlarning qo'yidagi hususiyatlari hisobga olinadi:

- Inson ijodining noyob namunalari;

-Ajoyib madaniy, arxitektura ob'ektlari, hamda madaniy landshaftlarining alohida ahamiyatga ega hududlari;

- Zamonaviy tsivilizatsiyaning noyob namunalari, qurilishlari;

- Inson tarixi bilan bog'liq binolar yoki arxitektura ansambillari, landshaftlari.

Tabiatning noyob ko'rinishlarini butun jahon ruyxatiga kiritiladigan hususiyatlari qo'yidagilardan iborat:

- Er taraqqiyotida geologik-geomorfologik jarayonlar asosidashakllangan yodgorliklar;
- Turli-tuman o'ziga hos ekosistemalar, landshaftlar;
- Ma'lum mintaqaning o'ziga xos o'simlik va xayvonlari;
- Kamyob biologik turlari.

***Ijtimoiy – iqtisodiy resurslar.*** Turizm – ko'plab iqtisodiyot tarmoqlarini o'z ichiga olgan, qurilishdan boshlab, transport xizmatigacha bo'lgan faoliyatning ixtisoslashgan turi hisoblanadi. SHuning uchun turizm sohasidagi band ishchilar sonini baholashni qiyinlashtiradi. Undan tashqari turizm iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari, qishloq xo'jaligi korxonalari transport vositalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, mebel ishlab chiqaruvchi korxona va boshqalar bilan o'zaro aloqada rivojlanadi.

*Mehnat resurslari.* Turistik mahsulot ishlab chiqarish jarayonida insonlarning jismoniy va aqliy mehnati ishlatiladi. Bunda insonlarni sog'ligi va jismoniy kuchi, ma'lumoti hamda malakasi darajasi asosiy o'rinni egallaydi. Mehnat resurslarining miqdori, malakasi iqtisodiy omil sifatida kata ahamiyatga ega.

Turizm jahon xo'jaligining mehnat resurslarining ko'p talab qiluvchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Turizm sohasidagi band ishchi kuchining o'ziga xos xususiyati shundaki, 80% mehnat resurslari malakasiz hisoblanadi. Ularning yarmidan ortig'i ayollarni tashkil qiladi. Undan tashqari turizm industriyasida yoshlar va chet el ishchi kuchidan keng foydalaniladi. Misol uchun yevropa ittifoqi mamlakatlarida har bir uchinchi 16 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan o'smir turizmning xizmat ko'rsatish sohasidagiishlaydi.

Butunjahon mehnat tashkiloti turizmda bandlikni 3ta asosiy shakllarga bo'ladi:

1. Mavsumiy ish, bunda asosan sayyohlik mavsumida turistlar soni bir necha barobarga oshib ketadi, shunda qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshadi.
2. To'liqsiz ish kuni, bu asosan rivojlangan mamlakatlarning mehmonxona va restoran xo'jaligidagi band ishchi kuchlari kiradi. Turli mamlakatlarda tuliqsiz ish kuni bilan ishlayotganlar butun mehmonxona biznesida band ishchi kuchlarining 12% dan 52% gacha tashkil etadi.
3. Vaqtinchalik ish bilan bandlik (dam olish kunlari, ko'rgazmalar tashkil etish)

*Sarmoya resurslari***.** Ishlab chiqarishning birinchi omillari yer va mehnat bo'lsa, ularni sarmoyalar asosida mehnat kuchi yordamida amlga oshiriladi.

Sarmoya elementlari tasnifi mutaxasislar tomonidan quyidagicha belgilangan:

- asosiy binolar: otellar, bar, restoran, klub va b.
- yordamchi binolar: garaj, isitish sistemasi va b.
- inshoot va qo'rilmalar: yo'llar, turistik poyezdlar, sport maydonlari va b.
- o'tkazgich qo'rilmalari: elektroo'tkazgichlar, quvurlar va b.
- mashina va jihozlar: transfarmator, kompyuter va b.

- transport vositalari: yengil avtomobil, avtobus va b.

Turizm salmog’ining yuqoriligi iqtisodiy tomondan daromatining oshishiga, yangi ish o’rinlarini yaratilishiga hamda kichik biznesni rivojlanishiga turtki bo’ladi.

Turistik mamlakatlarda 50 foizdan ortiq mehnatga yaroqli aholi turizm sohasi bilan to’g’ridan – to’g’ri yoki bilvosita bog’langan. Agarda ularda turistlar kelishi qaysidir sababga ko’ra kamaysa, ishsizlar soni ortib boradi. Lekin yirik industrial mamlakatlarda turizm sohasida band aholi 5 foizdan ortmaydi, ammo turizmning dunyo bo’yicha rivojlanishi tufayli bu mamlakatlarda ham turizm sohasidagi band mehnat resurslarini salmog’i ortib boradi.

Turizm sohasida miqdor jihatdan tahlil qilishdan tashqari, bandlikning sifat jihatdan tahlili ham mavjud. Ma’lumki turizmda asosan past malakali ishchilar, ya’ni xizmatchilar, yuk tashuvchilar, ofitsiantlar ishlashadi. Bular bilan yuqori malakali gid – tarjimon, bosh oshpaz, menejerlar ham ishlashadi. Albatta bu sohani ham yuqori malakali mutaxasislar bilan ta’minlash kata ahamiyatga ega. Turizmda band ishchilarning jinsiy tahlili ham ahamiyatga ega bo’lib, mehmonxona xo’jaldigida ayol ishchilarning ulushi 50 foizdan ortiq.

***Turistik axborot resurslari.*** Sayohat vaqtida yoki unga tayyorgarlik ko’rishda turistlar ehtiyojidan kelib chiqib, ularga beriladigan ma’lum hudud, ob’ekt to’g’risidagi ma’lumotlar majmuasi turistik axborot resurslari hisoblanadi.

Mutaxasislar turistik axborot resurslariga turistik marshrutda joylashgan hamda tarixiy, ilmiy ahamiyatga ega ob’ektlar bo’yicha ma’lumotlarni kiritishadi. Undan tashqari turizm ahamiyatiga ega shaharlar, qishloqlar, tabiat manzaralari ularga bog’liq afsona va qissalar, har xil adabiyotlar, xaritalar, tasviriy albomlar, rasmlar, audio – video mahsulotlarni ham kiritishadi. Ko’pgina shaharlarda turistik axborot beruvchi markazlar ishlab turibdi, ular iste’molchilarga barcha ma’lumotlarni yetkazib berishadi.

Umuman olganda hozirgi kunda turistlar uchun informatsiya asosiy o’rinni egallaydi. CHunki turist borayotgan joyi haqida qancha ko’p bilsa, sayohatini samarali o’tkazadi. Albatta har qanday turist ma’lum vaqt oralig’ida iloji boricha ko’proq joylarga borishga harakat qiladi. Buning uchun u albatta ma’lumotlarga yetarli darajada ega bo’lishi kerak.

Axborot beruvchi resurslarga Internet tarmog’i, adabiy va tasviriy nashrlar hamda xalq etnoslari, afsonalari ham kiradi. Axborot tashuvchilar moddiy ob’ektlar – inson va ijodlari, nomoddiy ob’ektlar – turli axborot manbalari hisoblanadi. Diniy turizmda moddiy ob’ektlar bo’lib, monax va dindorlar, ekskursiya olib boruvchilar, hamda diniy markaz va shaharlarning fotosi, kartasi, sxemalari hisoblanadi.

*Naorat savollari:*

1. Turistik resurslarning mohiyati nimadan iborat.
2. Turistik resurslar tasnifiga qanday yondoshuvlar mavjud.
3. Turistik resurslarning qanday turlari mavjud.
4. Tabiiy turistik resurslarning xususiyatlarini ayting.

5. Ijtimoiy – madaniy turistik resurslarning xususiy

## V-Mavzu. Mintaqalarning turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash

Reja:

5.1. Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilari.

5.2. Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati.

5.3. Turistik resurslarni miqdor va sifat jihatdan baholash.

### **5.1.** *Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilari*

Hozirgi vaqtda ko'pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud kapital, texnologiya, hamda malakali ishchi – xodimlar orqaligina shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda turistik resurslarga ega bo'lish lozim.

Turistik resurslarning asosini rekreatsiya resurslari tashkil etadi. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir.Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreatsion resurslar ikki guruhga ajratiladi: ***tabiiy*** va ***antropogen*** rekreatsion resurslar.

Tabiiy rekreatsion resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go'zal tabiat go'sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko'l, dengiz bo'ylari, tog' etaklaridagi o'simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug'ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxona va milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

Turli davrlarda inson aql – zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san'at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalish mumkin bo'lgan ijtimoiy ob'ektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi. Undan tashqari, rekreatsion resurslarni qo'yidagi asosiy belgilariga ko'ra ajratish mumkin:

- landshaft – iqlimiy xususiyati;
- tabiiy resurslar potentsial zahirasi;
- jozibadorlik va sayyohlik ahamiyati;
- qo'laylik va foydalanish imkoniyati;
- manzara va ekologik xususiyati;
- ijtimoiy – demografik xususiyati.

### **5.2.***Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati*

Turistik resurslar turli tabiiy, madaniy – tarixiy, hamda ijtimoiy – iqtisodiy ob'ektlar ko'rinishida bo'lib, turistik xizmatlar ko'rsatishga asos bo'la oladigan resurslarga aytiladi. Undan tashqari, turistik resurslar turistikmahsulotlar yaratishga asos bo'ladigan tabiiy hamda, insonlar tomonidan yaratilgan ob'ektlar majmuasidan iborat.

V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskayalar (Ekonomika turizma. M.2005,151b.) turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi qo'yidagi asosiy belgilarni ajratishgan:

- Qo'laylik (jozibadorlik);

- Iqlimiy sharoit;
- O'rganganlik darajasi;
- Sayyohlik ahamiyati;
- Manzara va ekologik xususiyatlari;
- Ijtimoiy – demografik xususiyatlari;
- Potentsial zahirasi;
- Foydalanish imkoniyati va boshqalar.

Turistik resurslardan sog'lomlashtirish, turistik, sport va tanishuv maqsadida foydalaniladi. Undan tashqari turistik resurslarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: ***tabiiy*** va ***infrastrukturali.*** Turistik biznesni rivojlanishida yuqoridagi ikki guruhni ham ahamiyati yuqori. Har qanday yuqori turistik resurs potentsialidan, kommunikatsiya, aloqa vositalari, xizmat ko'rsatish sohalarisiz foydalanib bo'lmaydi.

Har bir hududda turizm shakllanar ekan, bu hududda turizm faoliyatida foydalanilayotgan turistik resurslar mavjud bo'ladi. Bu resurslarni turizmni tashkil etish asosi desak bo'ladi. Lekin, har bir hududning resurs salohiyati resurslarning miqdor va sifat jihatiga ko'ra farq qiladi. SHu sababli turistik resurslarni har jihatdan o'rganish, baholash, umuman olganda turizm faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini, tahlil etish ma'lum mintaqada turizmni rivojlantirish istiqbolini belgilaydi. SHu sababdan mavjud turistik resurslardan turizm faoliyatida foydalaniщda ularni har jihatdan *baholash* o'ta muhimdir. Turistik resurslarni baholash bo'yicha ham turli yondoshuvlar mavjud. Turistik resurslarning iqtisodiy bahosi bevosita resurs turiga, uning sifatiga, joylashuviga, foydalanish texnologiyasiga hamda atrof – muhit holatiga bog'liq. Hozirgi kunda turistik resurslardan to'laligicha foydalanish uchun turistik resurslarni atroflicha tahlil etish va baholash katta ahamiyatga ega. Bunda ularni baholash asosiy o'rinni egallaydi. Baholash orqaligina ulardan foydalanish, muhofaza qilish me'yorini o'rnatish mumkin.

### **5.3.** *Turistik resurslarni miqdor va sifat jihatdan baholash*

Turistik – rekreatsiya resurslarini mutaxasislar asosan **miqdor** va **sifat** jihatdan baholashni taklif etishgan. Miqdor jihatdan baholashda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan turistik resurslar hisobi olinadi hamda baholashda qo'yidagi xislatlar hisobga olinadi:

1. Zahira ko'rsatgichi, ya'ni hududiy rekreatsion tizimning qabul qilish potentsiali;
2. Mavjud resurslarni maydon ko'rsatgichi, ulardan rekreatsiya maqsadida foydalanish imkoniyati;
3. Rekreatsiya resurslaridan mavsum sifatida foydalanishning davomiyligi.

Bu bahoni Samarqand viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, birinchi navbatda viloyatning turistik ob'ektlarini o'rganishimiz lozim. Quyida viloyatning turistik ob'ektlari 4 - jadval asosida ko'rsatilgan.

jadval - 4

*Samarqand viloyatining turistik ob'ektlari*

| **Tumanlar** | **Turistik ob'ektlar nomi** |
|---|---|

| | |
|---|---|
| Samarqand shahri | Ulug'bek abservatoriyasi, Xo'ja Doniyor payg'ambar ziyoratgohi, Ishratxona, Qadimiy Siyob arig'i, Afrosiyob arxeologik muzeyi va xarobalari, Xazrati Xizir masjidi, SHohi – Zinda majmuasi, Bibixonim ansambli, Siyob bozori, Registon ansambli, Al-Motrudiy maqbarasi, Ruhobod maqbarasi, Amir Temur maqbarasi, shahar bosh jom'e masjidi, O'lkashunoslik muzeyi, Samarqand bosh tarixiy muzeyi, Universitet xiyobonidagi qadimiy chinorlar va boshqa daraxtlar, Alisher Navoiy muzeyi, SamDU arxeologik, zoologik muzeylari, shahar istirohat bog'lari, shifobaxsh chashma buloqlar, qadimiy mahallalar. |
| Samarqand tumani | Xo'ja Ahrori Vali Ziyoratgohi, Mironqul, Sazag'on, Ohalik Dam Olish Maskanlari, Ohalik tog'i soyliklaridagi xushmanzara dam olish maskanlari, milliy an'analar, yog'och o'ymakorligi, metallga ishlov berish, milliy urf odatlar. |
| Urgut tumani | CHor chinor, chinorlar va buloqlar, G'ovsul A'zam ziyoratgohi, Xo'jabtol ota, Miqqilloq tosh, Teshiktosh, Qaynar, SHirvog'ota ziyoratgoh va dam olish maskanlari, «Toshqo'y» tabiiy haykali, Bug'jamatosh, Toshkelinchak, Go'rimor tabiiy tosh shakllari, Lev, Qaynarbuloq, Rohatbuloq buloqlari, Omonqo'ton dam olish maskanlari, Eski davon yo'llari, taxti Qorachabegim saroyi xarobolari va b. |
| Bulung'ur tumani | Qadimiy Tuyatortar kanali, Fozil Yo'ldosh o'g'li uy muzeyi, xalq etnografik folklor ansambllari, mahalliy hunarmandchilik va b. |
| Jomboy tumani | Xolvoyi qishlog'idagi qadimiy chinorlar, Zarafshon daryosi va uning Oqdaryo va Qoradaryoga ajralishi, Zarafshon qo'riqxonasi, xalq milliy an'analari va urf-odatlari. |
| Ishtixon tumani | Qoradaryo sohillari, shayxlar qo'rg'oni xalq milliy san'ati, milliy an'analar, urf-odatlar va b. |
| Kattaqo'rg'on tumani | Kattaqo'rg'on suv ombori, Andoqiy ziyoratgohi va bulog'i, «cho'kkan tuya» shaklidagi tabiiy yodgorliklar va milliy an'analar. |
| Narpay tumani | Qo'chqorli ota ziyoratgohi, Qo'tirbuloq dam olish maskani, shifobaxsh bulog'i va avliyo baliqlari, Qo'shtepa ikkita tabiiy tosh tepalik va milliy an'analar. |
| Nurobod tumani | Xazrati Dovud ziyoratgohi va g'ori, Tim qishlog'idagi qadimiy archalar, Qarnobcho'l ekolandshaftlari, xalq hunarmandchiligi, jumladan jun yigirish, gilam to'qish, ko'pkari o'yinlari, milliy kurash, qadimiy sardobalar va b. |
| Oqdaryo tumani | Mahdumi A'zam Dahbediy ziyoratgohi, Oqdaryo daryosi sohillari dam olish maskanlari, Miyonqol oroli ekolandshafti, xalq milliy an'analari. |
| Payariq utmani | Imom Buxoriy masjid majmuasi va ziyoratgohi, Navro'ztepa, G'ilmonsoytepa, Oqtepa tabiiy tepaliklari, xalq milliy an'analari va b. |
| Pastdarg'om tumani | Qadimiy Darg'om kanali dam olish maskanlari, milliy an'analar, milliy kurash, ko'pkari o'yinlari va b. |
| Paxtachi tumani | Dobussiya qal'a xarobalari, Zarafshon daryosi sohillari dam olish maskanlari, qadimiy sardobalar. |
| Tayloq tumani | Tayloq ota qo'rg'oni ziyoratgohi, jom'e masjidi, istirohat bog'i, Bandikushon ziyoratgohi va b. |
| Qo'shrabod Tumani | Tog' oldi dam olish maskanlari, Qaynar avliyo bulog'i, milliy an'analar, urf-odatlari, mlliy dostonchilik, baxshichilik, Ergash Jumanbulbul o'g'li |

| | |
|---|---|
| | dostonchilik maktabi va b. |

*Manba: A.S.Soliyev,M.R.Usmonov Turizm geografiyasi. Samarqand-2005.*

Jadvaldan ko'rish mumkinki, qanchalik hudud turistik ob'ektlarga boy hisoblansa, turistik mahsulotlar turini ko'paytirish imkoniyati yaraladi. Har bir hudud ma'lum tur turistik resurslarga ega bo'ladi. Qaysidir hudud tarixiy obidalarga boy hisoblansa, ayrimlari tabiiy turistik ob'ektlarga boy hisoblanadi. Turistik faoliyatda barcha turistik resurslardan bir zaylda foydalanib bo'lmaydi, chunki ob'ektlarning joylashishidagi qo'layligi, jozibadorligi turlicha. SHuning uchun turistik resurslarni sifat jihatdan baholash muhim sanaladi. Sifat jihatdan baholashda qo'yidagi belgilar e'tiborga olinadi: ta'sirchanligi, ulug'vorligi, joylashuvidagi qulaylik, atrof-muhit holati, tabiiy rekreatsiya resurslarining o'ziga jalb qilish qobiliyati va boshqalar.

Turistik – rekreatsiya resurslarini mamlakat milliy boyligi sifatida baholash lozim. YUqoridagi jadvaldan foydalanib, Samarqand viloyati tumanlarini turistik resurslarini sifat jihatdan baholash mumkin. Agarda shartli ravishda besh balli tizimda baholasak, tabiiy turistik resurslari imkoniyati bo'yicha Samarqand shahri, Samarqand tumani, Urgut tumani - 5 ballga, Nurobod va Qo'shrabod tumani - 4 ballga, Pastdarg'om, Paxtachi va Tayloq tumanlari – 2 ballga teng. Tarixiy obidalar va diniy qadamjoli ob'ektlarga ega hududlar imkoniyati bo'yicha, Samarqand shahri va tumani – 5 ballga, Payariq va Urgut tumani – 4 ballga, Bulung'ur va Qo'shrabod tumanlari – 1 ballga baholash mumkin. Milliy etnografik va madaniy obidalar resurslari bo'yicha Samarqand shahri va Kattaqo'rg'on tumanlari – 5 ballga, Nurobod, Oqdaryo va Urgut tumanlari – 4 ballga, qolgan tumanlarni - 3 ballga baholash mumkin.

YUqoridagi ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, Samarqand shahri va tumani, Urgut va Payariq tumanlari turistik resurslarga boy hisoblansa, ayrim tumanlarning turistik resurs imkoniyati kam. SHu jihatdan tumanlarning turistik resurslari potentsialini uch kategoriya (yuqori, o'rtacha, past) asosida baholash ham mumkin. Bu yerda, Samarqand shahri va tumani, Urgut va Payariq tumanlari yuqori kategoriyaga, Nurobod, Kattaqo'rg'on, Narpay va Oqdaryo tumanlari o'rtacha kategoriyaga, qolgan tumanlarni past kategoriyaga kiritish mumkin.

Tabiiy resurslarni baholashni bir qancha turlari mavjud. Bular: texnologik – rekreatsiya faoliyatining u yoki bu turiga resurslarning *funktsional yaroqliligi, fiziologik – shinam, qo'laylik darajasiga* ko'ra, *psixologik – estetik xususiyatiga* ko'ra baholanadi. Bu baholashga misol tariqasida qo'yidagi 2 – jadvalni ko'rsatish mumkin.

жадвал – 5

**Тоғ чанғиси учишни ташкил этиш учун рельеф баҳоси (Е.В.Колтовой, 2019 )**

| **Рекуреация баҳоси** | **Трасса баландлиги, м** | **Меҳмонхона ва трасса орасидаги масофа, км** | **Трасса узунлиги, м** | **Ўртача айлана, градус** | **Қиялик юзасининг хусусияти** | **Кучки хавфи** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Қўлай шароит | 1000-2500 | 1 | 1000 | 12-18 | Тошли ҳудуднинг юзаси текис ҳамда мустаҳкам | Айрим кучли қор ёғишидан кейин бўлиши мумкин |
| Қисман қўлай | 1000;2500-3000 | 1-5 | 200-1000 | 18-20; 10-12 | Тошли ҳудуднинг юзаси қисман текис, лекин қўшимча равишда ҳамда мустаҳкам | Кучли қор ёғишидан кейин бўлиши мумкин |
| Қўлай эмас | 3000-4000 | 5-30 | 50-200 | 5-10; 20-25 | | Тез-тез бўлиб туради |

Umuman olganda, mintaqalarni turistik resurslarini baholash orqali, bu mintaqalarda turizm industriyasini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini belgilash mumkin. SHunday ekan, turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini tahlil etish katta ahamiyat kasb etadi.

*Nazorat savollari:*

1. Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilar nimalardan iborat.
2. Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati nimada.
3. Turistik resurslarni miqdor jihatdan baholashni tushuntiring.
4. Turistik resurslarni sifat jihatdan baholashni tushuntiring.
5. Tabiiy resurslarni baholashni turlarini tushuntirib bering.

## 6.Mavzu. Mintaqalarda ekologik turizmni rivojlantirish resurslari va ulardan foydalanish

Reja

6.1.Ekoturizm tushunchasi va turlari.

6.2. Ekoturizmning tarkibiy qismlari.

6.3. Ekoturizmning o'ziga xos xususiyatlari.

6.4. O'zbekistonda ekoturizm resurslari

6.5. O'zbekistonda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

### 6.1. Ekoturizm tushunchasi va turlari

Dunyo miqiyosida turizmning eng yangi yo'nalishlaridan biri ekologik turizm yoki ekoturizmdir. «Ekologik turizm» termini birinchi marotaba 1980 yil meksikalik iqtisodchi G.TSeballos –Laskureyn taklif qilgan. Ekoturizmning asosiy maqsadi sayohat paytida yangi joylarni ko'rish, tabiat go'zalligidan, toza tog' yoki o'rmon havosidan bahra olish, «yovvoyi» tabiat bag'rida dam olish, shuningdek, boshqa xalqlar urf-odati, madaniyati, san'ati, tarixiy obidalarini ko'rishdan iborat. Turizmning bu ko'rinishi Kanada, AQSH, G'arbiy yevropa davlatlari, Markaziy va Janubiy Amerika, YAponiya, Xitoyva boshqa mamlakatlarda tez rivojlanmoqda. Ekologik turizm ayniqsa Avstraliyada yaxshirivojlangan bo'lib, bu soha bo'yicha maxsus dasturlar yaratilgan.

Ekologik turizmni tashkil etish va rivojlanishi uchun ob'ektlar bo'lib, quyidagilar xizmat qiladi:

- milliy bog'lar, davlat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari;
- botanik bog'lar;
- davolash-sog'lomlashtirish joylari va kurortlar;
- qo'riqxonalar.

Ekoturizmning muhim ob'ekti bo'lib, ekologik toza hudud, ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari hisoblanar ekan, mamlakatimiz bu resurs turlariga boy hisoblanadi. Respublakamizda tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik resurslar mavjud. O'zbekistonning boshqa mamlakatlarda uchramaydigan ekzotik tabiati, xilma-xil landshaftlari, flora va faunasi butun turistik regionning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardir.

Hozirgi vaqtda to'rt xil ekoturizm turlari va ekoturlar mavjud.

***1. Ilmiy turizm.*** Bunda turistlar dala sharoitida kuzatish ishlari olib boradilar, tabiatda izlanish ishlarida ishtirok etadilar. Masalan Lotin Amerikasi mamlakatlaridan biri Kolumbiyada, u y e rdagi boy qo'shlar olamini o'rganish uchun «Kolumbiya qushlari» degan ekoturlar o'tkazilib, unda boshqa davlatlardan kelgan ornitologlar ham qatnashib ilmiy izlanishlar olib boradilar. Bunda turistlar aktiv harakat usullari qo'llab, tabiiy go'zallikdan bahra oladilar. Ilmiy tushumga chet elga bo'lgan ilmiy-tekshirish ekspeditsiyalari va tabiiy fakultetlarda o'qiyotgan talabalarning dala praktikasi ham kiradi.

***2. Tabiat tarixini o'rganish turlari.*** Bu atrof muhitni va mahalliy madaniyatni o'rganish uchun qilingan sayyohatdir. Ular ko'pincha qo'riqxonalar va milliy bog'larda takshil etilishi mumkin. Bu turlar tabiat fenamentlari bor joylarda ham tashkil qilinishi

mumkin. Bunga maktab o’quvchilarining poxodlari ham kirib, unda o’qituvchi, o’quvchilarga o’tilgan joylarning tabiati tarixi to’g’risida hikoya qilib beradi.

Samarqand shahridan janubiy – g’arbda Nurobod tumanida qoratepa tog’ tizmasi joylashgan bo’lib, undagi cho’qqi ustida Xazrati Dovut g’ori joylashgan. Bu g’orga borish yo’li obodonlashtirilgan va unga hamma ham borishi mumkin. Lekin g’orga borgan vaqtda malakali ekskursovod rahbarlik qilib, u g’orni paydo bo’lish tarixi va sabablarini tushuntirib bersa, unda mistikaga yo’l qolmas va g’or to’g’risida afsonalarga izoh berilgan bo’lar edi. Bundan tashqari ekoturistlar olib borgan tozalash ishlarida g’or va tashqarisining ko’rinishi ancha manzarali bo’lishi mumkin.

***3.Sarguzasht turizmi***. Bu tur turizm barcha aktiv xarakatni turlarini o’zida jamlangan sayohatlarni o’z ichiga oladi hamda tabiatda dam olish turlari ham bunga kirib ulardan maqsad yangi xissiyotlarni sezish, taassurotlarni boshdan kechirish, turistlarni fizik formasini yaxshilash va yangi sport muvoffaqitlarga erishishidir. Bu tur turizmga alpinizm, qoyalarda yurish, tog’ va piyoda yurish turizmi, suv, chang’i va tog’-chang’i turizmi, otda yurish turizmi kiradi.

***4.Alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarga sayohat (AMETHS)*** etish ekoturizmning asosiy turi hisoblanadi.

Ekoturizm funktsiyalarining asosiy farqi va o’ziga xosligi.

Ekoturizm o’ziga xos xususiyatlarga ega:

- mahalliy aholining o’z hududlarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojida ishtirok etishi;
- turizm ob’ektlari ichida tabiiylikni ko’pligi;
- mutadil tabiatdan foydalanish
- energiyani kam iste’mol etishi;
- Turistlarni ekologiyadan bilimli bo’lishi

## 6.2. Ekoturizmning tarkibiy qismlari

1997 yil Braziliyada bo’lib o’tgan Butunjahon kongressida e’tirof etilgan ma’lumotga ko’ra, dunyo bo’yicha jami sayohatga chiqqanlarning 12 foizi ekoturizmda ya’ni
«yashil» sayohatga chiqishgan. CHet ellik olimlar baholashiga 1993 yil ekoturizmdan tushgan daromad 30 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan, ya’ni xalqaro turizmdagi jami daromadning 10 foizini tashkil etgan. Sayyohatning bu turi asosan AQSH, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Filippen, Keniya, JAR davlatlarida tez rivojlanmoqda.

Turistik sayohatlarga chiqishdan maqsad sayohat vaqtida yangi joylarni ko’rish, tabiat go’zalligidan, toza tog’ yoki o’rmon havosidan bahra olish, «yovvoyi» tabiat bag’rida dam olish shuningdek, o’zga xalq urf-odati, madaniyati, san’ati va tarixiy obidalar ko’rishdan iboratdir.

Ekoturizmni rekreatsion resurslarga: tabiat, tog’ va tekisliklar, daryolar, cho’l va vohalar, ko’l va turli landshaft zonalari kiradi. SHular asosida ekoturizm qo’yidagi tarkibiy qismlarga bo’linadi.

- Dengiz va okeanlar ekoturizmi;
- O’rmon va sun’iy bog’lar zonalariga ekoturizm;
- Daryo va ko’llarda ekoturizm;
- Tog’ ekoturizmi;
- Tarixiy obidalar ekoturizmi;
- Me’morchilik yodgorliklariga ekoturizm;
- Arxeologik qazilmalar ekoturizmi;
- Ekologik mushkul joylar ekoturizmi;
- Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmi.

YUqorida ta’riflangan ekoturizmning tarkibiy qismlari ichida oxirgisi alohida salmoqli o’rin tutadi va ko’pchilik olimlar ekoturizm tushunchasini faqat alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmi deb qo’llashadi.

### 6.3. Ekoturizmning o’ziga xos xususiyatlari

Ekoturizmning rivoji natijasida uning uch asosiy xususiyati paydo bo’lib, ular mahalliy aholining ma’naviy kayfiyatiga, iqtisodiy ahvoliga to’g’ridan-to’g’ri yoki boshqajihatdan o’z ta’sirini ko’rsatadi. Bo’larga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy xususiyati
2. Iqtisodiy xususiyati
3. Ekologik xususiyati

Ijtimoiy jihatdan olib qarasak, ekoturizmning ijobiy tomoni shundaki, u mahalliy aholiga o’zining yurti tabaitini muhofaza qilgani uchun unga iqtisodiy samara beradi, ularni muhofaza etilayotgan hududlarida hamkorlikda ish olib borishga imkoniyat beradi. Ko’pincha muhofaza etiladigan hududlarni asosiy muammolari mahalliy aholining muhofaza etiladigan tabiat hududlari bilan o’zlari yashaydigan joy lardan foydalanish uchun kurashi natijasida kelib chiqadi. Ekoturizm qishloq aholisi uchun, ularning iqtisodiy manfaati uchun kurashda, tabiatning nodir burchaklarini saqlab qolgan taqdirda, undan maxsus foydalanish yo’li bilan iqtisodiy foyda olish yo’lini ko’rsatadi. Lekin, mahalliy aholi o’rtasida ularning olayotgan iqtisodiy foydasi o’sha yerning tabaiatini saqlanishi bilan chambarchas bog’liqligini chuqur tushuntirish ishlari olib borish yo’li bilan isbotlash kerak. YAngi ochilayotgan qo’riqxonalar xududida hamisha ma’lum miqdorda shu yerda yashab turgan aholi qoladi. Masalan, Kitob geologik qo’riqxonasi hududida ayrim qishloqlar qolib ketgan. Qishloqlarning ko’p sonli aholisi azaldan qo’riqxona maydonida dehqonchilik yoki mol boqish bilan shug’ullangan. Qo’riqxona chegarasi aniqlangan vaqtda charvachilik bilan shug’ullanayotgan aholiga ikki shart qo’yiladi, birinchidan qo’riqxona maydonidan tashqariga chiqib yangi turar joyga ko’chish, ikkinchidan, ularni shu vaqtga qadar shug’ullanib kelgan dehqonchilik yoki charvachilik ishlarini qat’iy taqiqlash. CHunki qo’riqxona talabiga asosan, qo’riqxonalar va ularning muhofaza mintaqalarida ularga aloqasi bo’lmagan har qanday xo’jalik ishlari olib borish taqiqlanadi. Qo’riqxona maydonida ekoturistik marshrutlar tashkil etish yoki turistlar talabi asosida, turistik iste’molni qondirish, tabiatni o’rganish, tabiat ekosistemalarini

muhofaza etishda o’zhissasini qo’shish yo’li bilan, mahalliy aholining qiziqishini himoya qilgan holda, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turizm ishlarini olib borish maqsadga
muvofiq hisoblanadi.

Ekoturizmning rivoji natijasida O’zbekistonning janubiy – g’arbiy hududida tabiatni muhofaza etish ishlari rivojlanadi, qo’riqxona hududida joylashgan qishloq aholisi ish bilan ta’minlanib, sifatli turistik faoliyat atrof muhitga zarar yetkazmagan holda olib boriladi, turistik bozor tarkib topadi va qishloq joylarida yangi ish joylari tashkil etiladi.

Turizm xalq xo’jaligi tarmoqlarini rivojiga ijobiy ta’sir etadi, turistik infrastruktura shakllanishi va rivojini tezlashtiradi, ishlab chiqarish kuchlarini bir tekis joylashishiga va xizmat ko’rsatish tarmoqlari faqatgina aholi zich joylashgan yuqori rivojlangan hududlardagina emas, iqtisodiy zaif rivojlangan hududlarga ham ta’sir etadi.

Iqtisodiy jihatdan, turizmning iqtisodiy rivojlangan davlatlarda amaliy ahamiyati ko’pchilikka tanish. Turistik faoliyat natijasida kelayotgan iqtisodiy foyda, ko’p sabablar natijasida paydo bo’ladi va yuqori miqdorlarga yetishi mumkin. Turistik resurslardan tashqari, bu yerda katta rolni turizm infrastrukturasi, reklama, xizmat ko’rsatish, kelayotganlar soni, turistlarning iqtisodiy darajasi, soliqlar va boshqalar egallaydi.

Qo’riqxonalar va milliy bog’lar rekreatsion funktsiyasini ekologik baholash ma’lum murakkablikka ega. U qo’riqxona yoki milliy bog’ga kelayotgan turistlarning xizmat ko’rsatishdagi ekologik samaradorligi bilangina emas, balki kelayotgan foyda bilan ham o’lchanadi. Masalan, «Azchek» va «Teberda» turistik bazalari Teberda qo’riqxonasi chegarasida joylashib, bir yilda 350 ming dollar, Litvaning milliy bog’ida joylashgan «Ignamena» turbazasi esa 76 ming dollar foyda keltiradi.

Rekratsion faoliyatdan kelayotgan foydani baholashda, unga qo’shimcha xizmat ko’rsatayotgan va turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga qo’shilgan, hamda dam oluvchilarga qo’shimcha xizmat ko’rsatayotgan korxonalar foydasi ham hisobga olinadi. Ular ko’pincha qo’riqxonalar va milliy bog’lardan kelayotgan foydadan ham ko’proq bo’lishi mumkin. Masalan 27 ming turistlarni Teberdi qo’riqxonasiga olib borayotgan transport tashkilotlarining foydasi «Azchek» va «Teberda» turbazalari olayotgan foydadan 1,5 marta ko’p bo’lgan.

Ekologik jihatdan, muhofaza etiladigan hududlarda tabiatga sayohat turizmini rivoji, tabiatga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir etishi mumkin. Bir tomondan turizm rivoji dunyoning ko’p qismlarida nodir ekosistemalar va turlari himoya qilish uchun kuchli omil bo’lib xizmat qiladi. Tabiat qo’ynida turizm ekologik faoliyatning bir turi bo’lib, tirik tabiat ne’matlarini undan chiqarib olmaydi (ov va baliq ovlash turizmidan tashqari). Xalqaro ekoturizm rivojlanishi tarixida uning shakllanishida tabaiatni ximoya qilishdagi rolini ko’rsatuvchi ko’plab misollar ko’rsatish mumkin. Turizm muhofaza etiladigan ko’plab hududlarni iqtisodiy holatini ko’tarib, uning tabiatini ekologik holatini yaxshilaydi.

AQSHdagi Yellouston milliy bog’i-dunyodagi tabiiy turizmning beshigi hisoblanadi. Bu yerda turizmning qarama-qarshi yondashuvlarini ko’rish mumkin. Bir tarafdan Yellouston milliy bog’ini ko’rish uchun kelayotgan ko’plab turistlar milliy bog’

joylashgan Montana shtatiga katta iqtisodiy foyda keltiriladi, chunki kelgan turistlar shtatning boshqa xizmat ko’rsatish tarmoqlari, restoranlari, benzen qo’yish stantsiyalari, mehmonxonalaridan foydalanishadi. Ayni vaqtda turizmning kuchli rivojlanishi atrofidagi shaharlar hayot darajasini keskin o’zgartirdi. Bir tarafdan shtatdagi hayot darajasi oshgan bo’lsa ham, boshqa tarafdan yangi yo’llar qo’rilishi, yo’llarda avtotransportning haddan tashqari o’sishi, shovqin so’ronning oshishi, gaz bilan ifloslanishining o’sishi, yer narxining tez o’sishi kabi muommolarni paydo qiladi. Milliy bog’ hududida turistlar miqdori shunchalik ko’paydiki, tabiat bilan muloqatda bo’lishi qiyinlashdi, nodir ekosistemalarni saqlab qalolmaslik xavfi paydo bo’ldi.

Turizm jarayoni davomida uning tabiat resurslaridan foydalanishni rejalashtirishni o’rganish, turistik oqimlarni va uning potentsial ta’sirini mohirlik bilan boshqarishni o’rganish lozim. Turizmni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda hammavaqt uning salbiy ta’sirini o’ylab ko’rish va hisobga olish kerak. SHuni alohida ko’rsatishimiz kerakki, agar turizm atrof – muhitga salbiy ta’sir etsa, u haqiqiy ekologik turizm bo’lmaydi. Isbotlangan haqiqiy ekologik turizm tabiatni muhofaza etuvchi kuchli qurol bo’lib, uning vazifasi tabiatga sayohat vaqtida bo’luvchi salbiy ta’sirlarni kamaytirish va ijobiy tomonlarini yuqori darajada ko’paytirishdir.

Misol tariqasida ko’radigan bo’lsak, Keniyadagi Amboseli milliy bog’ida har bir arslondan ekoturizm ob’ekti sifatida keltiriladigan foydasi 27000 $. SHu yo’l bilan har bir arslon umri davomida 500000 $ Keniya xalqiga foyda keltiradi. Milliy bog’ ishlaganga qadar ov turizmiga ruxsat etilgan vaqtda (21 kunlik tur) chet ellik ovchi har bir otilgan arslon uchun 8500 $ tulagan. Arslon terisini ishlash 960-1325 $ tushgan. Demak ov turizmida bir arslon maksimum 9825 $ foyda keltirgan va o’zi ham qurbon bo’lgan. Ekoturizmda esa har bir arslon 500 000 $ foyda keltirgan va umrining oxirigacha erkin yurgan. SHu misolni o’zi ko’rsatib turibdiki ekoturizm shubxasiz bu jonivorlardan iqtisodiy foyda keltirishning eng qo’lay yo’li va ayni bir vaqtda jonivorni o’ldirilishiga ruxsat berilmaydi.

Ekoturizmda turizmni boshqa turlariga qaraganda kamroq mablag’ sarf etib ko’proq foyda olinadi. SHuning uchun uning iqtisodiy samaradorligi ancha kattadir.

Hozirgi vaziyatda ekoturizm rivojining tabiat komplekslarini saqlab qolishda ishtirokining bir qator ustunliklari bor. Ekoturizm ko’pchilik qo’riqxonalarda iqtisodiy faoliyatning yagona turi bo’lib xizmat qiladi. O’zbekistonda va chet el amaliyoti shundan guvohlik beradiki, ekoturizm imkoniyati foydalanilmagan taqdirda uning «ekologik o’rnini», albatta tabiat uchun halokatliroq boshqa shakl egallaydi.

Ko’pchilik ma’sul turoperatorlar o’z turistlarining sayohatini sifatli tashkil etish uchun ularning bo’lajak sayohat ob’ekti bo’lgan tabiati alohida muhofaza etiladigan hududlar bilan doimiy aloqada bo’lishadi va tabiatni muhofaza etadigan tashkilotlar bilan hamkasblikda ish olib borishadi. SHunday qilib ekoturizmni to’g’ri tashkil etish tabiati muhofaza etiladigan yerlarning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal etishga yordam beradi.

## 6.4. O’zbekistonda ekoturizm resurslari

O’zbekiston ekologik turizm va uning sarguzasht turlaridan rafting, trekking, miniladigan turizm (“door of road”), agroturizm, alpinizm va boshqa sport turlarini rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarga va o’ziga xos xususiyatlariga ega. Ekoturistlar uchun qiziqarli bo’lgan ob’ektlar, ya’ni alohida muhofazaga olingan hududlar doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o’simlik va hayvonot olami resurslari, kam uchraydigan va kamayib borayotgan organizmlar genofondi, ajoyib tabiiat komplekslari, tabiat yodgorliklari ekoturizmni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi.

Ekologik turizm nuqtai-nazaridan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tayanch hududlar sifatida qaralmog’i lozim. G’arbiy yevropa mamlakatlari o’zlarining tabiiy landshaftlaridan allaqachon mahrum bo’lganliklari sababli, yildan- yilga boshqa mamlakatalrning tabiatiga bo’lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. SHuning uchun turistik resurslardan samarali foydalanishda tabiat muhofazasiningo’rni katta.

Ekologik turizm hozirgi kunga kelib jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan turizm sohasiga aylandi. O’zbekistonda ekoturizm rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni vatanimizga jalb etish, noyob o’simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko’paytirish muammolarini hal qilishga, balki mahalliy aholini ish bilan ta’minlab iqtisodiyotimizni rivojlantirishiga katta hissa qo’shadi. Ekoturizm faoliyatidan kelib chiqib alohida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarda amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Mahalliy, aholini ehtiyojini qondirish ko’proq tabiatdan foydalanish turlariga borib taqaladi.

Tabiiy resurslardan ishlab chiqarishda tobora ko’proq foydalanish, jamiyatning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish, inson hayoti va faoliyatini ta’minlash uchun tabiiy muhitdan foydalanishning kuchayishi tabiatning ayrim hududlarini tabiiy holatda saqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday uchastkalar alohida muhofaza qilinadigan hududlar (akvatoriyalar) bo’lib, ular ekologik, genetik, asrash, muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, sog’lomlashtirish, madaniy-maorifiy funktsiyalarni bajaradi va ular faol xo’jalik o’zlashtirilishidan chiqariladi. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar ekologik balansni qo’llab-quvvatlash, tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish, ekotizimlar va organizmlar genofondlari etalonlarini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va saqlash, rekreatsiya va tabiat muhofazasi ta’lim–tarbiyasi, shuningdek, ham tabiiy sharoitlarda, ham inson ta’sirida kechadigan mahalliy, mintaqaviy va global tabiiy jarayonlarni o’rganish maqsadlariga xizmat qiladi.

Ekologik turizmni tashkil etish va rivojlanishi uchun ob’ektlar bo’lib, quyidagilar xizmat qiladi:

- milliy bog’lar, davlat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari;
- botanik bog’lar;
- davolash-sog’lomlashtirish joylari va kurortlar;
- qo’riqxonalar.

Alohida muhofaza qilinadigan hududlar statusi, funktsiyasi, rejimi va boshqarishni tashkil etishdagi farqlari hisobga olinib, quyidagi kategoriyalarga bo’linadi (tasniflanadi):

1. Davlat tabiat qo'riqxonalari, shu jumladan, biosfera qo'riqxonalari.
2. Milliy parklar.
3. Davlat milliy tabiat parklari (bog'lari).
4. Davlat tabiat buyurtma qo'riqxonalari (zakazniklar).
5. Davlat tabiat yodgorliklari.
6. Alohida muhofaza qilinadigan boshqa tabiiy hududlar: suv muhofazasi mintaqalari, kurort-sog'lomlashtirish tabiiy hududlari, rekreatsiya zonalari, botanika bog'lari, dendrologiya bog'lari, qo'riqlanma (oraliq) tegralari, o'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari, hayvonot bog'lari, baliqchilik xo'jaligi tegralari.

Bundan tashqari alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning boshqa shakllari – yashil zonalar, shahar o'rmonlari, shahar parklari, bog'-park san'ati yodgorliklari, muhofaza qilinadigan qirg'oq liniyalari, muhofaza qilinadigan daryo tizimlari, muhofaza qilinadigan landshaftlar, biologik stantsiyalar, mikroqo'riqxonalar va boshqalar ham tashkil etilishi mumkin.

Alohida muhofaza qilinadigan hududlar tizimining roli atrof-muhitning barqarorligini ta'minlash, jamiyatning ijtimoiy talablari va moddiy ehtiyojlarni ta'minlash bilan belgilanadi. SHunga muvofiq alohida muhofaza qilinadigan hududlar quyidagi iqtisodiy -ekologik funktsiyalarni bajaradi:

- genofondni saqlash;
- fundamental ekologik jarayonlar va hayot ta'minoti tizimlarini qo'llab-quvvatlash;
- ilmiy, bilish va tarbiyaviy maqsadlarda muhofaza qilinadigan tabiat komplekslari to'g'risidagi axborot ma'lumotlarini to'plash va ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish imkoniyatlarini ta'minlash.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston hududida – qo'riqxonalar, milliy bog'lar, tabiatning nodir yodgorliklari mavjud. Bu yerda qo'riqxona bilan milliy bog' va tabiatning nodir yodgorliklari o'rtasida farq nima va ularda ekoturizmni qanday rivojlantirish mumkin degan savol tug'iladi.

***Qo'riqxonalar*** *x*o'jalik faoliyati taqiqlangan tabiat komplekslari va ob'ektlari hisoblanadi va ular tabiatni muhofaza qilish, ilmiy, ekologik ahamiyatga ega bo'lgan joylar bo'lib, tabiatning doimiy yoki kamyob landshaftlar, o'simliklar va jonivorlar olamining genetik fondi saqalanadigan yerlar hisoblanadi. YOki boshqacha ta'riflaganda davlat qo'riqxonalari deb, tabiatni qo'riqlanishi shart bo'lgan ilmiy, ekologik – ma'naviy ahamiyatli, tabiiy muhit nishonalari tipik yoki nodir landshaftlar, o'simlik va jonivorlar genetik fondi saqlanadigan va xo'jalik foydalanishidan to'liq chiqarilgan tabiiy komplekslar va ob'ektlar tushuniladi.

Qo'riqxonada dam olish va turizm tabiatga zarar yetkazishi mumkin, lekin oldindan hisoblab chiqarilgan zarar yetkaza olmaydigan rekreatsion bosimga rioya qilish, turizm orqali bo'ladigan salbiy o'zgarishlarni oldini olish mumkin.

***Milliy bog'lar.*** «Milliy bog'» jumlasi 19 asrda AQSHda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda paydo bo'ldi (Yelleuston bog'i 1872 y). Ularni tashkil etishning asosiy xususiyati nodir tabiiy ob'ektlarni odamlarni erkin kirishi va ayni vaqtda

oddiy xo’jalik maqsadida foydalanishni taqiqlash yo’li bilan paydo bo’ldi. Milliy bog’ning qo’riqxonadan farqi shuki, unda insonning xo’jalik faoliyatidan faqat turizmga ruxsat beriladi, qolganlari taqiqlanadi.

SHu maqsadda milliy bog’larning faoliyatini har bir hudud uchun tipik go’zal landshaftlarni, shu yerdagi tarix, madaniyat, arxitektura yodgorliklari bilan saqlab qolish, hamda flora va faunaning genetik fondini ko’paytirish asosida olib borish muhimdir. Asosiysi turizmni rivojini tabiatga zarar yetkazmasdan olib borish asosida ishlab chiqish lozim. Milliy bog’larda ilmiy tekshirish, ma’rifiy ishlarni tashkil etish va ular tabiat muhofazasining nazariy va amaliy tomonlari masalalarini yechish, aholini turli yodgorliklar va e’tiborga molik joylari bilan tanishtirish ishlarini olib boriladi.

Zomin milliy bog’i, 10,5 ming gektar yerni egallaydi va zomin tog’ o’rmon qo’riqxonasi sifatida 1960 yil Turkiston tog’ sistemasining g’arbiy qismidagi tabiat komplekslarini muhofaza qilish uchun tashkil etildi. Keyinroq boy turistik resurslari e’tiborga olinib milliy bog’ga aylantirildi. Milliy bog’ga xarakterli o’simlik archa (zarafshon, turkiston yarim sharsimon turlari)hisoblanadi.

Milliy bog’da yayov yurish va tog’ turizmni rivojlantirish uchun imkoniyat katta. Bu joyning shifobaxshlik xususiyatidan foydalanib, davolash turizmini rivojlantirish mumkin. Lekin milliy bog’ Samarqand, Toshkent, Buxoro va boshqa Jizzax kabi shaharlardan bir muncha uzoq bo’lganligi va unga boradigan yo’llari yaxshi bo’lmagani uchun uning turistik imkoniyatidan to’liq foydalanila olinmayapti.

***Zakazniklar*** maydonida tabiatning ob’ektlarining bir qisminigina xo’jalik tomonidan ishlatiladi va bu ishlatilishi, ma’lum muddatlarda, ma’lum mavsumlarda hamda tabaitga zarar yetkizmaydigan darajada amalga oshiriladi. Ovchilik buyurtmalardan tashqari oxirgi yillarda botanik- landshaft, gidrologik va boshqa maqsadli hamda kompleks tabiat zakazniklari (qo’riqlar) ajratila boshlandi.

Kompleks landshaft zakazniklari (qo’riqlar) deb muhofaza etiladigan tabiat maydonlarni qo’riqlovchi muhim tabiat hududlari tushunilib, unda h turli xil tabiat komplekslari muhofaza etiladi va ayni bir vaqtda unda xo’jalikning boshqa faoliyatlari to’xtatilmaydi.

***Tabiat yodgorliklari.*** Noyob tabiat yodgorliklari, bu – muhofaza qilinadiganob’ekt turlaridan hisoblanadi. Ayrim hollarda tabiiy ob’ektlarni muhofaza qilish uchun katta maydonlarni ishg’ol qilinadigan qo’riqxonalar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo’lmaydi. SHuning uchun kichikroq maydonlardagi tabiiy ob’ektlar «tabiat yodgorliklari» deb qilinadi va muhofaza ostiga olinadi. «Tabiat yodgorliklari» terminini dastlab A.Gumbolt taklif qilgan. O’tgan asrimizning boshlaridayoq yevropada tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish boshlangan edi.

Tabiat yodgorliklari tabiatning o’zgarishi va unda sodir bo’layotgan jarayonlar haqida ma’lum darajada aniq guvohlik beradi. Tabiat yodgorliklari ilmiy – tarixiy va madaniy – estetik ahamiyatga ega.

Umumiy xarakteriga ko’ra, tabiat yodgorliklari geologik – geomorfologik,botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga bo’linadi.

O’zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlar tarkibida 2164 $km^2$ maydonni tashkil etgan 9 ta davlat qo’riqxonasi, 6061 $km^2$ maydonni tashkil etgan

2 ta milliy bog' va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko'paytirish "Jayron ekomarkazi", 12186 $km^2$ maydonni tashkil etgan 9 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni umumiy maydoni 20520 $km^2$, yoki O'zbekiston hududining 5,2 % ni tashkil etadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda yetarli darajada shart – sharoitlar, infratuzilma, hamda moddiy – texnik bazasining, servis xizmatlarini yaxshi yaratilmaganligi mamlakatimizda ekoturizmni rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. SHu munosabat bilan, Prezidentimizning 2006 yil 17 – aprelda "O'zbekiston Respublikasi 2006 – 2010 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 325 sonli qarori chiqdi. Bu bo'yicha Respublikamizda ayrim ishlar boshlangan. Masalan, hozirgi kunda O'zbekistonda ekoturizm yo'nalishlari
«Ekosan» xalqaro jamg'armasining ekoturizm bo'linmasi tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Yo'nalishlar hozircha Zomin milliy bog'i va Nurota qo'riqxonalariga uyushtirilgan. Undan tashqari ekoturizmni rivojlantirish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari"ni ishlab chiqdi. Albatta, bu mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz uchun bir qancha ishlarni amalga oshirishimiz lozim deb hisoblaymiz:

- qo'riqxonalar va milliy bog'lar sonini oshirish;
- mavjud qo'riqxonalar va milliy bog'larni turistik resurs sifatida ilmiyjihatdan o'rganib chiqish;
- ekoturistik resurslarni baholash va ularni kadastrini olib borish;
- mavjud qo'riqxonalar va milliy bog'lardan ekoturizm ob'ekti va rekreatsion resurs sifatida foydalanish uchun kerakli infratuzalmani shakllantirish;
- ekoturizm ob'ekti sifatida mavjud tabiat go'shalaridan tartibli foydalanish;
- ekoturizm bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash;
- ekologik turizm rivojlangan mamlakatlar malaka va tajribasini o'rganish;
- tabiat muhofazasiga alohida e'tibor qaratish va boshqalar.

Milliy bog'lar va davlat qo'riqxonalari tabiatni muhofaza qilish muassasasi bo'lib, ularning hududlari ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan hamda tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ma'rifiy, ilmiy va madaniy maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan tabiiy majmualarni o'z ichiga oladi. Bu hududlarda tabiat ne'matlaridan foydalanilgan holda tabiiy xizmat ko'rsatish sohasini (servis)ni yo'lga qo'yish, kompleks rivojlantirish va turli tematik marshrutlarni tashkillashtirish, ekoturizmni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

## 6.5. O'zbekistonda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish

Mamlakatimizda ham bir qancha qo'riqxonalar, buyurtmalar tashkil etilgan. Biz bu alohida qo'riqlanadigan hududlardan faqatgina ilmiy maqsadlarda emas, ekoturizm maqsadida foydalanishimiz katta iqtisodiy samara beradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda ekoturizm yo'nalishlari «Ekosan» xalqaro jamg'armasining ekoturizm bo'linmasi

tomonidan ishlab chiqilmoqda. Yo'nalishlar hozircha Zomin milliy bog'i va Nurota qo'riqxonalariga uyushtirilgan xolos. Albatta, bu mavjud imkoniyatlardan yaxshi foydalanmayapmiz.

jadval - 6

**O'zbekistonning maxsus qo'riqlanadigan tabiiy hududlarida turizmni tashkil etish xususiyatlari**

| Asosiy maqsadlar | Tashkil etish asoslari | Xuquqiy asoslari |
|---|---|---|
| - mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etish;<br>- yangi ish o'rinlarini yaratish;<br>- aholini yashash darajasini oshirish;<br>- bioxilmaxillikni saqlash;<br>- turizm vositasi orqali yangi tabiiy zonalarni yaratish;<br>- mahalliy aholini tabiat resurslaridan foydalanishini kamaytirish va ularga alternativ daromat manbalarini yaratish;<br>- tabiiy zonalarni byudjetdan tashqari vositalar orqali moliyalashtirish;<br>- aholini ekologik o'qitish, tabiat bilan aloqa madaniyatini oshirish;<br>- insonlar dam olishini imkoniyat yaratish;<br>- ma'lum mintaqalarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish. | - keluvchilar tomonidan tabiiy zonalar bioxilma-xilligiga bulgan salbiy ta'sirlariga yul qo'ymaslik;<br>- keluvchilarni tabiiy zonalarga bo'lgan hatti harakatini kuzatishni ta'minlash, turistik marshrutlarda turli tartiblarni joriy etish;<br>- tabiiy zona hududlarida turistik faoliyatni iqti-sodiy samadorligini ta'minlash;<br>- tabiatni saqlash tadbir-lari va aktsiyalarida qatnashish va b. | - O'zbekiston Respublikasining "Turizm tug'risidagi" qonuni (20.08.1999);<br>- O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish" qonuni (9.12.1992);<br>- Hammasi bo'lib, 15 ta tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlar, 550 ta qonun asosidagi tabiatni qo'riqlash ahamiyatiga ega aktlar, standartlar amal qilmokda. |

**Manba; N.Tuxliyev, T. Abdulleva Menejment i organizatsiya biznesa v turizme Uzbekistana. T.; 2020.**

Buning uchun o'z navbatida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- qo'riqxonalar va milliy bog'lar sonini oshirish;
- mavjud qo'riqxonalar va milliy bog'larni turistik resurs sifatida ilmiyjihatdan o'rganib chiqish;
- mavjud qo'riqxonalar va milliy bog'lardan ekoturizm ob'ekti va rekreatsion

resurs sifatida foydalanish uchun kerakli infratuzalmani shakllantirish;

- ekoturizm ob'ekti sifatida mavjud tabiat go'shalaridan tartibli foydalanish;
- ekologik turizm rivojlangan mamlakatlar malaka va tajribasini o'rganish;
- tabiat muhofazasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'zbekistonning tabiiy sharoiti va ularning ekologik holatini inobatga olib, turistik ob'ektlarni o'rganish va aniqlash, turistik yo'nalishlarni belgilash, ularning hududiylik va majmuaviylik jihatlaridan kelib chiqqan holda tabiiy xizmat ko'rsatish sohasini yo'lga qo'yish shu kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida byudjet kamomadi mavjud bo'lgani sababli ekoturizmning iqtisodiy roli ahamiyatga ega. SHunisi ham muhimki ekoturizmning rivoji qimmat va keng infrastrukturasi talab etmaydi. Demak ekoturizm bo'lajakda kichik xarajatlar hisobida, katta foyda keltiradigan manbaga aylanishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida Kitob geologik qo'riqxonasi ekologik turizm bilan otda yurish va piyoda turistlarga xizmat ko'rsatish tajribasi bor. Turizm uchun yaroqli bo'lgan yozlik mavsumda tog' zonalarida aprel oyidan oktyabrgacha 7 oyga cho'ziladi. Piyoda yuruvchilarning bir guruhi (10 odam) uchun kirish bahosi har bir kishiga bir kunga 50 dollar, otda yuruvchilar uchun 70 dollar deb hisoblansa, bir kunda 10 kishi x 50 $ = 500 $ yoki 10 kishi x 70 $ = 700 $ daromat olish mumkin.

May oyidan boshlab sentbr oyiga qadar otda yurish marshrutlari o'tkaziladi. Kelayotganlar soni bir oyda o'rtacha besh guruh (10 kishidan)ni tashkil etsa, 50 kishi 70$dan 3500 $, 5 oyda esa 17500 $ni tashkil etadi. Demak, bir mavsumda piyoda sayohatchilarni ham hisobga olsak, taxminan 30-35 ming dollar daromat olish mumkin. Undan tashqari qo'shimcha xizmat ko'rsatish tarmoqlari orqali daromatni yana ham oshirishimkoniyatlari mavjud.

Ekoturizmning va ekologik ekskursiyalarning yana bir ahamiyati u ekologik bilim berishning muhim shakli bo'lib xizmat qiladi, tabiatni muhofaza qilish ishini olib boradi, alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarining jamoat ichidagi obruini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunlarda ko'pchilik muhofaza etiladigan hududlar o'z faoliyatlarini jamoatchilikni qo'llashishisiz olib borishi qiyin hisoblanadi. Jamoatchilik yordamini muhofaza etiladigan hududlarga qaratish yo'li bu odamlarni nodir landshaftlarni saqlab qolishda ishtirokchilarini tashkil etishdir. Ko'pincha qo'riqxonalar tomonidan turli tashkilotlar uchun tashkil etgan turlari ularning uzoq muddatli hamkorligi uchun yo'l ochib beradi. Undan tashqari chet ellik ekoturistlar o'zlari kelib ko'rgan qo'riqxonalari uchun yordam fondlari tashkil qilishi mumkin.

*Nazorat savollari:*

1. Ekoturizm tushunchasiga izoh bering.
2. Ekoturizmni qanday turlari mavjud.
3. Ekoturizmning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud.
4. O'zbekistonda ekoturizm resurslarini izohlang.
5. O'zbekistonda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish nimalardan iborat.

**7.Mavzu. Mintaqalarda ziyorat turizmi markazlari va ularni rivojlantirish resurslari**

*Reja:*

7.1. Ziyorat turizmi tushunchasi.
7.2. O'zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.
7.3. O'zbekistonning islom obidalari.

## 7.1. Ziyorat turizm to'g'risida tushuncha

Ma'lumki, turistik resurslarning turlari ko'p bo'lib, sayohatdan maqsad asosan tanishuv, dam olish va sog'lomlashtirish, sog'liqni tiklash va sport hamda diniy ziyorat vaboshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. Turizmning qadimiy va aktiv turlaridan biri budiniy turizm hisoblanadi. Mazkur tarmoqning geografiyasi nazar tashlaydigan bo'lsak, jahonning turli mamlakat, mintaqalarida diniy turistik resurslar turlicha ta'minlangan. Ayni paytda esa hamma joyda ham diniy turistik ob'ektlar mavjud emas. Binobarin, jahon miqiyosidagi, ya'ni dunyo dinlari hisoblangan xristianlik, islom va buddizm hamda mahalliy dinlarga yer shari aholisi e'tiqod qiladi. Diniy ziyorat maqsadida sayohatlar qadimdan rivojlangan, xatto hozirgi kundagi eng aktiv "turmigrtsiya" hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgoh, o'zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy turistik sayohatlarga chiqmoqdalar. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln. xristianlar, 45 mln.musulmonlar, 40 mln. buddistlar, sintoistlar, 30 mln. induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat uyuushtirgan (Aleksandrova, 2002). Demak, dunyoda diniy turistik migratsiyasi aktiv hisoblanib, sayohlar asosan ruhan poklanish, buyurilgan amallarni bajarish, mqaddas maskanlarni ziyorat etishadi. Turistik oqimlarga diniy motivatsiyalar sezilarli ta'sir o'tkazadi. Diniy turizm ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Ilk sayohatlar to'g'risida ma'lumotlar Antik davrga taaluqlidir. Eng mashhur ilohiy markaz Ollada Delfada joylashgan. U o'z diniy peshvolari bilan umumiy Gretsiya ahamiyatiga ega bo'lgan. Ko'p sonli zohidlar, sayyohlar bu yerga bashoratchi Pifiyaning karomatlarini kutish uchun kelishgan.

Diniy motivlar bo'yicha migratsiya O'rta asrlar davriga to'g'ri keladi, u taraqqiy etish davom qildi, yangi qirralar paydo bo'ldi. Ziyorat Solb yurishi shaklida o'ziga xos ommaviy xarakater kasb etadi. U shakkoklarga (musulmonlar) qarshi kurash bayrog'i ostida, xristianlarning muqaddas joylarini ulardan ozod qilish shiori ostida o'tkazilgan.

Ziyorat harakatlari XV va XVI asrlarda sezilarli kengaygan. Uning ko'lami kengayishi bilan oqimlari har xilligi ham kuchaydi. Muqaddas yerga borayotganlarning ko'pchiligi o'z maqsadlari va qiziqishlarini diniy ziyorat bilan niqoblashgan. Ular orasida quddusda Xudo qabriga o'zini bag'ishlagan aslzodalar ham, avliyolik bilimlarni egallashni orzu qilganlar ham, ijod ahlilari ham bo'lgan masalan, YUstus Tepellus va Velgelm Postel – Frantsiya qiroli Frantsiska II topshirishga ko'ra, Falastinda Parij

kutubxonasi uchun qo'lyozmalar yig'ilgan, savdo-sotiq maqsadida sayohatga chiqqan savdogarlar ham bo'lgan.

XIX asrda «Muqaddas sayohatlar» tashkiliy shakl kasb etdi. 1861 yildan boshlab har yili Frantsiyada respublika hukumatining cherkovga qarshi jinoyatlari uchun tavba-tazarri qilish belgisi ostida ziyoratchilar karvoni tashkil qilingan. Uning ishtirokchilari soni 300-400 kishiga yetgan. 1870 yillar oxiridan frantsiskachilar Venadan va Myunxendan ham xuddi shunday karvonlar jo'nata boshladilar.

Bugun ham ko'p asrlar avvalgidek diniy e'tiqod sayohat bosh motivlaridan biri hisoblanadi. Har yili 200 mln. kishi dunyo bo'ylab ziyoratga boradi. Ulardan 150 mln. xristianlar, 20-30 mln. hindlar, 40 mln. buddistlar, musulmonlar, sintoistlar va boshqalardan, ziyoratchilar ruhiy xotirjamlik, og'ir iztiroblardan xolos bo'lish, ma'naviy yaqin kishilari bilan bir bo'lish umidida muqaddas joylarni tavob qiladilar.

Ular yashash va hayot mazmunini ato etgan yaratganga shukrona aytish uchun yo'lgaotlanadilar. Bu bilan o'z imon – e'tiqodlariga sodiq ekanliklarini izhor qiladilar.

Ziyoratchining keng va xilma-xil geografiyasini o'rganish uchun rayonlashtirishdan foydalaniladi. Jahonda ziyoratning 11 makro hududi ajralib turadi:

- Xristian yevropasi;
- xristianlik va boshqa ko'psonli dinlar bilan mustahkam o'rin egallovchi SHimoliy Amerika;
- Xristianlik va an'anviy dinlar bilan Lotin Amerikasi;
- Islomni qabul qilgan SHimoliy Afrika;
- Islom hukmron va alohida xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud g'arbiy va SHarqiy Afrika;
- Buddizm islom, xristianlik va hinduzimni egallagan Janubiy-SHarqiy Osiyo;
- Buddizm bilan (asosan lamaizm) mustahkamlangan Markaziy Osiyo;
- Islom hukmron O'rta Osiyo;
- G'arbiy Osiyo islom va xristianlik, iudizm bilan mustahkamlangan;
- Janubiy Osiyo iudizm va buddizm tarqalgan, shuningdek xristianlik, jaynizm, sikxizm va islam mavjud.

Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahoniy markazlari bilan mashhur. Ular e'tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul, qiladilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari funktsiyalari bilan qo'shilib ketadilar. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig'inish ob'ektlari mavjud. Quddus-jahonning yirik diniy markazi. Quddus uch din e'tiqodchilari islom, xristianlik, iudizm uchun muqaddas markaz. Jahon ilohiy markazlari orasida alohida o'rin egallaydi. Iudizmga sig'inuvchi yaxudiylar, ancha ilgarigi monoteist dinlaridandir. Ulardan ko'pchilik xristianlikka mansub – muqaddas toqqa, yig'i devorlariga boradilar. Bu yerda devor oldidagi uncha katta bo'lmagan maydonda ular qachonlardir arablar tomonidan vayron qilingan ibodatxonaga qatg'u bildirdilar. Qora kiyingan ziyoratchilar qo'l ushlashib bir ohangda chayqalgan holda Xudo YAxvega iltijo bilan murojat qiladilar. Xristianlar uchun quddus Iso payg'ambarni yerda bo'lishi bilan bog'liq. Ularning ziyorat programmasida eng muhim manzil tirilish ibodatxonasi:

- jahon xristian olamining bosh muqaddas joyi hisoblanadi. Har bir sig'inuvchi bu ibodatxonaga tashrif buyurishga intiladi. Uning Golgofe butiga, Pomozoniya toshiga, tangrining tiriklik nishon tobutiga sajda qiladilar. Xudoning o'g'li dafn etilgan joy ramzi;
- xochga mixlangan siymo turli xristian ibodatlari buyumlari bilan zich qurshalgan. Rim katoliklari xudoga qayg'uli sukutda turgan armon ruhoniylari qatorida toat-ibodat qiladilar. Xuddi shu yerda suriyalik sig'inuvchilarning shivirlab ibodat qilganlari eshitilib qoladi.

Ruhiy hotirjamlikka limmo-lim qalb va xor qo'shiqning Afrika ohanglariga xos ovozi ostida efiopiyaliklar o'z marosimlarini bajo keltirishadi. Boshqa qo'shni joylashgan xorda greklar ibodat qiladilar. Hech kim, hech kimga halaqit bermaydi, hammaning diqqati o'z ibodatiga qaratilgan. Musulmonlar quddusda o'z bayrog'lariga ega. Ular to'planadigan joy – bizning ko'plargacha saqlanib qolgan ilohiy inshooti – Umar mochiti hisoblanadi. Gumbazi muqaddas qoya timsoli, diniy tasavvurlarga ko'ra Muhammad payg'ambar undan arsh-a'loga ko'tarilib ketgan. Muazzaining dinamiklar yordamida kuchaytirilgan ovozi har kuni besh marotaba qadam shahar o'zra yangrab musulmonlarni namozga chorlaydi.

Bu makromintaqalarni biz mavjud diniy ziyoratgohlar salohiyatidan kelib chiqqan holda ajratdik. Ular ichida eng muhim mintaqa yevropada Vatikan, G'arbiy Osiyoda Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina va Quddus shaharlari hisoblanadi. O'rta Osiyda esa O'zbekistonning qadimiy Buxoro va Samarqand, Toshkent, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarida diniy turistik resurslar mavjud.

### 7.2. O'zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari

Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, ya'ni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizdaham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoniy, Imom al- Buxariy, Mahtumi A'zam, SHohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi azizavliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. CHunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. SHu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart - sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisolanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Buning uchun Samarqand shahri aeroportini jahon andozalariga yarasha bo'lishi, masalani asosiy yechimidir.

Mustaqallik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar
1.5 mlrd. Musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Xususan, Janubi – SHarqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, yo'l qurish, transport imkoniyatlarni o'rganish maqsadida muvofiq deb hisoblaymiz.

Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Achinarli holati shundaki, islom dunyosida katta xizmat qilgan, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo'nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqiyosidagi bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh ob'ektlariga aylantirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo'lib kelgan. Insoniyat borki, u e'tiqod qiladi, sig'inadi, ruhan va ma'naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. SHuning uchun u diniy ziyoratni hoxlaydi. Buning uchun muqaddas ziyoratgoh bo'lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, kelajakda diniy turizmni rivojlantirishga yanada e'tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### 7.3. O'zbekistonning islom obidalari

Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni ziyoratchilik turizmi bo'lib hisoblanadi. Ziyoratchilik turizmning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. YA'ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to'g'ri keladi. Ziyoratchilik turizmning asosiy paydo bo'lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar. Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy mahsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig'inish chog'ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko'ngillarning poklanishi, og'ir kasalliklardan xolos bo'lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so'rab kechirishlarini, safar chog'ida safdoshlari bilan ma'naviy yaqinlikda bo'lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o'z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o'z ko'ngillaridan o'tkazadilar.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular yer sharining deyarli hamma qit'alarida joylashgandir.

Musulmon olamida ziyorat qilish makonlari ham anchagina. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ular qatoriga Janubiy Qozog'iston viloyati, Turkiston shahridagi Axmad YAssaviy maqbarasi; Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi; Toshkent shahridagi SHayx Xivanda Taxur maqbarasi, Qaldirg'och-biya maqbarasi, YUnusxon maqbarasi; Hazrati Imom majmuasi; Abubakr Muhammad Kaffal SHashi maqbarasi; SHayx Zayniddin bobo maqbarasi; Samarqand viloyati Payariq tumani Xartang qishlog'idagi Imom Al-Buxoriy majmuasi; Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onidagi Maxtumi A'zam maqbarasi; Samarqand shahridagi SHohi Zinda, Amir Temur, Ruhobod, Xo'ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo'ja Axror Vali, Oq saroy, CHo'ponota maqbaralari; Buxoro shahridagi–Ismoil Samoniy, CHashmai Ayub, Sadriddin Buxarzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, CHor Bakr maqbaralari; Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi; Qashqadaryo viloyatida–Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko'k gumbaz masjidi; Surxondaryo viloyatida - Hakim at- Termiziy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi; Jizzax viloyatida–Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi; Farg'ona viloyatida Daxmon SHaxon go'rxonasi, Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyohlarni o'ziga jalb qilib keladigan maskanlar bo'lib hisoblanadi. O'zbekistondagi islom obidalari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni 3 – ilovadan olishingiz mumkin.

*Nazorat savollari:*

1. Ziyorat turizm to'g'risida tushuncha bering.
2. O'zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday.
3. O'zbekistonning islom obidalariga ta'rif bering.
4. O'zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish masalasida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda.

## 8.Mavzu. Mintaqalarda qishloq turizmini rivojlantirish resurslari

Reja:

8.1. Qishloq turizm tushunchasi va turlari.
8.2.Qishloq joylarida turizm resurslari.
8.3.O'zbekistonda qishloq turizm resurslari va imkoniyatlari.

### 8.1. Qishloq turizm tushunchasi va turlari

Hozirgi davrning muhim masalasi iqtisodiyotni rivojlantirish, aholini ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilashdir. Respublikamiz aholisining 60% dan ortiq qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. SHuning uchun mehnat resurslariga boy hisoblangan qishloq joylarida yangi ish o'rinlarini ochish, aholini faravon yashashida asosiy omil bo'lib

hisoblnadi. Bu borada 2007 yil 12 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2007 yil iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida respublikamiz prezdenti I.A. Karimovning «YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir» deb nomlangan nutqida qishloq aholisini yashash tarzini yanada yaxshilash, buning uchun yangi ish o'rinlarini ochish muhimligini ta'kidladilar.

Bugungi kunda turizm jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes ko'rinishlaridan biriga aylangan. U bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, danyoning ko'pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo'jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi, iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at va boshqa turistik resurslarga boy hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimizning betakror tabiati, tog' va tekisligi, daryolari, cho'l va vaholari, turli landshaft zonalari asosiy rekreatsiya resurslaridir. Mamlakatimizda yosh tarmoq hisoblangan turizm, kundan kunga rivojlanmoqda. Bu esa, ko'pgina ish o'rinlari ochish imkoniyati mavjudligini bildiradi. Ayni kunlarda respublikamizda iqtisodiy faol aholining turizm sohasida bandlik ulushi juda ham oz. Bu borada qishloq aholisining ishtiroki umuman kam.

Hozirgi kunda jahon tajribasida turizmning agroturizm shakli keng rivojlanmoqda. Agroturizmni mamlakatimizda rivojlanishi istiqbollari porloq hisoblanadi. CHunki, mamlakatimiz agrar-industrial xo'jalikka ega bo'lib, asosiy mehnat resurslarimiz qishloq xo'jaligida band. Undan tashqari, mamlakatimiz rekreatsiya resurslariga boy hisoblanib, rekreatsiya faoliyati tarmoqlarini rivojlantirish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o'tuvchi mamlakatlar uchun moliyaviy resurs manbalari o'ta zarur hisoblanadi. SHu jihatdan oladigan bo'lsak, agroturizm yuqori daromat keltiruvchi xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Mutaxasislar agroturizmni besh turini ajratishadi:

- Sport;
- Madaniy – tanishuv;
- Fermerchilik;
- Ish yuzasidan faoliyat;
- Ekologik.

Bunda, birinchi ikkitasi ijtimoiy ahamiyatga, keyingi ikkitasi ishlab chiqarish ahamiyatiga ega. Fermerchilik asosida agroturizmni tashkil etish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati yotsa, ish yuzasidan agroturizm ilmiy – texnik hamkorlik, qo'shma korxonalar tashkil etish va boshqa faoliyatlarda shakllanadi.

Agroturizmni rivojlantirishni o’ziga xos xususiyatlariga ega. Bularga quyidagilar hisoblanadi:

- qishloq joylarida joylashish va ovqatlanish shaharga nisbatan 2-2,5marotaba arzonligi;
- qishloq joylarining ekologik jihatdan tozaligi;
- ekologik toza ovqat turlarining mavjudligi;
- etnografik turizm ob’ekti sifatida, qishloq joylarida milliylikniko’proq saqlanib qolganligi va boshqalar.

## 8.2. Qishloq joylarida turizm resurslari.

Qishloq turizmi haqida gapiradigan bo’lsak, XX asr boshlarida Sankt - Peterburg aristokratlari va ular qatoriga o’zlarini qo’yuvchi bylar ham Baden – Badenda dam olishga qurblari yetmagan. Bunday kishilar o’sha vaqtlarda kurort rayon hisoblagan Martishkino (peterburgning janubiy qismi)da yoki Finlyandiya poytaxtiga 30 km. lik yo’l bo’lgan Teriokoda arzon dala hovlilarni dam olish uchun ijaraga olishgan. Sababi, u yerda xorij pasportlarini rasmiylashtirish kerak bo’lmagan. Bunday dala hovlilarni ijaraga oluvchi talabdorlar asosan ziyolilar bo’lgan.

Dam olish vaqti har qanday shaharlik uchun qishloqdami yoki hovlidami juda ham maroqlidir. Bu hayot talabi, me’yoridir. Har qachon ham dala hovlilarni yoki boshqa joylarni ko’p yillar davomida ishonganva tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijaraga olingan. Qishloq turizmining o’ziga xos tomonlari shundaki, masalan, Sitsiliyaning agrar viloyatlorida ishchi kuchi keragidan ortiqligi kambag’al turistlarni yoki talabalarni ish haqi to’lamasdan, boshrana va ovqat uchun ishga yo’llash mumkin. Bunday «dam oluvchi» o’sha yerga borib qaytishi uchun mablag’ topsa bo’lgani. Yo’l-yo’lakay bir-ikki kun plajlarda cho’milish, muzeylarni, yodgorliklarni va boshqalarni ko’rishi mumkin.

Hozirgi vaqtda qishloq turizmi alog’ida daromad keltirilgan tur hisoblanib, dunyo turizm bozorida alohida qat’iy o’rin tutadi.

Qishloq turizmi dengiz kurortlari kabi katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham, turizm sohasida muayyan o’rin tutadi. Uni o’rganib rivojlantirish alohida e’tiborga loyiq. Respublikaimz qishloq turizmi yo’q darajada. Qishloqdagi aholining kamligi, tabiatning tozoligi, ekologik jihatdan qulayligi tufayli uning kelajagi bor.

Aytish joizki, qishloqlarada turist bo’lib turish, kurort zonalariyoki mashhur turistik markazlarga nisbatan ancha arzon. Hamma ham qimmatboho turistik markazlarda dam ololmaydi, shu jihatdan qishloq turizmni rivojlanish katta ahamiyatga ega. Qishloq turizmi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- qishloq joylarda aholida kategoriya odamlar uchun ularning pul mablag’lari miqdoriga qaramay, masalan, oilaning an’analariga ko’ra;
- vrach maslahatiga binoan qishloq iqlim sharoitlarida sog’lomlashtirishni olib borishga ko’ra;
- tabiat bilan yaqinlik, ko’proq vaqtni toza havoda o’tkazish maqsadiga;
- ekologik toza va arzon mahsulotlar bilan oziqlanish mumkinligi uchun;

- qishloq xo’jaligi ishlari bilan band bo’lish, ishlash uchun real imkonlar borligi;
- hayot uchun zarur bo’lgan kerakli narsalarni topish maqsadida minglab kilometr masofani bosib o’tirmaslik uchun;
- boshqa ijtimoiy guruhidagi odamlar bilan muloqotda bo’lish, ularning madaniyati, urf-odati bilan tanishish, bayramlari va o’yinlarida qatnashish imkoniyatini mavjudligi.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, mamlakatimiz rekreatsiya resurslariga boy hisoblanadi. Rekreatsiya resurslari bu - turli komponentlar birikmasidan iborat, insonning dam olishi va davolanishi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan vositalardir. Kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko’ra rekreatsiya resurslari ikki guruhga ajratiladi: ***tabiiy*** va ***antropogen*** rekreatsiya resurslari.

Tabiiy rekreatsiya resurslariga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go’zal tabiat go’sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko’l, dengiz bo’ylari, tog’ etaklaridagi o’simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo’lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug’ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog’lar yoki qo’riqxona, milliy bog’lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

### 8.3. O’zbekistonda qishloq turizm resurslari va imkoniyatlari

Turizmni shakllanishiga asos bo’luvchi turistik resurslar asosan qishloq joylarida joylashgan. Bu holatni Samarqand viloyati buyicha tahlil etadigan bo’lsak, viloyatning yer osti va yer usti gidrologik suv resurslari, tog’, tog’ oldi etaklari hamda tog’ oralig’i soylarida tabiiy ravishda hosil bo’lgan landshaftlar (tabiat manzaralari), yam-yashil o’rmonzorlar (Omonqo’ton), tog’u-tosh jins shakllari (Qoratepa), tog’ daralari (chuqurliklari), g’orlar (Hazrati Dovud, Kelsi, Lev), noyob tabiat yodgorliklari (Kamongaron, G’us), shifobaxsh buloqlar, YUqori chinor (Mingchinor), Qaynar buloq, Rohatbuloq, ajoyib ko’llar (Muz buloq, Alvasti ko’llari), go’zal shar-sharalar (G’ussoy, Kamangaron) va hakozolar mintaqamiz turizm imkoniyatlarini yanada oshiradi. Zarafshon daryosi qadimiy turistik ob’ektlarga boy yaxlit sayyohlik majmuasi hisoblanadi.

SHuni ta’kidlash joizki, viloyatning tog’, tog’ oldi hududlarida mavjud bo’lgan beqiyos shifobaxsh, tibbiyot va boshqa sohalarda keng ko’lamda foydalanadigan chashma va buloq suvlari o’zining ekologik jihatdan tozaligi, xilma-xil kimyoviy elemerntlarga

boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ular aholi sog’ligini tiklash, sog’lomlashtirish, dam olish uchun qo’lay imkoniyatlarni yaratadi va mintaqamizda rekreatsiya (sog’lomlashtirish, hordiq chiqarish) turizmning ahamiyatini oshiradi. Bunday tabiiy maskanlar viloyatimizning Urgut, Samarqand, Nurobod, Qo’shrobod va boshqa tumanlari tog’, tog’oldi hududlarida tarqalgan bo’lib, ulardan turizm maqsadida foydalanish muhim ahamiyatga ega bo’ladi. Viloyatning yana bir qator tumanlarida va qishloqlarida ming yillik davrga teng qadimiy noyob daraxtlar (archalar, chinorlar) hanuzgacha saqlanib

qolgan. Ular qatoriga Urgut shahridagi yuqori CHor CHinor (1020 yillik), Kattaqo'rg'on tumani Qoradaryo qishlog'idagi chinor (565 yillik), Nurobod tumani Tim qishlog'idagi archa 1000 yillik, Jomboy tumani Xolvoyi qishlog'idagi ming yillik archalarni misol keltirish mumkin. Ayniqsa, Jomboy tumanida joylashgan Zarafshon daryosi qayirida joylashgan Zarafshon qo'riqxonasi betakror o'simlik va hayvonat dunyosining xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi va mavsumiy hamda qisqa muddatli sayyohlikni tashkil qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Viloyatning chala cho'l va cho'l hududlari ham esa o'ziga xos hayvonat va o'simlik dunyosiga ega. Ularda sudralib yuruvchilar turkumidan turli xil zaharli ilonlar, cho'l toshbaqalari, qushlardan to'rg'ay, qarchig'oy, sut emizuvchilardan sariq sassiq ko'zan, kabilar uchraydi. Mazkur hududlar o'simlik va hayvonat dunyosiga qiziquvchi ***ekoturizm*** ishqivozlari uchun yangi turistik marshrutlarni tashkil etishni talab qiladi.

Agroturizmni ma'lum bir mintaqaning o'ziga xos dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish jarayonini ko'rsatish maqsadida tashkil etish mumkin. Bu tajriba yevropaning bir qancha davlatlarida rivojlangan. Masalan, Frantsiya vaPortugaliya mamlakatlarida uzumni yetishtirishdan boshlab, undan turli ichimliklar olishgacha bo'lgan bir butun jarayon tur sifatida taklif etilgan. Xuddi shunday jarayonlarni mamlakatimizda ham rivojlantirish imkoniyatlari keng. Mamlakatimizning xalqaro darajada ixtisoslashgan tarmog'i hisoblangan paxtachilik tarmog'ida ham bir qancha turlarni ishlab chiqish mumkin. Bu jarayonni quyidagi ketma - ketlikda amalga oshirsa bo'ladi:

***Paxta maydoni → paxta qabul qilish punkti → paxta tozalash zavodi → ip-yigiruv korxonasi → tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona.***

Bu turda, birinchi navbatda paxta maydoniga boriladi, unda hosilni yig'ib olish jarayoni ko'rsatilishidan boshlab, tayyor mahsulotga bo'lgan bir butun faoliyatni qamrab olinadi. YUqoridagi sxemaga o'xshab qishloq xo'jaligini boshqa tarmoqlarida ham turli turlarni ishlab chiqish mumkin.

Sog'lomlashtirish va sog'likni tiklash turizmi bevosita rekreatsiya resurslari bilan bog'liq bo'lib, kishilarning mehnat ta'tili vaqtlarida o'z salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan faoliyatidir. YUrtimizdagi havosi toza, o'ziga xos tabiatiga ega joylarga boy. Bu mintaqalarda sanatoriya – sog'lomlashtirish majmui hisoblangan kurortlarni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Undan tashqari qishloq joylarimiz diniy turizm, ya'ni aziz avliyolar qadamjolarini ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Birgina Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan Imom Al-Buxoriy ziyoratgohi misolida oladigan bo'lsak, bu majmua mustaqillikdan keyingi bunyodkorlik natijasida muhim ziyoratgohga aylandi. Bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. SHu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart - sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Buning natijasida xizmat ko'rsatish sohalari kengayib, yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Qishloq joylaridagi ekologik toza hudud, ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari ekoturizmni muhim ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ekoturistlar uchun qiziqarli

bo'lgan ob'ektlar, ya'ni alohida muhofazaga olingan hududlar (milliy bog' va qo'riqxona) doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o'simlik hamda hayvonot olami resurslari, ajoyib tabiat kompelkslari , tabiat yodgorliklari ekoturizmni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi. Bu hududlarda tabiat ne'matlaridan foydalanilgan holda tabiiy xizmat ko'rsatish sohasi (servis)ni yo'lga qo'yish, kompleks rivojlantirish va turli tematik marshrutlarni tashkillashtirish sohani rivojida hamda qishloq joylarida ko'pgina yangi ish o'rinlarini yaralishiga zamin bo'ladi. Undan tashqari tog'li hududlardagi xushmanzara joylar nafaqat mahalliy aholini, balki chet ellik sayyohlarni ham o'ziga jalb qiladi. Bu imkoniyatlardan qishloq joylarida samarali foydalanish uchun quyidagi talablarni amalga oshirishimiz lozim:

- mavjud qo'riqxonalar, milliy bog'lar va tog'lardagi xushmanzara va noyob tabiat go'shalarini turistik resurs sifatida ilmiy jihatdan o'rganib chiqish;
- mavjud qo'riqxonalar, milliy bog'lar va tog'lardagi xushmanzara va noyob tabiat go'shalarini ekoturizm ob'ekti va rekreatsiya resursi sifatida foydalanish uchun kerakli infratuzalmani shakllantirish;
- ekoturizm ob'ekti sifatida mavjud tabiat go'shalaridan tartibli foydalanish;
- xududlarni turistik rayonlashtirish va ularni ekoturistik nuqtai nazardan baholash;
- tabiat muhofazasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Qishloq joylarimiz turizmni rivojlantirish resurslariga boy ekan, faqat undan samrali foydalanishda turistlarni joylashtirish va ovqatlantirish, transport xizmatini ko'rstish, umuman olganda xizmat ko'rstish sohalarini shakllantirish asosiy omil hisoblanadi. Bu sohalarning rivojlanishi natijasida quyidagilarga erishamiz:

- qishloq manzilgohlarida yangi ish o'rinlari ochilib, mehnat resurslari ish bilan ta'minlanadi;
- aholi salomatligi yaxshilanadi;
- qishloq manzilgohlaridagi turistik – rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish katta iqtisodiy foyda keltiradi va shu joyning ekologik holatini yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi;
- qishloq manzilgohlarida turizm rivojlanib, turistik infratuzilma shakllanadi va h.k.

*Nazorat savollari:*

1. Agroturizm tushunchasiga ta'rif bering.
2. Agroturizmni qanday turlari mavjud.
3. Mamlakatimizda qishloq joylarida qanday turizm resurslari mavjud.
4. O'zbekistonda agroturizm resurslari va imkoniyatlarini izohlang.

## 9.Mavzu. Mintaqaviy rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik– iqtisodiy xususiyatlari

***Reja:***

9.1.Rekreatsiya resurslari tushunchasi.
9.2.O'zbekistonning rekreatsiya resurslariga boy mintaqalari.
9.3.Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari.
9.4.Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalanish va muhofaza qilish

### 9.1.Rekreatsiya resurslari tushunchasi

Rekreatsiya deb, insonlar sog'ligini va mehnatga qobiliyatini dam olish ob'ektlarida qayta tiklashi, sayyohlik yo'li bilan tabiatning turli maskanlariga borishi, arxitektura va tarixiy yodgorliklarni borib ko'rishiga aytiladi. Rekreatsiya sohalari bir qancha bo'lib, ularga kurort – sanatoriya va boshqa salomatlik ob'ektlarida sog'likni tiklash, sayyohlik yo'li bilan tabiatning go'zal go'shalariga (daryo, ko'l, o'rmon, tog', g'orlar, sharshara va b.) borish, sport bilan shug'ullanish, hamda noyob tarixiy va arxitektura yodgorliklari bilan tanishishlari kiradi. Rekreatsiya va davolash sog'lomlashtirish zonalarida ularning resurslaridan oqilona foydalanish va atrof- muhit muxofazasi katta ahamiyatga ega. Rekreatsiya zonalariga aholining tashkil etilgan va ommaviy dam olishi va turizmga mo'ljallangan yer va suv muhitining tabiiy yoki madaniy hududlari kiradi. SHunday zonalar tarkibiga shaharning ayrim hududlari, shahar atrofi va yashil zonalar, o'rmonlar, parklar, milliy, tabiiy parklar (bog'lar), botanika, zoologiya bog'lari, dendrologik parklar, turistik marshrutlar, dam olish uylari va bazalari hududlari, qo'riqxona va buyutmalarning aholi borib ko'rishi uchun ajratilgan ma'lum joylari kiradi. Rekreatsiyaga mo'ljallangan yerlar tabiat muhofazasi yerlarining alohida turi bo'lib, ularga tabiat muhofazasi, sog'lomlashtirish, tarixiy - madaniy maqsadlarga mo'ljallangan yerlar ajratiladi. O'rmonlar ham rekreatsiya uchun katta ahamiyatga ega. Davolash-sog'lomlashtirish zonalariga fuqoralarni davolash va salomatligini tiklashga mo'ljallangan yer va suv muhitlari hududlari, ularga kurort va sanatoriya zonalari kiradi.

Rekreatsiya faoliyati bevosita rekreatsiya resurslari asosida shakllanadi. Rekreatsiya resurslari tabiiy va madaniy, iqtisodiy, tarixiy resurslarning bir qismlaridan iborat bo'lib, kelib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko'ra rekreatsiya resurslari ikki guruhga ajratiladi: ***tabiiy*** va ***antropogen*** rekreatsiya resurslari.

Tabiiy rekreatsiya resurslarga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go'zal tabiat go'sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko'l, dengiz bo'ylari, tog' etaklaridagi o'simlik dunyosi, xilma – xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo'lishi mumkin. Undan tashqari aholining dam olishi, sport bilan shug'ullanishi, ov qilishi imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxona va milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir. Turli davrlarda inson aql – zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san'at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalish mumkin bo'lgan ijtimoiy ob'ektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi.

Rekreatsiya faoliyati dunyoning ko'p mamlakatlarida daromat manbaiga aylangan iqtisodiyot sohasi hisoblanadi. Mmlakatimiz ham rekreatsiya resurslariga boy hisoblanib, nafaqat dam olish, sayyohlik, sog'likni tiklash, shuningdek chet el sayyohlarini qabul qilish imkoniyatlariga ega.

## 9.2.O’zbekistonning rekreatsiya resurslariga boy mintaqalari

Aholining salomatligi va atrof-muhit sifati o’rtasida bevosita va bilvosita aloqalar mavjud. Masalan, Jahon sog’liqni saqlash tashilotining ma’lumotlariga ko’ra, axoli salomatligi 50-50% ularning iqtisodiy ta’minoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof muhitning holatiga, 20-30% tibbiiy xizmat darajasiga bog’liq bo’ladi. Xavoning ifloslanishi aholi salomatligining 43-45 % yomonlashuviga sabab bo’ladi. Zamonaviy gigiyena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining o’rtacha darajasi 20% ga oshishini aniqlagan. Bunday vaziyatda rekreatsiya faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishning muhim tarmog’iga aylangan bo’lib, u aholining ishdan bo’sh vaqtidan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi. Rekreatsiya inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo’nalishni qamrab oladi. Unda dam olish va sog’lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta’lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o’z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog’lomlashtirish, umrni o’zaytirish, insonning jismoniy va ma’naviy darajasini oshirish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni oshirish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan rekreatsiya faoliyati (turizm )shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasalliklarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdorligini oshirishnigina ta’minlab qolmay, balki 20-50 % ga yurak-tomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo’lishining oldini olishni ta’minlaydi.

O’zbekiston tabiati rang – barang bo’lib, yilning issiq vaqtlaridan tashqari, qish va kuz fasllarida ham dam olishni tashkil etishni imkoniyati mavjud. Misol uchun tog’li hududlarda qishki sport – dam olishni amalga oshirish mumkin. Toshkent viloyatida joylashgan CHimyon sport – dam olish majmuasi kata imkoniyatlarga ega. Xuddi shunday majmualarni Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari tog’li mintaqalarida ham tashkil etish mumkin. Sog’likni tiklash manbasi hisoblangan mineral suv va balchiqlar soni mamlakatimizda 200 dan ortadi. Bu yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy – biologik va boshqa xususiyatlariga ko’ra bir – biridan farq qiladi. SHuning uchun bu joylarda turli shifoxonalar, sanatoriy – kurortlar va boshqa sog’lomlashtirish muassasalar qurish mumkin. Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Sangzor, Ohangaron va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog’ soyliklari rekreatsiya resurslariga boy bo’lib, bu mintaqalarda dam olish oromgohlarini tashkil etish ko’paysa, birinchidan, aholini salomatligi yaxshilanadi, ikkinchidan, shu joy aholisi ish bilan ta’minlanib, iqtisodiy daromat oshadi.

## 9.3.Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari

Demak, tabiat qo’ynilarida dam olish va sog’lomlashtirish muassasalarini qurishning ahamiyati yuqori ekan, lekin masalaning boshqa tomoni ham bor. YA’ni dam olishning ham o’ziga yarasha mezonlari mavjudki, ularni tuliq hisobga olish rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanishga olib keladi. Bu mezonlarga mavjud resurslardan rekreatsiya faoliyatida foydalanishning ekologik xususiyatlari kiradi.

Rekreatsiya faoliyati (dam olish, sog’lomlashtirish) ma’lum hududda amalga oshiriladi. Mazkur hudud hordiq chiqarishga kelganlarni ekologik nuqtai nazardan sig’dira oladimi yoki yo’q, bu **ekologik sig’im** mezoni bilan aniqlanadi. Ekologik sig’im bu, dam oluvchilar mitqdori mazkur ekologik maydonga to’g’ri kelishini ko’rsatuvchi o’rtacha me’yor hisoblanadi. Bu

borada ma’lum andoza va me’yoriy ko’rsatgichlar ishlab chiqilgan. Bunga quyidagi jadvalni misol keltirish mumkin.

jadval - 10

**Suv havzalarida cho’milishni tashkil etishda me’yoriy ko’rsatgichlar**

| Suv havzasi turi | CHo’miluvchilar soni | Me’yoriy ko’rsatgich, $m^2$ |
|---|---|---|
| Dengiz plyaji | **1** | **5** |
| ichki suv havzasi | **1** | **8** |
| jumladan,bolalarga | **1** | **4** |
| daryolar | **1** | **5-10** |
| oqmas suv havzalari | **1** | **10-15** |

***Manba:*** *A.A.Rafiqov va boshqalar. Ekologiya. T:.2004*

Jadvaldan ko'rish mumkinki, agarda suv havzasi maydoniga nisbatan cho'miluvchilar soni oshib ketsa, u holda suvning ifloslanishi ortib, insonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bahor oylarida tog' yonbag'rlari, qirlar, adirlarda dam oluvchilar soni keskin ortadi. Bunda dam olish hududiga nisbatan dam oluvchilar soni ancha ortiq bo'ladi. Bu jarayonda turli giyohli, manzarali o'simliklarga ziyon yetkiziladi, atrof – muhit turli chiqindilar bilan ifloslanadi, natijada ekologik muvozanat buziladi.

Rekreatsiya faoliyatining ana shunday samaradorligi tabiiy omillarning foydali ta'siri va bunday faoliyatni ushbu omillar mavjud hududlarda tashkil etish bilan bog'liqdir.

Rekreatsiya sohasini rivojlantirish va joylashtirish, uning samaradorligini oshirish muammolarini hal etishda quyidagi vazifalarni hal etishga alohida ahamiyat beriladi:

- tumanlar va hududlarda rekreatsiyada tabiatdan foydalanish imkoniyatlarining optimal strukturasini shakllantirish;
- tumanlar va hududlarda rekreatsiyada tabiatdan foydalanish va boshqa sohalarda tabiatdan foydalanishni taqqoslab baholash;
- tabiiy rekreatsiya resurslarini muhofaza qilish, ulardan ratsional foydalanish, ularni takror ishlab chiqarish bo'yicha xo'jalik tadbirlarini baholash;
- tabiiy rekreatsiya resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholash.

Rekreatsiya samaradorligini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi va ta'riflanadi:

1. *Tadbirlar maqsadi,* ya'ni rekreatsiya faoliyatining kutilayotgan va erishish mumkin bo'lgan natijalari.

2. Rekreatsiya faoliyatining konkret mintaqaviy va ijtimoiy- demografik xususiyatlarini eng pastki darajadagi sharoitlarini ta'riflovchi tegishli *ijtimoiy standartlar*.

**3.** ***Tadbirlar natijasi,*** ya'ni tadbirlarning har biriga asoslanib tashkil etish mumkin bo'lgan variantlari yoki quyilgan maqsadga erishishning muqobil yo'llari.

4. Tadbirlar variantining har birini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan *resurslar xarajati* (tabiiy rekreatsiya resurslarini qo'shib).

5. Hisob-kitob sharoitlarida qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan (resurslar bo'yicha cheklovlar ) *resurslar* va ayniqsa ko'rib chiqilayotgan hududlarning tabiiy rekreatsiya resurslari.

Ko'rsatilgan besh guruh ta'riflar samaradorlikni baholash maqsadida iqtisodiy-matematik modellarni shakllantirish uchun yetarlidir. Bundan tashqari ular tadbirlar natijalarini qo'yilgan maqsadlar, real ajratilishi mumkin bo'lgan resurslar bilan talab qilinadigan resurslar xarajatiga taqqoslashga imkon beradi. Bular yo'l qo'yish mumkin bo'lgan qarorlarni shakllantirishga va variantlarni yo'l qo'yish mumkinligi nuqtai nazaridan dastlabki baholashga yordam beradi. Barcha beshta guruh ta'riflar yoki natijalarning (1-3 – guruhlar) yoki xarajatlarning (4 va 5 - guruhlar) tarifini beradi.

Rekreatsiyada tabiatdan foydalanish faoliyatining ijtimoiy va ijtimoiy- iqtisodiy natijalarini xo'jalik tadbirlari natijalarining ayrim tomonlarini ifodalaydigan natural-moddiy, sifat va qiymat tavsiflarining o'zaro bog'liq ko'rsatkichlari tizimida aks ettiriladi.

Natural ko'rsatkichlarda qo'yidagilar ifodalanadi:

- rekreatsiyada tabiatdan foydalanish sohasida amalga oshirish mo'ljallanayotgan tadbirlarning aholini qamrab olishi (hisoblangan kontingent odamlar)- xizmat ko'rsatiladigan odam-kun miqdori yoki bir yilda xizmat ko'rsatiladigan aholi soni, xizmat ko'rsatish va sifati (kategoriyasi)bo'yicha alohida hisoblar;

- marshrut, dam olish dasturi, hududlar yoki barpo etiladigan ob'ektlarning quvvati (qancha kishi qabul qilish imkoniyati);

- ijtimoiy natijalarga imkon beradigan rekreatsiya faoliyatiga aholi sarflaydigan vaqt;

- aholining rekreatsiya faoliyatiga kiradigan vaqt sarfining qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan vaqtini tejash (rekreatsiya xizmatini kutish).

Nisbiy ko'rsatkichlarda xizmat ko'rsatish sifatining ekspert bahosi, hududlar va ob'ektlarning xossalari (funktsionalligi qulayligi bilan birga, shinamligi, nafosati, tashqi ko'rinishining o'ziga jalb etishi, atrof-muhit bilan uyg'unligini ham qo'shib) ifodalanadi (odatda ballarda hisoblanadi).

Qiymat ko'rsatkichlarida quyidagilar aks ettiriladi:

- belgilangan baholarda mahsulotlar va xizmatlarni realizatsiya qilishning yillik hajmi va ularni realizatsiya qilishdan olingan foyda;

- sog'liqni saqlash muassasalarida kasallanishning kamayishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning shartli – hisoblangan kamayishi;

- mehnat unumdorligining oshishi xodimlar kvalifikatsiyaning oshishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy infratuzilmani barpo etish va uning xizmatiga xarajatlarning kamayishi;

- aholi vaqtni tejashining qiymat bahosi.

Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari, mavjud resurslar asosida dam olish, sog'lomlashtirish uchun qulay shart – sharoit yaratish bilan bog'liq. Bu birinchi jihatdan, tegishli infratuzilmani tashkil etishni talab etadi. Rekreatsiya infratuzilmasi – dam olish ob'ektlari (sanatoriya, kurort, pansionat va b.) transport kommunikatsiyalari, elektr energiya, tabiiy gaz va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari (sport maydoni, suv havzasi, ovqatlantirish tarmoqlari, klub, telefon tarmog'i va b.) bilan ta'minlangan majmuadir. Rekreatsiya infratuzilmasi qanchalik takomillashgan bo'lsa, dam oluvchi va sog'ligini tiklovchilar uchun qulay sharoitga ega ekanligini bildiradi, hamda bu yerga keluvchilar sonini oshishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

Ikkinchi jihatdan, dam olish maskanlarining malakali mutaxasislar bilan ta'minlanishi katta samara beradi. Mamlakatimiz rekreatsiya resurslariga boy bo'lsada, ulardan talab darajasida foydalana olmayapmiz. Bu esa, qanchadan – qancha iqtisodiy daromatdan qolayotganimizni bildiradi. SHuning uchun ayni vaqtda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- Hududiy rekreatsion tizimning qabul qilish potentsiali aniqlash;
- mintaqalar bo'yicha dam olish va davolanish muassalarni tabiiy – iqlimiy sharoit, mineral suv va boshqa rekreatsiya resurslaridan kelib chiqib joylashtirish;

- ovqatlantirish, kommunal va madaniy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, hamda suvenir mahsulotlari ta'minotini yaxshilash;
- zamonaviy transport, yo'l tarmoqlari va aloqa vositalarini rivojlantirish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- rekreatsiya maqsadida foydalanishda tabiat muhofazasiga e'tibor qaratish.

## 9.4.Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalanish va muhofaza qilish

Noyob tabiat yodgorliklari, bu – muhofaza qilinadigan ob'ekt turlaridan hisoblanadi. Ayrim hollarda tabiiy ob'ektlarni muhofaza qilish uchun katta maydonlarni ishg'ol qilinadigan qo'riqxonalar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. SHuning uchun kichikroq maydonlardagi tabiiy ob'ektlar «tabiat yodgorliklari» deb qilinadi va muhofaza ostiga olinadi. «Tabiat yodgorliklari» terminini dastlab A.Gumbolt taklif qilgan. O'tgan asrimizning boshlaridayoq yevropada tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish boshlangan edi.

Tabiat yodgorliklari tabiatning o'zgarishi va unda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida ma'lum darajada aniq guvohlik beradi. Tabiat yodgorliklari ilmiy – tarixiy va madaniy – estetik ahamiyatga ega.

Umumiy xarakteriga ko'ra, tabiat yodgorliklari geologik – geomorfologik,botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga bo'linadi.

***Geologik – geomorfologik*** yodgorliklarga nodir geologik tog' jinslari, karst voronkalari, relef shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar kiradi. Mamlakatimizdagi Kilsi (Qirqtog'da), Qorlug' (Ko'hitang tog'ida), Hazratidovut (Zirabuloq tog'ida), Amir Temur g'orlari, Zarafshon tizmasidagi karstlarni misol keltirish mumkin.

***Botanik*** yodgorliklarga yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relikt o'simliklar kiradi. Bu yodgorliklarga Surxondaryo viloyatidagi, Urgut tumanidagi ming yillik chinorlarni kiritish mumkin.

***Peleontologik*** yodgorliklarga toshga aylangan organizm va qirilib ketgan hayvonlarning izlar qolgan joylar kiradi.

***Landshaft*** yodgorliklariga ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi. Bunga Ilono'tdi (Temurlang) darasi, Ko'ksuv daryosidagi sharshara, Nurota va Urgutdagi buloqlar, Katta va Kichik CHimyon soyligi, Oqtosh soyligi va boshqalar kiradi.

***Astronomik*** tabiat yodgrliklariga yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar kiradi.

Hozirgi kunda respublikamiz hududida 400 dan ortiq tabiat yodgorliklari qayd qilingan va muhofazaga olingan. Bundan buyon jamoatchilik kuchi bilan tabiat yodgorliklarini hisobga olib chiqish, uni tarqilish xaritasini yaratish juda muhim hisoblanadi.

Respublikamiz bo'yicha 35 ta noyob tog' o'rmonzorlari muhofaza qilinmoqda. SHulardan biri Samarqand shag'ridan 40 km janubi – g'arbida, 'ni Zarafshon tizmasining g'arbidagi Omonqo'ton tog' o'rmonidir. Omonqo'ton o'rmon xo'jaligi 1887 – yilda tashkil etilish boshlangan bo'lib, 2158 ga maydonni egallaydi. O'rmonning amaliy ahamiyatidan tashqari ajoyib rekreatsion resurs hisoblanadi. SHuning uchun dam olish kunlari shahar aholisini xordiq chiqarishini tashkil etish katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu borada tog'o'rmonini tabiiy holatini , ularning boy hayvonot dunyosini saqlab qolish

va yaxshilash, undan tashqari dam olish uchun keladigan kishilarga maxsus joylarni ajratish, marshrutlar tizimini ishlab chiqish, hamda muhofaza qilishni faollashtirish kerak bo'ladi.

**Nazorat savollari:**

1. Rekreatsiya resurslariga tushuncha bering.
2. O'zbekistonning rekreatsiya resurslariga boy mintaqalari.
3. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari nimalardan iborat.
4. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik xususiyatlari nimalardan iborat.
5. Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalanish va muhofaza qilish tadbirlari.

## 10- mavzu. Turizm industriyasida raqobatbardosh omillar asosida "Buyuk Ipak yo'li" davlatlarining guruhlanishi

**Reja**

10.1. **Turizm industriyasida moyillik tushunchasi. Buyuk ipak yo'li davlatlari va loyiha. Metodologiya va natijalar. Guruh tahlili natijalari**

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham iqtisodiyotining noishlab chiqarish sohalaridan biri xususan turizm sohasiga katta e'tibor kuchayib bormoqda. Insonlar borgan sari o'zlarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoqda. Bundan tashqari, insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. O'tgan 2005 - yilda dunyo aholisining har to'rtinchisi sayohat qilgan. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8- 10 % gacha boradi. Bu davlatlarga Ispaniya, Italiya, Fransiya, AQSh va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Shunisi qiziqki turizm rivojlanishi bilan bir qatorda transport, bozor infratuzilmasi, savdo sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik hamda boshqa xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanib ketadi. Respublikamiz xalqaro turizmni rivojlantirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Bularga «Buyuk Ipak Yo'li»ning shoh tomiri respublikamizdan o'tganligi, butun dunyoga mashhur tarixiy va madaniy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Qo'qon, Toshkent va boshqa shaharlar, tabiiy va sog'lomlashtirish resurslariga boy mintaqalarimiz Chimyon, Shohimardon, Zomin, Boysun, Sherobod va boshqa shaharlar kiradi.

Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun asos solindi deb hisoblasa bo'ladi. Bunga dalil sifatida 1995 yil 2 iyundagi «Buyuk Ipak yo'li»ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasi ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to'g'risida»gi farmonining Prezidentimiz tomonidan qabul qilinishidir. Bu farmonga binoan turistik korxonalar bir qator soliq imtiyozlarga ega bo'lishdi. Bu farmon «Buyuk Ipak yo'li»da joylashgan tarixiy va madaniy shaharlarda turistik yo'nalishlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ming yillar davomida «Buyuk Ipak Yo'li» Osiyo va Ovropa xalqlarini birlashtirishning ahamiyatli va samarali usuli hisoblanib kelgan. Xuddi shu yo'l

bo‘ylab tovarlar, bilimlar, texnologiyalar, madaniyatlar almashuvi amalga oshirilgan, natijada shaharlarning, davlatlarning rivojlanishiga ko‘maklashib kelgan. Hattoki, hozirgi vaqtda bu yo‘l insoniyat uchun global ahamiyatga ega bo‘lganligini baholash qiyin. Ammo, o‘zining faoliyatini tugatgandan keyin ham unga qiziqish yo‘qolib ketmadi. Ayniqsa, transport va axborot aloqalarining, sanoat ishlab chiqarishning, tovar va xizmatlarning savdosini hamda, Osiyo va Ovropa mintaqalarining integratsiya jarayonlariga faol qatnashuvi «Buyuk Ipak yo‘li»ning «ikkinchi nafasi»ni olganini ko‘rish mumkin.

G’arb bilan Sharqni bir necha ming yillar davomida bir-biriga bog’lab kelgan «Buyuk ipak yo’li» edi. Bu yo’l orqali Sharqdan (Xitoydan) G’arbga (Vizantiyaga) oqib borgan savdo mollari, asosan, Xitoy ipagi bo’lsa-da, bu yo’l fanga atigi XIX asrning 70 yillarida «Ipak yo’li» nomi bilan kiritildi. Ilk marotaba bu terminni 1877-yilda nemis olimi, geograf Ferdinand fon Rixtgofen o’zining «Xitoy» deb nomlangan ilmiy asarida ishlatgan. Unga qadar «Ipak yo’li» «G’arbiy meridional yo’l» deb atab kelinardi.

«Buyuk Ipak yo’li» haqidagi ilk yozma ma’lumotlar miloddan avvalgi 138 yilga to’g’ri keladi: Xitoy imperatori Vu Di topshirig’i bilan Markaziy Osiyoga yuborilgan elchi va sayyoh Chjan Syan «Buyuk ipak yo’li»ni o’rganadi va bu to’g’rida o’z tasnifini beradi. «Buyuk Ipak yo’li» tushunchasi o’sha paytda juda qimmatli xisoblangan mol-ikkita turli dunyo: G’arb va SHarqni bir-biriga tanishtirgan ipak bilan bog’liq. Markaziy Osiyo hududida joylashgan O’zbekiston, Qozog’iston, Turkmaniston, Qirg’iziston va Tojikiston davlatlari ham hozirgi kunda jahon xo’jalik tarkibiga asta-sekinlik bilan kirib bormoqda. Jahon xo’jalik tarkibiga kirib borishda Markaziy Osiyo davlatlari uchun «Buyuk ipak yo’li»ning roli benihoyat kattadir.

### 10.2. Sayohat va turizm boshqaruv tuzilmasi. Sayohat va turizm biznes muhiti

«Buyuk Ipak yo‘li»da xalqaro turizmni rivojlantirishning bir ko‘rinishi bo‘lib, janubiy-sharqiy Osiyoni Ovropa bilan bog‘lab turadigan global Transosiyo transport liniyasini shakllantirish hisoblanadi. U o‘z ichiga Yaponiya, Xitoy, Hindiston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Kavkaz davlatlari, G‘arbiy Osiyo (Pokiston, Eron) davlatlari va albatta Ovropa davlatlarini qamrab oladi. E’tiborga olish kerakki TRASEKA loyiha doirasida «Delfin» izlanishi o‘tmoqda. Bu izlanishning mazmuni karvon - saroylarni tashkil qilishning texnik-iqtisodiy asoslanishi, ekspertlarning fikriga ko‘ra, bu «Buyuk ipak yo‘li»ning rivojlanishiga va xalqaro hamkorlikning samarali natija berishiga yordam beradi, chunki O‘zbekiston va Turkmanistonning asosiy yo‘nalishlarida yoqilg‘i stantsiyalari, turar joylar, ovqatlanish punktlari va telekommunikatsiya zonalarining qurilishi yangi turistik zonalarning shakllanishiga hamda turistik avtotransportning paydo bo‘lishiga olib keldi. Butunjahon Turistik Tashkiloti ekspertlari «Buyuk Ipak yo‘li da qatnashishiga qarab, qatnashuvchi davlatni 3 qismga ajratgan. Birinchi qismga o‘ziga xos turizm milliy modelini shakllantira boshlagan O‘rta Osiyo va Kavkaz davlatlari kirgan. Bu yo‘nalishda Butunjahon Turistik Tashkiloti asosiy masala qilib, turg‘un rivojlanish dasturini tuzishda, turistik tarmoqqa investitsiyani jalb qilishda, qonunchilikni ishlab chiqishda va kadrlarni tayyorlashda ko‘maklashishi hisoblanadi.

Ikkinchi qismga «Buyuk Ipak yo‘li» ob’yektlarini o‘z ichiga olgan va turistik mahsuloti bilan aniq tajribaga ega bo‘lgan davlatlar kiradi. Bular Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron, Gretsiya va Turkiyalardir. BTT ning ekspertlari fikriga ko‘ra bu yerda xalqaro tashkilot «Buyuk Ipak yo‘li» nomli turistik mahsulotning sotilishini rag‘batlantirishi mumkin.

Uchinchi qism esa, qadimgi aloqaning oxirgi nuqtalarini o‘ichiga qamrab oladi. Bularga bir tomondan Yaponiya, Koreya, ASEAN davlatlari kiradi. Bu yerda Butunjahon Turistik Tashkilotining vazifasi «Buyuk Ipak yo‘li»ni targ ‘ibot qilish deb hisoblanadi, chunki bu davlatlar nafaqat katta turistik oqimni ta’minlaydi, balki bu yo‘l bo‘ylab turizm uchun yetakchi bozorlar hisoblanadi. «Buyuk Ipak yo‘li» turistik mahsulot mavqeining ko‘tarilishi uchun albatta fundamental asos bo‘lishi kerak. Uni sotish uchun barcha davlatlarning faol hamkorligi kerak. Chunki xususiy sektor va davlat sektori, xalqaro va ratsional tashkilotlar, alohida turoperatorlar va mehmonxona komplekslari munosabatisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Butunjahon Turistik Tashkilotining «Buyuk Ipak yo‘li» loyiha bo‘yicha keyingi yig‘ilishi Xitoyda 1996-yilda bo‘lib o‘tdi, bunda mahsulotning marketingiga oid masalalar ko‘rib chiqildi. «Buyuk Ipak yo‘li»da turizm bo‘yicha ikkinchi anjuman ham ahamiyatli bo‘lib o‘tdi. Ekspertlar fikriga ko‘ra bu yerda «Buyuk Ipak yo‘li»ning asosiy turistik resurslari: diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy ob’yektlar, joylashtirish vositalari, transport va axborot markazlari shakllandi. Bu tadbirlardan keyin ushbu loyiha rivojlana boshladi. Ammo, hamma savollar yetarlicha yechilmagan edi, shuning uchun ham 1997-yil aprel oyida Tehronda «Buyuk Ipak yo‘li» bo‘yicha ikkinchi xalqaro yiq‘ilish bo‘lib o‘tdi. Bunda quyidagi masalalar shakllandi: «Buyuk Ipak yo‘li» mintaqalarini xalqaro targ‘ibot qilish, bu turistik ma’lumotni reklama qilish uchun global axborot kommunikatsiya tarmoqlaridan (xususan Internet) foydalanish.

1994-yildan boshlab Butunjahon Turistik Tashkiloti «Buyuk Ipak yo‘li» loyihani barcha yirik xalqaro yarmarkalarda: Berlinda TTV, Londanda WTM va Madridda FJTUR faol targ’ibot qila boshladi. Butunjahon Turistik Tashkilotining bashoratlariga ko‘ra, 2020-yilga kelib dunyoning asosiy turistik yo‘nalishlari bo‘lib Xitoy hisoblanadi. Bu davlat hozirgi kunda 22 mln. turist qabul qila olishligi bilan oltinchi o‘rinni egallaydi va o‘rtacha yillik 8 % o‘sish bilan Xitoyga keladigan turistlarning soni 137 mln.ga, Gonkongga esa 59 mln. kishiga yetib, birinchi o‘rinni egallaydi. Bundan kelib chiqib, «Buyuk Ipak yo‘li» loyihaga ishtirokchilarning oldida turistik mahsulotni shakllantirishda bu davlatlarni hisobga olish masalasi turibdi, masalan, Germaniya-O‘zbekiston-Xitoy, Fransiya-O‘zbekiston-Gonkong va boshqalar. Turistlarning yillik xarajatlari 5 mlrd. dollarga yetishini hisobga olsa, O‘zbekiston ham bu valyutaning ayrim qismini shaklllantirishga va o‘zlashtirishga yetarli imkoniyati bor. Chunki «Buyuk Ipak yo‘li» bo‘ylab Xitoyga sayohat qiluvchi turistlarning asosiy qismi respublikamiz orqali harakat qiladi. Bu degani xorijiy turistlarning mamlakatimizdagi turistik ob’yektlardan va transport vositalaridan foydalanganliklari uchun ma’lum bir valyutaning davlat budjetiga tushishini ta’minlaydi. Shuning uchun

ham xorijiy turistlar uchun «Buyuk Ipak yo‘li» bo‘ylab transport (tranzit) yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu masalada madaniy va bilim qabul qilishga qaratilgan turizm eng katta qiziqish tug‘diradi. Masalan, 2004-yilda O‘zbekistonga 841,2 ming tashrif qiluvchilar keldi, bulardan 5,6 % turistik maqsadlar bilan, 74,4 % xususiy viza bo‘yicha, qolgan 20 % boshqa turli xil maqsadlarda sayohat qilganlar. Ko‘pchilik tashrif qiluvchilarni davlatning tarixi, madaniyati va diniy obidalari qiziqtirgan. O‘zbekiston hayotida bo‘lib o‘tayotgan madaniy tadbirlar, masalan, allomalarning va shaharlarning tantanalari nafaqat musulmon davlatlari, balki Yevropa va boshqa davlatlarni keng sayd qilib, «Buyuk ipak yo‘li»ni va taklif qilinayotgan mahsulotni yangi ahamiyatga ko‘tardi.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Biroq, murakkab o‘tish davri bilan bog‘liq talaygina muammolar tufayli bu sohada ham ayrim kamchiliklar mavjud bo‘lib bular haqida keyingi bo‘limlarda atroflicha to‘xtalib o‘tamiz.

**Tayanch iborolar va tushunchalar:**

Buyuk ipak yo’li, turizm indeksi, turizm industriyasi, turizm raqobatbardoshligi

**Nazorat uchun savollar:**

1. Turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari nima?
2. Turizmning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nimalardan iborat?
3. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda turizmning ta’sir doirasi qanday?
4. O‘zbekistonning qaysi mintaqalaridan Buyuk Ipak yo‘lining asosiy qismi kesib o‘tgan?
5. Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab turizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad nima?
6. O‘zbekistonda turizmning qaysi turlarini kengroq rivojlantirish mumkin?
7. Tarixiy va madaniy turizm nima?
8. Milliy turizmni rivojlantirish dasturi qachon qabul qilingan?
9. Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasining vazifalari nimalardan iborat?

## 11 - BOB. MARKAZIY OSIYO TURIZMI IMKONIYATLARINI TADQIQ QILISH

Reja

11.1.Qozog‘istonda turizm industriyasi raqobatbardoshligi

11.2.Turkmaniston turizmi. Marv: Qadimiy jannatning poytaxt vohasi.

11.3.Qirg‘iziston turizmi.

### 11.1.Qozog‘istonda turizm industriyasi raqobatbardoshligi

Qozog‘iston Respublikasining hududi – 2717300 km$^2$, aholisi – 18 mln.dan ortiq (2012-yil). Dini – islom (47%), pravoslav (44%), protestantlik (2%). Pul birligi – tenge.

Qozog’iston Markaziy Osiyodagi davlat bo’lib, shimolda Rossiya (chegara uzunligi – 6846 km), janubda O‘zbekiston (2203 km), Qirg‘iziston (1051 km) va Turkmaniston (379 km), sharqda Xitoy bilan chegaradosh. Qozogistonning g’arbiy qismi Kaspiy dengizi, janubda Orol dengizi bilan tutash. Umumiy chegara uzunligi – 12012 km.

Mamlakat hududi sharqda Oltoydan G’arbda Volganing quyi qismigacha, shi molda G’arbiy Sibir tekisligidan janubda Tyan-Shan togiarigacha cho’zilgan. G’arbda Kaspiybo‘yi pasttekisligi va Mang’ishloq yarimoroli joylashgan. Shimoli g’arbda Ural va Mug’ojar tizma tog’larining janubiy tarmoqlari yotibdi. Mug’ojardan shimoli sharqda To’rg’ay yassitog’ligi, janubda Turon pasttekisligi va Qizilqum cho’li joylashgan.

Sharqda va janubi sharqda Oltoyning janubiy tizmalari qad ko‘targan. Janubda Betpak-Dala va Muyunqum cho’llari bor. Asosiy daryolari – Irtish, Ural, Chu, Sirdaryo. Qozog’iston hududida Balxash ko’li va qisman Orol va Kaspiy dengizi joylashgan. Yerosti boyliklari ko’plab foydali qazilmalarga boy: uran, rux, oltin, mis, molibden, neft, fosforit, boksit, temir, marganes, qo’rg’oshin.

**11.1-jadval**

**“Travel and Tourism Competitiveness Index” ga ko’ra ba’zi MDH mamlakatlarining reytingi**

| Mamlakatlar | Global rang | Biznes muhit | Xavfsizlik | Soglik va gigiena | Kadr resurslari va mehnat bozori | AKT ga tayyorlik |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Rossiya | 43 | 4,1 | 4,3 | 6,7 | 4,8 | 5,0 |
| Gruziya | 70 | 5,3 | 6,0 | 6,1 | 4,8 | 4,5 |
| Ozarbayjon | 71 | 4,6 | 5,8 | 6,1 | 5,0 | 5,0 |
| Qozog’iston | 81 | 4,9 | 5,5 | 6,7 | 4,8 | 4,9 |
| Armaniston | 84 | 4,9 | 5,9 | 5,9 | 4,8 | 4,3 |
| Ukraina | 88 | 3,7 | 3,5 | 6,6 | 4,9 | 4,2 |
| Tojikiston | 107 | 4,3 | 5,7 | 5,7 | 4,9 | 2,3 |
| Qirg’iziston | 115 | 4,4 | 5,0 | 5,8 | 4,4 | 3,6 |
| O’rtachasi | | 4,5 | 5,2 | 6,2 | 4,8 | 4,2 |

Har yili Jahon iqtisodiy forumi guruhi tomonidan 4 guruh ko’rsatkichlar (qulay shart-sharoitlar yaratish; siyosat va faollashtirish shartlari; infratuzilma; tabiiy va madaniy resurslar) asosida hisoblanadigan Sayohat va turizm raqobatbardoshlogi indeksi (Travel and Tourism Competitiveness Index) ga ko’ra 2017 yilda Qozog’iston 136 mamlakat orasida 81 o’rinni egallagan, bu esa 2015 yilgiga nisbatan 4 pozitsiyaga yuqori ko’tarilganligini anglatadi (11.1-jadval)[72]

So'nggi 5 yil ichida turizmning yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi o'rtacha 1,1% tashkil etib, bu 2017 yilda eng ko'p o'sishni ko'rsatdi, chunki o’sha yilda bu mamlakatda 115 mamlakatdan 4 milliondan ortiq kishi tashrif buyurgan Xalqaro ko'rgazma «EKSPO» bo'lib o'tdi. (11.2.-jadval)

11.2.-jadval. 2014-2018 yillarda Qozog’istonda turizm rivojlanishining ko'rsatkichlari

| **Ko’rsatkichlar** | **Yilla** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **2014** | **2015** | **2016** | **2017** | **2018** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Yalpi qo'shilgan qiymatning ulushi to'g'ridan-to'g'ri turizmda, yalpi ichki mahsulotda, foiz | 0,8 | 1,0 | 1,2 | 1,3 | - |
| Joylashtirish vositalaridagi joylar soni, | 2056 | 2338 | 2754 | 2987 | 3322 |

Manba: jadval Qozog'iston Respublikasi Milliy iqtisodiyot vazirligining Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra tuzilgan

Ko'rilayotgan davrda Respublikada joylashtirish vositalaridagi joylar sonining o'rtacha o'sishi 12,8% ni tashkil etdi. Turizm sohasidagi xodimlarning hisoblangan soni ish ob'ektiga qarab sezilarli darajada farq qiladi: masalan, 2018 yilda u joylashtirish vositalarida 29,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, sayyohlik agentliklari va sanatoriya muassasalari xodimlari o'sha davrda 7,4 va 8,0 ming kishini tashkil etgan.

2014-2018 yillarda Qozog'istonning dam olish zonalarida 567 dan 900 tagacha joylar, shu jumladan 3-5 yulduzli mehmonxonalar, shuningdek, toifalanmagan joylar va yotoqxonalar mavjud bo’lgan. Ushbu davrda 3,8 milliondan ortiq kishiga xizmat ko'rsatildi, 2,2 million kunlar tunab qolingan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, dam olish maskanlarida bir martalik joylashtirish hajmi 60117 o'rinni tashkil etadi, bu 19624 dona xonalar soniga to'g'ri keladi[73].

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Dona | | | | | |
| Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalarni hisobga olgan holda turizm sohasi xodimlarining soni (hisobot davrida o'rtacha), ming kishi | - | - | - | - | - |
| - turistik firmalar | 6,5 | 7,3 | 7,2 | 7,3 | 7,4 |
| - joylashtirish vositalari | 25,7 | 25,3 | 26,5 | 27,6 | 29,2 |
| - sanatoriy-kurort tashkilotlari | 10,3 | 10,5 | 10,0 | 9,6 | 8,0 |
| | | | | | |
| Turizm sohasida band bo'lgan ishchilarning o'rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqi, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi kichik | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| korxonalarni hisobga olgan holda, tenge | | | | | |
| - turistik firmalar | 71233 | 85002 | 94465 | 108152 | 95341 |
| - joylashtirish vositalari | 86272 | 106823 | 112582 | 118606 | 124217 |
| - sanatoriy-kurort tashkilotlari | 76885 | 77245 | 83385 | 88163 | 90658 |

**11.3.-jadval 2014-2018 yillarda dam olish maskanlaridagi joylashtirish vositalarining faoliyati ko'rsatkichlari**

| ko’rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 |
| Joylashtirish vositalari soni, birlik | 567 | 644 | 747 | 815 | 900 |
| Xizmat ko’rsatilganlar, kishi | 474124 | 530006 | 730882 | 979540 | 1111609 |
| Xonalar soni, birlik | 11102 | 12400 | 14574 | 16930 | 19624 |
| Bir vaqtda sig’imi, joy | 35178 | 39352 | 44445 | 51486 | 60117 |
| Tunab qolishlar soni, joy-kun | 1225707 | 1336445 | 1520846 | 1794845 | 2179594 |

Dam olish maskanlarida joylashgan eng mashhur mehmonxonalardan biri bu Shchuchye ko'li yonida, Milliy bog'ning qarag'ay o'rmonida (poytaxtdan - Nur Sulton shahridan 260 kilometr uzoqlikda) joylashgan Rixos Borovoe hisoblanadi. Mehmonxona 5 yulduzli mehmonxonalar turkumiga kiradi; unda 200 ta xona, turk, va italyan taomlari restorani, spa-markaz, shuningdek ishbilarmonlik uchrashuvlari va turli tadbirlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan konferentsiya xonalari mavjud.

Mamlakatda turizmni rivojlantirishning eng muhim parametrlari bo’lib, kirish va chiqish turizmining ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shunday qilib, 2014-2018 yillarda chiqish turizmidagi sayyohlar soni qariyb 52,4 million kishini, kirish turizm bo'yicha atigi 35,8 million kishini tashkil etdi. (11.4-jadval).

**11.4.-jadval. 2014-2018 yillarda kiruvchi va chiquvchi turizm bo’yicha tashrif buyuruvchilar soni, kishi**

| Ko’rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 |
| Chiquvchi turizmda sayyohlar soni, kishi | 10449972 | 11302476 | 9755593 | 10260813 | 10646241 |
| Kiruvchi turizmda sayyohlar soni, kishi | 6332734 | 6430158 | 6509390 | 7701196 | 8789314 |

Bugungi kunda, ham respublika miqyosida, ham mintaqaviy darajada, chet ellik sayyohlarni Qozog'istonga jalb qilish bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda; imidj siyosati va mamlakatning sayyohlik yo'nalishlarini ommalashtirish sohasida chora- tadbirlar ko'rilmoqda.

Qozog'iston Respublikasiga sayyohlar asosan biznes va kasbiy faoliyat maqsadida, ikkinchi o'rinda – shaxsiy maqsadlar, jumladan tanishlar va qarindoshlarni borib ko'rish, kurort-rekreasiya zonalarida dam olish, tovar va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish, turli tadbirlarida ishtirok etish (EKSPO, xalqaro sanoat ko'rgazmalari, sport tadbirlari va boshqalar), trening maqsadida tashrif buyuradilar.

**11.5.-jadval. 2014-2018 yillarda kiruvchi turizmda maqsadlar bo'yicha tashrif buyuruvchilar soni, kishi**

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **2014** | **2015** | **2016** | **2017** | **2018** |
| Jami | 6332734 | 6430158 | 6509390 | 7701196 | 8789314 |
| shu jumladan: | - | - | - | - | - |
| Xizmat yuzasidan va kasbga oid sayohatlar | 1178900 | 1044743 | 1096899 | 1186542 | 1223324 |
| shaxsiy | 5153834 | 5385415 | 5412491 | 6514654 | 7565990 |

2014-2018 yillarda Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, AQSh, Turkiya va Xitoydan eng ko'p xorijiy sayyohlarning kelishi kuzatildi. Umuman olganda, 2018 yilda MDH mamlakatlaridan kelgan norezidentlarning ulushi 44 foizni, MDH ga kirmaydigan mamlakatlardan kelganlar 56 foizni tashkil etdi (11.6.-jadval).

**11.6.-jadval 2014-2018 yillarda kiruvchi turizmda mamlakatlar bo'yicha xizmat ko'rsatilgan norezidentlar soni, kishi**

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 |
| Jami | 679018 | 692213 | 722515 | 891911 | 830922 |
| shu jumladan: | - | - | - | - | - |
| MDH mamlakatlari | 255642 | 264717 | 309569 | 371337 | 363917 |
| Rossiya Federatsiyasi | 203616 | 217113 | 247709 | 287046 | 281367 |
| O'zbekiston | 10323 | 11381 | 14005 | 18783 | 21160 |
| Ukraina | 18162 | 14816 | 19701 | 24303 | 21297 |
| MDHdan tashqaridagi davlatlar | 423376 | 427496 | 412946 | 520574 | 467005 |
| Birlashgan Qirollik | 65023 | 46743 | 34591 | 34290 | 34021 |
| Hindiston | 14186 | 12469 | 17545 | 24690 | 34768 |
| Xitoy | 35861 | 51162 | 63695 | 71269 | 76160 |
| AQSh | 49718 | 41164 | 41019 | 48640 | 42345 |
| Turkiya | 44718 | 40764 | 37942 | 49208 | 46002 |

Qozog'istonda 115 tabiatni muhofaza qilish muassasalari (qo'riqxona) mavjud, ularning 10 tasi: Aksu-Jabagli, Olma-Ota, Alako'l, Barsakelmes, Garbiy- Altay, Karatau, Kurgaljino, Markako'l , "Nauruzum", "Ustyurt".

2014-2018 yillarda o'tkazilgan ekskursiyalar soni 27 mingtaga yetdi. Tahlil qilinayotgan davrda 6 millionga yaqin tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatildi (11.7-jadval).

**11.7.- jadval Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'grisida ma'lumot 2014-2018 yillar**

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 |
| Atrof muhitni muhofaza qilish muassasalari soni, birliklar | 114 | 115 | 114 | 114 | 115 |
| Mehmonlar uchun ekskursiyalarni tashkil etish bilan shug'ullanadigan xodimlarning soni, kishi | 46 | 46 | 46 | 30 | 30 |
| Ekskursiyalar soni, dona | 4936 | 4427 | 4997 | 6327 | 6110 |
| Tashrif buyuruvchilar soni, kishi (o'zining balansida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mavjud korxonalar ma'lumoti bo'yicha) | 1046383 | 1070360 | 1191773 | 1261942 | 1236813 |

Turizm sohasini rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri, avvalgidek, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash masalasi bo'lib qolmoqda. Qozog'istonda 46 ta oliy o'quv yurti va 47 ta o'rta maxsus ta'lim muassasalari turizm mutaxassislarini

tayyorlaydi. Turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ko'pgina o'quv dasturlari (keyingi o'rinlarda - OP) bozor va ish beruvchilarning talablarini hisobga olgan holda tuzilgan.

## 10.1. Turkmaniston turizmi. Marv: Qadimiy jannatning poytaxt vohasi.

Turkmaniston Respublikasi - O‘rta Osiyoning janubi-g‘arbida joylashgan davlat. Maydoni 488,1 ming km². Aholisi 5,113 mln. kishi (2013). Poytaxti – Ashxobod shahri. Ma'muriy jihatdan 5 viloyatga, viloyatlar etrap (tuman)larga bo'linadi.




Turkmaniston hududining aksariyati tekislikdan iborat bo'lib, qariyb 4/5 qismi Turon tekisligi (Qoraqum cho‘li)da joylashgan. Faqat janubida tepaliklar va o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar bor. Kaspiy dengizining T.ga qarashli janubiy qirg‘oklari kam parchalangan, shimolida Qorabo‘g‘ozgo‘l, Krasnovodsk, Turkman qo'ltiqlari, Krasnovodsk, Darja, Cheleken yarim orollari va kum tillari bor. Dengiz sohili past, qumli. T. janubida Kopetdog' tog'lari (eng baland joyi 2942 m — Rizo cho‘qqisi), undan shimoli-g‘arbda Kichik Bolxon (777 m gacha) va Katta Bolxon (1881 m gacha) tog'lari joylashgan. Janubi-sharqdagi Bodxiz qirlari (eng baland joyi 1267 m) va Qorabel qirlari (eng baland joyi 984 m) o'rtasidan Murg'ob daryosi oqib o‘tadi. Chekka janubi-sharqda Hisor tizmasining Ko‘hitang tarmog‘i (bal. 3139 m — T.ning eng baland nuktasi) bor. T.ning g‘arbida Krasnovodsk platosi, shimoli- g‘arbida Ustyurt platosining janubiy chekkasi, undan janubida esa Orqa O‘zbo‘y burmali rayoni yotadi. Kaspiy bo‘yi pasttekisligida Nebitdog' (39 m), Boyadog' (134 m), Qumdog', Manjuqli (27 m) va boshqa qirlar ko'tarilib turadi. Kopetdog' tekisligidan shimoliy va shimoli-sharqda Qoraqum cho‘li, Amudaryo va Tajan daryolari oralig‘ida Jan.Sharqiy Qorakum cho‘li joylashgan. T.ning janubiy qismida tez-tez zilzila bo‘lib turadi. Muhim qazilma boyliklari — neft va gaz; kumir, mirabalit, oltingugurt, kora va rangli metall, mis, alyuminiy, simob, molibden konlari aniklangan.

Italiyaning «Rai Tre» telekanali tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnomaga ko‘ra, Turkmaniston 2018-yil uchun eng maqbul yo‘nalish deb topildi. ORIENT.tm axborot agentligi xabariga ko‘ra, mazkur so‘rovda dunyoning turli qit’alariga sayohat qilgan

turistlarning, mazkur telekanal orqali yoritilgan, turli mamlakatlarga oid ko‘rsatuvlarni ko‘rgan tomoshabinlarning fikrlari o‘rganilgan.

Darhaqiqat, Turkmanistonning tarixiy obidalari o‘tmish bilan qiziquvchi sayyohlarning diqqatini o‘ziga tortishi tabiiy. Jumladan qadimiy Oltin-tepa shahri o‘zining tosh obidalari bilan “Turkmanistondagi Stounxendj” nomini olgan. Bu qadimiy shahar Bronza davrida – eramizdan avvalgi 2300-1900 yillarda bunyod etilgan. Bu yerda turistlar qadimgi Elam va Shumer mixxat bitiklarini eslatuvchi bitiklar bilan tanishishlari mumkin.

Sayyohlarda ko‘hna Parfiya qadimiy shaharlari, xususan uning madaniy poytaxti bo‘lgan Niso shahri katta qiziqish uyg‘otadi. Buyuk Marg‘iyona shahar va qal’alari ham turistlarni befarq qoldirmaydi. Tarixda aynan shu hududda yunonlar va rimliklar xitoyliklar bilan to‘qnashishgan.

Shuningdek, Turkmanistonning sharqida o‘rta asrlarga oid yodgorliklar ham uchraydi. El Arslon, Tekesh, To‘rabek xonim, Ostona bobo maqbaralari, Qutlug‘ Temur minorasi sayyohlarni xayolan olis o‘tmishga yetaklaydi.

Eslatib o‘tamiz, o‘tgan yilning dekabr oyida Turkmanistonda Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan yodgorliklar bo‘yicha ilmiy tekshirish va arxeologik tadqiqotlarni olib borish, madaniy merosni keng targ‘ib etish bo‘yicha Davlat dasturi qabul qilingan edi.

## 11.3. Qirg‘iziston turizmi.

Joriy yilning 11 mart kuni Qirg’iziston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Toshkent shahridagi «YAshnobod» texnoparki hududida O’zbekiston – Qirg’iziston biznes-forumi hamda O’zbekiston Respublikasi va Qirg’iziston Respublikasi o’rtasidagi Ishbilarmonlar kengashining birinchi yig’ilishi bo’lib o’tdi.

Tadbirlarda ikki mamlakatning asosiy vazirlik va idoralar rahbarlari hamda ishbilarmon doiralari vakillari ishtirok etdi. Qirg’iziston delegatsiyasiga Bosh vazir o’rinbosari - iqtisodiyot va moliya vaziri U.Karmishakov, O’zbekiston delegatsiyasiga esa Bosh vazir o’rinbosari - investitsiyalar va tashqi savdo vaziri S.Umurzakov rahbarlik qildi.

Forumning ochilish marosimida ikki mamlakat delegatsiyalari rahbarlari so’zga chiqib, O’zbekiston va Qirg’iziston o’rtasidagi munosabatlarning jadal rivojlanib borayotgani va shu tufayli bugungi kunda iqtisodiyotning ustuvor sohalarida yirik loyihalar birgalikda amalga oshirilayotgani va ishlab chiqilayotganini ta’kidladilar. Xususan, so’nggi yillarda O’zbekiston – Qirg’iziston qo’shma korxonalarining soni ikki baravar ko’paygani, savdo aylanmasi besh barobar ortgani va pandemiyaning salbiy oqibatlariga qaramasdan 2020 yilda o’zaro savdo hajmi 10 foizga o’sgani ta’kidlandi.

Ikki mamlakat hukumatlarining muntazam va yaqin muloqotni o’rnatishga tayyorligi bildirildi. Bu ikki tomonlama munosabatlarda yuzaga kelayotgan barcha muammolarni tezkor tartibda hal qilish va ikki davlat ishbilarmon doiralarining yaqinlashuvi va o’zaro manfaatli hamkorligi uchun sharoitlarni izchil yaxshilash imkonini beradi. SHuningdek, to’g’ridan-to’g’ri ishbilarmonlik aloqalarini o’rnatish va qo’shma loyihalarni muvaffaqiyatli joriy etishga har tomonlama ko’maklashish orqali savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda O’zbekiston va Qirg’iziston korxonalari o’rtasidagi sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga sodiqlik bildirildi.

SHu nuqtai nazardan, tomonlar ikki mamlakatning xususiy biznes vakillari o'rtasida uzoq muddatli munosabatlarni yo'lga qo'yish, o'zbek-qirg'iz ishbilarmonlari hamkorligi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, qo'shma loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ilgari surish uchun ishonchli platforma sifatida Ishbilarmonlar kengashini tuzishni ma'qulladilar.

Biznes-forum davomida ikki mamlakat savdo-sanoat palatalari, tegishli vazirlik, idora rahbarlari hamda xususiy sektor vakillari ham so'zga chiqdilar. Rasmiy qismdan so'ng "B2B" shaklidagi ikki tomonlama uchrashuvlar sessiyasi bo'lib o'tdi, unda ikki mamlakat tadbirkorlari hamkorlik istiqbollari va aniq loyiha takliflarini muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Istiqbolli tarmoqlar – qishloq xo'jaligi, mineral va organik o'g'itlar, qurilish materiallari ishlab chiqarish, to'qimachilik va charm – poyabzal sanoati, ipakchilik tarmog'i, turizm va logistika sohalarida hamkorlikni rivojlantirish salohiyati atroflicha ochib berildi. SHuningdek, biznes-forum qatnashchilariga har ikki mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan shart-sharoitlar, davlat aktivlarini xususiylashtirish va davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiyalash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, investorlar huquqlarini himoya qilish, eksportni rag'batlantirish va biznes yuritish uchun sharoitlarni yaxshilash mexanizmlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Ishtirokchilar O'zbekiston va Qirg'izstonda investitsiya va tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish uchun u yoki bu sohada yaratilgan shart-sharoitlar bilan to'liq tanishish, umumiy manfaatlar va hamkorlik istiqbollarini muhokama qilish va kelgusida birgalikda hayotga tatbiq etish uchun aniq loyihaviy takliflarni ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ldi.

Forum yakunlari bo'yicha o'zbek va qirg'iz tadbirkorlari o'rtasida umumiy qiymati 935,1 mln AQSH dollariga teng bo'lgan 291 ta investitsiya va savdo bitimlari imzolandi.

## XII.Mavzu. O'zbekistonni turistik rayonlashtirish xususiyatlari

*Reja:*

12.1.Hududiy rekraetsiya tizimlari (HRT) va hududiy turistik majmualar (HTM).

12.2.Turistik–rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari.

12.3.O'zbekistonda turistik rayonlashtirishda yondoshuvlar.

12.4.O'zbekistonning turistik rayonlari tavsifi.

12.5.O'zbekistonda ekturistik rayonlashtirish xususiyatlari.

### **12.1.** *Hududiy rekraetsiya tizimlari (HRT) va hududiy turistik majmualar (HTM)*

Rekreatsiya jihatdan rayonlashtirish bu – rekreatsiya sifatida foydalanish maqsadida shu belgilar asosida hududlarni ajratishdir.

Sog'lomlashtirish va dam olishni tashkillashtirish, hamda hududlardan samarali foydalanishda rekreatsiya maqsadida rayonlashtirishni katta ahamiyati bor. Bunda, hududiy rekreatsiya tizimlari (HRT), hamda hududiy turistik majmualar (HTM) asosiy o'rinni egallaydi. HRT – hududiy tabiiy va madaniy infrastrukturali majmua. U turli ixtisosga ega bo'lib, asosiy vazifasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: ***ijtimoiy*** va ***tibbiy – biologik***. Undan tashqari insonlarni davolanishi va dam olishi xususiyati kelib chiqib, mutaxasislar HRTning 4 ta guruhini ajratishadi:

- Davolanish;
- Sog'lomlashtirish;
- Sport;
- Tanishuv.

HRTning birinchi guruhida, insonlarning davolanishiga qaratilgan bo'lib, unda mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar, issiq qumlar mavjud joylar asosida xizmat ko'rsatish amalga oshiriladi.
HRTning ikkinchi (sog'lomlashtirish) va uchinchi (sport) guruhi esa, insonlarning sog'ligini tiklash hamda, dam olishiga qaratilgan. Bunda, dam olishning aktiv turlaridan, sayohat, ekskursiya va cho'milish bilan shug'ullanish amalga oshiriladi.
To'rtinchi guruh, insonlarning dam olishini mazmunli o'tkazishda maqsadida, turli tabiiy va madaniy ob'ektlarga sayohat tashkil etish orqali, insonlarning ruhiy – psixologik sog'ligini tiklashga qaratilgan.
HRT – bu murakkab xo'jalik tizimi bo'lib, ya'ni sog'lomlashtirish va davolanish muassalari (turli sanotoriyalar, dam olish tashkilotlari, motellar, kempenglar, lagerlar) sport bilan shug'ullanish muassalari, ekskursiya ob'ektlari, hamda yo'l – transport tarmoqlaridan iborat. HRT shakllanishida hududda barcha xo'jalik tarmoqlarini birgalikda rivojlanishini tashkillantirishni talab etiladi. Bunda, bir qancha muammolarni hal qilish lozim bo'ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- mintaqalar bo'yicha dam olish va davolanish muassalarni tabiiy – iqlimiy sharoit, mineral suv va boshqa resurslardan kelib chiqib joylashtirish;
- rekreatsiya resurslaridan tizimli ravishda samarali foydalanish;
- infrastrukturani shakllanishida tarmoqlar o'rtasida to'g'riixtisoslashishni tashkil etish;
- ovqatlantirish, kommunal va madaniy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, hamda suvenir mahsulotlari ta'minotini yaxshilash;
- zamonaviy transport, yo'l tarmoqlari va aloqa vositalarini rivojlantirish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- rekreatsiya maqsadida foydalanishda tabiat landshaftlarini muhofazaqilish.

Undan tashqari rekreatsiya majmualarining 5 tipi ajratiladi: 1) Sanotoriya – kurort tipidagi; 2)Turistik – sog'lomlashtirish tipidagi; 3) Sanotoriya - turistik – sog'lomlashtirish tipidagi; 4) Ov qilish - baliq tutish tipidagi; 5) Turistik – sog'lomlashtirish tipidagi - ov qilish - baliq tutish tipidagi.

Hududiy turistik majmualarga A.S. Soliyev va M.R. Usmonovlar (Turizm geografiyasi, 38b.) quyidagicha ta'rif berishgan: HTM – ma'lum bir hududda yagona infratuzilma asosida turli turistik ob'ektlarning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi va uni boshqarishini anglatadi. HTM va HRT bilan o'zaro chambarchas bog'liq, ammo ular o'rtasidagi tafovut ko'proq ularning hududiy jihatdan qanday masshtabni egallashida yotadi.

## **12.2.** *Turistik – rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va* **xususiyatlari**

Rekreatsiya maqsadida rayonlashtirishda rekreatsiya resurslari xususiyatlarini, hamda mintaqani rekreatsiya sifatida qabul qilish sig'imini o'rganish talab etiladi. Bu maqsadda rayonlashtirish ishlari bilan bir qancha olimlar shug'ullanishgan. Kotlyarev

E.A turistik – rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishda quyidagi belgilarni asos qilib olishni taklif qilgan:

1. Ma'lum hududni kurort – sog'lomlashtirish xo'jaligini ixtisoslashuvi jihatdan ifodalash.
2. Kurort – turistik – sog'lomlashtirish xo'jaligini moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari bilan aloqasi uyg'unligida ifodalash.
3. Butun aholiga nisbatan, mehnat resurslaridan kurort – turistik – sog'lomlashtirish xo'jaligida band mehnat resurslari ulushi jihatdan belgilash.

Kotlyarev ye.A. ko'lamiga ko'ra turistik – rekreatsiya rayonlarni 4 guruhga ajratadi: respublika (o'lka, viloyat), rayon, rekreatsion joy (hudud), rekreatsion mikrorayon.

Rus olimlaridan A.M.Vetitnev va L.B.Juralevalar esa turistik – rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishda 4 jihatga e'tibor berishgan:

1. Ijtimoiy
2. Iqtisodiy
3. Geografik
4. Ekologik

Ijtimoiy nuqtai nazardan aholini jismoniy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish hisoblansa, iqtisodiy nuqtai nazardan turistik xizmat ko'rsatishni boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari bilan aloqada, majmua sifatida shakllanishi hisobga olinadi.

Geografik jihatdan turizm sohalarida hududiy mehnat taqsimoti shakllanishi, hududda rekreatsiya resurslarining foydalanish darajasiga e'tibor qilinadi. Ekologik jihatdan olganda, rayonlashtirishda insonni o'rab turgan atrof – muhit va rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish nazarda tutiladi.

Umuman olganda, rayonlashtirishda ob'ekt hududiy uzluksiz ko'rinishida yoki hodisa va voqelik hududning ayrim joylarida mavjud bo'ladi. SHu jihatdan turistik rayonlashtirish ko'p jihatlarga bog'liq. Bularga:

- tabiiy landshaftlarni jozibadorligi nuqtai nazardan;
- ijtimoiy – iqtisodiy nuqtai nazardan;
- madaniy – tarixiy nuqtai nazardan qarashga bog'liq.

Turistik rayonlashtirishda tabiiy landshaftlarni jozibaligi hisobga olinganda geografik omillar (relef, iqlim, cho'l, tog', voha va boshqa lanjshaft rayonlari) asos vazifasini bajaradi. Bunday rayonlashtirish butun mamlakatni qoplab oladi. Ijtimoiy – iqtisodiy hamda madaniy – tarixiy nuqtai nazardan turstik rayonlashtirishda, arxeologik yodgorliklar, arxetektura hamda shaharsozlik ob'ektlari, ziyoratgohlar va boshqa turistik ob'ektlar hududning faqat ayrim joylarida uchraydi. SHuning uchun ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy – tarixiy ob'ektlarni turistik jihatdan rayonlashtirishda murakkabliklar mavjud.

### **12.3.***O'zbekistonda turistik rayonlashtirishda yondoshuvlar*

Turistik rayonlashtirish sohaviy yoki tarmoq rayonlashtirish turkumiga kiradi. Bunday rayonlashtirishda hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv asos qilib olinadi. Turistik rayonni shakllantiruvchi omillar sifatida tabiat landshaftlari, ijtimoiy – iqtisodiy,

madaniy – tarixiy ob'ektlar va turistik infrastruktura xizmat qiladi (A.S.Soliyev, M.R.Usmonov, Turizm geografiyasi. 2005).

O'zbekistonda turistik rayonlashtirish mutaxasislar tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilmoqda. Bu borada ham turli qarashlar mavjud. Masalan, M.R.Usmonov o'zining tadqiqotlarida mamlakatimizda 6ta turistik rayonni ajratgan (Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Zarafshon, Janubiy, Qo'yi Amudaryo turistik rayonlari).

N.Norchaev esa o'z tadqiqotlarida 7ta turistik rayonni ajratgan (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Jizzax - Sirdaryo, Qashqadaryo - Surxondaryo turistik rayonlari). Biz yuqoridagi medologik asoslarga ko'ra mamlakatimizni quyidagicha rayonlashtirishni taklif qildik:

1. Toshkent turistik rayoni (Toshkent viloyati);
2. Farg'ona turistik rayoni (Farg'ona, Namangan,Andijon viloyatlari);
3. Mirzacho'l turistik rayoni (Jizzax, Sirdaryo viloyatlari);
4. Samarqand turistik rayoni (Samarqand viloyati);
5. Buxoro – Qizilqum turistik rayoni (Buxoro, Navoiy viloyatlari);
6. Janubiy turistik rayoni (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari);
7. Quyi Amudaryo (Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi).

### **12.4.***O'zbekistonning turistik rayonlari tavsifi*

***Toshkent turistik rayoni*** Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan iboratmintaqa hisoblanadi. Toshkent shahri – Markaziy Osiyoning eng yirik shahri – O'zbekistonning Respublikasi poytaxtidir. Toshkent qadimiy shaharlardan hisoblanib,u haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi II asrdagi Xitoy solnomalarida uchraydi. Hozirgi kunda Toshkent yirik transport tuguni sifatida (havo, temir yo'l, avtomobil) o'zida mamlakatimizning tarixiy o'tmishini eslatib turuvchi taraqqiy topgan zamanoviy sanoat shahridir. SHuningdek, Toshkent turistik rayoni turistik resurslarga boy hisoblanib, mahalliy va halqaro ahamiyatdagi sayyohlikni rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Mazkur rayonda madaniy – tarixiy, tabiiy rekreatsiya resurslari mavjud. Bu yerda Oqtosh, Xumson, G'azalkent, Tovoqsoy, Boldirsoy, CHorbog', CHimyon, Kumushkon, So'qoq, Ohangaron, YAngiobod, Ertosh, Ko'ksaroy, Qizilchi kabi dam olish va davolanish resurslariga ega. Rayonning turli tekislik va tog'li qismida ekskursiya ob'ektlari va shifobaxsh maskanlari ko'p. Bu rayonda Botanika, Turon, CHinobod, Toshkent mineral suvi, 8 mart, Qibray, Bo'ston, Zangchi ota kabi bir qancha sanatoriya va kurort zonalari joylashgan. YUqoridagi tabiiy rekreatsiya resurslaridan kelib chiqib ekologik turizmni tashkil etish imkoniyatlari bisyor. Ayni kunda CHotqol davlat qo'rio'xonasiga turli marshrutlarni yaratish katta samara beradi. O'z navbatida Toshkent turistik rayoni madaniy-tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlarga boy hisoblanadi. Toshkent shahrida ko'plab muzeylar mavjud. Masalan, Tasviriy san'at muzeyi haykallar, rasmlar va turli hunarmandchilik mahsilotlarining yirik to'plamiga ega. O'zbekiston Amaliy San'at muzeyi 30 mingdan ortiq hunarmandchilik mahsulotlari va qimmatbaho taqinchoqlariga ega. Undan tashqari XVI asrning ajoyib yodgorligi Baroqxon madrasasi, XIV asrga oid

Ko’kaldosh madrasasi kabi qadimiy arxitektura yodgorliklari va zamonaviy Amir Temur xiyoboni, Mustaqillik maydoni kabi turli bog’va maydonlar ham turistlarni jalb qiluvchi ob’ektlardir.

Mazkur turistik rayonda turizm infratuzilmasi boshqa rayonlarga nisbatan ancha rivojlangan. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati tog’oldi mintaqalaridagi turistik ob’ektlarda mehmonxona va dam olish maskanlarida turistlarga xizmat ko’rsatish darajasi yildan – yilga yaxshilanmoqda. Bu albatta yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hudud uchun ayniqsa muhimdir.

Toshkent shahrini 2007 yil «Islom madaniyati poytaxti» deb e’lon qilinishi natijasida poytaxtimizning dovrug’i yanada oshdi vash u bilan birga hukumatimiz tashabbusi bilan ko’pgina qadimiy yodgorliklar qayta ta’mirlanib o’z jozibadorligini yanada oshirdi. Bu shundan dalolat beradiki, mazkur turistik rayonda turizmni rivojlanishi istiqbollari yana ham kengayib boradi.

***Farg’ona turistik rayoni*** respublikamizning uch viloyatidan iborat (Farg’ona, Andijon, Namangan), eng so’lim, tabiati go’zal maskandir. Rayon o’zoq tarixga ega hunarmandchilikning yirik markazi sifatida hozir ham ahamiyatini yuqotmagan.

Qadimiy shaharlardan hisoblangan Qo’qon shahrida bir qancha arxitektura yodgorliklari mavjud. Masalan, Qo’qonning oxirgi xoni Xudoyorxon saroyi, Modarixon maqbarasi shular jumlasidandir. 2700 yil yoshga kirgan Marg’ilon (2007y) X asrda o’zining ipak matolari bilan mashhur bo’lgan. Marg’ilonning monumental yodgorliklaridan bezatilgan, masjid, minora, maqbara va kaptarxonadan iborat bo’lgan Kaptarlik kompozatsiyasi (XVIII) hamda SHouda masjidini ke6ltirish mumkin. YUqorida ta’kidlaganimizdek turistik rayonda milliy hunarmandchilik taraqqiy etgan. SHu o’rinda Marg’ilon ipaklari, shoyilari va do’ppilari, CHust pichoqchiligi, charmdo’zligi, Rishton kulolchilik mahsilotlari hamda Andijon, Asaka, Pop, Qo’qon, SHahrixon kabi shaharlari ham ma’lumhunarmandchilik turlari bilan turistlarini jlb qilish imkoniyatiga ega. YOzyovon cho’llari noyob cho’l landshafti bo’lsa, Axsi, Eski Pop, Tuproqqal’a ekoturistik obidalar va rayon etnografiyasi, san’ati, madaniyati, urf-odatlari (tuylari, milliy uyinlar) hamda choyxonalari turistik qiziqishni orttiruvchi resurslardir.

Turistik rayon tabiiy – rekreatsiya resurslariga ham boydir. Hozirgi kunda mazkur turistik rayonda 55 ga yaqin noyob tabiiy turistik ob’ektlar hisobga olingan. Dam olish va davolanish maskanlariga CHortoq, CHimyon, SHohimardon, Vodil kabilarni misol keltirish mumkin. Undan tashqari Namangan viloyatidagi CHortoq, Gulshan dam olish va davolvnish sihatgohlari, Baliqko’l, Nanay, G’ova, Mavlono Lutfullo, Parda Tursun kabi dam olish maskanlari va ziyoratgohlari, Andijon viloyatidagi SHirmonbuloq, Xonobod, Dilkushod dam olish maskanlari, Qutayba Ibn Muslim, Imom ota, Qambar ota va boshqa diniy ziyoratgohlar rayonni turistik resurslar salohiyatini belgilaydi. Vodiyda 50 dan ortiq mineral suv manbalari mavjud. Misol uchun turli kasalliklar davolanayotgan CHortoq mineral suvi 1946 yilda ochilgan.

Hozirgi kunda rayonda mahalliy turizm ancha rivojlangan bo’lib, ammo chet el turistlarini jalb qilish nisbatan past darajada. CHunki, birinchidan, rayon turistik nuqtai nazardan yaxshi o’rganilmagan, ikkinchidan, turistik infratuzilma yuqori darajada

takomillashmagan. Agarda yuqoridagi muammolar o’z yechimini topsa, mintaqa mamlakatimizning turistlarni qabul qiluvchi asosiy markazlariga aylanadi.

***Mirzacho’l turistik rayoni*** o’zining tabiiy rekreatsiya resurslari, o’ziga xos landshaft zonalari va qadimiy manzilgohlari bilan mashhur. Jizzax viloyatining Morguzar va Turkiston tog’ tizmalaridagi tabiiy va rekreatsiya maskanlari, Sangzor daryosi havzasining landshaft zonalari ushbu rayonning turizm imkoniyatlarini oshiradi. Undan tashqari Zomin va Baxmal tog’ va tog’oldi mintaqalari aziz qadamjolar hamda dam olish maskanlariga boy hisoblanadi. Turistik rayonda ekologik turizmni rivojlantirish borasida amaliy ishlar boshlangan. «Ekosan» xalqaro jamg’armasining ekoturizm bo’linmasi tomonidan Jizzax viloyatining Zomin milliy bog’i va Nurota qo’riqxonalariga marshrutlar ishlab chiqilgan. Zomin milliy bog’i Toshkentdan 250 km o’zoqlikda bo’lib, viloyatdagi Tureiston tog’ tizmasining shimoliy yonbag’rida joylashgan. Bog’ning umumiy maydoni 24,1 ming ga, shundan 12,1 ming ga o’rmonlar va 16,7 ming ga o’rmon bilan qoplangan yerlardan iborat. Milliy bog’ rekreatsion zonalardan iborat. Unga ekologik turizmni soylar bo’ylab, hamda tabiatning ajoyib ob’ektlariga piyoda va otlarda uyushtiriladi.

Nurota davlat qo’riqxonasi Jizzax viloyati Forish tumanida Nurota tog’ tizmasining yonbag’rida joylashgan. Umumiy maydoni 17,7 ming ga bo’lib, turistik marshrutlar piyoda va otlarda uyushtiriladi. Marshrutlar asosan ibtidoiy jamiyatning toshlarga chizilgan rasmlari, relikt daraxtlar, Severtsov qo’ylarining tabiatdagi populyatsiyasini o’rganish va tomosha qilishga asoslangan.

Undan tashqari Jizzax viloyatining Baxmal tumani so’lim go’shalari, hamda muqaddas ziyoratgohlarga boy hisoblanadi. Bunda G’allaorol tumanidagi Sadir Vaqqos avliyosini qo’shib hisoblaganda 11 ta muqaddas joylarni ziyorat qilish qo’lay hisoblanadi. Bu ziyoratni Qirqqiz avliyo – Do’lana avliyo – O’smat ota – Novqa ota – Mir Said Ahmad – Bog’imazor ota – Jo’m-Jo’m ota – Azizlar – Terakli ota – Xo’ja Ko’ndalang –Sadir Vaqqos avliyo yo’nalishida tashkil etish mumkin.

Mazkur turistik rayonda turizmni rivojlantirishning asosiy muammosi turizm infratuzilmasini yaxshilashdir. Mintaqada turistik xizmat ko’rsatishning barcha tarmoqlarini rivojlantirish talab etiladi. SHunda, mazkur mintaqada iqtisodiyotida turizm o’z o’rniga ega bo’ladi.

***Samarqand turistik rayoni*** mamlakatimizning asosiy turizm markazidir. Turistik rayon ma’muriy jihatdan Samarqand viloyatidan iborat bo’lib, respublikamizda tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan qulay mintaqada joylashgan. Rayon tabiiy shart-sharoiti, yer usti tuzilishi geografik jihatdan chegaralanishi, ya’ni uning janub va shimol hamda shimoli-sharq tomonlari tog’ va tog’liklardan iboratligi ham turizm sohasida juda katta mazmun kasb etadi. Uning chegaralari shimolda Nurota tog’lari (Oqtov, Qora tog’, G’o’bdin tog’, Qo’ytosh tog’i), janubdan Zarafshon tog’ tizmalari (CHaqilqalon, Qoratepa, Ziyovuddin, Zirabuloq h.k.) bilan o’tadi.

Viloyatning asosiy yer usti tuzilishi o’ziga xos bo’lgan tabiiy va landshaft xususiyatlari rekreatsiya resurslarining rivojlanishiga sabab bo’lgan. Uning tekislik qismida ya’ni Zarafshon daryosi sohillarida, Qarnabcho’l va Jom kabi cho’l hududlarida sayyohlikning kabi ekoturizm turlarini tashkil etish mumkin.

Viloyatning yer osti va yer usti gidrologik suv resurslari, tog', tog' oldi etaklari hamda tog' oralig'i soylarida tabiiy ravishda hosil bo'lgan landshaftlar (tabiiy manzaralari), yam-yashil o'rmonzorlar (Omonqo'ton), tog'u-tosh jinslar shakllari (Qoratepa), tog' daralari (chuqurliklari), g'orlar (Hazrati Dovud, Kelsi, Lev), noyob tabiat yodgorliklari (Kamongaron, G'us), shifobaxsh buloqlar, YUqori chinor (Mingchinor), Qaynar buloq, Rohatbuloq, ajoyib ko'llar (Muz buloq, Alvasti ko'llari), go'zal shar-sharalar (G'ussoy, Kamangaron) va hakozolar mintaqamiz turizm imkoniyatlarini yanada oshiradi. Zarafshon daryosi qadimiy turistik ob'ektlarga boy yaxlit sayyohlik majmuasi (kompleksi) hisoblanadi.

SHuni ta'kidlash joizki, viloyatning tog', tog' oldi hududlarida mavjud bo'lgan beqiyos shifobaxsh, tibbiyot va boshqa sohalarda keng ko'lamda foydalanadigan chashma va buloq suvlari o'zining ekologik jihatdan tozaligi, xilma-xil kimyoviy elemerntlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ular aholi sog'ligini tiklash, sog'lomlashtirish, dam olish uchun qo'lay imkoniyatlarni yaratadi va mintaqamizda rekreatsiya (sog'lomlashtirish, hordiq chiqarish) turizmning ahamiyatini oshiradi. Bunday tabiiy maskanlar viloyatimizning Urgut, Samarqand, Nurobod, Qo'shrobod va boshqa tumanlari tog', toqoldi hududlarida tarqalgan bo'lib, ulardan turizm maqsadida foydalanish muhimahamiyatga ega bo'ladi.

Viloyatimiz o'zining go'zal tabiati, o'simlik va hayvonat dunyosi bilan ham mamlakatimizning boshqa mintaqalaridan alohida ajralib turadi. Viloyatimizga tashrif buyuradigan sayyohlarni tarixiy arxitektura-qurilish inshoatlari, qadimiy obidalardan tashqari ming yillik tarixga ega bo'lgan chinorlar va boshqa yashil daraxtlar beqiyos ko'pdir. Viloyatning tog', tog'oldi hududida joylashgan Omonqo'ton o'rmonzorlarida (maydoni 2188 gektar bo'lib, 1887 yilda dastlabki ko'chatlar ekilgan) o'ziga xos tabiiy landshaft shakllari vujudga kelgan. Omonqo'ton hududining iqlimi va o'simlik dunyosining o'ziga xosligi bu joyda ko'plab dam olish zonalari, oromgohlar qurish imkonini beradi. Ammo sayyohlarga Omonqo'ton havzasidagi o'rmonzorlarni ko'rsatish uchun qo'lay shart-sharoitlar yaratish, maxsus yo'lakchalar qurish lozim bo'ladi. Viloyatning yana bir qator tumanlarida va qishloqlarida ming yillik davrga teng qadimiy noyob daraxtlar (archalar, chinorlar) hanuzgacha saqlanib qolgan. Ular qatoriga Urgut shahridagi yuqori CHor CHinor (1020 yillik), Kattaqo'rg'on tumani Qoradaryo qishlog'idagi chinor (565 yillik), Nurobod tumani Tim qishlog'idagi archa 1000 yillik, Jomboy tumani Xolvoyi qishlog'idagi ming yillik archalarni misol keltirish mumkin. Ayniqsa, Jomboy tumanida joylashgan Zarafshon daryosi qayirida joylashgan Zarafshon qo'riqxonasi betakror o'simlik va hayvonat dunyosining xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi va mavsumiy hamda qisqa muddatli sayyohlikni tashkil qilish uchun qulayimkoniyatlar yaratadi.

Viloyatning chala cho'l va cho'l hududlari ham esa o'ziga xos hayvonat va o'simlik dunyosiga ega. Ularda sudralib yuruvchilar turkumidan turli xil zaharli ilonlar, cho'l toshbaqalari, qushlardan to'rg'ay, qarchig'oy, sut emizuvchilardan sariq sassiq ko'zan, kabilar uchraydi. Mazkur hududlar o'simlik va hayvonat dunyosiga qiziquvchi ***ekoturizm*** ishqivozlari uchun yangi turistik marshrutlarni tashkil etishni talab qiladi.

SHuni ta'kidlash joizki, bozorlar bilan sayyohlarning tanishishi juda katta iqtisodiy va ijtimoiy geografik mazmun kasb etadi. CHunki, bozorlar, ayniqsa sharq bozorlari mintaqa va hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini, uning boyligi, ixtisoslashuvi, aholining milliy tarkibi, urf-odatlari, milliy qadriyatlari va an'analarini o'zida mujassamlashtiradi. SHunday ekan, tarixiy yodgorliklar, qabristonlar kabi bozorlar ham sayyohlar uchun juda muhim turistik ob'ekt bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun ham bozorlarning sanitariya holatlarini yuqori darajaga ko'tarish va uni doimo nazorat qilish shu kunning eng muhim muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda viloyatimizda turizm sohasida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar borki, ularni bosqichma-bosqich hal etish kelajakda ushbu sohani mintaqa iqtisodiyotining yetakchi tarmog'iga aylantirishga xizmat qiladi. CHunonchi, Samarqand turizmini yuksaltirishda sayyohlar ayirboshlashni, turizm bozorini yaxshi yo'lga qo'yish eng muhim muammolardan hisoblanadi.

***Buxoro - Qizilqum turistik rayoni*** respublikamizning asosiy turizm markazlaridan hisoblanadi. Bu rayonga Buxoro va Navoiy viloyatlari kiradi. Turistik resurslarga eng boy shahar bu Buxoro shahridir. SHahar o'zining 170 tadan ortiq bebaho, takrorlanmas tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Hozirgi kunda shaharning umumiy maydoni 710 gektardan ortiq bo'lib borgan sari go'zallashib bormoqdava sayyohlar oqimining ko'payishiga imkoniyat keng ochilmoqda.

SHuni ta'kidlash joizki, Buxoro Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq u o'zida takrorlanmas qadimiy sharqona shahar tuzilishi qiyofasini hanuzgacha saqlab kelmoqda. U O'rta Osiyo me'morchiligining ming yillik tarixini o'zida aks ettirgan chinakam yilnomadir. SHahardagi har bir tarixiy yodgorlik va obidalar o'z sukunatida olis o'tmish sirlarini saqlab qolgan. Buxoro shahri haqiqatda "Muzey shahar" maqomiga ega bo'lib, u diqqatga sazovar tarixiy yodgorliklar va obidalarga juda boy hisoblanadi. Buxoroi sharifga tashrif buyuruvchi har bir xorijiy sayyoh o'zinisayyohatini birinchi bo'lib, shaharning eng muhim tarixiy yodgorliklaridan biri Ark- qa'lasidan boshlaydi.

Ark-qa'la 2000 yillik tarixga ega. U sayyohlar qadami o'zilmaydigan turistik ob'ekt bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan qurilish ob'ektlari XVII asr oxiri va XX asr boshlarida qurilgan. Ark-qa'la shaharning g'arbiy qismida qad ko'targan. Uning umumiy maydoni 3,16 gektar bo'lib, devorlarning uzunligi 790 metrdan ortadi. Ark-qa'la hududida juda katta binolar majmuasi joylashgan bo'lib, ulardan biri CHilduxtaron masjidi hanuzgacha saqlanib qolgan. Qa'lada sayyohlarning e'tiborini jalb qiladigan yana bir narsa-bu qadimgi zindondir. Hozirgi Ark-qa'la hududida Buxoro viloyati tarixiy o'lkashunoslik muzeyi joylashgan. Qa'laning sharqiy qismi esa arxeologik yodgorlik sifatida saqlanib kelinmoqda.

Minorai Kalon Buxoro shahrining ko'rkidir. U Markaziy Osiyodagi mashhur arxitektura yodgorliklarining eng balandi (46.5 metr) salobatli va chiroyli minorasi bo'lib, hisoblanadi. Minorai Kalon yaqin atrofida Kalon masjidi va Mir Arab madrasasi kabi arxitektura yodgorlik ansambli (Poy Kalon) joylashgan. U XVI asrga kelib qaytadan ta'mirlandi. Masjid binosida 208 ta ustunlar bo'lib, umumiy maydoni bir gektardan

ortadi. Bu masjid Markaziy Osiyodagi eng yirik inshoatlardan biri hisoblanib, Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Mir Arab madrasasi 1536 yilda qurilgan bo'lib, Kalon masjidi bilan birga tutashib ketgan. Madrasa markaziy qismida Ubaydullaxon qabri, uning bosh qismida esa Mir Arab qabri joylashgan. Hozirgi kunda Mir Arab madrasasi hududida Buxoro diniy bilim yurti faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

SHaharda xorijiy sayyohlar diqqatga sazovar joylardan yana biri-bu Ulug'bek madrasasidir. U 1417 yilda qurilgan. Bu madrasa buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bek nomi bilan chambarchas bog'liq. SHaharda musulmon olamidagi eng ajoyib tarixiy yodgorliklaridan biri Ismoil Samoniy maqbarasi bo'lib hisoblanadi. U shu kunga qadar juda yaxshi saqlanib, bizga yetib kelgan tarixiy obidalardan biridir. Bu bino o'rta asrning ilk davri me'morchiligining eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan inshshotdir.

SHaharda yana bir qator turistik ob'ektlar borki, ular qatoriga Madorixon madrasasi (1566-1567 yillar), Abdullaxon madrasasi (1588-1590), Xo'ja Zayniddin xonaqasi (shayx Zayniddin qabri), CHashma Ayub mavzoleyi (1330-1385 yillar), Abdulazizxon madrasasi (1652 yil), CHor Minor madrasasi (1807 yil), Kulba Ko'kaldosh madrasasi (1568-1569 yillar), Nodir Devonbegi madrasasi (1622 yil), Sayfiddin Buxarzi mavzoleyi (XV-XVI asrlar), Buyon Kulixon mavzoleyi (1358 yil), Magohi Attoriy masjidi (XII asr), Toki Zargaron zargarlik bozori rastlari (XVI asr), Toki Telpak Furushon bosh kiyim (do'ppi) bozori (XVI asr), Toki Sarrafon mayda-chuydalar (attorlik) bozori (XVI asr), Magoki – Attaron masjidi (XII asr), Labi havuz ansambli (XVI-XVII asrlar), Ko'kaldosh madrassasi (1622 yil) ni kiritish mumkin.

SHu manzilgohlardan biri Buxoro xonining yozgi qarorgohi Sitorai Moxi-Xosadir**.** Bu qarorgoh Buxoro shahrining shimoliy-sharqiy qismida 4 km uzoqlikda joylashgan yozgi bog' saroy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida barpo etilgan. Moxi-Xosa saroyi SHarqona va yevropa uslubida qurilgan inshoat bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi muhim turistik ob'ekt-bu Bahovuddin Naqshbandiy majmuasi bo'lib, u shahardan chamasi 15 km uzoqlikda joylashgan. Bu majmua XVI asrda qurilgan. SHahar atrofidagi muhim tarixiy yodgorliklaridan CHor Bakr, Namozgoh masjidi, Varaxshon saroyi joylashgan.

Turistik rayondagi muhim xorijiy turistik ob'ektlar qatoriga Qizilqum cho'lini kiritish mumkin.U eng katta hududni egallab, viloyat turistik yo'nalishidagi eng uzoq masofali (450 km) marshrut hisoblanadi. Bu marshrut Qizilqum cho'li va Amudaryo qirg'oqlari bo'ylab o'tadi. Uni avtomobil vositasida sayr qilib o'tish o'zgacha zavq beradi. Qizilqumda o'simlik va hayvonat dunyosini asl holida saqlab qolish maqsadida Buxoro viloyati hududida Qizilqum davlat qo'riqxonasi (1971 yil) tashkil etilgan.Viloyat hududida noyob ekzotik, yovvoyi hayvonlarni ko'paytiradigan «Jayron» ekomarkazi Qorako'l. Qoraqir-maydoni 300 kv.km; Dengizko'l Vardanzi Davlat tabiat yodgorliklari kabi maskanlar ekoturizm yanada rivojlantirishga juda katta imkoniyatlar yaratadi. Mazkur sayyohlik ob'ektlaridan biri Kogon va Qoraulbozor tumanlari hududida joylashgan.

«Jayron» ekomarkazi bo'lib u, noyob olachipor jayronlarni maxsus o'rchitidigan ilmiy dargoh bo'lib hisoblanadi. Bu ob'ekt viloyat turizmida yangi marshrutlar ro'yxatini kiritish lozim bo'ladi.

***Janubiy turistik rayon*** ma'muriy jihatdan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan iborat bo'lib, tarixiy va tabiiy turistik resurslarga ega. Qashqadaryo viloyati o'zining qadimiy shaharlariga ega. Qadimda yirik savdo va hunarmandchilik markazi hisoblangan SHahrisabz shahri Amir Temur qurdirgan Oqsaroy ansambli ko'plab diniy ziyoratgohlarga boydir.Viloyat markazi hisoblanagan Qarshi bir necha arxitektura yodgorliklarga ega. Bular: Ko'kgumbaz masjidi (1463y), Jome' masjidi, Minorali Qo'rg'oncha, Xo'ja Abdulaziz madrasasi, Qilichboy madrasasi, Zaxox – Moron shaharchasi xarobalari va Qashqadaryo daryosi ustidan o'tgan qadimiy ko'prik kabilar. Mazkur shaharning 2006 yilda 2700 yillik yubileyi munosabati bilan yuqoridagi arxitektura obidalarning jozibadorligi yanada oshdi.

Turistik rayonning yana bir qadimiy shaharlaridan biri Termizdir. Termiz shahri eramizdan oldingi II-I asrlarda Hindistonni Markaziy Osiyo orqali yevropa bilan bog'lovchi korvon yo'llarining chorrahasida paydo bo'lgan. Termiz yonida eramizdan oldingi III-II asrlarda YUnon – Baqtriya davlatiga tegishli turar joylar topilgan. Qoratepada Budda madaniyatiga tegishli turli yodgorliklar, Fayoztepada Budda ibodatxonasi xarobalari mavjudligi, bu joylarga sharqiy Osiyolik turistlarni jalb qilmoqda.

Turistik rayon tabiiy – iqlimiy turistik resurslarga ham boy hisoblanadi. Mintaqaning tabiiy go'zal va o'ziga xos tabiati, relefi turizmni turli yo'nalishlari rivojlantirish imkoni beradi. Ayniqsa, Hisor tog'ining go'zal manzarasi va undagi ko'plab shifobaxsh buloq va chashmalar aholini dam olish va salomatligini tiklashda ahamiyati katta. YAna rayondagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar hisoblangan Kitob geologik qo'riqxognasi, Hisor, Surxondaryo, Payg'ambarorol davlat qo'riqxonalarida ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. SHuningdek, bu mintaqada yashayotganxalqning o'zoq o'tmish an'analari, san'ati, madaniyati va urf – odatlari mahalliy hamda xorij turistlarini qiziqtirishi shubhasizdir.

***Qo'yi Amudaryo turistik rayoni*** O'zbekiston Respublikasining eng g'arbiy qismida, ma'muriy jihatdan Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. U o'zining madaniy – tarixiy obidalari, arxeologik yodgorliklari, hunarmandchiligi va san'atining o'ziga xosligi, hamda tabiiy – rekreatsiya resurslari bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Albatta bu turistik rayonning o'zagini Xorazm vohasi tashkil etadi. Bu voha o'zining qadimiy madaniyati, ilmu – fan va san'ati bilan mashhurdir. Bu o'rinda Xiva shahri o'zining qadimiy arxitektura yodgorliklari bilan yurtimizda alohida ajralib turadi. Xivada Ichan qal'a 2.5 km uzunlikdagi devorga, Ota darvoza, SHimoliy, SHarqiy, Janubiy, Buxoro va Toshdarvozalarga ega bo'lib, chet el turistlarini o'ziga jalb qiladi. SHaharda Pahlovon Mahmud maqbarasi (1835 y), Muhammad Aminxon madrasasi (1850-1855y), Ko'na Ark, Tosh hovli, Olloqulixon karvonsaroyi (1855 y) va boshqalar muhim turistik ob'ektlardir.

SHu kabi Qoraqalpog'iston Respublikasida ham bir qancha turistik resurslarga ega. Xususan qadimiy shahar va qal'a xarobalarini sayyohlik yo'nalishlariga kiritish

mumkin. Orol dengizi va uning fojiasi bilan qiziquvchilar uchun ekoturistik marshrutlarni yaratish hisobiga, bu mintaqada turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish mumkin. Boshqa rayonlardagi kabi bu turistik rayonda ham yuqorida qayd qilinagan resurslardan turizm maqsadida foydalanilmayapti. SHu o'rinda bu mintaqani turistik jihatdan ilmiy o'rganish, xizmat ko'rsatish sohalarini takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi. YAna shuni ta'kidlash lozimki, mintaqa turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlash ham muammoni yechimlaridan biridir.

jadval -12

*Turistik rayonlarning turistik resurslari salohiyati*

| Mintaqalar | Turistik resurslar va ob'ektlar |
|---|---|
| Toshkent | Ko'kaldosh madrasasi, Kaffol SHoshiy maqbarasi, Hazrati Imom arxitektura majmuasi, Abulqosim madrasasi, Baroqxon madrasasi, Jome' masjidi, Amir Temur muzeyi va xiyoboni, Mustaqillik maydoni, Xalqlar do'stligi maydoni, Jasorat monumenti, Xasti Imom maydoni, Tilla SHayx masjidi, Xadra maydoni, So'fi Ota maqbarasi. |
| Samarqand | Afrosiyob arxeologik majmuasi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, SHohi Zinda arxitektura majmuasi, Hazrati Hizr masjidi, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi, SHerdor madrasasi, Tillakori madrasasi, Ruhobod maqbarasi, Oqsaroy maqbarasi, Go'ri Amir maqbarasi, Namozgoh masjidi, Ishratxona maqbarasi, Hoja Ahror majmuasi, Hoja Abdu Darun qabristoni |

| | |
|---|---|
| Buxoro | Ark, Bolo – Hovuz majmuasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, CHashmai – Ayub, Abdulloxon madrasasi, Modari – Xon madrsasi, Masjidi Baland, Gavkushon majmuasi, Zayniddin Hoji xonaqosi, Poyi – Kalon majmuasi, Labi – Hovuz majmuasi, Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi xonaqosi, Ulug'bek madrasasi, Abdulazizxon madrasasi, Bolohovuz masjidi, Sayfiddin Boharziy maqbarasi, Bayonqulixon maqbarasi, Fayzobod xonaqosi, CHorminor madrasasi, Buxoro amirining Sitorai Mohi – xosa yozgi saroyi, CHor – Bakr majmuasi. |
| Xorazm | Ichan qal'a, Saidboy masjidi va madrasasi, Polvon Darvoza, Olloqulixon madrasasi, Qutlug'murod – inoq madrasasi, Olloqulixon Timi va Karvonsaroyi, Abdulloxon madrasasi, Anushxon masjidi va harami, Toshhovli, Oqmasjid, Juma masjidi va minorasi, Said Olovuddin maqbarasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Kaltaminor, Ko'na Ark, To'ramurod minorasi, SHerniyozxon madrasasi, Bog'landi masjidi, Arabxona madrasasi. |
| Qashqadaryo | Oqsaroy, Dorus – Saodat majmuasi, Hazrati Imom masjidi, Jahongir maqbarasi, Dor – ut – Tilovat arxitektura majmuasi, Ko'k Gumbaz masjidi, Gumbazi Saidon, SHamsiddin Kulol maqbarasi. |
| Surxondaryo | Qirq – qiz saroyi, Termiz hukmdorlari saroyi, Hakim at Termiziy arxitektura majmuasi, Sulton – Saodat arxitektura majmuasi, Qoratepa ibodatxonasi, Fayoztepa ibodatxonasi. |
| Farg'ona | Xudoyorxon saroyi, G'ishtlik masjidi, Jome' masjidi va minorasi, Mulkobod masjidi, Saida Ahmadhoji madrasasi, CHokar masjidi, Xo'ja Magiz maqbarasi, Mullo Qirg'iz madrasasi, Axsikent qadimiy shaharchasi. |

## **12.5.** *O'zbekistonda ekoturistik rayonlashtirish*

O'zbekiston ekologik turizmni (ekoturizm) rivojlantirishni keng imkoniyatlariga ega. Turizmni bu sohasini rivojlantirish uchun rayonlashtirishni amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Ekologik turizm nuqtai nazardan ekoturistik rayonlashtirish – ma'lum bir hududni uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollariga ko'ra ajratishdir.

Ekoturistik rayonlashtirishning ilmiy asosi sifatida qo'yidagi geoekologik tasnifiy belgilar olindi:

- har bir tabiiy geografik kompleks qaytarilmas ekoturistik imkoniyatlarga, ya'ni regionallik xususiiyatlariga ega ;
- ekoturistik ob'ekt chegarasi doimo ham ma'muriy chegara to'g'ri kelavermaydi, ya'ni tabiiy geografik kompleks ta'sir doirasida turadi va shuning uchun ham undan kompleks foydalanish imkoniyati ochib berilishi lozim. Tabiatga uyushtirilgan sayyohlik mohiyatida tabiatni muhofaza qilish, turistlarning ekologik ongi va madaniyatini ko'tarish, buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash masalalari turishi lozim;
- ekoturistik rayonlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va uning jozibadorligini namoyon etish uchun ekoturstik marshurutlar, tarixiy, tabiiy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy kabi turistik sayohatlar bilan birga olib borish imkoniyatlarini hisobga olish, ekoturistlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini yuzaga chiqarish va h.k.

YUqorida aytib o'tilgan ilmiy printsip va asoslarga binoan A.Nig'matov va N.SHomuratovalar O'zbekiston hududini 14 ta ekoturistik rayonga ajratgan..

***I. Ustyurt ekoturistik rayoni.*** Ustyurt - O'zbekistonning shimoliy-g'arbi – Qoraqalpog'istonda joylashgan plato (er yuzasi kam parchalangan yassi tekislik). Uning maydoni juda katta (200 ming km$^2$ ), yo'llari asfaltsiz, o'nqir-cho'nqir yo'llardan iborat bo'lgani uchun ham ekoturistik marshurutlar "djip " rusumdagi mashinalar, samolyot yoki vertolyotlarda olib borilgani maqul. Ustyurtning sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan ekoturistik ob'ektlariga :

- "chink"- dunyoda eng katta va yagona 60-150 metrlik tik qoyali jarlar bilan o'ralgan plato, doimiy oqar suvlarga ega bo'lmagan, lekin yer osti suvlariga ega supasimon tekisligi;
- davolash xususiyatiga ega bo'lgan juda katta (1000 km$^2$) tuzli Borsakelmas sho'rxoki. Unda o'simlik dunyosi deyarli yo'q. Osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. YAngi ochilgan Qo'ng'irot soda zavodi aynan Borsakelmas tuzlari xisobiga qurilgan ;
- neolit davridan qolgan "ustyurt makoni". Unda 60 yaqin qadimiy odamlar yashagan tabiiy ob'ektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy ham ekoturistik ahamiyatga moyili "Tempa" makoni bo'lib, undan arxeolog S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspedisiyasi 1300 dan ortiq chaqmoqtosh qurollari topilgan.

***II. Orol va Orolbo'yi rayoni*** ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo'lgani uchun

ham unda yuzaga kelgan ekologik inqiroz holati asosiy ekoturistik ob’ekt bo’lib hisoblanadi. Ekoturistik marshurutlar bir paytning o’zida ham Orolning qurilgan, ham uning ta’sirida turgan Orol atrofi hududlarini qamrab olishi zarur. Ekoturlar nafaqat trekking (piyoda) yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertalyotlar orqali ham amalga oshirish lozim. Zero u masofadan turib katta va tekis maydonni yuqoridan turib vizual kuzatish imkoniyatini beradi. Orol dengizining shimoliy g’arbiy qismida joylashgan va kundan kunga kattalashib borayotgan Borsakelmas oroli insonlarni atrof tabiiy muhitga salbiy ta’sirini aks ettiruvchi ekoturistik ob’ektdir. Unda Qozog’iston Respublikasi Borsakelmas qo’riqxonasi tashkil qilgan.

***III. Amudaryo rayoni.*** Amudaryoning o’zaniga yaqin har ikkala sohillarida to’qayzorlar mavjud bo’lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli noyob landshaft ko’rinishlardan bo’lib hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o’ng sohilida to’qay langshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto’qay qo’riqxonasi tashkil etilgan. Unga ma’rifiy-ma’naviy maqsadda tashrif buyurishni uyushtirish mumkin. Ornitafaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari Qizilqumning g’arbiy qismida, Amudaryoning o’ng qirg’og’ida, kembriy va kembriygacha burmalangan tog’ jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uvays tog’lariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O’zbekistonning ko’hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan. Xorazmdagi arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borish tavsiya etiladi.

***IV. Qizilqum rayoni*** cheksiz qumliklardan iborat bo’lsada, lekin boy o’simlik va hayvonot olamiga ega. Bu yerda eolrelef shakllari – qum marzalari, do’ng qumliklar faqatgina shu yerga xos bo’lgan go’zal tabiat manzaralariga ega. U “sahro kemasi” — tuyalarda ekuskursiyalar uyushtirish ekzotik turizmni eslatadi. 1971 yilda tashkil etilgan va 10.3 mingga maydonda joylashgan Qizilqum davlat qo’riqxonasida to’qay va cho’l landshafiga xos bulgan o’simlik va xayvonlarni muhofaza etadi. Ekoturistik ob’ektlardan biri bulgan qo’riqxonada buxoro bo’g’usi (xongul), tung’iz, qirgovul, echkemar, jayron, qum charxiloni, turkiston kobrasini va xattoki, Prajivalskiy otlari saqlanadi. Ko’rkam tabiat o’rtasidagi ovullarda mehmon bo’lib, yulduzli osmon ostida kechani o’tkazish sayyohlarga zavq bag’ishlaydi. Kizilqumda bahor oylarida kishilarga estetik zavq berib, xordiq chiqaradigan chiroyli gulli o’simliklar – lola, chuchmoma, eremurus, lolaqizg’aldoq, boychechak kabilar o’zgacha go’zallik kasb etadi. Qizilqum rayoni yilning barcha fasllarida ajoyibdir. Tuyalar karvoni esa unga yanayam ekzotik tus beradi, hamda uni jozibadorligini ortiradi.

***V. Nurota rayoni*** o’zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975 yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo’lgan Nurota tog’ yong’oqzor - meva qo’riqxonasi mavjud. Bu qo’riqxonaga "Ekosan" qoshidagi "Ekosantur" firmasi tomonidan ko’plab marshrutlar uyushtirilgan. Oqtog’ning janubiy yon bag’rida joylashgan shamol tasirida tebranib turuvchi bahaybat xarsang toshli «Samjigumon», «Koriz qoldiqlari» kabi tabiat yodgorligi ekoturizmning mo’him ob’ektlaridan bo’lib hisoblanadi.

Nurota tog’ oldida joylashgan "CHashma bo’log’i" ko’p asrlardan buyon Nurota shahri va uning atrofidagi qishloqlarni suv bilan taminlash bilan bir qatorda diniy ziyoratgohdir. Buloq yakinida "CHilistun" masjidi, Madrasa, Abul Xasan Nuriy maqbarasi va qalasi joylashgan CHashmadagi baliqlar ilohiy hisoblanadi. Baliqdan taralayotan nur inson nigohini lol qoldiradi.

Qoratog’ tizmasiniig janubiy yon bag’rida «Sarmish darasi»dagi qoyalarda avlodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Janubiy Nurota tizmasida uzunligi 110 m, absolyut balandligi 1060 m, maydoni 163 $m^2$ keladigan "Maydon karst g’ori", SHimoliy Nurota tizmasidagi uzunligi 130 m, absolyut balandligi 1100 m. maydoni 70 $m^2$ keladigan «Xonaixudo karst g’or»da speleoturizmni rivojlantirish mumnin. Bulardan tashkari, XI asrda bunyod etilgan va XVIII asr boshlarigacha turgan "Rabot Malik karvonsaroyi» sayyohlarning tuxtash joyi, shuningdek savdogarlarning savdo qilish joyi bo’lgan. Rabot Malik yonida ming yillik tarixga ega bo’lan madaniyat yodgorligi - sardoba uchraydi. yer ichiga 12 m. botirilan sardobada butun yoz buyi muzdek va toza suv saqlangan.

***VI. Zarafshon rayonida*** Zarafshon daryolari qayirlarida joylashgan tuqay landshafti, undagi o’simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun tashkillashtrilgan "Zarafshon qo’rikxonasi" mavjud. Buxoro viloyatinint SHofrikon o’rmon xujaligi x,ududida joylashgan qum cho’l landshafti, u yerdagi o’simliklar va hayvonlar hamda tarixiy yodgorlik (Vardanza shaxar xarobalari) davlatning alohida etibori bilan qo’rikdanadi. "Vardanza qo’riqxonasi", "To’dakul flora va faunasini boyitish buyurtmaxonasi", Qoravulbozor xo’jaligida joylashgan "Jayron-ekomarkazi", suv va botqoqqa moslashgan qushlarni kupaytiruvchi "Dengizkul buyurtmaxonasi", Zarafshon tog’ tizimlaridagi Omonquton va Temurlang karst g’orlari kabilar. Zarafshon ekoturistik rayonda O’zbekistonning qadimgi shaharlari Samarqand va Buxoro joylashganligi tufayli ham ekoturlar yakuni tarixiy-diniy arxitektura yodgorliklariga qilinadigan safarlar bilan olib borilishi maqsadga muvofikdir.

***VII. Aydarko’l rayonidagi*** ko’llar tizimining paydo bo’lishi bevosita Mirzacho’lning o’zlashtirilishi bilan bog’likdir. Sizot suvlari hamda zovur-drenaj suvlarining Aydarko’l botig’i tomon harakatlanishi natijasida botikdagi Tuzkon ko’lining kengayishi Arnasoy hamda Aydarko’l ko’llarining paydo bo’lishiga olib keladi.Botiqdagi keyingi dinamik o’zgarishlar CHordara suv omboridagi (1969) ortikcha suvlarning tashlanishi bilan bog’liq. Bu suvlarning to’planishi natijasida Arnasoy ko’llari birlashib yagona Aydarko’llar tizimini va undagi faunani boyitib beruvchi "Arnasoy buyurtmaxonasi"ni tashkil etilishiga olib keldi.

***VIII. Sirdaryo rayoni*** Sirdaryo o’zanidagi tuqayzorlari bilan ajralib turadi. Sirdaryoning ba’zi joylarida doimiy yoki mavsumiy orolchalar mavjud bo’lib, unda juda ko’p qushlar yig’iladi va manzarali ekoturistik ob’ekt bo’lib hisoblaniladi.

***IX. CHirchiq - Ohangaron*** tog’li ekoturistik rayonda xalqaro ekologik rezervat joylashgani uchun ham uning xuquqiy maqomi tabiatga ara-lashmaslik printsipiga moslashgirilishi lozim. Undagi ekoturistik sayohatda vertolyot va samolyotlardan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Ekoturlar oldindan belgilab berilgan kichik yo’lakchalar orkali, kam sonli turistik guruhchalarga bo’lingan tarzda, yilning hayvonot olamini

urchimaydigan va ko'paymaydigan davrlarida piyoda va otlarda aylanish maqsadga muvofikdir. Mazkur ekoturistik marshrutlarda mahalliy aholining xizmatidan atroflicha foydalanish ularni noekologik yo'naltirilgan turmush tarzini ijobiy tomonlarga o'zgartiradi.

***X. Fargona rayoni*** ekoturizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga kasb etadi. CHunki undagi landshaftlarining turli-tumanligi markazdagi cho'llardan tortib, to maftunkor tog' cho'qqilari barchani o'ziga jalb etadi. Tog'lardagi tez oqar va ba'zida kechuv qiyin bo'lgan daralarda raftlarda oqish (rafting), Janubiy Farg'onadagi balandligi 10 m keladigan, dam olayotgan tuyalarni eslatuvchi ekzotik relef shakillariga hamda «YOzyovon davlat tabiat yodgorligi»dagi ajoyib tabiiy qum massivi (1994 yilda tashkil etilgan va maydoni 1,9 ming ga) piyoda turlar uyushtirish mumkin. Koksu vodiysida 120 yil avval vujudga kelgan, oq, kulrang qoyalar bilan uralgan toza, muzdek suvli ko'k va yashil ko'llar ham ekoturizm ob'ektidir.

Farg'ona vodiysida milliy hunarmandchilik juda ham rivojlanganligi tufayli uni ekoturizm bilan o'ygunlikda olib borish mumkin. Rishtonda avloddan-avlodga o'tib keluvchi kulolchilik san'ati, CHustda do'ppiduzlik, pichoqchilik va temirchilik, Marg'ilonda atlas to'kish kabi milliy hunarmandchilik asrlar davomida taraqqiy etib kelmokda.

***XI. Turkiston rayonida*** ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarda uyushtirish maqsadga muvofiqdir. CHunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'rida 1959 yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m. umumiy maydoni 21735 ga bo'lgan "Zomin davlat qo'riqxonasi". Maydoni 24110 ga bo'lgan noyob tog'-archa ekosistemalarini tiklash va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978 yilda tashkil etilgan "Zomin milliy bog'i" mavjud.

***XII. Qashqadaryo rayoni*** O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo'lib, u cho'l,dasht, tog'oldi va tog'li xududlardan iborat. Bu rayonda yoz va bahor oylarida cho'l va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog' oldi va tog'li hududlariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Qashqadaryo rayonida 1979 yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega bo'lgan, MDH davlatlari ichida yagona - "Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi", 1992 yilda tashkil etilgan "Muborak buyurtmaxonasi", 1992 yilda tashkil etilgan "Sechenko'l buyurtmaxonasi" mavjud. Qashqadaryo rayonida ekoturizmni tarixiy, diniy turizm bilan birgalikda olib borish uchun birqancha arxitektura yodgorliklari va diniy qadamjoylar mavjud.

***XIII.Hisor rayonida*** 1983 yilda tashkil toptan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv vazirligiga qarashli, absolyut balandligi 1150-4349 m.bo'lgan, 870 xil o'simlik, 140 xil hayvonot olamiga ega, maydoni 80,9 ming ga bo'lgan Hisor davlat qo'riqxonasi mavjud. Bu rayonda ekoturlarni mahalliy aholining madaniyatini aks etgiruvchi "Boysun" etnografik-folklor ansambli chiqishlari bilan uyg'unlikda olib borish sayohlarni o'ziga ko'proq jalb qilish imkoniyatini beradi.

***XIV. Surxondaryo rayonida*** Kuhitang tog'li hududda 1987 yil tashkil etilgan 53,7 ming ga maydonda 800 xil o'simlik va 290 ta qush hamda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan "Surxon davlat qo'riqxonasi" mavjud. Surxondaryo rayoni Respublikamizning o'ziga xos rayonlaridan biri hisoblanib, bu yerda quruq

subtropik iqlim mintaqasi hukmron. SHuning uchun ham yilning ko’p oylarida ekoturlar uyushtirish imkoniyati bor.

Xulosa qilib aytganda, ekoturistik rayonlashtirishni joyning geoekologik xususiyatlaridan kelib chikkan tarzda amalga oshirish tabiat va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarni uyg’unlashtirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Hududiy rekraetsiya tizimlari (HRT) va hududiy turistik majmualar (HTM) haqida tushuncha bering.
2. Turistik – rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari.
3. O’zbekistonda turistik rayonlashtirishda qanday yondoshuvlar mavjud.
4. O’zbekistonning turistik rayonlariga ta’rif bering.
5. O’zbekistonda ekturistik rayonlariga ta’rif bering.

## *XIII Mavzu: Toshkent turistik mintaqasi*

Reja:

1. Toshkent turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.
2. Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.
3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati.
4. Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.

### 1. Toshkent turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan iborat mintaqa hisoblanadi. Toshkent shahri – Markaziy Osiyoning eng yirik shahri – O’zbekistonning Respublikasi poytaxtidir. Toshkent qadimiy shaharlardan hisoblanib, u haqidagi dastlabki ma’lumotlar eramizdan oldingi II asrdagi Xitoy solnomalarida uchraydi. Hozirgi kunda Toshkent yirik transport tuguni sifatida (havo, temir yo’l, avtomobil) o’zida mamlakatimizning tarixiy o’tmishini eslatib turuvchi taraqqiy topgan zamanoviy sanoat shahridir. SHuningdek, Toshkent turistik rayoni turistik resurslarga boy hisoblanib, mahalliy va halqaro ahamiyatdagi sayyohlikni rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Mazkur rayonda madaniy – tarixiy, tabiiy rekreatsiya resurslari mavjud. Bu yerda Oqtosh, Xumson, G’azalkent, Tovoqsoy, Boldirsoy, CHorbog’, CHimyon, Kumushkon, So’qoq, Ohangaron, YAngiobod, Ertosh, Ko’ksaroy, Qizilchi kabi dam olish va davolanish resurslariga ega. Rayonning turli tekislik va tog’li qismida ekskursiya ob’ektlari va shifobaxsh maskanlari ko’p. Bu rayonda Botanika, Turon, CHinobod, Toshkent mineral suvi, 8 mart, Qibray, Bo’ston, Zangchi ota kabi bir qancha sanatoriya va kurort zonalari joylashgan. YUqoridagi tabiiy rekreatsiya resurslaridan kelib chiqib ekologik turizmni tashkil etish

imkoniyatlari bisyor. Ayni kunda CHotqol davlat qo’rio’xonasiga turli marshrutlarni yaratish katta samara beradi. O’z navbatida Toshkent turistik rayoni madaniy-tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy ob’ektlarga boy hisoblanadi. Toshkent shahrida ko’plab muzeylar mavjud. Masalan, Tasviriy san’at muzeyi haykallar, rasmlar va turli hunarmandchilik mahsilotlarining yirik to’plamiga ega. O’zbekiston Amaliy San’at muzeyi 30 mingdan ortiq hunarmandchilik mahsulotlari va qimmatbaho taqinchoqlariga ega. Undan tashqari XVI asrning ajoyib yodgorligi Baroqxon madrasasi, XIV asrga oid Ko’kaldosh madrasasi kabi qadimiy arxitektura yodgorliklari va zamonaviy Amir Temur xiyoboni, Mustaqillik maydoni kabi turli bog’va maydonlar ham turistlarni jalb qiluvchi ob’ektlardir.

Mazkur turistik rayonda turizm infratuzilmasi boshqa rayonlarga nisbatan ancha rivojlangan. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati tog’oldi mintaqalaridagi turistik ob’ektlarda mehmonxona va dam olish maskanlarida turistlarga xizmat ko’rsatish darajasi yildan – yilga yaxshilanmoqda. Bu albatta yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hudud uchun ayniqsa muhimdir.

Toshkent shahrini 2007 yil «Islom madaniyati poytaxti» deb e’lon qilinishi natijasida poytaxtimizning dovrug’i yanada oshdi vash u bilan birga hukumatimiz tashabbusi bilan ko’pgina qadimiy yodgorliklar qayta ta’mirlanib o’z jozibadorligini yanada oshirdi. Bu shundan dalolat beradiki, mazkur turistik rayonda turizmni rivojlanishi istiqbollari yana ham kengayib boradi.

**2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.**

Zamonaviy turizmni rivojlantirish nazariyalari orasida turizmning barqaror rivojlanishi kontseptsiyasi alohida o'rin tutadi. Sayyohlik sohasini barqaror rivojlanish tamoyillariga globallashuv va jamiyatni axborotlashtirishning zamonaviy sharoitida harakatlanish tamoyillariga o'tkazish zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tezkor foyda maqsadiga ega bo'lgan nazoratsiz turizm o'sishi, ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi, chunki u atrof-muhitga, mahalliy hamjamiyatni buzadi, mahalliy hamjamiyatning faoliyat ko'rsatadigan va muvaffaqiyatli rivojlanayotgani va turizmni muvaffaqiyatli rivojlantiradigan asosini yo'q qiladi. Dunyo bo'ylab munozaralar turizmning barqaror rivojlanishi kontseptsiyasi 90-yillarning fenomeni bo'ldi. O'tgan asr. Ammo, shubhasiz, barqaror turizmni rivojlantirish kontseptsiyasi umuman barqaror rivojlanish kontseptsiyasidan boshlanadi. Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi ko'p qirrali, ko'p qirrali va noaniq. Shunday qilib, barqaror rivojlanish uzoq muddatli istiqbollarni hisobga oladi, odatda, odam qaror qabul qilishda va

boshqaruv va rejalashtirish zarurligini anglatadi. "Barqarorlik" atamasi faqat oxirgi 20 yoki 30 yil davomida aniq ishlatilayotgan bo'lsa-da, bu shaharlarni rejalashtirishning eng qadimgi misollariga tegishli. Rim imperiyasi paytida barqaror rivojlanishga erishadigan eng qadimgi urinishlar shaharlar va aholi punktlari bo'lib, Rim imperiyasi davrida boshqariladigan shahar va aholi punktlari edi. Shuningdek, ko'plab an'anaviy qishloq xo'jaligi tizimlari barqarorlik tamoyillariga asoslangan edi. Qishloq xo'jaligi kelajakda ovqatlanishni davom ettirish uchun erning unumdorligini oshirishga emas, balki saqlanishdan ko'ra saqlanib qolgan. Biroq, vaqt o'tishi bilan, texnologik ixtirolar, aholi sonining o'sishi, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ishlab chiqarish va urbanizatsiya ko'payishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, qisqa vaqt ichida mahsulot ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirishga ta'sir ko'rsatdi. Rivojlanishning ushbu usuli muqarrar ravishda turli muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi. Industralizatsiya iqtisodiyot va jamiyatni, shuningdek atrof-muhitni o'zgartirdi. Agar bu jarayon nazorat qilinmasa, atrof-muhit yo'q qilinishi mumkinligini anglash kerak edi. Biroq, 60-70-yillarning oxiriga qadar. XX asr XX asr cheklanmagan resurslar yoki foydali manbalarning, bitmasligining bitmasligining katta salohiyati yoki ko'p mahsulot, oldindan qoplangan muhitning etarlicha katta salohiyati ustunlik qildi. Sog'liqni saqlashning eng og'irligi eng noqulay oqibatlarga olib keladigan eng noqulay nuqtai nazardan eng og'ir iqtisodiy o'sishning ustuvorligi ustuvor ahamiyat kasb etilishi eng noqulay oqibatlarga olib kelishi kerak. Va faqat 70-yillarda. XX asr, ekologik muammolar keskin ravishda keskin kelishilganda, atrof-muhitdagi belgilangan tendentsiyalarni tushunish vazifasi iqtisodiy rivojlanish va tubdan yangi rivojlanish kontseptsiyasini rivojlantirish. 1970 yillarning boshidan beri. Vaziyat sezilarli darajada o'zgardi: resurs-xom global muammolarning kuchayishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda ekologik vaziyatning yomonlashishi va rivojlanayotgan mamlakatlarda demogosal "" portlash "demografik o'sishning deyarli indekslari rad etilganligi to'g'risida yordam berdi Amerikalik olim olimlari va taniqli Amerikaliklar 1972 yilda "o'sish cheklovlari" mavzusida Merniylar. Ular kompyuterlar negizida, iqtisodiy o'sish insoniyatning kelajagiga ta'sir qilishi mumkin, agar ifloslanish darajasi va boshqalardan foydalanish darajasi bir xil bo'lib qoladi. Zamonaviy aholining o'sish tendentsiyalari, industrializatsiya, tabiiy muhitni, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va Resurslarni tozalash va keyingi asrdagi resurslarning tarqalishi o'sish sur'atlar bilan o'sishi mumkin. Natijada, inson yashash joyining keskin yomonlashuvi, uning mavjudligi bilan mos kelmasligi mumkin. Biroq, o'sish tendentsiyalarini o'zgartirish va iqtisodiy va ekologik barqarorlikning uzoq davom

etadigan barqarorligini o'zgartirish mumkin. Global muvozanatning holati har bir kishining asosiy moddiy ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi va har bir kishiga shaxsiy potentsialni amalga oshirish uchun teng imkoniyat beradi. Birinchi bo'lib barqaror rivojlanish kontseptsiyasi haqida birinchi bo'lib ta'kidlangan hujjat 1980 yilda bo'lib o'tgan "Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasi" bo'lib, 1980 yilda World Tabiatni muhofaza qilish birlashmasi tomonidan nashr etilgan. Jahon tabiat ittifoqi barqaror rivojlanishni taklif qildi: "Barqaror rivojlanish resurslarga va charchoqni buzmasdan amalga oshirilayotgan jarayoni va ularning charchoqlari paydo bo'ladi. Odatda bunday resurslarni boshqarish, ular qo'llaniladigan yoki qayta tiklanadigan resurslardan tez qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishni davom ettirishlari mumkin. Ushbu yondashuv bilan resurslardan kelajakda ham, ham foydalanish mumkin 40 hozirgi avlodlar. " Keyin 1984 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi (BMT) Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiyani tuzishga qaror qildi, bu esa BMT uchun tegishli hisobotni tayyorlashi kerak edi. 1987 yilda Dunyo atrof-muhitni muhofaza qilish komissiyasi va Norvegiya doktori G.X. Urug'lar "bizning umumiy kelajagimiz" hisobotini e'lon qildilar. Ta'kidlanishicha, Yer aholisining eng qashshoq 20 foizi global iqtisodiy mahsulotlarning 2 foizidan kam mablag'lari, eng boy 20 foizi mahsulotning 75 foizini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda yashovchi global aholining 26 foizi irretka resurslarining 80-86 foizi va oziq-ovqat mahsulotlarining 34 foizdan 53 foizigacha iste'mol qilinadi. Bu insoniyat uchun najot sifatida barqaror rivojlanish strategiyasi haqida aytilgan. Komissiya "hozirgi avlodlar ehtiyojlarini qondirish uchun tahdid qilmasdan hozirgi ehtiyojlarini qondirish" kabi barqaror rivojlanishni aniqladi. Kontseptsiyaning asosiy mohiyati quyidagicha edi: insoniyat jamiyati ishlab chiqarish, demografik jarayonlar va boshqa kuchlar uning buzilishiga olib keladigan sayyoramizning mohiyatiga juda ko'p bosimni keltirib chiqaradi, faqat barqaror rivojlanish yo'liga zudlik bilan o'tish mumkin kelajak avlodlar bir xil imkoniyat ekanligini ta'minlashda ehtiyojlar. 1992 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Rio-de-Janeyrodagi BMT konferentsiyasida 179 ta davlat barqaror rivojlanish rejasini tasdiqladi, deya xabar beradi "XXI asr uchun kun tartibi" deb nomlangan. Atrof-muhitning tez yomonlashishi va 21-asrda mumkin bo'lgan global falokatni bashorat qilish bilan qabul qilindi, bu sayyoramizda yashovchilarning o'limiga olib kelishi mumkin. Insoniyat odamlarning o'sayotgan ehtiyojlari va biosferaning ularga taqdim etish qobiliyatiga ta'sir qiladigan qarama-qarshilikka duch keldi. Natijada, ehtiyoj sezilarli o'sish xususiyatida tub o'zgarishlar o'zgarishi va dunyoning barcha holatlariga rioya qilish kerak bo'lgan barqaror rivojlanish kontseptsiyasini e'lon qildi.

Barqaror rivojlanishning asosini o'z ichiga olgan bunday iqtisodiy mexanizmlarni o'z ichiga olishi kerak, bu esa tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni saqlash va boshqa tomondan odamlarning ehtiyojlarini qondirish va hayot sifatini oshirishga olib keladi faqat yashash, balki kelajak avlodlar ham. Konferentsiyaning yakuniy hujjatlari zamonaviy iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va ekologik va ekologik vaziyatning asosiy qoidalarini belgilab, global iqtisodiyotning asosiy qoidalarini barqaror rivojlanish strategiyasiga yo'naltirdi. "XXI asr uchun kun tartibida turizm" atrof-muhitni, madaniy va tabiiy merosni saqlashga va turli tashkilotlar barqaror rivojlanish bo'yicha sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish uchun uning ta'siri bo'ldi 1995 yilda jahon sayyohlik tashkiloti (YUNVTO), Jahon sayyohlik va turistik kengashi (WTTC) va "Sayyohlik va sayyohlik va sayyohlik uchun kun tartibi" tomonidan ishlab chiqish va qabul qilish. Ushbu hujjat turizmning strategik va iqtisodiy ahamiyatini tahlil qiladi, deya xabar beradi Saylovlar soni, avvalgi shon-shuhrati, mahalliy aholining o'sishi va mahalliy aholining o'sishi tobora ortib borayotgan qarshiliklari haqida ko'plab guvohliklari mavjudligi aytilgan turizmni rivojlantirishga. Sayyohlik va sayyohlik sohasi turizmning barqaror rivojlanish madaniyatidan foydalanadigan barcha narxlar va mamlakatlardagi ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni sezilarli darajada yaxshilash uchun salohiyatga ega. Bu o'rtacha o'sish madaniyatini intensiv iste'mol qilish madaniyatini almashtirishdir; iqtisodiy va ekologik rivojlanish omillarini tenglash; Sayyohlar va mahalliy aholining umumiy manfaatlarini toping; Jamiyatning barcha a'zolari orasida imtiyozlar va birinchi navbatda aholining eng kam ko'rsatkichlari orasida. Tl saj kJ. Hujjatda turizmni barqaror rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish uchun turizm va turistik kompaniyalarni rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarining muayyan dasturi rejalashtirilgan. Bu xo'jaliklar, iqtisodiyot tarmoqlari va turistik tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikning muhim roli ta'kidlaydi. YUNVTO, Jahon sayyohlik va turizm kengashi, xalqaro turistik Amaliyotchilar, Evropa Komissiyasi va boshqalar federatsiyasi dunyo bo'ylab turizmning barqaror rivojlanishini rag'batlantirish bo'yicha faol ishlarga olib boradigan etakchi xalqaro tashkilotlar. YUNVTO Barqaror rivojlanish va turizm boshqaruvi bo'yicha tavsiyalar va uslubiy materiallarni tayyorlaydi; Dunyo bo'ylab to'plangan muvaffaqiyatli tajribani belgilab, hukumatlar va xususiy biznesni barqaror rivojlantirish uchun zarur vositalar va maslahat yordami ko'rsatadi. YuNTTO turizmini rivojlantirish va boshqarishning muvaffaqiyatli namunalari bilan tanishish maqsadida eng muvaffaqiyatli ijobiy misollar kollektsiyasi chiqarildi, ularning har biri o'ttizdan ortiq mamlakatda aniq misollarni o'z ichiga oladi. 2004 yilda

YUNVTO barqaror turizmni rivojlantirish kontseptsiyasini tuzdi, shuni ta'kidlashicha, ushbu ish bilan bog'liq barcha manfaatdor doiralarning ushbu ishning barcha manfaatdor doiralarining va barqaror ravishda siyosiy etakchilikka tegishli bo'lishi kerak keng ishtirok etish va konsensusga erishish. Bundan tashqari, barqaror turizmning yutug'i, atrof-muhitga ta'sirni amalga oshirishni talab qiladigan doimiy jarayon, agar kerak bo'lsa, 42 tegishli profilaktika va tuzatish choralari. Kun tartibida turizmning barqaror rivojlanishining quyidagi ta'rifini taqdim etadi: "Barqaror turizmni rivojlantirish turistlarning hozirgi ehtiyojlarini qondiradi, kelajak uchun imkoniyatlarni saqlash va ko'paytiradi. Barcha resurslarni iqtisodiy, ijtimoiy va estetik ehtiyojlarni qondirish, madaniy yaxlitlik, muhim ekologik xilma-xillik, biologik xilma-xillik va hayotni qo'llab-quvvatlash tizimlarini saqlab turish kerak. Barqaror sayyohlik mahsulotlari - bu mahalliy muhit, jamiyat, madaniyat bilan bog'liq bo'lgan mahsulotlar sayyohga zarar etkazmaslik uchun foyda keltiradi 43 rivojlanish. "

## 3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati.

Toshkent viloyatining turizm salohiyati “Oltin halqa” kontseptsiyasi asosida rivojlantiriladi. Toshkent viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko’paytirish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda mahalliy aholi daromadini oshirish maqsadida Bo’stonliq, Ohangaron, Parkent, Bo’ka, CHinoz, Zangiota tumanlari va Angren shahrida “Oltin halqa” kontseptsiyasi asosida zarur infratuzilma shakllantiriladi.

Toshkent viloyatiga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini ko’paytirish, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda mahalliy aholi daromadini oshirish maqsadida Bo’stonliq, Ohangaron, Parkent, Bo’ka, CHinoz, Zangiota tumanlari va Angren shahrida “Oltin halqa” kontseptsiyasi asosida zarur infratuzilma shakllantiriladi.

Vazirlar Mahkamasining “2019-2021 yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish to’g’risida”gi 1053-sonli qarorida (2019 yil31 dekabr) shu haqida so’z yuritiladi. Hujjatga ko’ra, Toshkent viloyatidagi har bir tuman o’ziga xos bo’lgan turistik mahsulotlarni ishlab chiqib, turizmning alohida yo’nalishlarini rivojlantirib boradi.

Masalan, Bo’stonliq tumani "CHorvoq” erkin turistik zonasi, Ugam-CHotqol milliy bog’i, “CHorvoq” suv omboriga ega, hududda turizmning barcha yo’nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud; Parkent tumani – tog’ oldi hududi hisoblanib, tabiati go’zal, hududning ziyoratgohlari, agroturizm maskanlari, mazali ovqatlanish shoxobchalari mavjud; Zangiota tumani - tarixiy hudud, u ziyorat turizmi ob’ekti bo’lgan “Zangiota” majmuasi, hunarmadchilik markazlari, savdo majmualariga ega; Ohangaron tumani tarixiy manzilgohlar, madaniy meros

ob’ektlariga boy, sanoat turizmi yunalishi bo’yicha turizm namoyishi ob’ektlariga ega; Bo’ka tumanining gastronomik turizm yo’nalishida o’ziga xos turistik ob’ektlari mavjud; CHinoz tumani Toshkent va vohani bog’lovchi asosiy magistral yo’l bo’yida joylashgan bo’lib, agroturizm, gastronomik turizm va turizmning boshqa turlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega; Angren shahri sanoat shahri ekanligi bilan mashhur, YAngiobod va Lashkarak hududlarining tabiati go’zal, sayyohlarga xizmat ko’rsatuvchi yo’lbo’yi ovqatlanish shoxobchalari bor.

Ta’kidlash joizki, mazkur kontseptsiya doirasida dastlab turizm salohiyati yuqori bo’lgan Bo’stonliq, Parkent, Zangiota, Ohangaron, Bo’ka, CHinoz tumanlari va Angren shahri qamrab olinadi, keyinchalik esa viloyatning boshqa hududlariga ham tatbiq qilinadi.

Bundan avval Bosh vazir o’rinbosari Aziz Abduhakimov Toshkent viloyatida turistik “Oltin halqa”ni yaratish rejalashtirilayotgani hamda shunga doir kontseptsiya ishlab chiqilayotgani haqida ma’lum qilgan edi.

1995 yilda Lanzarbodda barqaror turizm bo'yicha dunyo konferentsiyasidan boshlab, "Barqaror sayyohlik rivojlanishi" va "BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti" va BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti (YuNTTO) kontseptsiyasi, natijada muhim deklaratsiyalar, ko'rsatmalar paydo bo'ldi. va tashabbuslar va aslida YUNVTOning ustuvor faoliyatidir. Shu bilan birga, yuqorida ko'rsatilgan tushunchalar ko'pincha sinonim sifatida ishlatila boshlandi. Umuman olganda, barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar va barqaror rivojlanish amaliyotining barcha turlari turizmning barcha turlari, shu jumladan turli xil turizm segmentlari, shu jumladan massalarda turli xil turdagi turizmning barcha shakllariga nisbatan qo'llaniladi. Barqarorlik tamoyillari turizmni rivojlantirishning atrof-muhit, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlariga tegishli va uzoq muddatli barqarorlikning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashi kerak, bu uch o'lchov o'rtasida muvozanatni aniqlash kerak. Shunday qilib, barqaror turizm: 1) turizmni rivojlantirishning asosiy elementi bo'lgan tabiiy resurslarning maqbul foydalanishini ta'minlash, atrof-muhit va tabiiy resurslar va biologik xilma-xillikni saqlashda yordam berish; 2) mezbonlarning sotsiOsh madaniy xususiyatlarini hurmat qilish, madaniy meros va an'anaviy qadriyatlarni saqlash va madaniyatlararo tushunish va bag'rikenglikka hissa qo'shish; 3) barcha ishtirokchilarga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan imtiyozlar, ijtimoiy-iqtisodiy ustunliklarni ta'minlash, barqaror bandlik va daromadlarni yaratish va tarqatish, shu bilan kambag'allikdagi pasayishiga hissa qo'shadi. Barqaror turizmning rivojlanishi barcha manfaatdor tomonlar va kuchli siyosiy rahbarlarning ishtirokchilari doirasini kengaytirish va kelishuvga erishish uchun zarurligini ma'lum qilishni talab qiladi. Barqaror rivojlanishni ta'minlash turizm doimiy jarayondir va zarur bo'lganda profilaktika va / yoki tuzatuvchi choralarni amalga

oshirish uchun doimiy nazoratni talab qiladi. Barqaror turizm, shuningdek, yuqori darajadagi sayyohlik qoniqishini saqlab, ularning katta tajribasini olish va barqaror turizm usullarini targ'ib qilish va barqaror turizm usullarini targ'ib qilish bilan bog'liqligini oshirishi kerak. Barqaror turizmning o'n ikki gollari (YUNVTO) YUNVTO turizmning barqaror rivojlanishining quyidagi ustuvor maqsadlarini shakllantirdi. 1. Iqtisodiy hayotiy - turistik yo'nalishlar va korxonalarning obodligini davom ettirish va ularning foydasini uzoq muddatda davom ettirish uchun ularning hayotiyligi va raqobatdoshligini kafolatlash uchun. 2. Mahalliy farovonlik - turizmning o'nlab turizmning o'sishiga, shu jumladan mintaqaga sayyohlik yukini saqlab qolishga qo'shgan hissasini oshirish. 3. Ish sifati turizm, irqiy xususiyatlarga, nogironlik yoki boshqa sabablarga ko'ra kamsitilish, xizmat ko'rsatish shartlari va kamsitmaslik darajasi. 4. Ijtimoiy adolat - mezbon jamoada turizm va ijtimoiy nafaqalarni taqsimlash printsipini, shuningdek, kambag'allar uchun mavjud bo'lgan daromadlar va xizmatlarni takomillashtirish tamoyilini izlash. 5. Qulay turizm - bu barcha tashrif buyuruvchilar uchun, jinsi, irqlar, jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, barcha tashrif buyuruvchilar uchun xavfsiz va qulay turizmni ta'minlash. 6. Mahalliy boshqaruv mahalliy jamoalarni ishlab chiqish va sohada turizmning boshqaruvi va kelajakda rivojlanishi to'g'risida qaror qabul qilish uchun ularni jalb qilishdir (boshqa manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashgandan keyin). 7. Jamiyat farovonligi mahalliy jamoalarda hayot sifatini, shu jumladan ijtimoiy tuzilmalar, ijtimoiy tanazzul yoki operatsiyaning har qanday shaklidan qochishdir. 8. Madaniy boylik - tarixiy meros, tarixiy meros, chinakam madaniyat, an'analar va mezbon jamoalar xususiyatlarini hurmat qiling va ko'paytiring. 9 Fizikaviy yaxlitlik - shahar va tabiiy landshaftlarni saqlash va ularni vizual yoki jismoniy yo'q qilishni oldini olish. 10. Biologik xilma-xillik tabiiy hududlarni, yashash joylari va yovvoyi hayotni saqlab qolish va ularga etkazilgan zararni minimallashtirishdir. 11. Resurslarning samaradorligi - turizm va turistik faoliyatni rivojlantirishda etarli emas va qayta tiklanmaydigan mablag'lardan foydalanishni minimallashtirish.

## 4.Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.

So‘nggi yillarda turizm sohasi mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu borada sohani jadallik bilan rivojlantirishga qaratilgan 90 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2021-yilning 15-mart holatiga ko‘ra, 90 ta xorijiy mamlakat uchun vizasiz rejim tatbiq etildi. 2018-yil 15-iyuldan elektron kirish vizalarini berish tizimi yo‘lga qo‘yildi va bu tizimdan 57 ta davlat fuqarolari foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. 2016-yilda 1,3 million nafar xorijiy davlat fuqarolari mamlakatimizga sayyoh sifatida tashrif buyurdi. Bu ko‘rsatkich 2019-yilda 6,7 million nafarga yetdi.

Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekistonga ziyorat maqsadida uzoq xorij davlatlaridan tashrif buyurayotgan sayyohlarning sonida o‘sish kuzatilmoqda. Xususan, 2018-yilda uzoq xorij davlatlaridan 325 ming nafar sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, ularning 35 foizi, ya’ni 115 ming nafari musulmon sayyohlari hisoblanadi. 2020-yilda uzoq xorij mamlakatlaridan yurtimizga jami 83 ming nafar sayyohlar tashrif buyurgan bo‘lib, bunda musulmon sayyohlarning soni 49 787 nafar (59 foiz) ni tashkil qildi. Mazkur tashriflar sonining ijobiy o‘sishi, o‘z navbatida, turizm xizmatlari eksportining ortishiga olib keldi. 2016-yilning ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanganda 2019-yilda turizm xizmatlarining eksporti 3 baravarga oshib, 2019-yilda 1,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar natijasida, 2021-yilning 1-iyun holatiga turistik tashkilotlarning soni 2016-yilda 484 tadan 1 400 taga, joylashtirish vositalari 750 tadan 1 061taga (oilaviy mehmon uyi va xosteldan tashqari), oilaviy mehmon uylari 106 tadan (2018-yilda) 1 729 taga, xostellar esa 30 tadan 257 taga yetdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2016-yilda 8,8 million nafar mahalliy sayyohlar sayohat qilgan. 2020-yilning 1-yanvar holatiga mahalliy tashriflar soni 14,7 millionga yetdi. O‘rtacha ichki sayyohlar tashrif sonining yillik o‘sishi 18 foizni tashkil qilgan. Turizm infratuzilmasini tartibga keltirish, jumladan, turizm obyektlarida Wi-Fi nuqtalari va yo‘l ko‘rsatkichlari tashkil qilinmoqda. 2020-yilda 1 480 ta yangi sanitariya-gigiyena shoxobchasi (SGSH) foydalanishga topshirildi. 2021-yilning 15-iyun holatiga ko‘ra, respublikadagi 4114 ta avtomobilga yoqilg‘i quyish stansiyalaridan 3491tasida SGSH tashkil qilindi va ularning SGSH bilan ta’minlanganlik darajasi 86,2 foizga yetdi. Sayyohlar uchun126 ta axborot markazlari barpo etildi, 440 ta yangi turizm obyektlari o‘rganilib, ushbu obyektlarning 250 tasi turizm marshrutlariga kiritildi.

O‘zbekiston «Nyu York Tayms» (AQSH) va «Gardian» (Buyuk Britaniya) nashrlarining reytinglarida Dunyoning turizm bo‘yicha eng ommabop mamlakati, «Wegoplace» sayohatchilar portali tomonidan Dunyoning eng xavfsiz 5 mamlakatidan biri hamda «CrescentRating» (Singapur) va «Mastercard» tashkilotlari tomonidan Dunyoning ziyorat turizmi bo‘yicha eng ommabop 10 mamlakatidan biri sifatida e’tirof etildi. Ichki turizmni rag‘batlantirish maqsadida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi jadallashtiriladi, “Ichki turizm oyligi”, “Ichki turizm haftaligi”, “Ichki turizm kunlari” tashkillashtiriladi, “oilaviy sayohat ta’tili”tizimi orqali tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlar sayohati tashkil qilinadi, avia va temiryo‘l chiptalari40 foizgacha subsidiyalanadi. Sayohatni ommalashtirish va sayohat qilishga qulaylik yaratish maqsadida 5 ta rasmiy bayram kunlarini *(Mustaqillik kuni, Navro‘z umumxalq bayrami, Yangi yil bayrami hamda Ramazon hayit (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayit (Iyd al-Adha)*

*bayramlari))* nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlar 3 kundankam bo‘lmagan muddatga belgilandi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (2019-yil yakuni bo‘yicha — 2,6%) va 2026-yil yakuniga qadar xorijiy turistlar sonini 9 milliongacha yetkaziladi, shu jumladan, uzoq xorijdan — 2 million turist jalb qilinadi. Hududlarning turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish va o‘sish nuqtalarini belgilash — asosiy maqsad Bugungi kunda sayyohlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shaharlariga tashrif buyurmoqda va bu shaharlarda sayyohlar “tirbandlik”lari vujudga kelmoqda. Boshqa tomondan infratuzilmada (transport, joylashtirish vositasi va B.) muammolar kelib chiqmoqda.

Hududlarning salohiyatidan samarali foydalanish, an’anaviy turizm bilan birgalikda boshqa turizm turlarni taklif qilish va har bir hududni turizmga ixtisoslashtirish choralari ko‘rilmoqda. Jumladan, Andijon viloyatida eko, agro va gastronomik turizm salohiyati mavjud. Xo‘jaobod tumanida“Imomota” turizm mahallasi, Xonobod tumanida “Afsona dam olish maskani”, Shahrixon tumanida “Hunarmandlar markazi» va Andijon shahrida “turizm ko‘chasi” tashkil qilinadi.

Buxoro viloyati mahalliy va xorijiy sayyohlar orasida ziyorat turizm salohiyati bilan tanilgan. Buxoro viloyatida jami 829 ta moddiy-madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, 2022-2026-yillarda sayyohlar tashrif buyuradigan madaniy meros obyektlari soni 139 tadan 200 taga yetkaziladi. Viloyatda xalq amaliy san’atining zardo‘zlik, zargarlik va an’anaviy hunarmandchilik, gilamdo‘zlik, qandolatchilik shakllari rivojlangan bo‘lib, sayyohlar tomonidan mazkur mahsulotlar keng xarid qilinadi. Buxoro shahridagi YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan “Tarixiy markaz” infratuzilmasi yaxshilanadi.

2022-2026-yillarda Abu Ali ibn Sino tug‘ilgan joy - Peshko‘ tumani Afshona qishlog‘ida “X asr etnik qishlog‘i”ni barpo etish, Buxoro shahrida «Turki Jandi», Vobkent tumani “Shirin”, G‘ijduvon tumanining“Qo‘rg‘on” mahallalarida turizm qishloqlari, Buxoro shahrida “gastronomik ko‘cha”, Qorovulbozor tumanidagi“Jayron” ekomarkazida turistik majmua barpo etiladi. Farg‘ona viloyati mintaqada organik va sifatli meva-sabzavot yetishtirish – agroturizm imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, sayyohlar viloyatga Rishton kulolchilik maktabi, Marg‘ilon ipakchilik va atlas mahsulotlari, tog‘ turizmi, gastronomik va ziyorat turizmi bilan tanishish maqsadida tashrif buyuradi. Viloyatda tibbiyot turizmini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo‘lib, nafaqat O‘zbekiston, balki qo‘shni respublika fuqarolari ham sog‘lomlashtirish va tibbiyot xizmatlaridan foydalanadi.

Farg‘ona shahrining Sayilgoh, Yuksalish, Al Farg‘oniy va Kashtanzor ko‘chalarini mujassamlashtirgan “Turizm mavzesi” (Tourism avenue), Farg‘ona

tumanidagi “Avval”, “Vodil” MFY hududida turizm qishlog‘i va mahallasi tashkil etiladi, Oltiariq tumanida tibbiyot turizmi yo‘nalishida loyihalar amalga oshiriladi hamda Rishton kulolchilik markazi sayyohlar tashrif obyektiga aylantiriladi. Jizzax viloyatida eko, agro, gastronomik, tog‘ va tibbiyot turizmi rivojlangan bo‘lib, 2021-2026-yillarda “Zomin”turistik-rekreatsion zonasi, «Suffa platosi 2 400» xalqaro umummavsumiy kurorti va «O‘riklisoy» turizm majmuasi ishga tushiriladi. Forish tumanidagi “Uxum”, Zomin tumanidagi “Duoba”, Baxmal tumanidagi“Mo‘g‘ol” qishloqlarida turizm qishloqlari tashkil qilinadi.

Namangan viloyatida eko, etno, tog‘, agro (baliqchilik, mevali bog‘lar, yilqichilik), gastronomik, ziyorat, ekstremal, tibbiyot turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.
2022-2026-yillarda Namangan viloyatining Pop tumanida “Chodak”, Yangiqo‘rg‘on tumanida “Nanay», Chust tumanida “G‘ova», Kosonsoy tumanida “Olmazor” turizm qishloqlarini tashkil etish yuzasidan ishlar olib boriladi. Namangan shahrida “Gullar saylgohi” ekoturizm obyekti yaratiladi va “Namangan - gullar shahri” brendi yanada ommalashtiriladi va viloyatdan o‘tuvchi xalqaro yo‘l bo‘yida turizm hamda xizmat ko‘rsatish obyektlari tashkil qilinadi.

Bundan tashqari, viloyat hududidan oqib o‘tuvchi Sirdaryo va Norin daryosi qirg‘oqlarida eko va agro turizm loyihalari amalga oshiriladi va sayyohlar uchun joylashtirish, ovqatlanish, ko‘ngilochar xizmatlar tashkil qilinadi. Navoiy viloyatiga sayyohlar geoturizm, rekreatsion (Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi, Tudako‘l suv havzasi), ziyorat, etno, tibbiyot sarguzasht turizmi yo‘nalishlarida tashrif buyuradi. 2022-2026-yillarda Nurota tumanining «Sar Koriz» qadimiy yer osti suv yetkazib berish quvurini rekonstruksiya qilish orqali ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish va “Sentob” MFYda “Sentob turizm qishlog‘i”ni tashkil qilish, Navbahor tumani Sarmishsoy darasidagi noyob qoyatosh suratlari (petrogliflar), arxeologik-madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish maqsadida YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi yodgorliklari ro‘yxatiga kiritish va Karmana tumanidagi “Amir Olimxon chorbog‘i” tarixiy maskanini rekonstruksiya qilish choralari ko‘riladi.

Qashqadaryo viloyatida eko, ekstremal, astro, etno, agro, gastranomik turizm turlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lib, qo‘shimcha ravishda trekking, chodirli kemping, parashyutdan sakrash, alpinizm, otda sayr qilish kabi xizmatlar tashkil qilinadi.
Kelgusi besh yilda Shahrisabz shahridagi “Shahrisabz tarixiy markazi”da “Shahrisabz gilamlari va do‘ppilari” xalqaro muzeyi, Qamashi tumanida “Langar ota” ziyoratgohi yaqinida «Hattotlik» maktabini yaratish va Shahrisabz tumanining “Miraki», “Suvtushar”, «Ko‘l», “G‘yelon” qishloqlari, Kitob tumanining“Bashir”, “Qaynar” va “Varganza” qishloqlari, Yakkabog‘

tumanining “Tatar” va Mirishkor tumanining“Jeynov” qishloqlarida “turizm qishloqlari” tashkil qilinadi.

Samarqand viloyatida 1 607 ta moddiy madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, viloyatda ziyorat, tarixiy-madaniy, ekstremal, ekologik, tog‘ va tibbiyot turizmi turlari rivojlangan. 2020-yilda respublikada dastlabki “Konigil” turizm qishlog‘i tashkil etildi. 2022-2026-yillarda viloyatda “Samarqand turistik markazi” va MICE-turizm obyektlari barpo etiladi. Madaniy meros obyektlari raqamlashtiriladi, Samarqand shahridagi Amir Temur barpo ettirgan“Bog‘ibaland” mahallasi hamda “Sharq” mahallalari “turizm mahallasi”, Urgut tumanidagi “Tersak” hamda Payariq tumanidagi “Choshtepa” qishloqlarida “turizm qishloqlari” tashkil etiladi. Nurobod tumanida Hazrati Dovud ziyoratgohi atrofida osma dor yo‘llari, Nurbuloq termal zonasi va sog‘lomlashtirish markazlaririvojlantiriladi.

Mahalliy va xorijiy ziyoratchilar uchun Samarqand shahrida tematik xiyobon, Imom al-Moturidiy maqbarasiniziyorat markaziga aylantirish, oliy ta’lim muassasalari qoshida ziyorat turizmi yo‘nalishida qayta tayyorlash kurslari tashkil etiladi. Sirdaryo viloyati agro, eko hamda tibbiyot turizm yo‘nalishlarida yuqori salohiyatga ega. Viloyatda “Barxan», “Chinor”, «Kalgansir» ekoturizm maskanlari o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Kelgusi yillarda viloyatda yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish orqali turizm va savdo xizmatlari tashkil qilinadi, Sirdaryo daryosi bo‘yida yengil konstruksiyali joylashtirish vositalari va ko‘ngilochar xizmatlar istiqboldagi sayyohlarga taqdim etiladi. Agroturizm yo‘nalishida intensiv bog‘lar, sitrus mevalar yetishtiriladigan issiqxonalar, anorchilik va baliqchilik xo‘jaliklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali sayyohlarga qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatiladi.

Surxondaryo viloyatida arxeologik, eko, agro, ziyorat, tibbiyot, gastronomik, ekstremal turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. 2022-2026-yillarda viloyatning Sariosiyo tumanida “Sangardak”, Sherobod tumanida “Chorbog‘”, Oltinsoy tumanida «Xo‘jaipok» va Boysun tumanida “Omonxona” hamda “Sayrob” turizm qishlog‘i tashkil etish, Termiz shahrida “Gastronomik ko‘cha”, “Turizm ko‘chasi”, “Kushonlar davlati tarixi” muzeyini barpo etish, arxeologik va ziyorat turizmi obyektlarni saqlab qolish, Boysun tumanidagi Xo‘jamayxona darasida“geologik park” tashkil etish, tibbiyot turizmiga qo‘shni davlatlar fuqarolarini jalb etish yuzasidan ishlar olib boriladi.

Toshkent viloyatida agro, eko, tog‘, tibbiyot, gastronomik, ekstremal, tarixiy-madaniy, ziyorat turizmi istiqbolli yo‘nalishlari hisoblanadi. Viloyatning so‘lim tabiati yilning to‘rt fasli davomida sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Viloyatdagi «Amirsoy» tog‘-chang‘i kurorti yirik investitsion

loyihalardan biri hisoblanadi. Toshkent viloyatidagi turizm obyektlari boʻylab sayohat qilish uchun «Oltin xalqa» turizm yoʻnalishi ishlab chiqilgan.

2022-2026-yillarda Toshkent viloyatining Ohangaron tumani «Ovjazsoy» va “Ertoshsoy» turizm qishloqlari, Angren shahrining «Yangiobod” MFY hududlarida “turizm mahallasi”ni tashkil etish, Parkent tumani Soʻqoq qishlogʻida “gastronomik turizm koʻchasi” tashkil qilish yuzasidan amaliy choralar koʻriladi. Shu bilan birga, mahalliy aholi bandligini taʼminlash va sayyohlarga maqbul narxlarda joylashtirish xizmatlarini taqdim etish maqsadida oilaviy mehmon uylari tashkil qilishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Toshkent shahrida biznes (ishchi), tarixiy-madaniy, MICE, gastronomik, etno, shopping turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Kelgusi 5 yilda shaharda xizmat koʻrsatish sohasi rivojlantiriladi va xizmat sifati yaxshilanadi. Toshkent shahrining tarixda mavjud boʻlgan 12 ta ramziy darvozasini tiklash choralari koʻriladi.

Toshkent shahrida xorijiy tajribadan kelib chiqib “Kechki turizm bozorlari”, Yangihayot tumanida«Ekstremal turizm zonasi”, Yashnobod tumanidagi yer usti metrosi boʻylab zamonaviy «Food truck»larni tashkil etish, Olmazor tumanida ziyoratchi turistlarga xizmat koʻrsatuvchi “Halol turizm markazi» faoliyatini yoʻlga qoʻyish hamda Ramazon oyida xorijiy tajribadan kelib chiqib, yarmarka va turli koʻngil ochar tadbirlarni Suzuk ota, Xasti Imom, Shayx Zayniddin ziyoratgohlari hududida tashkil qilinadi.

Xorazm viloyatiga sayyohlar tarixiy-madaniy, tibbiyot, gastronomik, etno, agro, eko, ziyorat turizm yoʻnalishlarida tashrif buyuradi. Bogʻot va Xonqa tumanlarida uzumchilik rivojlanganligi bois agroturizm yoʻnalishida degustatsiya markazi tashkil qilinadi. Shovot tumanida joylashgan «Yusuf Hamadoniy», Xiva shahridagi “Sayid Mohi Roʻyi Jahon”, Yangiariq tumanidagi “Shayx Muxtor vali”, Xazorasp tumanidagi “Shoh Pir” kabi ziyoratgohlar obodonlashtiriladi va qoʻshimcha xizmatlar yaratish orqali sayyohlar oqimi oshiriladi. Mavjud tabiiy va sunʼiy koʻllarni qamrab olgan «Khorezm EcoRing» ekoturizm halqasi tashkil qilinadi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida tarixiy-madaniy, arxeologik, eko hamda etno turizm yuqori salohiyatga ega boʻlib, hududda «Aqchakoʻl», «Ashshikoʻl» sohil boʻyi rivojlantirilmoqda. “Quyi-Amudaryo davlat biosfera rezervati» salohiyatidan samarali foydalaniladi, Chimboy tumanida etnoturizm va hunarmandchilik rivojlantiriladi. Madaniy meros obyektlarini taʼmirlash, muhofaza qilish va zaruriy infratuzilmani yaxshilash choralari koʻriladi. Ellikqalʼa tumanidagi Guldursun, Sahtiyon va Moʻynoq tumanidagi Doʻstlik fuqarolar yigʻinlari hududida “turizm qishlogʻi” tashkil qilinadi. Bularning bari Oʻzbekistonda turizm industriyasining jadal surʼatlarda oʻsishiga turtki beradi.

## *XIV* - mavzu. Samarqand turistik mintaqasi

**1.Samarqand-Barcha shaharlar qirolichasi. Samarqand turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.**

**2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.**

**3.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati. Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.**

### 1.Samarqand-Barcha shaharlar qirolichasi. Samarqand turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyatidagi qadimiy shahar. Viloyatning ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazi (1938 yildan). 1925—30 yillarda Respublika poytaxti. O‘zbekistonning janubi-g‘arbida, Zarafshon vodiysining markaziy qismida (Darg‘om va Siyob kanallari orasida) joylashgan. O‘rtacha 695 m balandlikda. Toshkentdan 300 km. Samarqanddan Toshkent—Dushanbe, Toshkent—Turkmanboshi, Toshkent—Uchquduq—Qo'ng‘irot temir yo‘llari, Katta O‘zbek trakti (Toshkent—Termiz yo'li) o‘tadi. Shahar aholisi va xo‘jaliklari Shovdor, Bog‘ishamol ariqlaridan suv oladi. Iyulning o‘rtacha harorati 25,9°, eng baland harorat 40—42°, yanvar o‘rtacha harorati 0,2°, eng past harorat —26°. Maydoni 120 km². Aholisi 519600 ming kishi (2016); 1975-yil 299000, 1970-yil 267000, 1959-yil 196000, 1939-yil 136000, 1897-yil 55000, 1865-yil 26000. Samarqand shahar Kengashiga qarashli 4 shaharcha (Ingichka, Kimyogarlar, Farhod, Hishrov) mavjud.

Tarixiy yozma manbalarda Samarqand yoshi qadimiyligi haqida ma’lumotlar bor. Muhammad an-Nasafiy „al-Qand fiy zikri ulamoi Samarqand“, Haydar as-Samarqandiy (12-asr) „Qandiyai Xurd“, Abu Tohirxoja Samarqandiy „Samariya“, Xitoy tarixchisi Chjan Syan, yunon va rimlik tarixchilar Arrian, Kursiy Ruf va boshqa ko‘plab mualliflarning asarlarida bu haqda yozib o‘tilgan. Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib „Boqiy shaharlar“ nomini olganlar. Xalq iborasi „Samarqand sayqali ro‘yi zamin ast“ — Samarqand yer yuzining sayqali (jilosi) deb behuda aytilmagan. Amir Temur Samarqandni mehr bilan qadrladi, obod qildi, dunyoning sayqaliga aylantirdi.

„Samarqand“ so‘zining kelib chiqishi haqida bir qancha tahmin mavjud. Sharq mualliflari „Samarqand“ so‘zining 1-qismi, ya’ni „Samar“ so‘zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun’iy ta’riflarni taklif etdilar. Ammo tarixda bunday ismli kishi haqida ma’lumotlar aniqlanmagan. So‘zning 2-qismi „kent“ (kand) — qishloq, shahar degan ma’noni bildiradi. Ba’zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha „Samarya“ra yaqin, ya’ni „yig‘ilish, yig‘in“ so‘zidan

kelib chiqqan deb izohlaydilar. Antik mualliflarning asarlarida shahar Marokanda deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin boʻlib, Marokanda — Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir.

XI asr olimlaridan Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshgʻariy shahar nomining kelib chiqishini „Semizkent“, yaʼni „semiz qishloq“ soʻzining buzib talaffuz qilinishi deb tushuntiradilar. 1404 yilda Samarqandga tashrif buyurgan Ispaniya elchisi Ruy Gonsales de Klavixo ham bu talqinni qoʻllab quvvatlaydi. Samarqand jahonning eng qadimgi shaharlaridan biri — 2700 yildan ortiq tarixga ega. Samarqand miloddan avval IV asrdan milodiy VI asrgacha Sugʻd davlatining poytaxti boʻlgan. Arxeologik qazishmalardan maʼlum boʻlishicha, yuqori paleolit davrida ham Samarqand hududida odamlar yashagan (qarang Samarqand makoni).

Rim tarixchisi Kvint Kursiy Rufning (miloddan avval I asr oxiri — milodiy I asr) yozishicha, Samarqand qalʼasi devorining aylanasi taxminan 10,5 km boʻlgan. Miloddan avval 329-yil Iskandar Maqduniy (Makedonskiy) askarlari Samarqandni vayron qilgan. Spitamen Samarqandni yunonlardan ozod etishga harakat etgan, ammo xiyonatkor ko'chmanchi qabilalar sardorlari tomonidan o'ldirilgan va boshi Iskandar Maqduniyga sulh sifatida yuborilgan.

Samarqand 6-asrda Turk xokonligi tarkibiga kirgan va mahalliy hokimlar tomonidan boshqarilgan. Bu davrda Samarqand Hindiston, Eron, Misr va Vizantiya davlatlari bilan savdo qilgan. Oʻz davrida "10 Oʻq xoqonligi" deb yuritilgan Gʻarbiy Turk xoqonligi Istamining oʻgʻli Tardu xoqon (576—603) Sosoniylar Eroniga qarshi janglar olib borib, gʻarbda oʻz hokimiyatini kuchaytirdi. Uning oʻgʻli Sheguy xoqon (610—618) davrida xoqonlik qoʻshinlari jan.gʻarbiy hududlarda faol harakat yurita boshlaydi. U Eronning shimoliy sharqiy viloyatlariga hujum uyushtirib, sosoniylar ustidan yirik gʻalabaga erishadi. Uning inisi Tun yabgʻu (618—630) xoqonlikning gʻarbdagi nufuzini yanada mustahkamlaydi. U hukmronlik qilgan davrda Turk xoqonligining chegarasi gʻarb va janubiy gʻarbda, Janubiy-Sharqiy Yevropa dashtlari, Kavkaz, Volgaboʻyi, Gurgon, Marv, Hind daryosining yuqori havzalari, Shimoliy Hindiston va Afgʻonistonning aksariyat viloyatlarini oʻz ichiga olardi. Tun yabgʻu gʻarbiy hududlarda hokimiyatni mustahkamlash maqsadida qarorgohini Shosh vohasining shimolidagi Mingbuloq mavzesiga koʻchiradi va boshqaruvda islohotlar oʻtkazib qaram oʻlkalarga turkiy tudun va eltabar unvonli vakillar joʻnatadi.

## 2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.

Samarqand qadimiy tarixi va me’moriy yodgorliklari tufayli butun dunyo tan olgan haqiqiy muzey shahriga aylandi. Shu bois respublika hukumati qarori bilan 1982-yilda Samarqandning Afrosiyob shahristoni, oʻrta asrlarda bunyod etilgan me’moriy yodgorliklar va XIX—XX-asrlarda qurilgan „Yangi shahar“dagi binolar, tarix va oʻlkashunoslik muzeylari asosida „Samarqand davlat birlashgan tarixiyme’moriy muzeyqoʻriqxonasi“ tuzildi. Oʻsha yilda shaharning tarixiy kismini muhofazalash chegaralari belgilandi.

Samarqand me’moriy-tarixiy yodgorliklari 2001-yilda UNESCOning Finlandiyada oʻtkazilgan 25-sessiyasida Jahon merosi roʻyxatiga kiritildi.

Samarqandda 73 ta yirik tarixiy me’moriy yodgorlik: Registon ansambli, Shohizinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ulugʻbek rasadxonasi, Bibixonim jome masjidi, Ruhobod maqbarasi, Abdidarun majmuasi, Xoja Ahror masjidi, Hazrati Xizr masjidi va boshqa saqlangan. Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan S.da Abu Mansur alMoturidiy asSamarqandiy dafn etilgan Chokardiza qabristoni hududida Moturidiy yodgorlik majmui mozoriga maqbara qurildi, kabriston obod etildi, Burhoniddin Margʻinoniy vafotining 800 yilligi (1997), tavalludining 910 yilligi (hijriy sana boʻyicha) (2000) keng nishonlandi (Samarqand shahridagi Chokardiza kabristoniga dafn etilgan). S.ning markaziy maydoniga Amir Temur haykali oʻrnatildi. Shahardagi tarixiy obidalar Xitoy, Hindiston, Yunoniston (Afina), Italiya (Rim) yodgorliklari kabi oʻzining goʻzalligi bilan e’tiborni oʻziga tortadi. S.ga har yili dunyoning turli mamlakatlaridan minglab sayyoxlar kelib ketadilar. Mehmon va sayyoxlarga xizmat koʻrsatuvchi: „Afrosiyob“, „Samarqand“, „Zarafshon“, „Bogishamol“, „Markaziy“, „Prezident otel“ kabi mehmonxonalar qurilgan. Sayyoxlarga „Oʻzbekturizm“ milliy kompaniyasining Samarqand boʻlimi xodimlari xizmat koʻrsatadilar.

Samarqandda 7 ta oliy ta'lim muassasasi bor[6]. Samarqanddagi oliy ta'lim maskanlari (unt, tibbiyot[7], qishloq xoʻjaligi, iqtisodiyot va servis, me’morlik, qurilish va xorijiy tillar institutlari)da 19,1 ming talaba oʻqiydi. 2002-2003 ta'lim yilida shahardagi 36 ta oʻrta maxsus bilim yurti, kollej, akademik litsey va internat maktablarida 25,7 ming, 67 umumiy ta’lim maktabida 76,7 mingga yaqin oʻquvchi ta’lim oldi.

2021-yil 8–13 aprel kunlari Finlyandiya delegasiyasining O'zbekistonga tashrifi bo'lib o'tgan. Tashrif davomida Oʻzbekiston–Finlyandiya ta’lim transformasiyasi boʻyicha onlayn uchrashuv boʻlib oʻtgan. Unga koʻra, Samarqand davlat universiteti va

Finlyandiyaning Turku universiteti o‘rtasida memorandum imzolangan va Samarqand davlat universiteti qoshida o‘zbek-fin pedagogika instituti tashkil etilishi aytilgan. 2025-yilga qadar Finlyandiya bilan hamkorlikda tuziladigan ta’lim loyihalariga jalb etiladigan talabalar soni 10 000 nafarga yetkazilishi mo‘ljallangan.[8]

Shahar respublikaning asosiy fan markazlaridan biri. Samarqandda pedagogika akademiyasi asosida tashkil topgan SamDU katta mavqega ega. Qorako‘lchilik, Isayev nomidagi parazitologiya va gelmintologiya (1925), Shreder nomidagi bog‘dorchilik, tokchilik va vinochilik, arxeologiya ilmiy tadqiqot institutlari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Samarqand bo‘limi turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Samarqandda 4 ommaviy kutubxona, 2 ta kinoteatr, Samarqand badiiy muzeyqo‘riqxonasi, 3 teatr (Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyati o‘zbek davlat musikali drama teatri, A.P.Chexov nomidagi rus drama teatri, qo‘g‘irchoq teatri), shahar telestudiyasi faoliyat ko‘rsatadi. „Samarqand“ gaz. chiqadi. Shaharda 1566 o‘rinli 11 kasalxona, 348 statsionarda 1561 malakali vrachlar xizmat ko‘rsatadilar. Cho‘ponota tepaligi yonida dam olish uyi, Markaziy, So‘g‘diyona madaniyat va istirohat bog‘lari, bolalar „Afsona“ akvaparki, ko‘plab stadion, tennis kortlari, „Delfin“ suzish majmui bor.

Samarqand zaminida mashhur donishmandlar, allomalar voyaga yetgan, jumladan, Ulug‘bek S.da munajjimlar maktabiga asos soldi, Madrasa va rasadxonalar qurdi. Uning atrofida butun bir ilmiy maskan — Ulug‘bek akademiyasi tarkib topdi. Bu akademiyada G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi mashhur olimlar yetishib chiqdi. Ulug‘bek akademiyasida amalga oshirilgan ishlar jahon fan olamida tan olindi.

XVI-XVII-asrlarda Samarqandda Miram Chalabiy, Mullo Abdulali Nazmuddin ibn Muhammad ibn Husayn Birichandiy, Amir Akbar Samarqandiy, Do‘stiy Samarqandiy, Koshifiy Samarqandiy, Mir Jaloliddin Xorazmiy, Mavlono Abdulxayr Samarqandiy va hokazo ko‘plab fan va madaniyatning mashhur namoyandalari ijod etganlar.

Samarqand shahrida hozirgi kunda xalqaro miqyosdagi turli anjumanlar o‘tkazilmoqda. Ayniqsa, „Sharq taronalari“ xalqaro musiqa festivalining Samarqandda o‘tkazilishi muhim ahamiyatga egadir.

Vatanimiz tarixida tutgan beqiyos o‘rni, samarqandliklarning asrlar davomida milliy fan va madaniyatimizni rivojlantirishga qo‘shgan buyuk hissasining e’tirofi sifatida Samarqand „Amir Temur“ ordeni bilan mukofotlandi (1996 yil 28 avgust). Ordenni 1996-yil 18-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov topshirdi.

Manbalar va ad.: Samarqand tarixi, T., 1—2 j., 1971; Samarqand (prof. Z.M.Akramov tahriri ostida), T., 1961; Samarqand shahri to‘g‘risida statistik ma’lumotlar, S, 2002; Umnyakov I. I., Aleskerov Yu. N., Samarqand (spravochnikyo‘lko‘rsatkich), T., 1968; Pugachenkova G. A., Ochiq osmon ostidagi muzey, T., 1981; Zohidov P., Samarqand me’morlik maktabi (19—20asr boshlari), T., 1965; Bartold V. V., Istoriya Samarqanda pri Timuridax. Soch., tom 6, M, 1966; Pugachenkova G. A., Rempel L.I., Vidayushiyesya pamyatniki arxitekturi O‘zbekistana, T., 1959; Yakubovskiy A. Yu., Iz istorii arxeologicheskogo izucheniya Samarqanda, Samarqand, 1927; Shishkin V.A. Kalai Afrasiyab, sb. „Afrasiyab“, vip. № 1, T., 1969; Shishkin V.A., Afrasiyab — sokrovishnitsa drevney kulturi, T., 1966.[9]

Samarqand shahri (Toshkentdan 354 km uzoqlikda) eramizdan avvalgi VII asrda tashkil topgan. U o‘zining deyarli 3 ming yillik tarixiy yodgorliklariga ega va Temuriylar sulolasi boshqaruvi davriga tegishli arxitektura yodgorliklari qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Gretsiya va Rimdagi arxitektura durdonalari singari katta ahamiyatga egadir.

**3.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati. Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.**

Samarqand dunyo taraqqiyotining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo‘lib, jahon madaniyati va fani xazinasiga katta hissa qo‘shgan shahardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati rahbarligida mustaqillik yillari Samarqand shahridagi arxitektura yodgorliklarini tiklash va ta’mirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va ta’mirlash, obodonlashtirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. Temuriylar sulolasi yaratgan arxitektura yodgorliklari Misr, Xitoy, Hindiston, Gretsiya, Italiya kabi davlatlarda yaratilgan arxitektura obidalaridan aslo qolishmaydi.

Mustaqillik yillarida qaytadan barpo etilgan al Buxoriy, Motrudiy va boshqa tarixiy majmualar tahsinga sazovordir. Samarqand qadimiy Rim bilan tengdoshdir. Uning tarixiy madaniyatining quyi qatlamlari eramizdan avvalgi I ming yilliklarga borib taqaladi. U qadimgi va hozirgi jumboqli Sug‘d davlatining poytaxti Maroqand shahri qoldiqlari bilan tillashadi. Samarqand shahridagi Afrosiyob juda ko‘p qonli voqealarni boshidan kechirgan.

XIII asr boshlarida mo‘g‘ul bosqinchilari O‘rta Osiyoning tinch hayotiga tajovuz soldi, ular juda ko‘plab shaharlarni, san’at yodgorliklari va madaniy boyliklarini vayron etdilar. Chingizxon qo‘shinlari tomonidan Afrosiyob yer yuzidan yo‘q qilindi. Uylar va saroylar yondirildi, necha asrlab suv berib turgan suv quvurlari barbod etildi, gullab-yashnab turgan bog‘lar kultepalarga aylantirildi. Biroq shahar o‘lmadi, aksincha, XIV-XV asrga kelib

yanada gullab-yashnadi. Bu kunlar buyuk sarkarda Amir Temurning Samarqand shahrini oʻz saltanatining markaziga aylantirishga qaror qilgan davrlarga toʻgʻri keldi. Amir Temur saroyida boʻlgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo oʻz bitiklarida Samarqand haqida quyidagilarni yozadi:

*"Temur bu shaharning gullab-yashnashini xohlardi, u qaysi yurtni egallamasin, u yerdan odamlarni bu yerga yashashi uchun olib kelar, ayniqsa turli yoʻnalishlardagi ustalarni yigʻishga harakat qilardi".*

Temur oʻz yurti poytaxtini dunyodagi eng katta va koʻrkam shaharlar qatoriga qoʻshishni istardi. Shu boisdan Samarqand shahri atrofidagi qishloqlar Bogʻdod, Damashq, Qohira kabi buyuk shaharlar nomini oldiki, Temur oʻz poytaxti oldida bu shaharlar bir qishloqchalik boʻlishini istardi. Samarqand shahrini 13 ta katta bogʻ yashtanib turardi, ularning eng kattasi shu darajada keng ediki, tarixning shohidlik berishicha, bir kuni shu bogʻda adashib qolgan otni bir oy izlashgan ekan.

Afrosiyob Samarqand shahrining qadimiy qoldiqlari, uzoq asrlar davomida 10-15 metr chuqurlikda koʻmilib ketgan arxeologik qazilmalari bilan mashhur, qadimiy aholisi VI-VIII asrlarda hozirgi Samarqand shahri yaqinidagi tepaliklarda, taxminan 2 kv km maydonda yashagan. Samarqand shahri yodgorliklari oʻzining buyukligi bilan odamlarni qoyil qoldirgan. Uning binolari devorlaridagi zangori naqshlari, arxitektura shakllari, turli koʻrinishlardagi geometrik shakllari bilan kishini hayratga soladi. Bular Registon, Shohi Zinda, Goʻri Amir maqbaralari ansambllaridir.

Samarqand atrofidagi Afrosiyob tepaliklari boʻylab Shohi Zinda me'morchilik ansamblining 11 ta maqbaralari joylashgan. Bu koʻchalarni qurishni hech kim rejalashtirmagan, ular oʻz-oʻzidan yuz yillar davomida barpo etilgan. Shohi Zinda soʻzi „Tirik shoh“ ma'nosini anglatib, uning madaniyati bu yurtlarga islom kirib kelgunicha gullab-yashnagan. Afrosiyob gullab-yashnagan davrlarda uning shuhrati shu darajada yuqori ediki, oʻsha davrdagi islom peshvolari u bilan kurashishga hayiqishgan.

Uning shuhrati toʻgʻrisida afsonalar yaratilgan, ulardan biri Muhammad Qosim ibn Abbos paygʻambarning amakivachchasi ekanligi haqidagi afsonadir. „Bibixonim“ nomidagi goʻzal maschid eski shaharga kirish darvozasi oldidagi maydonda joylashgan. U toʻrtta inshootdan iborat boʻlib, bular kirish galeriyasi, asosiy maschid va ikkita kichik maschidlar, ular bir-biri bilan aylanma gumbazli va uch qatorli tosh devorlar orqali bogʻlangan.

Aytishlaricha, Amir Temurning uzoq mamlakatlarga qilgan safarlaridan birida uning eng suyukli xotini Saroymulkxonim, xalq ichida uni Bibixonim deb ham ataydilar, mamlakatdagi

eng mashhur bashoratchilarni yig‘ib, yulduzlar bashorat qilgan vaqtda ushbu maschidni qurishni boshlagan ekan. Bibixonimning chiroyiga oshiq bo‘lib qolgan va sevgi yo‘lida devona bo‘lib o‘z jonini fido qilgan yosh me’mor maschidni qurilishi tugash arafasida ishni paysalga sola boshlagan, chunki maschid qurulishining tugashi uning uchun Bibixonim ruhsoridan ayrilishi edi. Ana shunday kunlarning birida shaharga Amur Temurning chopari keladi va uning shaharga qaytayotgani haqidagi habarni aytadi. Bibixonim machit qurilishini tezroq tugatishni talab qiladi. Me’mor qurulishni tezroq tugatish uchun bitta shart qo‘yadi, u ham bo‘lsa Bibixonimning bitta bo‘sasi edi.

Nima qilish kerak? Bibixonim rozi bo‘lishdan boshqa chora topmaydi. U yuziga yostiq qo‘yib, yostiq ustidan bo‘saga rozi bo‘ladi. Lekin yosh me’morning bo‘sasi shu darajada kuchli va issiq ediki, u yostiq ustidan ham o‘tib sohibjamolning yuzida iz qoldiradi. Amir Temur shaharga kirib kelib maschidni zavq bilan tomosha qiladi. U xotini bilan ko‘rishayotganda uning yuzidan harir pardani oladi va uning yuzidagi izni ko‘radi. Bundan tutoqib ketgan Amir Temur gunohkorni topishni so‘raydi. Hamma yosh me’morni qidirishga tushadi, lekin u o‘zini mudhish jazo, o‘lim kutayotganligini bilib, minoraning eng baland nuqtasiga chiqadi va oldindan tayyorlab qo‘yilgan qanotlarni taqib, Mashharga uchib ketadi… Samarqand maqbaralari ichida eng mashhuri Go‘ri Amirdir.

Bu maqbara Amir Temurning suyukli nabirasi Muhammad Sultonga atalgan edi, lekin hozirgi kunda bu yerga Amir Temur, uning o‘g‘illari va boshqa nabiralari, o‘rta asrlarning ulug‘ olimi Ulug‘bek dafn etilgan, bu maqbara temuriylar maqbarasiga aylangan. Eski Samarqandning markazi Registon sanaladi. Bu yerga shaharning hamma tomonidan ko‘chalar keladi. Eski davrlarda maydondan katta kanal o‘tgan va u juda ko‘p qum uyumlarini oqizib kelgan. Shu sababli bu maydon Registon nomini olganki, ma’nosi „qumli joy“ yoki „qumli maydon“ ma’nosini anglatadi. Registon XV asrgacha katta savdo markazi bo‘lgan.

Ulug‘bek Samarqandni boshqargan 1409-1447 yillarda maydon harbiy ko‘riklar, qo‘shinlarni ko‘rikdan o‘tkazish, farmonlar o‘qib eshittiriladigan joyga aylangan. Hozirgi kunda Registon maydonini uchta madrasa: Sherdor, Tillakori (XVII asrda qurilgan) va Ulug‘bek (XV asrda qurilgan) madrasalari bezab turibdi. Ulug‘bek madrasasi olimning ko‘rsatmasi bilan 1420 yilda qurilishi boshlangan. To‘rt burchakli va to‘rt minorali bu madrasaning ichida to‘rtburchak hovlisi bor va hovliga qaratib to‘rt tomondan hujralar qurilgan. Ulug‘bek madrasasi o‘zining boy me’moriy terma naqshlari, geometrik tuzilishi va osmon aks etib turgan maydoni bilan fan va madaniyatning buyuk asari sifatida saqlanmoqda.

Ulug‘bek zamonida Samarqand O‘rta Osiyoning bilim o‘chog‘iga aylandi. O‘sha davrlarda bu yerga dunyoning eng taniqli matematiklari, astronomlari, tarixchi olimlari yig‘ilishgan. Ulug‘bek zamonasida tanlab jalb qilingan olimu-fuzalolar, uning observatoriyasida xizmat qilgan olimlar fanning ajoyib siru-asrorlaridan voqif bo‘ldilar. Butun jahonning savdogarlari, shoiru-ulamolari va olimlari „Jahonning qimmatli durdonasi“ atalmish Samarqandga intilganlar. Samarqandning ko‘p asrlik tarixi Ro‘dakiy, Bobur, Jomiy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek, Muqimiy, Furqat, Qozizoda Rumiy kabi fan va san’atning ulug‘ mutafakkirlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Samarqand — afsonaviy shahar, har bir joy, ko‘chalar, havzalari o‘z tarixiga ega. Afrasiyobning shimoliy sharqidagi tepaliklarda Amir Temurning nabirasi Ulug‘bekning osmon jismlari va yulduzlarini o‘rganish bo‘yicha qurgan rasadxonasining bir qismi saqlanib qolgan. Rasadxona binosi 1449-yilda buzib tashlangan, hozirgi kunda tashrif buyuruvchilar rasadxonaning yer osti qisminigina ko‘rishlari mumkin. Samarqandda tarixiy obidalardan tashqari ko‘pgina dam olish maskanlari ham mavjud. Taxtaqorachi dovoni yaqinidagi Omonqutan maskanida hozirgacha Samarqand shahri to‘g‘risidagi qiziq-qiziq afsonalarni eshitish mumkin. Bundan tashqari ushbu viloytda neandertallar lageri qoldiqlari topilgan.

## Ma’muriy-hududiy bo‘linishi[tahrir]

Samarqand shahrining umumiy maydoni — 120 km². Shahar hududi Samarqand tumani bilan o‘ralgan. Samarqand ushbu tuman hududiga kirmaydi va viloyatga bo‘ysunuvchi shahar va Samarqand viloyati ma’muriy markazi maqomiga ega.

Hozirgi payta Samarqand shahri ichki ma’muriy-hududiy bo‘linuvga ega emas (mahallalarni hisobga olmaganda). Shahar hududini ma’muriy tumanlarga bo‘lish, ilk bor 1939-yilda amalga oshirilgan edi. O‘sha yilning 10-fevral kuni Samarqand shahri hududi uch ma’muriy tumanga: Bog‘i-Shamol (ruscha: *Bagi-SHamalskiy*), Jeleznodorojniy (ruscha: *Jeleznodorojnыy*) va Siyob (ruscha: *Siabskiy*) tumanlariga bo‘lindi. Bog‘i-Shamol tumani shaharning markaziy qismini, Jeleznodorojniy tumani shaharning g‘arbiy qismini, Siyob tumani esa shaharning sharqiy qismini, Samarqandning tarixiy markazini egallar edi. 1950-yillarda ushbu tumanlar bekor qilindi. 1976-yilda ushbu tumanlar qaytadan tashkil etildi. Qayta tashkil etilgan tumanlarning faqat bittasining nomi o‘zgartirildi: Bog‘i-Shamol tumani — Bog‘ishamol tumaniga. 1990-yillarda Jeleznodorojniy tumanining nomi Temiryo‘l tumaniga o‘zgartirildi. 2003-yilning oxirida Samarqand shahrining barcha uch tumani bekor qilishi haqida qaror qabul qilindi va 2004-yilning 1-yanvarida ushbu tumanlar bekor qilindi[10].

## *XV* - mavzu. Buxoro-Navoiy turistik mintaqasi

**Reja:**

1.Buxoro-SHaharlar malikasi. Buxoro-Navoiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.

2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati.

3.Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.

### 1.Buxoro-SHaharlar malikasi. Buxoro-Navoiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.

«Buxoro tarixi»ning bosh so’zida aytilganidek, uni dastavval Buxoroning Narshax qishlog’idan bo’lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy 943—944 yillarda arab tilida yozgan. Hozirda Narshaxiyning nomi O’rta Osiyoning VIII—XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlarida tilga olinadi-yu, ammo uning hayotiga oid biror to’liq ma’lumot keltirilmaydi. Bunga sabab, uning o’z asarida ham va unga yaqin davrlarda yashagan boshqa mualliflar asarlarida ham shunday ma’lumotlarning kgltirilmaganligidir. Faqat Sam’oniyning «Kitob ul-ansab» asarida uning to’la nomi Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn SHarik ekanligi va u Buxoro ahlidan bo’lib, 286 (899) yili tug’ilgan va 348 (959— 960) yili vafot etganligi eslatiladi . «Buxoro tarixishing esa arab tilidagi asl nusxasi bizgacha yetib kelgan emas, to’g’rirog’i, hali shu vaqtgacha uning mavjudligi haqida biror ma’lumot yo’q.

Gap shundaki, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasining bosh so’zida aytilishicha, 1128 yiln asli hozirgi Quva shaharidan bo’lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy Narshaxiyning kitobini «ko’pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o’qishga rag’bat ko’rgazmaganliklari» sababli o’z do’stlarining iltimosiga binoan arabchadan fors tiliga tarjima qilgan.

U «arab tilidagi nusxada so’zlangan keraksiz va buning ustiga o’qiganda (kishi) tabiatida malollik orttiradigan narsalar»ni tarjimaga kiritmay qisqartirib yuborgan. Undan yarim asr o’tgandan keyin asar yana qaytadan tahrirga uchragan: 1178—1179 yillar mobaynida Muhammad ibn Zufar ibn Umar fors tilidagi tarjimani ikkinchi marta qisqartirib bayon qilgan. Ammo asarni o’qir ekanmiz, biz unda, ba’zan, mazkur 1178-1179 yildan keyingi to 1220 yilgacha bo’lib o’tgan tarixiy voqealar haqida ham, qisqa-qisqa ma’lumotlar uchratamiz. Bu hol shuni ko’rsatadiki, Muhammad ibn Zufardan keyin ham bir yoki bir necha bizga noma’lum kishilar asarni tahrir qilganlar. Ular ham asarni qisqartirganlar deyishga asos bo’lmasa-da, lekin qo’shimchalar kiritganliklari voqealar mazmunidan aniq

anglashilib turibdi.
«Buxoro» tarixi» ning biz tanishishga muyassar bo’la olganimiz barcha qo’lyozma nusxalari, ular orasidagi ba’zi farqlardan qat’i nazar, ana shu 1220 yilgacha davom ettirilgan matnni o’z ichiga oladi. Narshaxiyniig hamda uning asarini bevosita qayta ishlab arabchadan fors tiliga tarjima qilgan Abu Nasr Ahmad va bu tarjimani qirqartirib bayon etgan Muhammad ibn Zufarlarning asl nusxalari esa hozirgacha ham manbashunoslik fani uchun noma’lumligicha qolib kelmoqda. Lekin bizgacha yetib kelgan asar nusxasining mazmuniga qaraganda, shuni aytish mumkinki, tarjimon Abu Nasr Ahmad ham, qisqartiruvchi muharrir Muhammad Ibn Zufar ham o’z ishlariga oddiy tarjima yoki tahrir tarzida qaragan emaslar. Asarning ko’p yerlarida uning muallifi Abu Bakr Muhammad ibn Ja’farga hamda tarjimon Abu Nasr Ahmadga ilova qilib so’zlangan jumlalar shuni ko’rsatadiki, tarjimon Abd Nasr Ahmad ham, qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufar ham o’z ishlariga mustaqil bir tus berganlar.
Tarjimon Abu Nasr Ahmad Narshaxiyning arab tilidagi nusxasida mavjud bo’lgan ba’zi mavzularni tashlab ketish bilan bir qatorda asarga katta tarixiy qimmatga ega bo’lgan ko’pgina ma’lumotlarni qo’shgan va bunda u o’z davridan ilgarigi voqealarni yoritish uchun boshqa tarixiy manbalardan foydalangan. Bu manbalardan biri Abu Nasr Ahmadning o’zi ko’rsatib o’tgani Abu-l-Hasan Abdurahmon (ibn) Muhammad Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum» nomli asaridir. Bu asarning bizning davrimizgacha yetib kelgan-kelmaganligi hozircha ma’lum emas. Ammo undan keltirilgan «Buxoro tarixi»dagi ayrim satrlarning o’zi ham Abu-l-Hasan Abdurahmonning kitobi naqadar muhim bir tarixiy manba bo’lganligini ko’rsatadi. «Xazoin ul-ulum»dan ma’lumotlar keltirilishi haqiqatan ham Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad tomonidan bajarilganligiga esa qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufalning o’z nomidan keltirib: «Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr... shunday deydi. Abulhasan Nshiopuriy «Xazoin ul-ulum»da aytishicha...» degan so’zlari shubhasiz dalildir. Ana shu mazmundagi ko’p jumlalar yana shuni ko’rsatadiki, Narshaxiynshg asariga qo’shimchalar kiritgan kishi asosai tarjimon Abu Nasr Ahmad bo’ lib, Muhammad ibn Zufarning ishi, qat’iy qilib ayta olmasak ham, fors tilidagi tarjimani «qisqartirib bayon qilish»dan iborat bo’lgan.
Tarjimon Abu Nasr Ahmad va undan keyingi muharrirlar asar matniga anchagina o’zgartishlar kiritgan bo’lsalar ham, lekin Narshaxiy nomini musannif-muallif sifatida saqlab qolganlar: masalan, asardagi: «Bu kitobning musannifi aytadi» degan so’zlar buni yaqqol isbotlay oladi. Lekin, shunga qaramay, asardagi bir qancha ma’lumotlar Narshaxiy

o’z kitobini yozib tugallagandan (944) keyingi tarjimonga yaqin (1128) davrlarga oid ekanligiga ko’ra, biz bu ma’lumotlar muallifi deb Abu Nasr Ahmadni yoki undan keyin kitobni qisqartirib tahrir qilgan Muhammad ibn Zufar va boshqa hozircha nomlari aniqlanmagan shaxslarni tanishimiz lozimligini taqozo etadi.

Narshaxiy aslida o’z asariga qanday nom berganligi ma’lum emas. SHu sababli asar qo’lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida ham «Tarixi Narshaxiy» («Narshaxiy tarixi»), «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi»). «Tahqiq ul-viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar») kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelgan. Bu nomlardan keyingi uchtasi asar mazmuni bo’yicha to’g’ri bo’lib, ulardan eng anig’i — «Tarixi Buxoro» hozirda tarixiy adabiyotda qat’iy o’rnashib qoldi. «Tarixi Narshaxiy» deb atalishi esa yuqorida eslatib o’tganimizdek, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi Narshaxiydan boshqa kishilarning ham qo’shimcha va tahrirlari, qisqartirishlariga uchraganligi tufayli tobora kamroq ishlatilib kelmoqda. SHunga binoan, ushbu nashrda ham asarning nomi «Buxoro tarixi» deb qabul qilindi.

«Buxoro tarixi»ni bosh manba sifatida o’rganib, undagi qimmatli ma’lumotlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish ishlari ko’p vaqtlardan beri davom etib kelmoqda. Buxoroning VIII—XII asrlardagi tarixidan bahs etuvchi hozirgi zamon yirik ilmiy tadqiqot ishlarining hammasida ham «Buxora tarixi»dan olingan ma’lumotlarni uchratamiz desak, mubolag’a qilmagan bo’lamiz. SHu bilan barobar asarning bir yoki bir qancha qo’lyozma nusxalari asosida tayyorlangan matni ham bir necha bor — 1892 yili CH. SHefer tomonidan Parijda, 1904 yili Mullo Sulton tomonidan Buxoroda, 1939 yili Mudarris Rizaviy tomonidan Tehronda nashr qilingan. SHuningdek, «Buxoro tarixini»ning N. Likoshin tomonidan bajarilgan izohli ruscha tarjimas» 1897 yili Toshkentda va R. Frayning izohlar ilova etilgan inglizcha tarjimasi 1954 yili Kembrijda bosilib chiqdi.

«Buxoro tarixi»ning keng o’quvchilar ommasi diqqatiga tavsiya etilayotgan ushbu o’zbekcha tarjimasi A. Rasulev tomonidan bundan bir necha yil burun O’zbekiston SSR Fanlar akademiyasi SHarqshunoslik institutida asarning Parij va Buxoro nashrlari hamda mazkur institutning qo’lyozyomalar fondida saqlanayotgan 5388—11 raqamli 1235 (1819—1820) yili ko’chirilgan qo’lyozma nusxasi asosida bajarilgan edi. So’ngroq, ushbu satrlar muallifi tomonidan tarjimani tahrir qilib, nashrga tayyorlash asnosida bosma va qo’lyozma nusxalar soni yana ko’paytirilib, tarjima qaytadan ko’rib chiqildi va ba’zi tekstologik izohlar tuzildi. CHunonchi, bu ishga «Buxoro tarixi» ning Tehronda Mudarris Rizaviy tomonidan nashr qilingan fors tilidagi qiyosiy nashri va SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari

institutining Leningrad bo'limida saqlanayotgan 1008 (1599—1600) yilda ko'chirilgan 675 raqamli hamda Tojikiston SSR Fanlar akademiyasining SHarq qo'lyozmalari fondidagi 1060 (1650) yilda ko'chirilgan 513/11 raqamli qo'lyozma nusxalar jalb qilindi. Bu qo'lyozma va bosma nusxalarni bir-biriga taqqoslash natijasida Tehron nashrini asos qilib olish muvofiq topildi. CHunki garchi bu nusxa ham ayrim kamchiliklardan xoli bo'lmasa-da, umuman olganda boshqa qo'lyozma va bosma nusxalarni nazarda tutib nashrga tayyorlanganligi bilan e'tiborga sazovordir. Bu bosma nusxaning kamchiliklarini tekshirib borish uchun esa asosan Parij bosmasi, Buxoro bosmasi, Leningrad qo'lyozmasi va Dushanba (Tojikiston SSR) qo'lyozmasi matnlaridan foydalanildi. Zarurat tug'ilgan ayrim hollarda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi SHarqshunoslik institutining XIX asrda ko'chirilgan 2212/1 va 4355/111 raqamli qo'lyozmalari ham jalb qilindi. Jug'rofiy va shaxsiy nomlarga berilgan qisqacha izohlar D. YU. YUsupova tomonidan bajarilgan.

Ma'lumki, «Buxoro tarixi»ni dastlab yozgan Muhammad ibn Ja'far ham, so'ng asarni qisqartirib va qo'shimchalar qo'shib arabchadan fors-tojik tiliga tarjima qilgan Ahmad ibn Muhammad va bu tarjimani qisqartirib bayon qilgan Muhammad ibn Zufarlar ham X-XP asrlar sharoitida, o'z davrlarida mavjud bo'lgan iqtisodiy, ma'naviy hayot ta'sirida ish olib borganlar. SHuning uchun ham «Buxoro tarixi» X-XP asrlar ijtimoiy muhiti taqozosicha islom diniga hamda o'sha davrda hukmron bo'lgan tuzumga qarshi harakatlar (masalan, Muqanna qo'zg'oloni) ni qoralash pozitsiyasidan turib yozilgan. Biroq shunga qaramay, asarda katta tarixiy qimmatga ega bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan va ularni ilmiy ob'ektiv ravishda tahlil qilish tarix fani uchun foydadan holi emas. Bu hol «Buxoro tarixi» ma'lumotlari O'rta Osiyonining VII-XII asrlar tarixidan bahs etuvchi ilmiy-tarixiy asarlarning aksaridsh ko'p vaqtlardan beri foydalanib kelinayotganligi bilan shak-shubhasiz isbotlangan. Bu qimmatli va noyob asarning ushbu o'zbekcha nashri ham tarixchi-tadqiqotchilar, keng o'quvchilar ommasi diqqatiga bosh manba hamda X-XII asrlar tarixiy adabiyotidan namuna sifatida taqdim ztiladi.

**2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati.**

Zamonaviy g'arb iqtisodiyotida turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi, qaysiki turist turistik industriya jamiyat, turistik siyosat va iqtisodiyot bir butunlik sifatida qaraladi. Bunda iqtisodiy muammolar turizmning ijtimoiy ekologik aspektlari

bilan birgalikda tahlil qilinadi. Gap shundaki bugungi kunda hayotiy strategiya va hayot uslublari qoida bo'yicha bir xil ijtimoiy-siyosiy asoslar ichida shakllanadi, ular shaxsning ijtimoiy tizimidagi muayyan maqomi bilan yuzaga keladi. Ammo shaxs uchun boshqa ijtimoiy guruh vakillarining yashash tarzi ahamiyat kasb eta boshlasa, bu holda ushbu guruhning ahloqiy iste'mol namunalariga mos keluvchi hayot tarziga o'zini namoyon etish yo'li bilan mansubligini ko'rsatishga tayyor bo'ladi. Siyosiy va madaniy bilish turizm talablari segmenti kengaymoqda. Boshqa xalq va davlatlarning madaniyatini, san'tini an'analarini o'rganishga intiluvchi sayohatchilarning katta oqimi yevropaga, Osiyoga va yaqin sharqqa intilmoqda. Sayohatchilarning sport sog'lomlashtirish, davolash va boshqa turdagi turizmlarga siyosiy-madaniy o'rganish motivlarini kengayishi an'anasi kuzatilmoqda. Siyosiy-madaniy o'rganish turizm rivojlanishida xukumat va mahalliy ma'muriyatning madaniy yodgorliklarini avaylab asrash, ularga keluvchi sayyohlar oqimini boshqarishdagi kuch-g'ayratlari muhim o'rin tutadi.

A.Maslouning ta'kidlashicha, o'zini faollashtiruvchi odatlar uchun o'rtacha o'rtacha odamlarning ko'pgina muammolariga xosdir: aybni his qilish, tashvishlilik, g'am ichki konfliktlar kabilar. Ammo ularning asosiy farqi tanlangan ishga va o'z qadriyatlariga sodiqligidir. Bu esa ularni o'z maqsadi uchun kurashda toshbag'ir qilib qo'yadi. Bir qarashda bu toifa boshqa shaxs tipiga nisbatan bog'liq aspektlariga markazlashganligi va hayotning ijtimoiy e'tibor ahamiyatsizligi bois turizm faoliyatiga kiritish uchun kam istiqbollidir. Biroq bu toifadagi ishlarning tegishli darajada tuzilgan strategiyasi uni talablar bozorini aniq segmentiga aylantirishi mumkin. Din, san'at, siyosiy sohadagi nom qozongan tarixiy arboblarning ramzi va obrazi uning uchun muhim bo'lgan joylarga sayohat qilishi mumkin. SHaxs ruxiy ma'naviy sohasining amalga oshirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratadigan safar: bunda u o'zini kasbiy yo'nalishida to'liq namoyon etadi. Marketing izlanishlari u yoki bu yoshli ijtimoiy, siyosiy madaniy tipik xisoblangan hayot uslublarini yuzaga chiqaribgina qolmay balki hayot uslublari ist'mol motivlari va harakati o'rtasidagi o'zaro munosabatini ham belgilash kerak.

Turizm sohasi sayyohlarning o'zlarini hamda ularning maxsulotlarini tashkil etishga bevosita yoki bilvosita safarbar etilgan tashkilotlarning ham ehtiyojini qondirishni nazarda tutadi. U xizmatlarning quyidagi turlarini o'z ichiga oladi.

1.Sayyohlarni joylashtirish bo'yicha (mehmonxona, motellar, kempinglar, ansionatlar, sanatoriyalar, turizm bazalari va boshqalar).

2.Sayyohlarni ovqatlantirishni ta'minlash bo'yicha (restoranlar, kafelar, barlar va boshqalar)

3.Sayyohlarni passajir transportining xilma-xil turlarida mamlakat bo'ylab olib yurish va boshqa mamlakat hududlaridan olib o'tish.

4.Ekskursiya xizmatlari (tarjimonlar, guruhlar ekskursovodlar).

5.Madaniy qiziqishlarini qanoatlantirish bo'yicha xizmatlar (teatrlarga, kino, kontsert zallariga, bog'larga tabiat va tarixiy qo'riqxonalarga sport musobaqalar va boshqa tadbirlarga borish).

6.Sayyohlarning amaliy va ilmiy qiziqishlarini qondirish bo'yicha (kongresslarda, assambleyalarda, ilmiy konferentsiyalarda, semenarlarda, yarmarka va ko'rgazmalarda qatnashishi, umumiy va maxsus maqsaddagi savdo tadbirlarida qatnashishi).

7.Savdo korxonalarining umumiy ham maxsus maqsaddagi savdo xizmatlari (sovg'alar, otkritkalar va boshqalarni sotish)

8.Sug'urta va tibbiy xizmatlar.

9.Reklama va servis (sotish) xizmatlar (sayohatlar yo'nalishlarini ishlab chiqish, transportda, joylashish vositalarida o'rinlarni band qilish).

10.Ma'muriy nazorat organlari xizmatlari (ijara, karantin, valyuta, bojxona, politsiya xizmatlari, shuningdek xujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar viza, pasport).

11.Axborot xizmatlari (er sharining u yoki bu mintaqasidagi turizm resurslari, u yerdagi joylashish vositalari bojxona va chegara rasmiyatchiliklari va berilayotgan mamlakatdagi valyutaning kursi, transport turlarini ularning yo'nalishlari va bahosi haqida gazetalar, jurnallar, sayohatnomalar).

12.Ekologik xizmatlarning tabiat va madaniyat muhofazasi xizmatlari tarixiy va madaniy yodgorliklarni qo'riqlash bo'yicha inspektsiyalar). O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo'linishi xususida to'xtalib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqa mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga hamrab oladi. Uning turistik

resurslari arxeologik qazilmalar va me’morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an’anaviy xalq hunarmandchiligi va san’ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo’llarning keng tarmog’ini mavjudligi ham Farg’ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi. Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm rayonidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiati, boy landshafti, rang-barang o’simlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo’lishiga sabab bo’ladigan muhim omildir. Avtomobil va temir yo’llari tarmog’i Toshkent turizmi mintaqasidagi turizm markazlarini bir-biri bilan bog’laydi hamda shahar atrofidagi temir yo’l va avtomobil turizmini rivojlantirishga imkon beradi. Samarqand-Buxoro turizm mintaqasi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarini o’z ichiga hamrab oladi. Samarqand va Buxorodagi butun dunyoga mashhur me’morchilik obidalari ushbu mintaqadagi turizmni rivojlantirilishiga asos hisoblanadi. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o’tuvchi temir yo’l va keng tarmoqdagi shosse yo’llari, Zarafshon tog’ tizmasi orqali o’tgan unchalik baland bo’lmagan dovonlar va yaxshi trassalar mintaqada turizmni rivojlantirish uchun g’oyatda qulay omil hisoblanadi. Xorazm turizm mintaqasining salohiyati asosan Xivaning Ichan qal’a qo’riqxonasida joylashgan va jahonda misli yo’q g’oyatda boy tarixiy-me’morchilik yodgorliklariga tayanadi. Faoliyat ko’rsatayotgan turizm mintaqalari bilan bir qatorda yana istiqbolli mintaqalar mavjud bo’lib, ular Jizzax, Qarshi-Termiz va O’rta-Qoraqalpoq mintaqalaridir. Kelajakda bu mintaqalardagi mavjud imkoniyatlarning rivojlantirilishi mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorini yanada kengayishiga olib kelishi mumkin.

### 3.Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.

Sayyohlik iqtisodiyot tarmoqlarining etakchi bo’g’inlaridan biriga aylanayapti. Viloyatimiz esa bu borada benihoya katta salohiyatga ega. 660 ta moddiy madaniy meros ob’ekti ro’yxatga olinganining o’ziyoq juda ko’p narsani anglatadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi “2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turistik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi hamda 2017 yil 16 avgustdagi “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorlari shu imkoniyatlarni ro’yobga chiqarish sari tashlangan muhim qadam bo’ldi. Mazkur qarorlarga muvofiq, viloyatga

tashrif buyurayotgan chet ellik turistlar va mamlakatimiz sayyohlariga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga ko'rsatilayotgan servis xizmatlari sifatini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Mintaqamizda sayyohlik sohasini izchil rivojlantirish, turizm industriyasi va infratuzilmasini yanada takomillashtirish maqsadida Yurtboshimiz tomonidan tasdiqlangan dastur asosida jami 21 ta (shundan 17 tasi Buxoro shahrida) yangi mehmonxona foydalanishga topshirildi, 7 ta yangi zamonaviy turistik klassdagi avtobuslar xarid qilindi. Qisqa davrda aviaqatnovlar va "Afrosiyob" tezyurar poezdining harakatlanish jadvallari optimallashtirildi.

Buxoro shahrida yangi mehmonxonalar, madaniy-ko'ngilochar maskanlar va 500 kishiga mo'ljallangan zamonaviy amfiteatr kabi ob'ektlarni o'z ichiga oluvchi "Qadimiy Buxoro" turistik hududini barpo etish uchun 10 gektar er maydoni ajratilib, xorijiy me'morlar bilan birgalikda loyihalash ishlari olib borilmoqda.

Buxoro shahridagi sobiq "Shahriston" bozori hududida hunarmandlar markazini qurish, muqaddas qadamjolar — Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy, Xoja Orif ar-Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, Xoja Bahouddin Naqshband va Chorbakr majmualarida keng ko'lamli qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilayapti. Hududning turistik salohiyatini yanada kengroq targ'ib qilish maqsadida "Ipak va ziravorlar", "Buxoro shahri kuni", "Qovun sayli" va "Buxoro hunarmandlari" festivallari tashkil etildi.

Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik mustahkamlanmoqda. Jumladan, Xitoyning Loyan va Rossiyaning Vladimir shaharlari bilan Buxoro shahri o'rtasida birodarlik aloqalarini o'rnatish memorandumlari imzolandi. Ispaniya, Yaponiya, Singapur, Indoneziya, Malayziya, Rossiya, Latviya va Turkiya kabi davlatlar bilan shu yo'nalishda muzokaralar olib borildi.

2017 yilda xorijiy turistlarga xizmatlar eksporti qiymati 76,3 million AQSh dollariga etkazilib, o'sish sur'ati 110 foizni tashkil etdi. Ichki turizm bo'yicha individual tartibdagi ziyoratchilarni hisobga olganda mahalliy sayo-hatchilar soni qariyb 2 million nafarni tashkil etdi. Bu 2016 yildagiga nisbatan 15 foizga ko'p.

Ayni paytda "Buxoro bo'ylab sayohat qil" dasturi asosida mahalladoshlar, Yoshlar ittifoqi a'zolari, mehnat va fermerlar jamoalaridan tarkib topgan 1200 nafardan ortiq aholi sayohatga chiqmoqda. Ularga Buxoro davlat universitetining turizm va tarix fakulteti 4-

bosqich iqtidorli talabalari hamroh-volontor sifatida zamonaviy turistik avtobuslarda sifatli xizmat ko’rsatishmoqda.

2018 yilda ham bu yo’nalishdagi ishlar Abu Ali ibn Sino hayoti va ilmiy merosiga bag’ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya, “Nasriddin Afandi” va “Sharq taomlari” kabi festivallar hamda Abdulxoliq G’ijduvoniy tavalludining 915 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 700 yillik yubileylariga uyg’un tarzda amalga oshiriladi.

2017 yilning 7-10 dekabr kunlari Turkiyaning Izmir shahrida o’tkazilgan xalqaro sayyohlik ko’rgazmasida viloyatimiz delegatsiyasi ham faol ishtirok etdi. To’rt kunlik xalqaro ko’rgazmada turistik kompaniyalarimiz tomonidan vohamizning turizm salohiyati, boy tarixi, madaniy meros ob’ektlari, muqaddas qadamjolari, tabiati, xalqning madaniyati va urf-odatlari haqida tayyorlangan taqdimot, reklama va targ’ibot materiallari ko’rgazma tashkilotchilari va mehmonlarga manzur bo’ldi.

Uchrashuvlar davomida turizm sohasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish, sayyohlik sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlari o’rtasida o’zaro manfaatli aloqalarni o’rnatish, Turkiyadan Buxoroga sayyohlar oqimini ko’paytirish va viloyat aholisining ushbu shaharlarga tashrifini tashkillashtirish bo’yicha kelgusida o’zaro hamkorlikni samarali yo’lga qo’yish masalalari kelishib olindi.

Shuningdek, “Travel Turkey Izmir 2017” xalqaro sayyohlik ko’rgazmasida Buxoro viloyatining turizm imkoniyatlari va salohiyatini alohida yo’nalishlar bo’yicha namoyish etgan “Bukhara Eco Tour” va “East Line Tour” turistik kompaniyalari ko’plab xorijiy hamkorlar bilan kelishuv va bitimlar tuzishga erishdi. Jumladan, “Bukhara Eco Tour” turistik kompaniyasi Turkiyaning “Ginger Travels”, “Kemer Travel”, “Sefir Tour”, “Golden Tours”, “Movvlana Istanbul”, “Betatur”, “OBT Travel”, “Sinaia Tours”, “Folo Travel” va boshqa 100 dan ortiq turistik kompaniyalar bilan hamkorlik kelishuvlarini tuzdi.

Muzokaralar natijalari bo’yicha “Bukhara Eco Tour” turistik kompaniyasi 2018 yilda Turkiyadan 3000 ga yaqin sayyohlar uchun O’zbekiston bo’ylab sayohatlarni tashkillashtirib berishi kutilmoqda. “East Line Tour” turistik kompaniyasi esa 120 dan ortiq xorijiy turistik kompaniyalar bilan hamkorlik bitimlarini tuzdi. Kompaniya vakillari tomonidan erishilgan kelishuvlar asosida kelgusi yili Turkiyadan 4000 ga yaqin sayyohlarni yurtimizga qabul qilish bo’yicha ish olib boriladi.

Bundan tashqari, “Travel Turkey Izmir 2017” xalqaro sayyohlik ko’rgazmasida ishtirok etgan buxorolik arxitektorlar Zuhriddin Muhiddinov va Farrux Rajabovlar Turkiyaning Izmir va Istanbul shaharlaridagi diqqatga sazovor joylar, bino va inshootlar, istirohat

bog'lari, tarixiy-madaniy yodgorliklar hamda yo'l bo'yi infratuzilma ob'ektlari qurilishi va arxitekturasi bilan tanishdilar.

Ular qurilish, jihozlash va binolar dizayni hamda arxitekturasi bo'yicha katta tajribaga ega yirik kompaniyalardan biri "Chimstone", zamonaviy mehmonxonalarni qurish va jihozlash ishlari bilan shug'ullanadigan "Brasko" kompaniyasi hamda istirohat bog'larini qurish bo'yicha etakchi kompaniyalar "Kemer" va "Makera Atolyesi", shuningdek, bir nechta xorijiy davlatlarda mehmonxonalar qurish va ularni to'liq jihozlash ishlarini olib borgan Istanbul shahridagi "Otem Dekorason" kompaniyasi vakillari bilan tajriba almashib qaytishdi.

Shuningdek, arxitektorlar tomonidan Istanbul shahrining Eski shahar hududidagi tor ko'chalarning yo'l qoplamalari muhandislik texnologiyalari, avtoturargohlar echimi, transportlar harakatlarini tartibga soluvchi barerlarni o'rnatish, chiqindilarni yig'ish usullari o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2017 yil 2 oktyabrda turizmni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda belgilangan vazifalarni bajarish, viloyatda ichki turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha yangi loyiha va sayyohlik dasturlari ishlab chiqilmoqda. 2017 yilgi qishloq xo'jaligi mavsumini muvaffaqiyatli yakunlagan fermer xo'jaliklari rahbarlari va a'zolarini rag'batlantirish, ularning maroqli dam olishlari uchun qiziqarli tadbirlarni tashkillashtirish, madaniy meros obidalari bilan tanishtirish hamda muqaddas qadamjolarga ziyorat qilishlarini tizimli amalga oshirish maqsadida "Buxoro fermerlari sayohati" dasturining amalga oshirilayotgani ham ana shunday yangiliklardan biridir.

Ayni damda viloyatda 124 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda. Buxoroning turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida 2018 yilda 30 dan ortiq mehmonxona, 50 ga yaqin restoran va 10 dan ziyod istirohat bog'larini qurish mo'ljallanmoqda. Bu boradagi keng qamrovli ishlar sayyohlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshiradi. Yangi ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi. Xorijliklarning boy ma'naviy-madaniy merosimizdan bahramand bo'lishlariga imkoniyat yaratadi.

## XVI-MAVZU. XORAZM TURISTIK MINTAQASI

1. Xiva-cho'llarda saqlangan madaniy meros.
2. Xorazm turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni.
3. Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.

## 1.Xiva-cho‘llarda saqlangan madaniy meros.

2021-yilning 13-21 sentabr kunlari Xivada O‘zbekiston madaniy merosi sohasida keng ko‘lamli tadbir – “Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro madaniy forumi bo‘lib o‘tadi.

Forum O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi va YuNESKO homiyligida o‘tkazilmoqda. Xalqaro madaniy forum butun mintaqadagi mahalliy va hukumat rahbarlarini birlashtirib, mintaqaviy muammolarni muhokama qilish va ularni samarali hamkorlik orqali hal qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, forumda mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun iqlim o‘zgarishi va COVID-19 pandemiyasi keltirib chiqaradigan tahdid va muammolar, shuningdek, uning boy madaniy merosining yuqoridagi muammolarni hal qilishdagi hissasi muhokama qilinadi.

Forumda kimlar ishtirok etadi:

• akademik muassasalar vakillari, Markaziy Osiyodagi tadqiqotlarga ixtisoslashgan ekspertlar va olimlar, ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi olimlar shu jumladan, falsafa, tilshunoslik, tarix, meros, san’at, antropologiya, sotsiologiya va boshqa soha vakillari.

• Markaziy Osiyo davlatlari - O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Eron, Rossiya Federatsiyasi va Xitoyning fan, ta’lim va madaniyat vazirlari, shuningdek, YuNESKO Bosh direktori va Bosh direktorning ijtimoiy va gumanitar fanlar bo‘yicha o‘rinbosari.

Forum doirasida TRUKSOY Madaniyat vazirlari doimiy kengashining yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi, uning davomida “Xiva - turk dunyosining madaniy poytaxti” hisoboti, madaniy poytaxt haqidagi taqdimot tinglanadi. 2022-yildagi turk dunyosining taqdimoti bo‘lib o‘tadi va kelasi uch yilga TURKSOY Bosh kotibi saylanadi.

2021-yil 13-21 sentabr kunlari Toshkent, Xiva va Nukusda bo‘lib o‘tadigan xalqaro forum bilan bir qatorda madaniy meros haftaligining bir qator tadbirlari o‘tkaziladi. Xususan, O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish Butunjahon jamiyatining V Kongressi bo‘lib o‘tadi. Unda dunyoning 46 mamlakatidan 350 dan ortiq olim va mutaxassislar ishtirok etadi: yetakchi sharqshunoslar, koranologlar, tadqiqotchilar, qo‘lyozmalar va miniatyuralar bo‘yicha mutaxassislar va boshqalar.

Forum dasturiga o‘ndan ortiq turli ko‘rgazmalar va “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” turkumidagi 50 ta noyob kitob-albom taqdimoti rejalashtirilgan.

Qimmatli foliolarni keyinchalik O‘zbekistonda joylashgan xorijiy davlatlarning muzeylari, galereyalari, ta’lim muassasalari, elchixonalari va konsulliklariga o‘tkazish rejalashtirilgan.

Madaniy meros haftaligi va “Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro forumi davomida, Xalqaro baxshichilik san’ati festivali va “Arxeologiya va turizm: meros salohiyati va boshqaruvini aniqlash” hamda xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiyalar bo‘lib o‘tadi. “Baxshichilik san’atining jahon madaniyati sivilizatsiyasidagi o‘rni” Nukusda bo‘lib o‘tadi.

**2.Xorazm turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.**

Xorazm qishloq xo‘jaligi, yirik sanoat korxonalari, transport va kommunikatsiya tizimlari, kichik biznes salohiyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. “GM Uzbekistan” aksiyadorlik jamiyatining Xorazm filiali, “UzXMG” ekskavator zavodi, “O‘zteks Shovot”, “Xorazm maishiy texnika” korxonalari, “Xorazm shakar” qo‘shma korxonasida ichki va tashqi bozorda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Murakkab iqlim sharoitiga qaramay, viloyat dehqonlari qishloq xo‘jaligida mo‘l hosil yetishtirmoqda. Davlatimiz rahbari 2017-yil 27-28-yanvar kunlari Xorazmga tashrifi chog‘ida viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, sanoat va qishloq xo‘jaligini tarkibiy o‘zgartirish, ijtimoiy ob’ektlar barpo etish va infratuzilmani yaxshilash, aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha qator vazifalarni belgilab bergan edi.
O‘tgan davrda hududda ko‘plab yangi korxonalar, kichik biznes sub’ektlari, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari tashkil etildi. Turizm, to‘qimachilik, baliqchilik, parrandachilik, irrigatsiya va boshqa sohalarda istiqbolli loyihalar amalga oshirildi. Uy-joylar, shifoxonalar, maktab va san’at dargohlari qurildi. Yana qator loyihalar bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.
Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatiga tashrifini Urganch xalqaro aeroportida bajarilgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishishdan boshladi.
Butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi Xorazm viloyatida ham ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu shahar ostonasidanoq ko‘zga tashlanadi. Xususan, Urganch xalqaro aeroporti zamonaviy talablar asosida rekonstruksiya qilingan. Yo‘lovchilarni kutib olish va kuzatishga mo‘ljallangan zamonaviy terminallar, xizmat ko‘rsatish xonalari, savdo shoxobchalari tashkil etilgan, yon-atrof obodonlashtirilgan. Rasmiy delegatsiyalar, xorijiy mehmonlarni kutib olish uchun zarur sharoit yaratilmoqda.

Prezidentimiz bu borada amalga oshirilgan ishlar va galdagi rejalar bilan tanishdi. Aeroport faoliyatini takomillashtirish, mehmonlar uchun qulayliklarni yanada oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.
Viloyatda barcha sohalar singari sayyohlikni rivojlantirish, tarixiy obidalarni tiklash, ta’mirlash, ularning atrofini obodonlashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari viloyatga kelayotgan sayyohlar oqimini ko‘paytirishda tarixiy obidalarning ahamiyati beqiyos ekanini ta’kidladi. Tarixiy ob’ektlarni qayta tiklash va ta’mirlashda asl milliy qadriyat va urf-odatlarimizni saqlash va xorijliklarga ko‘rsatish borasida tavsiyalar berdi.
Urganch tumanida keng ko‘lamli bunyodkorlik-obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Aholiga qulaylik yaratish, turmush darajasi va sifatini yanada yuksaltirish maqsadida hududda yangilangan namunaviy loyihalar asosida 1 va 2 qavatli 64 uy-joy, ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari qurilib, foydalanishga topshirildi.
Shavkat Mirziyoyev yangi uylarda aholiga yaratilgan sharoitlar bilan qiziqdi. Zamonaviy va milliy me’morlik andozalari asosida barpo etilgan ushbu uylar oilalar farovon yashashi uchun qulay qilib loyihalashtirilgan. Xonadonlar tabiiy gaz, elektr energiyasi va toza ichimlik suvi bilan ta’minlangan, ichki yo‘llar barpo etilgan.
Davlatimiz rahbari Toshsoqa tizimidagi magistral sug‘orish kanallarini qayta tiklash loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.
Bugungi kunda viloyatda 276,7 ming gektar sug‘oriladigan maydon mavjud. Toshsoqa tizimi orqali 191,3 ming gektar yer sug‘oriladi. Amudaryoda suv kam paytlarda, ayniqsa, erta bahor va yoz oylari boshida kanallarda suv sathi juda past bo‘lib, g‘alla, paxta va boshqa ekinlarni sug‘orish uchun suv asosan nasoslar yordamida olinardi. Bu xarajatlarning oshib ketishiga, suv isrofgarchiligi hamda yerlarning meliorativ holati yomonlashuviga olib kelar edi.
Prezidentimiz Xorazm viloyatiga avvalgi tashrifi chog‘ida Toshsoqa magistral kanalida amalga oshirilayotgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishib, ushbu muammolarni bartaraf etish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda tannarxni kamaytirish, fermer va dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan loyihani hayotga tatbiq etish bo‘yicha topshiriqlar bergan edi.
Mazkur loyihaga ko‘ra, viloyatdagi Toshsoqa, Shovot, Polvon G‘azovot va G‘azovot magistral va xo‘jaliklararo kanallarining 120 kilometri rekonstruksiya qilindi. Rejadagi 607 gidrotexnik inshootdan 318 tasi yangidan qurildi. Bu ishlar natijasida 279 nasos agregatidan

voz kechilib, qishloq xo‘jalik ekinlari o‘zi oqar suv bilan ta’minlanadi va 31,6 million kilovatt soat elektr energiya iqtisod qilinadi.
Prezidentimiz ushbu loyiha viloyatda suv ta’minotining tubdan yaxshilanishi, fermer xo‘jaliklari samaradorligi va qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.
Kanallar atrofidagi yerlarni obodonlashtirish, tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib ekiladigan ko‘chat turlarini tanlash va kanal bo‘ylab besh qator daraxt ekish, yozning jazirama kunlari odamlar kanal bo‘yida dam olishi uchun sharoit yaratish bo‘yicha Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda viloyat hokimligi mutasaddilariga tegishli topshiriqlar berildi.
Shavkat Mirziyoyev Xiva shahrida barpo etilayotgan “Farovon” mehmonxonasining qurilish uchastkasida bo‘ldi.
Shaharning Amir Temur ko‘chasida qurilishi rejalashtirilgan ushbu mehmonxona qadimiy me’morchilik uslubida 3 qavatli qilib bunyod etiladi. Unda konferensiya zallari, sport maydonchalari, restoranlar, ko‘ngilochar maskanlar va boshqa imkoniyatlar bo‘ladi. Mehmonxonaga fransiyalik ishbilarmonlar investitsiya kiritadi.
Bu yerga kelishimizdan asosiy maqsadlardan biri Xivani turistik zonaga aylantirish borasidagi sa’y-harakatlarimizni yana bir bor tahlil qilishdan iborat, dedi davlatimiz rahbari. Turizmni rivojlantirish uchun, avvalo, sayyohlarga sharoit yaratish zarur. Shu maqsadda kelgusi uch yilda Xivada 20 ga yaqin mehmonxona quriladi. Bu mehmonxona besh yulduzli, mamlakatimizdagi eng yaxshi mehmonxonalardan biri bo‘ladi.
Prezidentimiz Xiva shahridagi Nurillaboy saroy majmuasini ko‘zdan kechirdi.
Xorazm viloyati tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylarga boy. Ular asrab-avaylanayotgani, sayyohlar uchun zarur sharoitlar yaratilayotgani natijasida viloyatda turizm izchil rivojlanmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur saroy hududi shu yerlik Nurillaboy ismli savdogarga tegishli bo‘lgan. Majmua xorijlik mehmonlarni qabul qiladigan qarorgoh vazifasini o‘tagan. Davlatimiz rahbari joriy yil yanvar oyida viloyatga tashrifi chog‘ida mutasaddilarga mazkur majmuani zamon talablari darajasida rekonstruksiya qilish bo‘yicha topshiriqlar bergan edi. Prezidentimiz tavsiyasiga ko‘ra ishlab chiqilgan loyihaga binoan bu yerda restoran, qabullar uyi, galereya, amfiteatr, hunarmandlar ko‘rgazmasi tashkil qilingan.
Ko‘rgazmalarda Xorazmning XIX-XX asrlarga oid tarixiy fotosuratlari, birinchi o‘zbek

kinooperatori va fotosuratchisi Xudoybergan Devonov olgan suratlar va kinoasarlar namoyish etilmoqda. «Xorazm an’anaviy hunarmandchiligi: tarix va zamonaviylik», «O‘zbekiston zamonaviy san’ati: ohanglar, timsollar, talqinlar» mavzuidagi ko‘rgazmalar mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otmoqda.
Prezidentimiz Xiva shahri me’morchilik obidalari, jumladan, mazkur majmuaning boy tarixi haqida sayyohlar va xorijlik mehmonlarga zamonaviy uslublarga tayangan holda so‘zlab berish, bu bilan ularning mamlakatimiz haqidagi tasavvurlarini yanada boyitish zarurligini ta’kidladi.
Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyati iqtisodiyotiga jalb qilinadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni ko‘paytirish va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini yanada rivojlantirish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.
Xalqaro bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulot turlarini ko‘paytirishda mamlakatimizning turli hududlarida tashkil etilayotgan erkin iqtisodiy zonalarning alohida o‘rni bor.
Prezidentimizning joriy yil 12 yanvardagi “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni bu yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim dasturilamal bo‘lmoqda.
"Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasi uchun 414 gektardan ortiq yer maydoni ajratilgan. Keyinchalik ushbu hudud yanada kengaytiriladi. Yangi erkin iqtisodiy zonada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, to‘qimachilik, poyabzal va charm-galantereya, kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari kabi qator yo‘nalishlarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etiladi.
Ayni paytda erkin iqtisodiy zona chegaralarini o‘rnatish, bojxona posti tashkil qilish, xorijiy va mahalliy investorlarni jalb etish ishlari amalga oshirilmoqda. Tashkil etiladigan zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari uchun zarur imkoniyatlar yaratish maqsadida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi, xususan, gaz, suv va elektr tarmoqlari, kanalizatsiya, avtomobil va temir yo‘llari, aloqa tizimi shakllantirilmoqda.
Hududda ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish bo‘yicha bugungi kunda 25 loyiha ishlab chiqilgan. Natijada 1000 dan ortiq ish o‘rinlari yaratiladi.
«Hazorasp» erkin iqtisodiy zonasi hududda ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, aholini barqaror daromad bilan ta’minlash,

xalqimiz turmush farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi. Prezidentimiz Xorazm viloyatini 2018-2019-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalar bilan tanishdi. Bunda asosiy e’tibor viloyatning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish, aholi bandligini ta’minlash masalalariga qaratilgan. Bo‘sh turgan ob’ektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari negizida yangi tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan loyihalar to‘g‘risida ham ma’lumot taqdim qilindi. Urganch tumanida yiliga 1,2 ming tonna go‘sht va go‘sht mahsulotlari hamda 900 ming dona quyon terisini qayta ishlashga ixtisoslashgan "Xorazm quyon savdo" agrofirmasi tashkil etiladi. Qiymati 1,8 million dollar bo‘lgan mazkur loyiha uch bosqichda amalga oshiriladi va 2018-yil oxirida to‘liq quvvat bilan ishga tushiriladi. Bugun bozorda parhez go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ tomonidan Shovot tumani Buyrachi qishlog‘ida qurilayotgan parrandachilik majmuasi, sut va go‘sht mahsulotlarini qayta ishlash korxonasi ana shu talablar doirasida tashkil etilmoqda. Taqdimotda kam ta’minlangan oilalarning qoramol va parranda boqish, tomorqada sabzavot mahsulotlari yetishtirishdagi ishtirokini faollashtirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar haqida ham ma’lumot berildi.

Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida sayyohlik sohasida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2016-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu borada muhim omil bo‘layotir. Prezidentimizga viloyatga xorijlik va mahalliy sayyohlarni jalb qilish, hududning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish loyihalari taqdim qilindi. Yangi sayyohlik yo‘nalishlari ochish, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha qilinayotgan ishlar, 2018-yilda kelishi kutilayotgan sayyohlar oqimi haqida ma’lumot berildi. Davlatimiz rahbari viloyatda «Xavfsiz turizm» konsepsiyasini amalga oshirish loyihasi bilan ham tanishdi. Unda turizm infratuzilma ob’ektlarini videokuzatuv moslamalari bilan jihozlash, turizm sohasida xizmat ko‘rsatuvchi va sayyohatchilarning xavfsizligini ta’minlovchi davlat va nodavlat ob’ektlarini yagona axborot-kommunikatsiya tizimiga ulash, sayyohlar bo‘yicha ma’lumotlar ba’zasini shakllantirish kabi chora-tadbirlar o‘rin olgan. Xiva shahridagi «Ichan-qal’a» muzey-qo‘riqxonasi hududidagi «Pahlavon Mahmud»

majmuasida ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshirilmoqda.
Prezidentimiz mazkur majmuada olib borilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida ushbu hududda bo‘ldi. Qur’on tilovat qilindi.
Ilgari bu joylar tashlandiq maskanga aylanib qolgan edi. Bu yerlar insonga ruhiy quvvat beradi. Buni kelayotgan ziyoratchilarning ko‘pligidan ham bilsa bo‘ladi, dedi Prezidentimiz.
Mazkur majmuaga kuniga o‘rtacha 400 ga yaqin ziyoratchi keladi. Ta’mirlash va qurilish ishlarini joriy yil oxirida yakuniga yetkazish ko‘zda tutilgan. Havo haroratining mo‘’tadilligini ta’minlovchi zamonaviy tizimlar o‘rnatilgan.
Bu yerda ziyoratchilar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.
Davlatimiz rahbari Sherg‘ozixon madrasasini ko‘zdan kechirdi. Bu maskanda ta’lim olgan allomalar sharafiga tashkil qilingan muzey faoliyati bilan tanishdi. Madrasa binosiga zarar yetkazmagan holda uni qayta ta’mirlash zarurligini qayd etdi.
Viloyat turizmiga taalluqli yana bir yirik loyiha – Urganchdan Xivagacha temir yo‘l barpo etish loyihasidir. Temir yo‘l zamonaviy talablar asosida loyihalashtirilib, ulkan bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi. Bugungi kunda ikki shahar o‘rtasida 33 kilometr temir yo‘l yotqizish, Xiva shahrida zamonaviy vokzal va zarur infratuzilma ob’ektlari barpo etish ishlari jadal olib borilmoqda. Bu boradagi manzilli dastur asosida transport, mehmonxona, pochta, bank, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmatlar tashkil etish rejalashtirilgan.
Kelgusida mazkur temir yo‘l elektrlashtirilib, Toshkentdan Xivagacha tezyurar poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yiladi. Xiva vokzali Ichan-qal’aning Hazorasp darvozasi yonida barpo etilayotgani sayyohlarga qulaylik yaratadi.
Prezidentimiz Xiva shahar vokzalida amalga oshirilayotgan ishlar, istiqboldagi loyihalar bilan tanishdi.
Xorazmning turizm sohasidagi imkoniyatlarini to‘liq ishga solish, sayyohlar uchun barcha sharoitni yaratish, mehmonxonalar va ko‘ngilochar maskanlar qurishga sohaning tajribali vakillarini jalb etish zarurligini ta’kidladi.
Xiva shahrining tarixiy qismini yangilash rejasi taqdimoti o‘tkazildi.
Shavkat Mirziyoyev Ichan-qal’a yaqinida istirohat bog‘i barpo etish, sayyohlar piyoda sayr qiladigan ko‘cha bo‘yida savdo va hunarmandlik shoxobchalari, ikki qavatli uy-joylar qurish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.
Prezidentimiz Xiva tumanidagi «Rahimbergan hoji anbar» ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi dalasida ilg‘or dehqon va fermerlar bilan suhbatlashdi.
Xalq bilan muloqot asosida barcha sohalarda izchil islohotlar amalga oshirilayotgani,

odamlarning davlatga ishonchi yuksalib, mehnatga munosabati o‘zgarayotgani ta’kidlandi. Davlatimiz rahbarining shu yil 9-oktabrdagi «Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni va uni amalga oshirishga qaratilgan qarorning ahamiyati haqida so‘z bordi. Fermer va dehqon xo‘jaliklari, shaxsiy tomorqalardan samarali foydalanish, takroriy ekinlar ekib, qo‘shimcha daromad topishning ahamiyati ta’kidlandi.

Bu islohotlardan asosiy maqsad – mehnatdan manfaatdorlikni, yurtimiz fayzu barakasini oshirishdir. Toki odamlar yerdan samarali foydalanib, qo‘shimcha daromad topsin, mehnatining rohatini ko‘rsin, xalqimiz boy bo‘lsin, dedi davlatimiz rahbari.

Shu yerda baliqchilik, qovunchilik va qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari samaralari namoyish etildi.

Shu kuni Urganch shahrida xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi.

Sessiyada tashkiliy masala ko‘rildi. Prezidentimiz tavsiyasiga ko‘ra, Xorazm viloyati hokimi vazifasini vaqtincha bajarib kelayotgan Ilgizar Sobirov Xorazm viloyati hokimi lavozimiga tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

### 3. Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.

**Xorazm viloyati** — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1925-yil fevraldan 1938-yil yanvargacha Xorazm okrugi. 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan. Umumiy maydoni — 6 300 kvadrat kilometr. Iqlimi kontinental, o‘rtamiyona sovuq qish va quruq issiq yoz bo‘ladi. Viloyat aholisi 1 810 000 kishi, zero, taxminan 80 foizi chet (qishloq) joylarda yashaydi. Viloyat 10 ta ma’muriy tumanga ajratilgan, ma’muriy markazi Urganch. Urganch aholisi 135 000 kishi. Viloyatning boshqa katta shaharlari — Xiva va Pitnak.[1]

Viloyatda 32 ta xorijiy investitsiyali qo‘shma korxona faoliyat yuritadi. Ular byudjeti 1997-yilda 301,7 million AQSh dollarini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyoti paxtani qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatiga asoslangan. Ko‘p sonli paxta tozalash zavodlari, neft qazib oladigan va ipak yigiradigan fabrilar, to‘qimachilik va vinochilik korxonalari va hokazo

bor. Shuningdek qurilish materiallarini ishlab chiqarish taraqqiy etgan. Xiva gilam fabrikasida tayyorlangan gilamlar butun dunyoga mashhur.

Mashinasozlik va toʻqimachilik tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Mahalliy qishloq xoʻjaligining asosiy yoʻnalishi — albatta, paxtadir. Boshoqlilar, ayniqsa, guruch etishtirish soʻnggi bir necha yilda keskin oshdi. Shuningdek, koʻplab bogʻ va uzumzorlar, qovun va qovoq plantatsiyalari bor, kartoshka dalalari butun viloyatni qamrab olgan. Shakar tozalash zavodi qurilishi rejalashtirilmoqda. Viloyat iqtisodiy jihatdan oʻsishga tayyor.

Mazkur sohalarga e’tibor qaratilsa, quyidagilarga erishish ehtimol qilinmoqda:

Paxta, ipak xom ashyosi va boshqa mahalliy zahiralardan foydalanadigan mavjud korxonalarni ta’mirlash, texnik zamonaviylashtirish va kengaytirish. Paxta tolasini qayta ishlash jarayonini yaxshilash va oshirish, ip, gazlama, paxta yigiruv ipi va gilamlar tayyorlash va eksport qilish zarur.

Mavjud oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini yangilash va yangilarini, ayniqsa, mevalar, uzum, sabzavot, qovun va qovoq bilan bogʻliq korxonalarni tashkil etish. Goʻsht-sut mahsulotlariga asoslangan korxonalar kengaytirilishi kerak.

Oʻrab-joylash uskunalarini ishlab chiqarish. Idish materialarining yetishmasligi — eksportga moʻljallangan tomat pastasi, oʻsimlik yogʻi, turli turdagi jem va marmeladlar ishlab chiqarish yoʻlida jiddiy toʻsiq boʻlmoqda.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun viloyatga xorijiy investitsiyalar koʻrinishida qariyb 52,1 million AQSh dollari zarur. Xorazm viloyati temir yoʻllari umumiy uzunligi 130 km dan ortiq. Viloyat Rossiyaning Yevropa qismi va Kavkaz bilan temir yoʻl orqali bogʻlangan. Yoʻllarning umumiy uzunligi — 2 300 km, shoh koʻchalar 2 000 km masofaga yaslangan. Viloyat aviareyslari Xorazmni butun Markaziy Osiyo, shuningdek Rossiya mintaqalarining katta qismi va MDH bilan birlashtiradi. Xiva — xalqaro sayyohlikning katta markazi. 1997 yilda Xiva oʻzining 2500 yilligini nishonladi. Xiva atrofida sayyohlikni yanada rivojlantirish uchun koʻp ishlar qilindi.

Respublikaning shimoli-gʻarbida, Amudaryo quyi oqimining chap sohilida. Shimoliy va shimoli-sharqdan Qoraqalpogʻiston Respublikasi, janubiy va janubi-gʻarbdan Turkmaniston, janubi-sharqdan Buxoro viloyati bilan chegaradosh. Tarkibida 11 qishloq tumani (Bogʻot, Gurlan, Urganch, Xiva, Xonqa, Shovot, Yangiariq, Yangibozor,Qoʻshkoʻpir, Hazorasp va Tuproqqal’a), 3 shahar (Urganch, Xiva, Pitnak), 7 shaharcha (Gurlan, Xonqa, Chalish, Shovot, Yangibozor, Qoʻshkoʻpir, Hazorasp), 100 qishloq fuqarolari yigʻini bor. Markazi — Urganch shahri. Qadimda Xorazmda yashovchi

o‘zbeklar qabilalari bir necha etnik guruhlar bo‘lib, ular Abulg‘oziy Bahodirxon (1643-64) tomonidan 4 guruh (to‘p)ga bo‘lingan. Har bir guruhga 2 qabila (1 guruhga uyg‘ur va nayman, 2 siga qo‘ng‘irot va qiyot, 3siga nukuz va mang‘it, 4siga qang‘li va qipchoqlar) birlashtirilgan. Shuningdek, bir necha qabila qoldiqlari (jaloyir, kenagas, do‘rmon, yuz, ming, shix, katagon) va ayrim etnik guruxlar (alieli, xo‘jaeli va. sayidlar) mavjud bo‘lgan. Amudaryodan suv oladigan kanallar va sug‘oriladigan yerlarning katta qismi shu qabila va urug‘larga taqsimlab berilgan va ular astasekin o‘troqlashib, dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Qolgan guruxlar Xorazmda juda kam bo‘lib (bular qo‘ng‘irotlar va boshqalar) viloyatning Gurlan va Shovot tumanlari, mang‘itlar Gurlan tumani va Shovot tumani (AnbarManaq)da, qiyotlar Shovot tumanida, qipchoqlar Urganch, Shovot va Qo‘shko‘pir tumanlari, do‘rmonlar Urganch va Shovot (Anbar Manaq) tumanlarida, xidireli Urganch va Xivada, tama Xonqa va Bog‘ot tumanlarida joylashgan.

Viloyatda paxta tozalash sanoati rivojlangan (barcha tuman markazlari va Urganch shahrida paxta tozalash zavodlari bor). Gurlan, Bogot, Xonqa, Urganch, Xiva va Hazoraspda to‘qimachilik, pillakashlik, tikuvchilik; Xivada gilam fabrikasi, „Xiva gilami“ aksiyadorlik jamiyati ishlab turibdi. Faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlar 13748 ta. Mikrofirmalar soni 11340 dan ziyod (2004).

Viloyatda 36 qo‘shma korxona va ularning filiallari ishlab turibdi. O‘zbekiston — Turkiya „Bagat Tekstil“, „Xorazm-Nurtop“, „Semurg‘SanTe“, „Xorazm Tekstil“, „Memgilam“; O‘zbekiston — AQSH „Amerozindustriyes“, „Xiva malikasi“, „Nurlayt“, „Rahnamo Hyp“; O‘zbekiston — Germaniya „Unixo“, „O‘zOlmonXotelz“, „Xiva Karpet“; O‘zbekiston- Britaniya „Xiva“; O‘zbekiston-Rossiya „NamunaAgrofud“; O‘zbekiston — Italiya „Meva“; O‘zbekiston-Ukraina „KiyevXorazm“; O‘zbekiston — Xitoy „Aziya Tekstil LTD“; Uzbekistan-Turkmaniston „G‘ayratXumoyun“ va boshqa shular jumlasidandir.

Qishloq xo‘jaligi asosini paxtachilik va g‘allachilik tashkil etadi. Polizchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, pillachilik ham rivojlangan. Shirkat, ijapa va xususiy fermer, dehqon xo‘jaliklari, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko‘rsatadi. Viloyatda jami ekin maydoni 232,1 ming ga, shundan 129,4 ming ga q.h. shirkatlari (69 ming ga yer xususiy fermerlar, 33,7 ming ga yer dehqon xo‘jaliklari)ga tegishli. Umumiy yer fondining 38,4 % haydaladi, 18,2 % yaylov, o‘tloq, 1,3 % bog‘ va tokzor; o‘rmon va changalzorlar 9,6 % ni, tutzorlar 0,9 %ni tashkil etadi.

1991-2003 yillarda kanal va ariqlar rekonstruksiya qilinib, suv yo‘llarining umumiy uzunligi ko‘paydi. Xorazm viloyatidagi sho‘r suvlar viloyat tashqarisiga zaxkashlar orqali chiqarib tashlanadi. Viloyatda irrigatsiya va melioratsiya ishlariga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

Jami ekin maydonining 102,3 ming gektariga paxta, 86 ming gektariga don, 3 ming gektariga kartoshka, 9 ming gektariga sabzavot ekiladi (2003). Don (asosan, bug‘doy, sholi) yetishtiriladigan maydonlar kengaydi. Xorazm viloyati mamlakatda sholi yetishtirish bo‘yicha 1o‘rinda turadi.

Viloyat jamoa va xususiy xo‘jaliklarida 492,3 ming qoramol (shu jumladan, 202,1 ming sigir), 247,1 ming qo‘y va echki, 1437,6 ming parranda boqiladi. 6500 dan ziyod fermer xo‘jaligi chorvachilikka ixtisoslashgan. Urganch, Xiva parrandachilik fabrikalari faoliyat ko‘rsatadi. Xorazm viloyatida Paxtachilik ilmiy tadqiqot stansiyasining paxtachilikbedachilik zonal kompleks tajriba styasi (Urganch shahrida), Qoraqum ilmiy tadqiqot stansiyasi, paxta navlarini tajriba qilish uchastkasi (Xiva tumanida), mevali daraxtzorlar ko‘chatzori, o‘rmon ko‘chatzori (Urganch tumanida) va boshqa bor.

Xorazm viloyati orqali Toshkent- Moskva, Dushanba-Moskva temir yo‘l o‘tgan, Urganch — Toshkent yo‘nalishida poyezdlar qatnaydi. Transport yo‘li uzunligi 128 km (2004). Amudaryo ustiga qurilgan Hazorasp temir yo‘l ko‘prigi ishga tushirilib (Hazorasp yaqinida, 2004), Hazorasp — Miskin — Toshkent temir yo‘l masofasi qisqardi. Ko‘prik har sutkada 14 poyezd, 20 ming avtomobil o‘tkazish imkoniyatiga ega. Ko‘prik strategik ahamiyatga ega. Viloyatdagi qattiq qoplamali avtomobil yo‘llarining uz. 2750 km (2004). Xiva-Urganch yo‘nalishida trolleybus qatnovi (1997 yildan) yo‘lga qo‘yilgan. Urganch, Xiva shaharlaridan Toshkent, Samarkand, Navoiy, Buxoro, Nukus va boshqa shaharlarga avtobuslar katnaydi. Urganch sh. xalkaro va mahalliy yo‘nalishlar aeroportlaridan xorijiy davlatlar (shu jumladan, Parij, Tokio, Munhen, Tel-Aviv, Moskva, Simferopol va boshqalar) shuningdek, Toshkent, Nukus va boshqa shaharlar bilan muntazam aviatsiya aloqasi o‘rnatilgan. Viloyat orqali O‘rta Osiyo — Markaz, Buxoro — Ural, Turkmaniston — Rossiya xalqaro gaz magistral quvurlari o‘tkazilgan.

2003/04 o‘quv yilida 537 umumiy ta’lim maktabi (shu jumladan, 47 ixtisoslashgan maktab, gimnaziya, instituternat maktabi) bo‘lib, 335,4 mingga yaqin o‘quvchi ta’lim oldi. 1997 yilda Xorazm tasviriy va amaliy san’ati litseyi ochildi. Viloyatdagi 57 kasb-hunar kolleji va o‘rta maxsus bilim yurtlarida 34 mingdan ziyod talaba o‘qiydi (2004).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Xorazm Mamun akademiyasi qayta tiklandi, pedagog kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan viloyat ped. instituti (1935 — 1992) AlXorazmiy nomidagi Urganch universitetitl aylantirildi. Urganch davlat universiteti, Toshkent davlat 1tibbiyot institutning Urganch filialida 7460 talaba ta’lim oladi (2004). O‘zbekiston FA arxeologiya regional bo‘limi, paxtachilik, Qoraqum ilmiy tadqiqot stansiyalari faoliyat ko‘rsatadi. Xorazm viloyatida Xiva davlat „Ichan sal’a“ tarixiyme’morlik muzeyqo‘rikxonasi va uning filiallari, 424 jamoat kutubxonasi (5 mln. asar), 302 klub muassasasi, madaniyat uylari va madaniyat saroylari, 10 ga yaqin madaniyat va istirohat bog‘i, Xorazmiy, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Avesto yodgorlik bog‘majmualari, „Orazibon“, „Avazxon“, „Doston“ folkloretnofafik xalq dastalari, "Muborak, „Yulduz“, „Navbahor“, „Xiva naqshlari“ ashula va raqs dastalari, milliy dorbozlar guruhi, ko‘plab badiiy havaskorlik jamoalari bor. Ogahiy nomidagi viloyat musiqali drama va komediya teatri, viloyat qo‘g‘irchoq teatri (Xiva shahrida) ishlab turibdi.

Xorazm musiqiy hayoti Xorazm vohasida qadimgidan yashab kelayotgan xalqlarning turmush tarzida muhim o‘rin egallagan. Qadimgi Xorazm hududidagi Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a, Qirqqizqal’a kabi istehkomlardan topilgan va asl nomlari saqlanmagan torli (dutorsimon, changkanora, arfaga o‘xshash), damli (nay, mizmar), zarbli (daf va nog‘oraga o‘xshash) cholg‘u sozlarni ushlagan ayol va erkaklar tasvirlari tushirilgan tangalar va ganch haykalchalar bu voha musiqa san’atining ildizlari juda qad. ekanligidan dalolat beradi. 8-asr boshidagi arablar istilosi oqibatida Qadimgi Xorazm madaniyati va san’ati xarobalikka yuz tutib, islom madaniyatining yangi an’analari taraqqiy eta boshladi. Xorazmiy, Beruniy, Abu Abdullo ibn Yusuf Xorazmiy (10-asr) va boshqa olimlarning qomusiy asarlarini musiqaga bag‘ishlangan qismlarida musiqani hisob ilmining tarkibiy bo‘lagi va uni inson ruhiyatiga ta’siri ta’riflanadi. „Mafotix ululum“ asarida o‘sha davrdagi mavjud cholg‘ular: ud, changkanora, qanun, tanbur, mizmar, arg‘anun, nay, surnaylarning nomlari keltirilgan. O‘sha davrda Gurganjda cholg‘u asboblar yasovchi ustalar mahallasi bo‘lgan.

Muhammad Xorazmshoh davrida (1200-21) mashhur sozanda ustod Mahmud, Yusufbek Dutoriy kabi sozandalar edda tanilgan. 14-asrda yashagan „Muhabbatnoma“ dostonining muallifi Xorazmiy, Abdurahim Hofiz Xorazmiy, ayniqsa, Alisher Navoiyning „Sab’ai sayyor“ dostonida va boshqa klassik shoirlarning g‘azallarida o‘sha davr maqomlari, sozandalari va cholg‘ulari yuksak did bilan ta’riflanadi. Shuningdek, san’atkorlar homiysi

Sulton Vayis (Uvays), baxshilar piri Oshiq Oydinlar ham shu davrda yashaganlar. Muhammad Rahimxon (1806-25) davriga kelib Niyozjonxo‘ja va uning shogirdlari Mahdumjon qozi, Muhammadjon Sandiqchi, Abdusattor maxram, uning shogirdi Xudoybergan kosib va boshqa tanbur maqomlarini rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Komil Xorazmiy Xorazm maqomlarini o‘zi ixtiro kdlgan „ Tanbur chizig‘i“ asosida qog‘ozga tushirishni boshlab bergan yetuk musiqashunoslardan hisoblanadi. 1883 yilda dastlab Xorazm maqomlari tarkibidagi „Rost“ maqomi, keyin, bu ishni davom qildirib o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzo Xorazm maqomlaridan Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Rostlarni qog‘ozga tushirgan. Bu davrda Otash baxshi, Nurjon baxshi va, ayniqsa, Eshvoy baxshi hamda uning shogirdi Muhammadniyoz Gurji kabi baxshilar nom qozonganlar.

Nomlari noma’lum bo‘lgan ustoz sozandalar va baxshilar tomonidan Xorazm dutor yo‘llari jamlanib 11 ta dutor maqomi shakllangan. Mashhur sozanda va nafis ta’b egasi Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) xonlik davri (1864-1910) ga kelib Xorazmda musika san’ati yanada rivoj topdi. Feruz saroyida 40 dan ortiq shoir, 20 ga yakin maqomchi sozandalarni to‘plab mushoira va maqom kechalarini o‘tkazib turardi. Saroy maqomchilari orasida Paxlavon Niyoz Mirzaboshi Komil, Muhammad Yoqub Devon Xarrot, Yoqub fozachi, Qalandar Do‘nmas va boshqa maqomlarning cholg‘u va aytim qismlarini boyitganlar. Feruzning o‘zi ham maqom cholg‘u qismlariga 14 ga yaqin kuy bastalagan. Bu davrda 40 dan ortiq baxshi, 32 sozanda qo‘shlari (sozandalarning jamlangan dastasi) faoliyat ko‘rsatgan. Ular sayil va bayramlarda xonning ko‘rigidan o‘tar va elyurtning tomoshasini o‘tkazishga fatvo olar edilar. Baxshilar ichida mashhurlari: Rizo baxshi, Ernazar baxshi, Suyav baxshi; sozanda qo‘shlaridan elga tanilgan namoyandalardan Shomurod surnaychi va boshqa bo‘lgan.

1910 yil Xiva xonligi taxtiga Asfandiyorxon o‘tirganidan keyin saroy shoir va sozandalari tarqab ketdi.

Xorazmda sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilgach, maqom va musiqa rivoji biroz to‘xtadi. 1923 yilda Xiva shahrida musiqa maktabi tashkil qilinib, skripka, klarnet, tanbur kabi cholg‘u asboblarda ijro etish bo‘yicha sinflar ochiddi. 1925 yilda Moskva shahrida Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzodalarning „Xorazm musikiy tarixchasi“ kitobi chop etiddi. Bu davrda sozandalardan Safo Ollaberganov (Mug‘anniy), Qurbon sozchi Ismoilov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Qurbonnazar Abdullayev (Bola baxshi), Matyusuf Xarratov (Chokar), Otajon Abdullayev, Hojixon Boltayev; ayol xalfalardan

Onajon Sobirova (Anash maxram), Onabibi qori Otajonova (Ojiza) va boshqa mashhur bo‘lishgan. Ularning izdoshlari va shogirdlari ichida xonandalardan Komiljon Otaniyozov, Vahobjon Fayozov, Kommuna Ismoilova, Sultonposhsha Rahimova, Matyoqub Rahimov, Quvondiq Iskandarov, Jumanazar Bekchonov, Olmaxon Hayitova, Ro‘zmat Jumaniyozov, Ortiq Otajonov, Otajon Xudoyshukurov, Bobomurod Hamdamov; sozandalardan dutorchi N. Boltayev, qo‘shnaychi Q. Bobojonov, torchi H. Bobojonov, g‘ijjakchi O. Hasanov; bastakorlar R. Ollaberganov, Sh. Ramazonov, Sh. Solayev, A. Otajonov, M. Yusupov, S. Hayitboyev, U. Musayev, R. Abdullayev, Q. Polvonov, M. Otajonov, R. Bekchonov, Sh. Fayzullayev, Q. Raximov; musiqashunos O. Matyoqubov va boshqa ma’lum. 1958-60 yillar orasida M. Yusupov tomonidan to‘plab notaga olingan „O‘zbek xalq musiqasi“ (6,7 va 9 jildlar) chop etildi. 1980-87 yillarda Xorazm maqomlarining yangi to‘ldirilgan variantlari nashrdan chiqsi.

Xorazm viloyatida 16 ta bolalar musiqa maktabi (shulardan 3 tasi san’at maktabi), musiqa bilim yurti, filarmoniya, viloyat teleradiokompaniyasi qoshidagi maqomchilar ansambli faoliyat ko‘rsatadi.

Xorazm viloyatidan Devonai Hisobiy, Niyozjonxo‘ja, Niyoziy, Xudoybergan muhrkan, Komil Xorazmiy, Matyoqub Xarratov, M. Xudoyberganov, Safo Mug‘anniy, X. Devonov kabi yirik san’atkorlar; Bola Baxshi, Q. Iskandarov, R. Jumaniyozov, F. Davletov singari O‘zbekiston xalq dostonchi va hofizlari; Matyusuf Xarratov, M. Yusupov, R. Ollaberganov, Sh. Ramazonov, L. Abdullayeva, I. Niyozmatov, R. Abdullayev, O. Matyokubov, S. Davletov, U. Musayev, O. Ollaberganov, Q. Rahimov kabi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arboblari va kompozitorlar; Sheroziy (Yokubov), K. Otaniyozov, H. Boltayev, K. Raximov, M. Raximov, B. Rahimova, S. Devonov, S. Rahimova, G. Yoqubova, M. Ixtiyorova, O. Hayitova, G. Matyoqubova, M. Bobojonov, O. Otajonov, G. Raximova singari O‘zbekiston xalq artistlari; Norbek baxshi, Qalandar baxshi kabi O‘zbekiston xalq baxshilari yetishib chiqqanlar.

Xorazm viloyatida xalq amaliy san’ati va hunarmandchilik, ayniqsa, Xiva, Hazorasp va Xonqa shaharlarida kadimdan taraqqiy etgan. Yog‘och o‘ymakorligi, zargarlik, kandakorlik, gilamchilik, kulolchilik va boshqa rivojlangan. Xiva gilamchilik fabrikasi, „Xiva sopoli“ aksiyadorlik jamiyati va boshqa ishlab turibdi. O‘zbekiston xalq rassomi A. Boltayev, xalq naqqoshlari va yog‘och o‘ymakor ustalari O. Polvonov, R. Masharipov, S. Bog‘bekov, mashhur kulol, koshinkor usta R. Matchonov va boshqalarning nomlari mashhur.

## 17 - mavzu. Farg‘ona turistik mintaqasi

1.Farg‘ona turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.

2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.

3.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati va turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.

1.Farg‘ona turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.

### 1.Farg‘ona turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.

Qadimdan yuksak madaniyati va ilm-fani, me'moriy obidalari bilan ko'pchilikni hayratga solib kelgan yurtimiz istiqlol sharofati bilan zamonaviy sayyohlik markaziga aylanmoqda. Mamlakatimiz hududida turli davr va sivilizatsiyaga daxldor to'rt mingdan ortiq qadimiy me'morlik va san'at yodgorliklari mavjud. Ulardan 140 tasi YuNESKO tomonidan muhofazaga olingan tarixiy ob'yektlar ro'yxatiga kiritilgan. Aynan boy madaniy-tarixiy merosimiz, mangulikka daxldor ko'hna shaharlarimizdagi noyob me'moriy obidalar O'zbekistonning xalqaro sayyohlik bozoridagi yuksak salohiyatidan dalolat beradi. Farg'ona viloyatida ham mazkur yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Farg'ona deganda, avvalambor, O'zbekistonimizning gavhari bo'lgan go'zal diyor ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Istiqlol yillarida bu maskan yanada chiroy ochdi. Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi allomalarimizning hamda Marg'ilon shahrining yubileylari jahon miqyosida nishonlanishi xorijliklarning bu zaminga bo'lgan qiziqishini yanada orttirib, sayyohlik salohiyati yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda Farg'onaga tashrif buyurayotgan mehmonlar uchun Marg'ilon, Qo'qon va Farg'ona shaharlari hamda Quva tumani bo'ylab sayyohlik yo'nalishlari tashkil qilinmoqda. Yangi sayyohlik yo'nalishlari – Marg'ilonda Burhoniddin Marg'inoniy, Said Ahmad Eshon majmualari, Pirsiddiq Hazrat chillaxonasi va maqbarasi, Uvaysiy uy-muzeyi, hunarmandlar ustaxonalari, Qo'qon shahridagi O'rda saroyi va unda joylashgan O'lkani o'rganish muzeyi, Jom'e, Kamolqozi masjidlari, Norbo'tabiy majmuasi, Dahmai Shohon va Madalixon tarixiy yodgorliklari, Farg'ona shahri hamda Quvadagi Ahmad Farg'oniy majmualari bo'ylab uyushtirilayotgan ekskursiyalar sayyohlarda katta taassurot qoldirmoqda. Milliy hunarmandlik mahsulotlari ko'rgazmasining tashkil etilishi ham yangi imkoniyatlarga yo'l ochmoqda.

Buyuk astronom, matematik va geograf Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy 797-865-yillarda yashab ijod qilgan. Yevropada Al-Fraganus nomi bilan shuhrat qozongan. Olim astronomiya, matematika va geografiya fanlariga oid ko'plab ilmiy asarlar

yozib qoldirgan. U Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qilgan hamda 832-833-yillarda Suriya shimolidagi Sinjor dashtida Tadmur va ar-Raqqa oralig'ida er meridiani bir darajasining uzunligini aniqlashda qatnashgan. Farg'oniy "Miqyosi Nil”, ya'ni suv sathini o'lchaydigan asbob yaratgan.

Bizning davrimizgacha Ahmad Farg'oniyning sakkizta asari etib kelgan, ular orasida "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” dunyo olimlari tomonidan hozir ham keng o'rganilmoqda. Olimning "Astronomiya asoslari” asari o'n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima qilinib, keyinchalik Italiya, Germaniya, Frantsiya, Gollandiya va AQSh kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning ahamiyatidan dalolat beradi. Allomaning Yerning sharsimon ekani borasidagi qarashlarini oradan 800 yil o'tib isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb "Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oniy hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim”, deb yozgan. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan. Misrda, Nil daryosining Roda orolida 2007-yili Ahmad Farg'oniyga haykal o'rnatilgani barchamizga g'urur-iftixor bag'ishladi. Bularning barchasi dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizga bo'lgan yuksak ehtiromning amaliy ifodasidir. YuNESKO qaroriga muvofiq 1998-yilda Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan alloma tug'ilib o'sgan Quva shahri va viloyat markazida qomusiy olimga haykal o'rnatildi.

Viloyatda bugungi kunda 15 sayyohlik firmasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, yaqin kunlarda yana ikkita ana shunday yangi firma ish boshlash arafasida turibdi. Rishton kulolchilik an'analariga sayyohlarning qiziqishi yildan-yilga ortmoqda. Bu erda tadbirkor G'anisher Nazirov tashabbusi bilan sayyohlarni qabul qilish va xizmat ko'rsatish maqsadida kulolchilik milliy an'analarini, tarixini o'zida mujassamlashtirgan muzey, mehmonxona majmuasi bunyod etilmoqda.

Viloyatimizda chet ellik sayyohlarni jalb etish, ularga zamonaviy xizmat ko'rsatish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. 2015-yilga qadar turizm sohasini yanada rivojlantirish, xususan, sayyohlik xizmatlari ko'lamini kengaytirishga oid ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida viloyatda turizm litsenziyasiga ega bo'lgan 12 mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda. Joriy yilda ularning safiga "Ziyorat”, "Do'stlik”, "Ezgulik Orastasi” va "Farg'ona” mehmonxonalari ham qo'shildi.

Yurtimizning nafaqat madaniyati, balki totli, sarxil mevalari, o'ziga xos tabiat manzarasi ham ko'pchilikning e'tiborini tortadi. Dastur asosida Toshloq tumanida "Akmal – 75” fermer xo'jaligi ko'li, Beshariq tumanidagi "Shodoqoziq” va "Sarikalish” fermer xo'jaliklari ko'li qayta ta'mirlandi. Sayyohlar baliq ovi orqali hordiq chiqarishi uchun barcha qulayliklar yaratildi. Qo'qon o'rmonchilik xo'jaligi hududida esa tabiat bilan yaqindan tanishish, ona zaminning bebaho ne'matlaridan bahramand bo'lish imkoniyati yaratilgan.

Ayni kunlarda viloyatning sayyohlik salohiyatini yanada rivojlantirish borasida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Jumladan, xorijiy turistik tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari vakillari uchun "Mega-info-tur” tanishtiruv tadbirlari tashkil etilmoqda.

O'zbekiston o'zining betakror va xushmanzara tabiati, qadimiy va boy madaniy merosi bilan xorijlik sayyohlarni o'ziga maftun etib kelmoqda. Bu yurtimizda ekoturizmni yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi. Farg'ona viloyatida ham ekoturizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sayyohlarning tabiat qo'ynida maroqli hordiq chiqarishi, go'zallikdan bahra olishi, nabotot va hayvonot olamining nodir namunalari bilan tanishishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

– Go'zal va betakror tabiat, noyob o'simlik va hayvonot dunyosi, diqqatga sazovor tarixiy-madaniy obidalar ekoturizmni jadal rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. Ekoturizmni rivojlantirishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, tabiiy va tarixiy, me'moriy va arxeologik yodgorliklarni hisobga olish, ularni muhofaza qilish alohida ahamiyatga ega. Bu borada viloyatda ishlab chiqilgan maxsus rejaga ko'ra, 100 dan ortiq hudud va ob'ekt tanlab olinib, cho'l, adir va tog' mintaqalarining o'ziga xos geohududlari o'rganildi. "Sirdaryo daryosi to'qayzorlari” sayyohlik yo'nalishi shulardan biridir. Daryoning chap sohilidagi 58 kilometrga cho'zilgan to'qayzorlarni o'z ichiga olgan mazkur yo'nalish rang-barang o'simlik va hayvonot dunyosi bilan ajralib turadi. O'z navbatida, bu hududda muhofaza qilinadigan o'rmonlar, Sariqamish ovchilik, Beshariq va Dang'ara baliqchilik xo'jaliklari, Gumxona, Qayroqqum kabi tabiat yodgorliklari mavjud. Sirdaryo sohili va uning orollaridagi o'rmonlar, tabiiy o'rmonlarni qayta tiklash, dorivor o'simliklarni ko'paytirish jarayonlari bilan yaqindan tanishish xorijlik sayyohlarga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Hududda asalarichilikni rivojlantirish, o'rmonlar va suv havzalaridagi hayvonot dunyosini asrash, noyob baliq turlarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, qirg'ovul, to'ng'iz, Buxoro bug'usi, qamish mushugi, olaqo'zon, bo'rsiq, bahra baliq, kurak burun, mo'yli baliqlarni ko'paytirish uchun tabiiy sharoitlar yaratildi. "Markaziy Farg'ona” tabiat yodgorligining umumiy maydoni 142,5 gektar bo'lib, uning 122 gektarini o'rmonlar bilan qoplangan do'ng-marza qumlar, 14

gektarini qamish, oqbosh, yulg'un o'sadigan pastqamliklar, 6,5 gektarini sho'rxok yerlar egallagan. Hududda "Qizil kitob"ga kiritilgan Farg'ona chipor kaltakesagi, Shtraux qurbaqaboshi, echkiemar, tustovuq, to'ng'iz, o'qilon va ko'rmailonlar muhofazaga olingan. Bu erdagi boy o'simlik va hayvonot olamidan ilmiy, o'quv-ma'rifiy, estetik va turizm maqsadlarida unumli foydalanish mumkin. Viloyatning tabiiy suv havzalari bilan bog'liq yodgorliklari, adir geokomplekslaridagi ekoturistik ob'yekt va hududlar ham o'ziga xos. O'zbekiston tumanida 21 buloq, Uchko'prik va Rishton tumanlarida 2 buloq, Oltiariq tumanida asriy qayrag'och va sharq chinori, Quva tumanidagi Akbarobod qumlari singari sayyohlik ob'yektlari davlat muhofazasiga olingan. Beshariq, O'zbekiston, Rishton, Oltiariq, Quva va Farg'ona tumanlaridagi adir va tekisliklarda bog'lar barpo etildi. Zilha qumlari, Sariqo'rg'on tepaligi, Kitkontepa, Saurbuloq, Yomonjar jarlari, qadimiy pistazorlar, Oqbilol g'ori kabi tabiat yodgorliklari ekoturistik ob'ektlar ro'yxatini yanada kengaytiradi. Ekoturizm nafaqat daromad manbai, balki aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini yuksaltirish, asl tabiat ne'matlarini asrash va muhofaza qilishda eng samarali vositadir. Viloyat hokimligi tomonidan hududda turizm sohasini yanada rivojlantirish va turizm xizmatlari eksportini oshirishni ta'minlashga qaratilgan 2016-2017-yillarga mo'ljallangan tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur hujjat ijrosi doirasida ekoturizm rivojini xalqaro tajribalar asosida yangi bosqichga ko'tarish ishlari izchil olib borilayotir.

## 2. Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.

**FARFONA TURIZM RAYONI** ruspublikaning Namangan, Andijon va Farg’ona viloyatlarini hamrab oluvchi **sharqiy qismida** joylashgan. Tabiiy-iqlimiy sharoitlarning turli-tumanligi ko’plab turizm ob’ektlari bilan birgalikda bu mintaqadan o’quv-sog’lomlashtirish turizmini rivojlantirish maqsadida foydalanish imkoniyatini belgilab beradi. Arxeologik va me’morchilik yodgorliklar, sanoat komplekslari va xalq hunarmandchiligi Farg’ona hududida turizm kompleksini shakllantiruvchi asosiy turizm ob’ektlaridir. Tumanda Sux daryosi yoqasidagi Sariqo’rg’onda, Oydinko’l ko’lida, Andijonning janubiy-sharqida “Bog’ishamol”, Karkidon suv omborida tabiiy dam olish hududlari tashkil qilingan. G’oyatda qulay tabiiy imkoniyatlar, daryolar, ko’llar va suv omborlarining ko’pligi tog’-iqlim sharoitlari bilan birgalikda tumanni katta maydondagi yagona turizm hududiga aylantiradi.Farg’ona tumanidan turizm maqsadlarida foydalanishga temir va avtomobil yo’llarining keng tarmog’i mavjudligi yana bir qulaylik tug’diradi va bu tumanning hamma joyida turizm va dam olish bazalarini joylashtirishga imkon beradi.

Farg'ona vodiysini go'zal tabiati, erosti boyliklari, xushhavo iqlimi tufayli Markaziy Osiyoning gavhari, deb ataydilar. Atroflari Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog'lari bilan o'ralgan vodiy g'arb tomondagina Sirdaryoga o'z darvozasini ochadi. Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida hamisha muhim rol o'ynagan. Alqissa, Farg'ona davlati – Davan to'g'risidagi ma'lumotlar qadimiy xitoy solnomalarida eramizning II asri oxiridan boshlab
keltiriladi, O'rta asrlarda esa u Movarounnahrning etakchi o'lkalaridan biri hisoblangan. XI asrda Marg'ilon, savdogarlar Buyuk ipak yo'li bo'ylab Misr, Yunoniston, Bag'dod, Xuroson va Qashqarga olib ketgan ipak matolari bilan dong taratgan Farg'ona vohasidagi eng yirik shahar bo'lgan. Bugun ham Marg'ilonni O'zbekistonning ipakchilik poytaxti, deb atash mumkin. Shahar hunarmandlari eski usulda bo'yalgan ipakdan xonaki atlas to'qib, bozorga chiqaradilar.
Farg'onadan 50 kilometr narida uncha katta bo'lmagan Rishton shahri joylashgan. U, kulolchilik rivojlangan shahar sifatida mashhurdir. Bu hunar bilan shahar ahli IX asrdan boshlab shug'ullanib keladi. Mana, 1100 yildirki, ustalar mahalliy qizil gildan sopol buyumlarni yasash va ularga tabiiy ma'danli bo'yoqlar hamda tog' giyohlari kulidan tayyorlanadigan sir yordamida bezash sirlarini avloddan avlodga o'rgatib kelayotirlar. Betkaror feruza va yorqin ko'k rangli ishqor yordamida gul solingan lagan, shokosa, ko'za, sut saqlanadigan idishlar rishtonlik usta kulollarga ko'plab xalqaro ko'rgazmalarda shuhrat keltirgan. Rishton kulollari yasagan sopol buyumlar dunyodagi ko'plab muzeylar va xususiy kollektsiyalardan o'rin olgan.
Qo'qon uzoq vaqt Farg'ona vodiysining asosiy shahri, deb hisoblangan. XVIII-XIX asrlarda shahar hozirgi O'zbekiston hududining kattagina qismi hamda qo'shni mamlakatlarga o'z hukmini o'tkazgan kuchli davlat - Qo'qon xonligining poytaxti bo'lgan. Ayni paytda Qo'qon yirik din markazi ham hisoblangan. Shahar gullab-yashnagan davrda, uning hududida o'ttiz beshta madrasa va yuzta masjid faoliyat ko'rsatgan. Afsuski, ularning ko'pi vaqt, er qimirlash va sovet hokimiyati tomonidan barbod qilingan.
O'rta asrlarda xonlik hududida X asrga oid arab manbalarida qayd etilgan Qubo shahri joylashgan. Shahar uchta qism: qal'a, minorali devorlar bilan o'ralgan darvozali shahriston va rabotdan iborat bo'lgan.

Mamlakatimiz har bir hududi nafaqat tabiiy iqlimi, balki boy tarixiy merosi, o’ziga xos udumlari, turmush tarzi, hatto turfa an’analari bilan bir-birini aslo takrorlamaydi. Shu

bois ham bu yurtni ko'rmoq, uning havosidan nafas olmoq istagida dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurayotgan sayyohlar soni yil sayin ko'paymoqda. Xususan, turizm sohasidagi yuksak salohiyat, zamonaviy infratuzilmaga ega Andijon viloyatidan mahalliy va xorijiy mehmonlarning qadami uzilmaydi. Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan mazkur viloyat tarkibida 14 tuman va 11 shahar bo'lib, umumiy maydoni 4,2 ming km. kvadratdan iborat. Havosi mh'tadil. Yozda issiq, qishda sovuq. Ayni shu jihat yil davomida sayyohlik xizmatlarini taklif etish, sohaning yangi-yangi yo'nalishlarini o'zlashtirish imkonini beradi. Hududda 370 dan ziyod madaniy meros ob'ektlari mavjud. Ularning har biri bamisoli o'tmishning o'qilmagan sahifasi. "Jom'e" va "Ahmadbek hoji mehmonxonasi" majmualari, "Qutayiba ibn Muslim", "Shirmonbuloq", "Imom ota" ziyoratgohlari Andijon tarixidan so'zlovchi maskanlar sifatida ko'pchilikning e'tiborini tortayotgan bo'lsa, "Mingtepa" yodgorligi, "Xontoq" va "Fozilmon ota" dam olish maskanlari don-i dunyoga ketgan. Bu erga hatto Frantsiya, Yaponiya, Xitoy kabi ko'plab xorijiy davlatlardan mutaxassislar tashrif buyurib, izlanishlar olib borishmoqda. Andijonning Eski shahar qismidagi hunarmandlar rastasi esa kechayu kunduz mehmonlar bilan gavjum. Sababi, hunarmandlar shu erda istiqomat qilib, otameros kasb-korlarini yuritadilar. Bu esa sayyohlarga milliy hunarmandchilik mahsulotlari yaratilish jarayoniga yaqindan guvoh bo'lish, ayni chog'da uning ishtirokchisiga aylanish imkonini beradi. Sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida viloyatda zamonaviy mehmonxonalar bunyod etilmoqda. Birgina Andijon shahrida "Bog'ishamol", "Andijon", "Andijon elita", "Karvonsaroy", "Afrosiyob", "Hamkor" kabi 20 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatayapti.

— Davlatimiz rahbarining sohaga oid Farmon va qarorlarida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, viloyatda turizm va turistik xizmatlar eksporti hajmini oshirishning manzilli chora-tadbirlar loyihasi ishlab chiqildi, — deydi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining Andijon viloyati bo'yicha vakolatli vakili Adhamjon Usmonov. — Unga muvofiq, sayyohlik ob'ektlarini rekonstruktsiya qilish va obodonlashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, turizm va sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi ishlar ko'lami kun sayin ortmoqda. Qolaversa, sayyohlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida avtomobillarni ijaraga berish, dunyo bo'yicha aviabiletlar sotib olish xizmatlari yo'lga qo'yildi. Sayyohlarni kengroq jalb etish, milliy urf-odat va ana'analarimizni ularga yaqindan tanishtirishda "Palov sayli" kabi

tadbirlarning muntazam o'tkazilayotgani, zamonaviy infrutuzilma ob'ektlari bilan birga, choyxonalar bunyod etilayotgani qo'l kelmoqda. Masalan, "Mirpo'stin ota" ziyoratgohi yonida 1000 o'rinli choyxona foydalanishga topshirilishi ham viloyat turistik salohiyati oshishiga xizmat qilayapti. Andijonga tashrif buyurgan kishi borki, dastlab muzeylar faoliyati bilan tanishadi. Zero, mazkur madaniyat maskani o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ko'prikdir. Bugungi kunda viloyatda 5 ta muzey faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular orasidan, ayniqsa, O'lkashunoslik muzeyiga tashrif buyuruvchilar soni ko'p. 1934 yilda tashkil etilgan ushbu muzeyda 30 mingdan ortiq noyob eksponatlar saylanayotgan bo'lib, ular Farg'ona vodiysi xalqlari tarixi, turmush tarzidan so'zlaydi. Vodiy tabiati, tabiiy boyliklariga oid eksponatlar, tarixiy hujjat va adabiyotlar, shu jumladan, 300 ga yaqin tasviriy san'at asarlari, 1000 dan ortiq amaliy san'at buyumlari mehmonlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Hozirgi paytda muzeyning Asaka, Shahrixon, Qo'rg'ontepa, Ulug'nor, Jalaquduq kabi tumanlarida filiallari ham ishlab turibdi. O'lkashunoslik muzeyiga tutash hududda joylashgan Jom'e madrasasi tarixiy obidalardan yana biri bo'lib, u 1883-1890 yillarda bunyod etilgan. Masjid, madrasa va minoradan iborat majmuaning uzunligi 123 metr. Madrasa sharqqa qaratib qurilgan. Maydon o'rtasida peshtoq qad ko'targan. Uning ikki yonida bezakdor minora bor. Burchaklarida gumbazli darsxonalar, ularning o'rtasida ikki qavatli hujralar joylashgan.. Majmuaning g'arbiy qismida masjid bor. Uning tarhi to'g'ri burchakli xonaqoh va uch tomoni qator ustunli, shifti bezakdor ayvondan iborat. Minora balandligi 32 metr. Andijon viloyati hokimligining tashabbusi bilan ayni paytda bu erda olib borilayotgan ta'mirlash ishlari majmuaga yangi hayot bag'ishlamoqda. Zero, u kelgusida viloyat madaniy-ma'rifiy tadbirlari o'tkaziladigan asosiy maskanga aylanadi.

Hududda turizmni rivojlantirishda maqsadida tarixiy obidalar qayta ta'mirlanib, muqaddas qadamjolar obod qilinmoqda. Xususan, tarixi bevosita viloyat o'tmishi, qadriyati, aholi turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan "Devonaboy" masjidi tanib bo'lmas darajada o'zgarib, yangicha qiyofa kasb etmoqda. Uning naqshinkor minoralari, zamonaviy va Sharq me'morchiligi uyg'unlashtirilgan loyiha asosida qad rostlagan hashamatli binosi, biri-biridan mahobatli to'rtta darvoza, bitta xonaqo, ko'shk va ayvonlari, muhtasham devorlari shahar husniga hilol kabi yarashib turibdi. Xorijlik sayyohlarni o'ziga jalb etgan maskanlardan yana biri Marhamat tumanidagi Mingtepa arxeologik manzilidir. U ikki yarim ming yillik tarixga ega bo'lib, YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Manbalarda keltirilishicha, u Mingtepa Davan (Farg'ona)

davlatining poytaxti bo'lgan. Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi va O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamkorligida besh yildan buyon olib borilayotgan izlanishlar natijasida bu erda 2-2,5 metr tuproq ostida katta shahar xarobalari topildi. Mudofaa devorlari, ichki va tashqi yo'llar, qal'a o'rni, aholi turmush tarzidan hikoya qiluvchi turli ashyoviy dalillar tarixning ochilmagan sahifasidan hikoya qilmoqda. — Mudofaa devorlarining o'ziga xos uslubda pishirilgan loydan bunyod etilganligi o'sha davr me'morchilik san'atidan ogoh etadi, — deydi qadimshunos professor Boqijon Matboboev. — Necha ming yillar o'tgan bo'lsa-da, devorlar yaxshi holatda saqlangani, mustahkam sopol buyumlar, qurilish ashyolari topilgani o'sha davrda hunarmandchilik rivojlanganidan dalolat beradi.

Ayni paytda O'zbekiston — Xitoy qo'shma xalqaro arxeologik kompleks ekspeditsiyasi Farg'ona vodiysidagi eng katta qadimshunoslik yodgorligi – Mingtepa shahri xarobasida qidiruv ishlari olib bormoqda. Qazishmalarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti (Samarqand), Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti (Pekin), Bobur xalqaro jamoat fondi mutaxassis olimlari hamda Andijon davlat universiteti tarix fakulteti talabalari, professor-o'qituvchilari faol qatnashmoqdalar. Qazishma ishlari Mingtepa Buyuk Ipak yo'li boshlangan miloddan avvalgi II asrdan milodning V-VI asrlarigacha karvonlar qo'nim topgan, rivojlangan azim shahar bo'lganidan dalolat bermoqda. Asrlar hikmati va sirlarini yashirgan ushbu maskanda arxeologik izlanishlar davom etmoqda. **Ham ziyorat, ham sayohat** Hududda muqaddas qadamjolarning ko'pligi keyingi paytda sayyohlikning yana bir turi — ziyorat turizmini rivojlantirish qo'l kelmoqda. "Fozilmon ota" ziyoratgohi shunday qutlug' maskanlardan biri hisoblanadi. Ushbu qadamjoda ziyorat qilish, qur'on tilovat etish uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Maskanning yana bir e'tiborli jihati Fozilmon ota bulog'ining mavjudligidir. Uning ko'z yorganiga 600 yildan oshgani aytilmoqda. Shuncha vaqtdan buyon u hudud aholisining asosiy suv manbai hisoblanadi. Shifobaxshligi bois o'ndan ortiq kasalliklarga davolashda tavsiya etiladi. Buloq atrofidagi 56 tup chinor daraxtlari esa asrlarni qaritib, viqor bilan ko'kka bo'y cho'zmoqda. "Fozilmon ota" ziyoratgohi xorijlik mehmonlarning ham e'tiborini o'ziga jalb etgan. Shu bois ham Italiya, Germaniya, Xitoy, BAA, Janubiy Koreya, Rossiya, Ukraina, Belorus, Qirg'iziston, Qozog'iston, kabi davlatlardan tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

**O'zbekiston Shveytsariyasi**

Mamlakatimiz rahbari 2017 yilning 2-3 iyun kunlari Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida Xonobod shahriga tashrif buyurib, "O'zbekiston Shveytsariyasi" nomini olgan ushbu maskanni turistik maskanga aylantirish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berdi. Ayni paytda bu erda olib borilayotgan keng ko'lamdagi ishlar shaharning kelgusida sayyohlik markazlaridan biriga aylanishidan dalolat bermoqda. Xonobod — vodiyning eng so'lim maskani. Shahar hududidan oqib o'tuvchi beshta daryo va kanallar, kattaligi jihatidan respublikamizda uchinchi o'rinda turuvchi "Andijon suv ombori" hudud iqlimining mo''tadilligini ta'minlab turadi. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 iyuldagi "2017-2019 yillarda Andijon viloyatining Xonobod shahrini kompleks rivojlantirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, kelgusi uch yil mobaynida 432 millard 600 million so'mlik qurilish va obodonlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish ishlari bajariladi.

— Xonobod shahrida ichki va ekoturizm salohiyatini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar andijonliklar ruhini ko'tarib yubordi, — deydi shahar bosh imom xatibi Mansurbek Rahimov. — Xayrli ishlar natijasida qariyb o'n yildan buyon qurilishi yakunlanmay turgan 200 o'rinli "Xonobod" sanatoriyasi shu yilning ko'klamida foydalanishga topshiriladi. Shuningdek, adirliklardagi 150 gektar bo'sh yotgan maydoninng 20 gektari aholi dam olish maskaniga aylantirilib, qolgan qismida yong'oq, pista, bodom, unabi bog'lari va tokzor barpo etiladi. Aytish joizki, 2003 yilda qurilishi to'xtab qolgan "Dushanbe-Bishkek-Termiz" yo'lidagi Qoradaryo ustidan o'tuvchi ko'prik qurilishi ham shu yilning o'zida yakuniga etadi. Eng muhimi, "Andijon-Xonobod" yo'nalishi bo'ylab harakatlanuvchi elektrlashtirilgan poezd qatnovi yo'lga qo'yiladi. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan ushbu loyihani joriy yilning yakuniga qadar amalga oshirish maqsadida ishlar yanada jadallashtirilgan. Bularning bari "O'zbekiston Shveytsariyasi"ni mamlakatimizning eng so'lim sayyohlik maskaniga aylantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ekoturizm istiqboli haqida gap ketganda, Paxtaobod va Ulug'nor tumanlaridagi suv havzalari atrofida mazkur yo'nalishda dastlabki loyihalar ijrosiga kirishilganini alohida qayd etish joiz. Baliqchi, Xo'jaobod tumanlarida esa gastronomik turizm keng quloch yoymoqda. Bu erda shunday maskanlar tashkil etilganki, xorijlik sayyohlar milliy taomlarimizni tayyorlash jarayonlarini shunchaki kuzatibgina qolmasdan, bevosita ishtirok etish imkoniga egalar. Tabiiyki, shohona taomimiz bo'lmish palovning tayyorlanish jarayoni barchaga birdek qiziq. Viloyatda turizm sohasining

rivojlanishi o'z-o'zidan mehmonxonalar faoliyatini ham shakllantirmoqda. Andijon davlat universiteti hamda Andijon shahridagi 1-maishiy xizmat ko'rsatish kollejida mehmonxona faoliyatida xizmat qiluvchi mutaxassis xodimlar tayyorlanayapti. Yoshlarning 7 ta chet tilini o'zlashtirishlari uchun qo'shimcha darslar tashkil etilib, zamonaviy mehmonxonalarda amaliyot o'tashlariga imkon berilyapti. Turizm sohasi ravnaqi yo'lida olib borilayotgan bunday islohotlar esa oltin vodiyning shaffof gavhari — Andijon sayyohlik sohasida ham muvaffaqiyatlar eshigini ochishidan nishona bermoqda.

## 18 - mavzu. Jizzax-Sirdaryo turistik mintaqasi

**Reja:**

1.Jizzax-Sirdaryo turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni.
2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.
3.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati.
4.Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.

### 1.Jizzax-Sirdaryo turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni.

**Jizzax viloyati** — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. Respublikaning markaziy qismida. 1973-yil 28-dekabrda tashkil etilgan. Shim.-sharqda Qozog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubi-g'arbda Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubisharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydon 21,2 ming km$^2$. Aholisi 1 382,10 ming kishi (2020). Jizzax viloyatida 12 qishloq tumani (Arnasoy, Baxmal, Do'stlik, Sharof Rashidov, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho'l, Paxtakor, Yangiobod, Forish, G'allaorol), 9 shahar (Gagarin, Dashtobod, Do'stlik, Jizzax, Marjonbuloq, Paxtakor, G'allaorol,Zarbdor,Zomin), 8 shaharcha (Bo'ston, Zafarobod, O'smat, Uchquloch, Bog'don,Pishag'ar,Qo'ytosh,Sharq yulduzi), 95 qishloq fuqarolari yig'ini bor (2001). Markazi — Jizzax shahri (Jizzax viloyati tumanlari haqida tegishli maqolalarga q.)

**Sirdaryo viloyati** - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1963 yil 16 fevralda tashkil etilgan. Shimolidan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubidan Tojikiston Respublikasi va g'arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 5,3 ming km. Aholisi 667.748 kishi (2003). Tarkibida 9 tuman (Boyovut, Guliston, Mehnatobod, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos, Sardoba) (tumanlar haqida alohida maqolalarga qarang, maye. Boyovut tumani), 5 shahar (Guliston, Baxt, Sirdaryo, Shirin, Yangiyer), 6 shaharcha (Boyovut, Dehqonobod, Do'stlik, Paxtaobod, Sayxun, Xovos) va 75 qishloq fuqarolari yig'ini bor (2004). Markazi — Guliston shahri.

## 2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari.

Markaziy Osiyoning eng uzun daryolaridan biri – Sirdaryo bo‘yida joylashgan mintaqa ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Shuningdek, mintaqada baliq ovlash va agroturizm juda mashhur.

Mintaqaning tarixi 3 ming yil oldin, ushbu hududdagi daryolar va tog‘ soylari bo‘yidagi birinchi aholi punktlari paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Sirdaryo viloyatidagi Savat va Xovos qishloqlari arab geograflarining qadimiy asarlarida tilga olingan. O‘rta asrlardagi Nurota shahrining xarobalari mintaqaning muhim tarixiy yodgorliklari sirasiga kiradi. Eng qadimiy yodgorlik Sayxunobod viloyatida joylashgan bo‘lib, 40 gektar maydonni egallaydi.

Qadimgi Sirdaryo tarixi haqida ma’lumot beruvchi muhim yozma manba qad. yunon tarixchisi Arrianning "Iskandarning harbiy yurishlari" asaridir. Bu asarda Sirdaryo "Tanais", "Yaksart" nomi bilan yuritiladi.

Mil. av. 3—2-asrlarda O‘rta Osiyoning shimoliy rayonnlarida 5 ta mayda davlatlardan iborat Qang‘yuy davlati ittifoqi yuzaga keladi. Uning tarkibiga hozirgi Sirdaryo viloyati hududlari ham kirgan. Ushbu davrda ko‘chmanchi aholining viloyat hududiga kelib o‘rnashishi yer tanqisligini yuzaga keltiradi. Natijada hozirgi Xovos tumanining g‘arbiy qismlari ham aholi tomonidan o‘zlashtiriladi. Sho‘rbuloqsoyning quyi qismida Eski Xovos yodgorligi, Shirinsoyning quyi qismida Munchoqtepa yodgorligi qad ko‘taradi.

Sirdaryo viloyati hududi ilk bor alohida o‘lka— Ustrushona sifatida Beyshi, Suyshi va Tanshu kabi Xitoy yilnomalarida tilga olinadi. Undan oldingi manbalarda Sharqiy Sao (suvi yo‘q) deb yuritiladi. Uning bunday nomlanishi hududda qo‘shni Choch va Sug‘ddan farqli ravishda daryolarning ko‘p bo‘lmaganligi bilan izoxlanadi. Nisbatan o‘lkaning to‘laroq nomlanishi Tanshu yilnomalarida ("Shuaydushana", "Suydushana" nomlari bilan) berilgan. Tan imperatorlari saroyida o‘lka nomi, shuningdek, Layviy (mag‘rurligini sezgan holda bo‘ysunmoq) deb ham yuritilgan. Viloyat qad. aholisining tili sug‘d tiliga o‘xshash tilda so‘zlashuvchi Sirdaryo va Amudaryo oralig‘ida yashagan aholi tiliga yaqin bo‘lgan. Xan davri yozma manbalarida Dovon (Farg‘ona)dan to Ansi (Baqtriya)gacha bo‘lgan hudud aholisi turli shevalarda gaplashsalarda, birbiriga yaqin tidda gaplashganlar va o‘zaro birbirini tushunganlar deyiladi.

Mil. 6-asrda Turk xoqonligi davrida mahalliy aholining turk qabilalari bilan munosabatlari rivojlanadi. Qudaandachilik munosabatlari o‘rnatiladi. Ustrushona afshini Xasan ibn Haydar turk lashkarboshisining qiziga uylangan. 8-asrga oid Xitoy yozma manbasi Syuandzanda

yozilishicha, o‘lka "Sutulisen" deb nomlanadi. Shuningdek, unda shim.g‘arbda katta cho‘l (Mirzacho‘l) joylashganligi, o‘lka hukmdori Bosi tog‘i (Turkiston tog‘ tizmasi)ning shim. yon bag‘rida yashaganligi haqida ma’lumotlar bor. O‘lkada zarb qilingan 6—8-asrlarga oid tangalar Ustrushonaning ilk hukmdorlari Chirdmish, Satagari, Raxang haqida ma’lumot beradi.

Hokimiyat shu davrda otadan bolaga o‘tgan. 8-asr boshida Ustrushonaga arablar bostirib kirgan. Ustrushona arab va Tan sulolasi o‘rtasidagi kurash maydoniga aylangan. 749 yilda xitoyliklar yurish qilgan bo‘lsa, 751 yilda Ustrushonani arablar bosib olgan. Fakatgina 9-asr boshlaridan Haydar ibn Qavus arab xalifasi xizmatiga kiradi.

893 yilda afshinlar sulolasi ag‘darib tashlanib Ustrushona Somoniylar davlati tarkibiga kiritshshi. O‘rta asrlardagi Ustrushona haqida birmuncha to‘liq ma’lumotlar arab yozma manbalarida mavjud. Ularda aytilishicha, o‘lka hududi Xo‘janddan Samarqandgacha, Sirdaryo daryosi va Mirzacho‘ldan to Hisor tizma tog‘larigacha bo‘lgan. Istaxriy (10-asr) ma’lumotiga ko‘ra, Ustrushonaning ko‘pgina qismini tog‘lar egallagan bo‘lib, unda "kemalar suzishi mumkin bo‘lgan daryo ham, ko‘l ham yo‘q". Havkalga binoan, Movarounnaxrning boshqa viloyatlari qatori Ustrushona ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ajralib turardi. Bu mahsulotlar viloyat tashqarisiga, jumladan, Xo‘jandga chiqarilgan. Ayrim shaharlarda bozorlar bo‘lgan. Ustrushonaliklarning fahri Mink va Marsmandada ishlab chiqarilgan temir qurollar bo‘lib, ular Xurosonda ishlatilgan va Iroqqacha shu qurolyarog‘ bilan qurollanganlar. Ustrushona poytaxti Bunjikat sh. bo‘lgan. O‘rta Osiyodagi boshqa davlatlar qatori Ustrushona ham keyingi hayotida qoraxoniylar, mo‘g‘ullar, temuriylar, shayboniylar va boshqa davlatlari tarkibidagi tarixiy davrlarni boshidan kechirgan.

Qadimgi viloyat axoliyey, asosan, soy va chashmalar bo‘ylarida vohavoha bo‘lib hayot kechirishgan. Viloyat hududida Xo‘jamushkentsoy, Sho‘rbuloqsoy, Mug‘olsoy, Tagobsoy, Sarmichsoy singari suv manbalari bo‘lgan. Suv balansining buzilishi manzilgohlarning yo‘q bo‘lib ketishiga yoki boshqa joyga ko‘chib o‘tilishiga olib kelgan.

Sirdaryo viloyatida qadimgi kanallarning izlari, sardobalar mavjud. 70 km uzunlikdagi O‘rinboyo‘g‘iz, Iskandarariq, Buxoroariq juda qad. kanallardir. 15-asrda Shohrux va Ulug‘bek Sirdaryodan Mirzacho‘lga kanal orqali suv chiqartirgan. Keyinchalik Mirzacho‘lning janubi-sharqida Bo‘zariq, Sirdaryoning o‘ng tomonida Dalvarzinariq barpo etilgan. Qiyot ko‘li yonida Sirdaryodan suv oladigan mayda ariqlar bo‘lgan. 1872 yilda

Bekobod yonida Kaufman kanali (13 km), 1878—82 yillarda To‘ng‘izariq (6 km) qazildi. 1883—85 yillarda Iskandarariq va Buxoroariq qayta kavlandi. 1891—95 yillarda Farhod tog‘i yonida maxsus to‘g‘on (Shohto‘g‘on) qurildi. 1896 yilda hozirgi Do‘stlik kanali qazilib Mirzacho‘lning ichkarisiga suv yuborildi. 1897 yilda Mirzacho‘lda birinchi marta 6 ga yerga paxta ekildi. 1899 yilda 8 ming ga, 1907 yilda 9,09 ming ga, 1910 yilda 12,2 ming ga, 1915 yilda 34,5 ming ga yer sug‘orilib, 19 ming ga yerga paxta ekildi. 1926 yilda 180 km ariq va kanallar qazildi, sug‘oriladigan maydonlar 53 ming gektarga yetdi, 1927 yilda 60 ming ga (shundan paxta 27 ming ga), 1929 yilda 68 ming ga, 1934 yilda 134 ming ga, 1938 yilda 154 ming ga (shundan paxta 40 ming ga) yer sug‘orildi. 1942 yilda 180 ming ga yer (shundan 70 ming ga yer paxta) sug‘orildi. 1943—48 yillarda Farhod GES, bosh to‘g‘on Do‘stlik kanaliga tutashtirildi. Boyovut kanali va Farxrd suv ombori qurildi. Natijada Mirzacho‘lning jan. qismi va Dalvarzin cho‘lini sug‘orish masalasi hal qilindi. 1956—59 yillarda Qayroqqum suv ombori va GES (quvvati 126 ming kVt) qurildi. 1956 yillarda sug‘oriladigan yerlar maydoni 280 ming gektar yerga yetdi. 1960 yilda Janubi Mirzacho‘l kanali (uz. 128 km) qazildi. 1958 yilda sho‘r suvlarni oqizish uchun 90 km uzunlikdagi Markaziy Mirzacho‘l kollektori qurilib, Boyovut va Yettisoy kollektorlariga qo‘shildi. Viloyat qududidan Sirdaryo oqib o‘tadi.

**Zomin tog’larida piyoda, velosipedda, chang’ida, vertolyotda, elektromobilda sayohat qilish uchun sharoit yaratilmoqda;**

**Tog’ cho’qqilari orasiga o’rnatiladigan dor yo’llarida sayr qilib, tabiatdan bahra olish imkoni bo’ladi;**

**Zamonaviy mehmonxona majmualari, madaniy-sog’lomlashtirish, savdo-ko’ngilochar ob’ektlar bunyod etiladi;**

**Sportning ekstremal turlari, shu jumladan, ziplayn, fotosuratlar olish uchun manzarali va noyob joylarda selfi qilish uchun maxsus joylar sizni kutadi...**

Jizzax viloyatining Zomin tumani yuksak tog’lari, fusunkor tabiati bilan nom qozongan. Minglab gektar maydonlarni egallagan archazorlar tufayli bu zamin havosi kislorodga juda boy. SHu bois bu manzil qishin-yozin sayyohlar bilan gavjum.

Zomindagi tog’lar orasida joylashgan “Suffa” platosi ham o’ziga xosligi bilan nom chiqargan. Aynan shu yerda “Suffa platosi. 2400” xalqaro umummavsumiy kurorti va “O’riklisoy” turizm majmuasi barpo etiladi.

Bu ishlar Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning **“Zomin” turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni** ijrosi doirasida amalga oshiriladi.

Tog’li hududlarning mavjud turistik salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik sub’ektlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro umummavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog’lomlashtirish, savdo-ko’ngilochar va boshqa turizm infratuzilmasi ob’ektlarini barpo etish, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda qo’shimcha ish o’rinlarini yaratish maqsadida qabul qilingan farmon bilan “Zomin” turistik-rekreatsion zonasi tashkil etilmoqda.

Turistik zona hududida zamonaviy mehmonxona majmualari, madaniy-sog’lomlashtirish, savdo-ko’ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa ob’ektlar quriladi. SHuningdek, zamonaviy muhandislik infratuzilma ob’ektlari bunyod etiladi. “Suffa platosi. 2 400” xalqaro umummavsumiy kurorti va “O’riklisoy” turizm majmuasi ham mazkur turistik zona hududida bo’ladi.

Tegishli tashkilotlar joriy yil yakunigacha Turistik zonaning bosh rejasi va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqadi. Unda hududdagi elektr tarmoqlarini yer ostidan o’tkazish, turistik zona hamda uni boshqa hududlar bilan bog’lovchi yo’llarda maxsus piyodalar va velosiped yo’laklari mavjud bo’lishi nazarda tutiladi. Hududdagi elektromobillar va boshqa turdagi transport vositalari (quvvat oluvchi gibrid transport vositalari) uchun elektr quvvatlanish stantsiyalari quriladi. Hududda o’rnatilgan tartibda aeronavigatsiya vositalari va kichik sig’imdagi havo kemalari, ya’ni vertolyotlar uchun uchish-qo’nish maydonchalari joylashtiriladi. Sportning ekstremal turlari, shu jumladan ziplayn, fotosuratlar olish uchun manzarali va noyob joylarda selfi zonalar kabi ob’ektlar bunyod etiladi. Sanitariya-gigiyena shoxobchalari, yo’l ko’rchatkichlari bo’lishi esa tabiiy. SHu jumladan, suvenir va oziq-ovqat mahsulotlari savdosi ob’ektlarini joylashtirish ham e’tibordan chetda qolmaydi. Farmonda turistik zonaning bosh rejasi va batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishda loyihalashtirish va konsalting kompaniyalari, mahalliy va xorijiy ekspertlar jalb qilinishi, ularga haq to’lash bilan bog’liq jarayonlar yechimi ham ko’rsatib o’tilgan. Xususan, dor yo’llarini loyihalashtirish va tog’-chang’i ko’targichlar qurish uchun nufuzli tashkilotlar, shu jumladan, salohiyatli xorijiy va mahalliy investorlar jalb qilinadi. Turistik zona hududidagi istiqbolli va ustuvor loyihalar ro’yxatlarini shakllantirish hamda dastlabki turizm, yo’l-transport va kommunikatsiyani rivojlantirish uchun xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari va grant mablag’larini jalb qilish choralari ko’riladi. Bundan tashqari, Zomin milliy tabiat bog’i, Zomin davlat o’rmon xo’jaligi hamda Baxmal tumanida joylashgan Baxmal davlat o’rmon xo’jaligi hududlarida turizm infratuzilmasini barpo etish yuzasidan istiqbolli

loyihalar amalga oshiriladi. YAqin kelajakda ushbu hududlarda turizm axborot markazlari ham tashkil etiladi. Sayyohlar xavfsizligini ta’minlovchi “Xavfsiz turizm” tizimi ham ishga tushiriladi. Bir so’z bilan aytganda, xalqaro standartlar darajasida bunyod etiladigan yirik turistik zona Zominning turistik salohiyatini keskin oshiradi. YAshil archalari bilan barchani o’zga rom etib kelgan bu zamin tog’larida yaratiladigan beqiyos qulayliklar, qiziqarli infratuzilma bu yerga sayyohlar oqimini kuchaytirishi, shubhasiz.

## XIX - mavzu. O‘zbekistonning janubiy turistik mintaqasi

**Reja:**

1.O‘zbekistonning janubiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni.
2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati.
3.Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.

O’zbekiston o’zining ko’plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o’ziga tortmoqda.

Asrlar mobaynida O’zbekiston Buyuk ipak yo’lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo’g’rofiyashunoslar va missionerlar, isti’lochilar va zabt etuvchilarning yo’lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O’zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an’ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo’nalishlaridan biriga aylanmoqda.

### Meros

O’zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me’moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning “Butun dunyo me’rosi” ning maxsus ro’yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me’moriy inshoatlar o’tmish zamonlarni o’zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o’ynaydi.

### Toshkent

Toshkent – O’zbekistonning poytaxti va Markaziy Osiyodagi eng katta shaharlardan biri. Olis o’tmishdagidek hozirgi paytda ham Toshkent o’zimizning O’zbekiston Havo Yo’llari va xalqaro aviakompaniyalar yordamida xalqaro transport yo’nalishlarining chorrahasidir.

Toshkent dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biridir. 2009-yilda u o’zining 2200 yilligini nishonladi. Bir paytning o’zida Toshkent zamonaviy ishlab chiqarish markazidir, bu yerda 500 dan ortiq kompaniyalar turli xil mahsulotlar; samolyotdan traktorgacha, televizordan to`qimachilik va oyoq kiyimlargacha ishlab chiqaradi. Toshkent tez sur`atlarda tarixiy yodgorliklar va zamonaviy

osmono'par binolarning o'zaro uyg'unligida zamonaviy rivojlangan xalqaro megapolisga aylanmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda yuzga yaqin muzeylar ishlab turibdi va ularning yarmi mamlakatning poytaxtida joylashgan. Ularning har biri o'zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Poytaxt markazida Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi joylashgan bo'lib, uning ulkan ko'k gumbazi Samarqandning qadimiy gumbazini eslatadi. Uning eksponatlari O'zbekiston hududida o'rta asrlardagi davlatchilik shakllarini shakllanishidan guvohlik beradi va Amir Temur davridagi fan, madaniyat va san'atning rivojlanishini aks ettiradi.

## Samarqand

Asrlar mobaynida O'zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo'li va qadimiy transkontinental magistral hayotida muhim rol o'ynadi. Birgina Samarqand esa "Buyuk Ipak yo'lining yuragi" deb nom oldi.

Qadim davrlarda Samarqand "Islom me'morchiligi marvaridi", "Dunyo ko'zgusi" kabi nomlar bilan ta'riflangan. Qadimiyligi bilan Rim, Afina va Vavilonga teng bo'lgan Samarqand o'zining 2750 yilligini nishonladi. Samarqand buyuk qo'mondon va Chingizxondan keyingi markaziy Osiyoning hukmdori Amir Temur davrida Buyuk Movarounnahr davlati poytaxti etib tanlanganda o'zining eng yuqori gullab-yashnash nuqtasiga yetdi. Bu vaqtda keng qamrovdagi shaharsozlik ishlari amalga oshirildi. Buyuk hukmdor Samarqandda o'z davrining eng mohir hunarmand va ustalarini to'pladi va ular yaratgan ishlar asrlar mobaynida yashab kelmoqda. Amir Temurning nevarasi Ulug'bek bu an'analarni davom ettirdi. Bugunda Samarqandagi yodgorliklar go'zal va ulkan. Bu shaharda qadim xarobalar, madrasa, maqbara va minoralarda saqlanib qolgan qadim tarixning nafasini his etish mumkin.

Afsonaviy Registon maydoni Markaziy Osiyoning takrorlanmas me'moriy yodgorligidir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo'lgan. Bu yerda bir necha asrlik uch ulkan binolari Ulug'bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari qad ko'targan.

Go'ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvarididir. Buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi jumladan sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug'bek qabrlari joylashgan. Havorang lolalarning yaproqlari tig'iz qilib joylashtirib chiqilgan g'unchaga o'xshash Go'ri-Amir maqbarasi sayyohlar uchun juda taniqli joy.

Registon maydoni, Go'ri-Amir, Bibi-Honim, Shoxi-Zinda maqbaralari, Ulug'bek rasadxonasi va shuningdek bir qancha yodgorliklar shaharga tashrif buyuruvchilarni o'ziga maftun qilib kelmoqda.

## Buxoro

Qadimdan Buxoro vohaning zich aholiga ega markazi bo’lib kelmoqda. Uning yoshi 2500 da. Qulay muhut va 140 dan ortiq qadimiy me’moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo’lib qolaveradi.

Huddi to’r bilan qoplangan Ismoil Samoniy maqbarasi, ulkan qo’rg’on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark, Minorai Kalon, jonli labirint kabi ko’plab masjid va madrasalar, karvon-saroylar, hammom kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo’q marvaridlaridan bo’lib qoladi.

## Xiva

Buyuk ipak yo’li davridan buyon butunlay saqlanib qolgan shahar Xivadir. U “ochiq osmon ostidagi muzey” deb nomlanadi. Shahar markazidagi ko’plab me’moriy yodgorliklar joylashgan Ichan-Qala majmuasi XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmiga tegishli. Buyuk Ipak Yo’lining chorrahasida joylashganligi va bu yerdan karvon yo’li o’tganligi sababli Ichan-Qalaga dunyoning to’rt tomoniga qaragan to’rtta darvozalar qurilgan. Qal’a devorining balandligi huddi haqiqiy sharq ertaklaridagi kabi shaharga maftunkor ko’rinish beradi.

Minoralar osmonga yetay deydi, va ularning orasida O’zbekistondagi eng uzun minora Islom-Xo’jadir. Uylarning tekis tomlari uzra maqbara va masjidlarning charaqlagan ko’k gumbazlari viqor bilan turadi. Xivada xon saroylaridan bir qanchasi saqlanib qolgan bo’lib ulardan eng mashxuri marosimlar o’tkaziladigan, xon dam oladigan va xon xaramlari yashaydigan zal joylashgan ulkan Tosh-xovli saroyidir. Tashqi tomon va devor mozayka bezakli toshlar bilan qoplangan. Shaharning ajoyibligini bilish, tor ko’chalarini o’rganish va ”ochiq osmon ostidagi muzey” ning asl taftini his qilish uchun bir kun ham kamlik qiladi.

## Termiz

Ko’p qirrali O’zbekiston tarixi shubhasiz uning geografik joylashishini ham aks ettiradi.

Termiz mamlakatning eng janubiy shahridir. Termiz Amudaryo sohilining o’ng tomonida karvon yo’lida asos solingan bo’lib asosiy port sifatida 2500 yildan buyon shu vazifani bajaradi.

Eramizning boshlarida Termiz Markaziy Osiyoning asosiy buddizm markazi bo’lgan. Qora-Tepadagi toshga o’yilgan budda monastiri, Fayoz-tepadagi Budda ibodatxonasi, ko’plab ohakli loydan qilingan budda haykallar qoldiqlari sayyoh va budda sig’inuvchilar uchun mashxur joy.

Termiz faqatgina o’zining budda dini yodgorliklari bilangina mashxur emas. Bu yerda o’rta asrlar boshiga tegishli bo’lgan bir qancha qiziqarli tarixiy yodgorliklar ham bor. Ularning orasida Hakim at-Termiziyning qabri, Sulton Saodat ansambli (X-XVII asrlar) va afsonaviy Qirq-Qiz qal’asi (IX asr) mavjud.

## Qoraqolpog`iston

Bugunda Qoraqolpog`iston hozirgi davr va qadim o'tmishni bog'lovchi tirik rishtasidir. Bu yer qiziqarli va takrorlanmas joylari, kutilmagan topilmalari va kashfiyotlari bilan o'zining afsona va sirlarini bo'lishishga tayyor.

Qoraqolpog`istonda joylashgan Qirq-Qiz, Ayoz- Qala, Janbus-Qala, Ishan-Qala maqbarasi, betakror Tuproq-qala va boshqa tarixiy-memoriy yodgorliklar ilmiy va ma'daniy qiziqishni uyg'otadi, mahalliy va chet el sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

## An'analar

Buyuk Ipak Yo'li chorrahasida yashovchi o'zbek xalqining an'ana va odatlari ko'plab asrlar davomida zaroastritlar, so'g'diylar, baqtriyaliklar va ko'chmanchi qabilalar urf odatlari va shuningdek islom dini urf-odatlari tasiri natijasida shakllandi.

O'zbekiston bo'ylab sayohat mobaynida, sayyohlar nafaqat me'moriy yodgorliklarni ko'rishi va shuningdek xalq bayramlarini nishonlashda ham ishtirok etishlari mumkin.

(Misol uchun Navro'z yangilanish, bahorgi bayram 21-mart kun va tun teng bo'lgan vaqt).

Har bir yo'nalish sayyohlar mahalliy xalqni yashash tarzini ko'rish, milliy taomlarni tatib ko'rish va falklor shou dasturlarini ko'rish uchun mahalliy xonadonlarga tashrifni o'z ichiga oladi.

Ayniqsa turli tumanligi bilan o'zbek milliy oshxonasi diqqatga sazovor. Taomlar, ajdodlarning boy tajribasiga asoslangan xolda, o'zbek xalqining xayot tarzi va madaniyatini aks ettiradi. Har qanday nozik tabli xo'rranda ham zirovarlar isi bilan to'lgan o'zbek mehmonnavozligiga befarq tura olmaydi.

## Bozorlar

Sharqona bozorlar haqidagi an'anaviy tasavvurlar; to'kin-sochinlilik, xushmanzaralilik, shovqunlilikni O'zbekiston bozorlarida yaqqol ko'rish mumkin. Yaxshi bozor maxsulotlar bilan to'lib toshishi, rang barang, baland ovoz va hayqiriqlar eshitilib turilishi, savdolashish bo'lishi kerak.

Mevalar va sabzavotlar rastasi oldidan o'tayotgan har qanday odam mo'l-ko'llikdan va rangbaranglikdan hayratda qoladi. Sharq bozorlari ayniqsa yoz va kuzda hayratlanarli tusga kiradi.

Bozorning qizg'in hayoti erta tongda boshlanib kech tushganda tugaydi. Savdogarlarning mijozlarni chaqirishi, avtomabillar shovqini, milliy musiqa ovozi, zirovorlar isi va qovurilgan go'sht hidi, rastalardagi rang-barang mevalar va sabzavotlar sharqona bozorning takrorlanmas jozibasini yaratadi.

## Mehmonxonalar

Qadimdagi karvonsaroylar o’rnini zamonaviy qulay mehmonhonalar egalladi. Sayyohlik hududlarda joylashgan mejmonxonalar har qanday mehmonning talabini qondirishi mumkin. Yagona ”qiyinchilik” didga mos keluvchi dizayn yoki komfortni tanlashda bo’lishi mumkin. Yevropa uslubini hush ko’ruvchilar uchun zamonaviy interyerlarga ega mexmonxonalar, aksincha sof ma’nodagi sharqona muhitni hohlovchilarga esa o’zining naqshli eshiklari, rang–barang gilamlardan tortib sharqona ayvonlargacha ega bo’lgan mexmonxonalar ham muhayyodir. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch kabi katta shaharlardagi birinchi darajali mehmonhonalardan foydalanishingiz mumkin.

Hozirgi kunda O’zbekistonda 350 dan ortiq mehmonhonalar sayyohlarni qabul qilib xalqaro standartlarga mos ravishda xizmatlar ko’rsatmoqda.

## Transport

O’zbekiston hozirda rivojlangan transport infrastrukturasiga ega. Manzilga yetib olishingiz uchun sizga Buyuk Ipak Yo’li davridagidek bir oy kerak emas. O’zbekiston bo’ylab katta shaxarlarga aviatsiya yordamida yetib olish tez va qulay.

Sayyohlar mamlakatning chiroyli manzaradan qulay va tez bo’lgan transport vositasi mashina yoki avtobuslardan foydalanadilar.

## Aktiv sayohatlar

O’zbekiston faqatgina tarixiy va afsonaviy me’morchiligi bilan mashxur bo’lib qolmasdan, aktiv sayyohlik yo’nalishlariga ham ega. Mamlakatimizning geografik jihatdan qulay joylashganligi bu yerda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg’unlikka kirisha olishiga inkoniyat beradi. O’zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini; tog’, vodiy, cho’l, daryo va ko’lni uchratish mumkin.

## Trekking

O’zbekistonning turfa xil maftunkor tabiati G’arbiy Tyan-Shan tog’i bo’ylab piyoda yurish va tog’ning butun go’zalligini his qilishni imkoniyatini beradi. Ko’plab alpinistlar va chang’ichilar ekstrimal hissiyotlar qidirib balandligi 3309 metr bo’lgan Chimyon tog’lariga intilishadi.

## Otda sayr

Otda yurish har qanday yoshdagi va har qanday temperamentdagi odamga zavq bag’ishlaydi. Va bu bilan yil bo’yi betakror iqlim sharoitlarida shug’illanish mumkin.

Otda yurishning eng mashxur yo'nalishlaridan biri bu o'zining flora va faunasi bilan mashxur bo'lgan Ugam-Chotqol milliy bog'idir. Toshkentdan go'zal vodiy dengiz sathidan 1600 metr balandligda bo'lgan katta va kichik Chimyon tog'lari etagida joylashgan dam olish maskani "Chimyon oromgohi" ga 90 kilometrlik masofani otda bosib o'tishlari mumkin.

Bu yerda mahalliy otlar zotidan qurama qorabair va shuningdek axaltek zotli otlarda sayr qilish mumkin.

Tog' havosining turli xil gullar va o'simliklarning isi bilan to'lgan musaffoligi, egarning g'ichrlashi, ot tiyoqlarining bir xilda taqillashi va ochiq osmon ostidagi hissiyotga to'la kechki nonushta bir umrga unutilmas taasurotlar qoldiradi.

## Tuyada sayohat

Olis o'tmishdagi Buyuk Ipak Yo'lining harakatini his qilmoqchi bo'lsangiz Qizil-Qum cho'li bo'ylab sayohatga taklif qilamiz. Qum uyimlari, quyoshning ayovsiz jazirasi, har-har yerdagi saksavullar va tuya qo'ng'irog'ining ovozi va faqat cheksiz qumliklar...

Bahorning boshida hayot baxsh etuvchi yomg'irlar cho'lni qirmizi lolalar va yashil maysalar gilami bilan qoplaydi lekin bu go'zallik juda qisqa vaqt davom etadi. Sayyohlar qulay avtomobillarini qoldirib tuyalarga minishadi va egzotik sayohatlarini boshlashadi. Bu unutilmas taasurotlar qoldiradi. Tasavvur qiling qondek qizil shafaq, yarqiragan qum uyimlari, o'tovdagi tunlar, egzotik milliy toamlar, falklor tomoshalari va issiq bundan yoqimli yana nima bo'lishi mumkin?!

## Xeli-ski va chang'ida uchish

Birmuncha iliq ob-havo, butunlay shamolning yo'qligi, 300 kun quyoshning porlab turishi chang'i uchish mumkin bo'lgan qulayliklarnining, slalom, chang'i poygalari va tezlik bilan uchish turlarini borligi chang'i ishqibozlarini qishki dam olishlari uchun G'arbiy Tyan-Shanda juda qulay imkoniyatlar mavjud.

So'ngi yillarda "Chimyon-Chorvok-Beldirsoy" oromgohi yangi lekin tezlik bilan rivojlanib borayotgan sport turlari heli-ski va free ride ishqibozlari uchun mashxur joylardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun dengiz sathidan 1600-2400 m yuqorida joylashgan oktyabr oyidan mayga qadar qor bilan qoplanib turadigan Chimyon tog'lar qiyaliklarida xalqaro tog' chang'isi me'yorlarga mos keladigan tarzda sport ishqibozlari uchun qulayliklar yaratilgan.

Ko'plab heli-skiing ishqibozlari uchun dengiz sathidan 4000 m yuqorilikdan chang'i uchish boshlanib vodiyda tugaydi. U yerda kuniga 6 marotaba hali chang'i uchilmagan qorda uchish imkoniyati bor.

### Rafting

Mahalliy tez oqar daryolarda rafting bilan shug'illlanuvchi ishqibozlar O'zbekistonni "Osiyoning Shvetsariyasi" deb ham atashadi. Chotqol daryosi bo'ylab rafting bilan shug'ullanish bu sportning ishqibozlari uchun sevimli mashg'ulot.

Ular yo'nalishning ko'p kunliligi, qiyinchiligi jixatidan 5- darajada turishi va shuningdek landshaft, to'siqlarning ko'pligiga qiziqishadi. Bu yo'nalishda 50 dan kam bo'lmagan to'siqlar ishqibozlarni kutib oladi. Ulardan eng qiyinlari sharsharalar, tez oquvchi qiyaliklar, sayoz toshli, quyumlar, qoyali oqimlardir.

### Golf

Qulay iqlim, toza havo, go'zal manzara va tabiiy landshaft. Toshkent ko'li Golf klubi 108 gektarli 18 chuqurchadan, doimiy yashil maysalardan, ko'plab daraxtlar va qiyaliklardan, ko'l va sharsharlardan iborat. Bular o'yinga ya'nada tabiiy to'siqlar yaratib qiziqarli tus beradi. Go'zal ko'l, atrofidagi maydon 18 chuqurchalarni har biriga alohida xususiyat beradi. Bu yerda shuningdek shug'ullanish maydonlari, tennis kortlari, suzish basseynlari va saunalar xizmat ko'rsatib turibdi.

### Hukumatvaturizm

O'zbekistonda turizm sohasi nisbatan yangi bo'lsada, u rivojlanishda ko'pgina sohalardan oldinga chiqib oldi.

Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun bizning diyor juda katta salohiyatga ega. Yigirma yil avval O'zbekistonni hech kim istiqbolli turizm hududi sifatida bilmas edi. Mustaqillikka erishilgach davlat tomonidan turizm sohasida yangi tamoyillar ishlab chiqildi. 1992 yilning 27 iyulida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmoni bilan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkil topdi. "O'zbekturizm" ning asosiy vazifasi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishdan iborat.

Bundan tashqari, milliy kompaniya respublikadagi barcha turistik tashkilotlarning faoliyatlarini muvofiqlashtiradi, turizmning barcha yo'nalishlarining rivoshlanishini rag'batlantiradi, kadrlar masalasi bilan shug'ullanadi, moddiy-texnika bazasini shakllantirishga va soha infrastrukturasi rivojiga investitsiya oqimini jalb qiladi.

1993 yildan buyon bizning davlatimiz "Xalqaro turizm tashkiloti" (UNWTO)ning a'zosi hisoblanadi. 2004 yildan boshlab Samarqandda – buyuk Ipak yo'lining "yuragi"da UNWTO ning transkontinental magistralda turizmni koordinatsiyasi bilan shug'ullanuvchi ofisi faoliyat yuritib kelmoqda.

Hukumat tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, davlatda transport va mexmonhona infrastrukturasini yaxshilash, hamda turizmda normativ-huquqiy bazani mukammallashtirish sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Turizm mahsulotlarini horijda tanitish maqsadida "Mega-info-tur" – tanishuv safarlari marketing loyihasi horijiy turistik kompaniyalar va ommaviy axborot vakillari uchun amalga oshirilib kelinmoqda. Shu kabi safarlar turistik mavsumlarning kengaytirish, vatanimizga keluvchi turistlarning oqimlari muddatini optimallashtirish, hamda O'zbekistonda har bir fasl turistlar uchun o'ziga hos bo'lishini ko'rsatib berishda muhim ro'l o'ynaydi.

Bundan tashqari O'zbekistonning turistik salohiyatini qo'llab-quvvatlashda UNWTOning rahnamoligida o'tadigan, Toshkentdagi xalqaro "Ipak yo'lidagi turizm" yarmarkasining ham ahamiyati juda katta. Bu yarmarkaning asosiy maqsadi turizm sohasidagi o'zbek hamda horij mutahassislarini birlashtirish, ular o'rtasida professional hamkorlikni yanada kengaytirishdan iborat. Bugungi kunga kelib bu xalqaro yarmarka Markaziy Osiyodagi eng yirik ko'rgazmalardan biri sifatida nom qozongan.

Afsonaviy o'tmishi, Ipak Yo'lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan-avlodga o'tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo'stligi va insoniy qadriyatlari bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni hursand etuvchi O'zbekiston barcha burchaklaridan kishilarni o'ziga jalb etadi.

## XX - mavzu. Qoraqalpog'iston turistik mintaqasi

REJA:

1.Qoraqalpog'iston turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni.
2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendentsiyalari. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati.
3.Mintaqada turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari.

**1.Qoraqalpog'iston turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni.**

**Qoraqalpog'iston**, Qoraqalpog'iston— O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Suveren demokratik Respublika. 1924-yil 14-oktabrda bolsheviklar tomonidan Turkiston ASSR tarkibida Muxtor viloyat sifatida tashkil etilgan. Maydoni 166,6 ming km². Aholisi 2 mlnga yaqin (2021). Respublika poytaxti – Nukus shahri. Tarkibida 16 tuman, 12 shahar, 14 shaharcha va 124 fuqarolar yig'ini bor.

Qoraqalpog'iston– parlament boshqaruv shakliga ega bo'lgan O'zbekiston respublikasi tarkibidagi hudud. Qonun chiqaruvchi oliy davlat vakolatli organi – ko'p partiyaviylik asosida 5 yil muddatga saylangan deputatlardan iborat Qoraqalpog'iston hududi Jo'qorg'i Kengeshi (QR JK). Qoraqalpog'iston hududi Jo'qorg'i Kengeshi raisi respublika rahbari hisoblanib, u Jo'qorg'i Kengesh

deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi (faqat ketma-ket 2 muddatdan oshmaydi). Davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi-boshqaruvchi organi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati hisoblanadi. Qoraqalpog‘istonda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir vaqtda Qoraqalpog‘iston Oliy kengashining 1993-yil 9-apreldagi 12-chaqiriq 12-sessiyasida qabul qilingan Qoraqalpog‘iston Hududi Konstitutsiyasiga amal qilinadi. Qoraqalpog‘iston o‘z davlat ramzlari: gerb, madhiya va bayrog‘iga ega.

Qoraqalpog‘iston Qizilqum cho‘lining shimoli-g‘arbiy, Ustyurt platosining janubi-sharqiy qismi va Amudaryo deltasida joylashgan. Orol dengizining janubiy qismi Qoraqalpog‘iston hududida. Qizilqumning shimoli-g‘arbiy qismi Orol dengizi tomon pasayib boruvchi keng yassi tekislik bo‘lib, qator tepa va qumli bar-xanlar (balandligi 75 m dan 100 m gacha) uchraydi. Alohida tog‘ massivlari (eng, yirigi – Sulton Uvays tog‘i, cho‘qqilari 473 m va 485 m) bor. Sug‘oriladigan yerlar va sug‘orish kanallari, asosan, deltaning o‘ng sohilida. G‘arbida bir nechta botiqli (Borsakelmas, Asakaovdon botiqlarining balandligi 29–101 m) Ustyurt platosi joylashgan. Plato Orol dengizi va Amudaryo deltasiga tik yon bag‘irli jarlik – chinklar hosil qilib tushgan. Ustyurtdan janubi-sharqda Sariqamish soyligining shimoliy chekkasi joylashgan.

Foydali qazilmalardan osh tuzi va glauber tuzi, mineral xom ashyo hamda qurilish materiallari va boshqalar bor. Iqlimi keskin kontinental, yozi quruq va qishi nisbatan sovuq, qor kam yog‘adi. Yanvar oyining o‘rtacha temperaturasi janubda –4,9°, shimolida – 7,6°, iyulda janubida 28,2°, shimolida 26°. Yillik yog‘in 110 mm, asosan, qish va bahor oylarida yog‘adi. Vegetatsiya davri 194–214 kun. Eng yirik daryosi–Amudaryo (quyi oqimi). Amudaryo havzasi qadimdan sug‘oriladigan hudud sifatida ma’lum. Daryo suvidan sug‘orishda foydalaniladi. Nukus shahrida joylashgan suv xo‘jaligi boshqarmasi Taxiatosh gid-rouzeli, Qipchoq gidropostidan Orol dengizigacha bo‘lgan (283 km) hududdagi daryoning barcha suv chiqarish inshootlarini nazorat qiladi. O‘rta va yuqori oqimlarda daryo suvi sug‘orishga ko‘p sarflanishi natijasida hozirgi Amudaryo Orol dengiziga bevosita quyilmaydi.

Qoraqalpog‘istonning eng yirik ko‘li – Orol dengizi, shuningdek, Xo‘jako‘l – Qora-jar ko‘llar sistemasi bilan bog‘langan Sudochye ko‘l sistemasi hamda Orol dengizining qurib qolgan qismida tashkil etilgan sun’iy suv havzalari ham mavjud. So‘nggi 40 yil ichida Amudaryo va Sirdaryo havzalarida sug‘oriladigan yerlarning kengayishi natijasida Orol dengizi suv sathi 2005-yil boshida 23 m pasaydi. Qoraqalpog‘istonning barcha suv havzalaridan baliq ovlanadi, ularda baliq xo‘jaliklari tashkil etilgan.

Tuprog'i, o'simlik va hayvonot olami

Amudaryo deltasida allyuvial-o‘tloq, allyuvial o‘tloq-to‘qay, qurib qolgan ko‘l va botqoqliklarda tipik sho‘rxok, Ustyurt platosida va Qizilqumda taqir tuproqlar, Qiziljar, To‘qmoqtog‘ va Ustyurt platosida kulrangqo‘ng‘ir, Orol dengizining qurib qolgan tubida qumli cho‘l tuproqlari tarqalgan.

Qoraqalpog‘istonda yuksak o‘simliklarning 979 turi uchraydi. Ularning 41 tasi madaniy turga mansub. Yovvoyi o‘simliklarning 176 tasi endemik, 11 tasi qoldiq (relikt) va 33 turi madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari. 7 turdagi o‘simlik O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Qoraqalpog‘iston hududi tropik bo‘lmagan cho‘l zonasida joylashganligi sababli o‘simlik qoplami zonalar bo‘yicha ajralib turadi: Ustyurt platosi, Amudaryo deltasi, Qizilqum shimoli-g‘arbiy va qoldiq past tog‘lar tabiiy geografik zonasi. Ustyurt land-shafti gipsli, sho‘rxok va qumli cho‘l bo‘lib, o‘simliklari gipsofit, galofit va ozroq psammofitlardan iborat. Bu hududda 400 dan ziyod yuksak o‘simlik turi mavjud.

Amudaryo deltasida 655 turdagi gulli o‘simlik o‘sadi. Deltaning suv havzalarida, aksincha, o‘simlik turi kam, asosan, qalin to‘qay o‘simliklari va qamishdan iborat. Qizilqumning shimoli-g‘arbiy qismida katta maydonlarda siyrak o‘t-butali cho‘lga xos o‘simliklar (kserofil boshoqlilar, qorabosh, efemerlar, yulg‘un, oq sak-sovul) o‘sadi.

Qoldiq tog‘larda o‘simlik turi nisbatan ko‘p. Bu yerda 506 turga mansub yuksak o‘simlik uchraydi.

Hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘iston tabiiy o‘simliklaridan yem-xashak, o‘rmon (to‘qay) xom ashyosi va dorivorlar sifatida, 50% yer maydonidan (9387,7 ming ga) yay-lov sifatida foydalaniladi. Qoraqalpog‘iston o‘rmon-to‘qay fondi 1129 ming ga maydonni egallaydi. To‘qaylar asalarichilikda ham ahamiyatga ega. Respublikada dorivor o‘simliklarning 364 turi mavjud.

Hayvonot dunyosi ham xilma-xil: umurtqali hayvonlarning 500 ga yaqin, shu jumladan, sut emizuvchilarning 68, qushlarning 300 dan ziyod, sudraluvchilarning 33, suv va quruqlikda yashovchilarning 2, baliqlarning 50 ga yaqin turi ma’lum. Umurtqasiz hayvonlarning 3500 dan ortiq turi aniqlangan. So‘nggi 10 yil ichida Qoraqalpog‘iston hayvonot dunyosi ancha o‘zgarishlarga uchradi. Ko‘pgina turlar soni qisqardi va ular noyob yoki yo‘qolib borayotgan turlar qatoriga kiritildi. Sut emizuvchilarning 10, baliqlarning 12, qushlarning 37, sudraluvchilarning 10 turi O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Cho‘lda sudralib yuruvchilardan kaltakesak, ilonlar; kemiruvchilardan yumronqoziq, qumsichqon, qo‘shoyeq; yirik sut emizuvchilardan jayran, bo‘ri, tulki; qushlardan saksovul soykasi, burgut, tuvaloq, so‘fito‘rg‘ay; o‘rgimchaksimonlardan chayon, falanga va boshqa yashaydi. To‘qaylarning hayvonot dunyosi nisbatan boy: qirg‘ovul, o‘rdak, g‘oz, qoravoy, loyxo‘rak; sut emizuvchilardan chiyabo‘ri, to‘qay mushugi, bo‘ri, tulki, tolay quyon, qobon va boshqa Ondatra iqlimlashtirilgan. Amudaryo va Oroldan pilmay, sazan, taran, laqqa baliq va

boshqa ovlanadi. Ba’zi turlar yoʻqolib ketgan va sanoat ahamiyatini yoʻqotgan. Shu bilan birga Qoraqalpogʻiston suv havzalarida baliqning yangi 14 turi iqlimlashtirilgan.

Respublikada 3 maxsus qoʻriqlanadigan tabiiy hudud: "Badaytoʻqay" davlat qoʻriqxonasi, "Saygʻoq" va "Sudochye" buyurtma qoʻriqxonalari tashkil etilgan. Qoʻriqlanadigan hududlarning umumiy maydoni 1056,5 ming ga

**2021 yil 16-iyun kuni** Toshkent va Nukusda Qoraqalpogʻiston Respublikasining sayyohlik salohiyatini muhokama qilishga bagʻishlangan "Qoraqalpogʻistonning turizm salohiyati: yangi imkoniyatlar va muammolar" deb nomlangan bir kunlik onlayn kengash boʻlib oʻtdi. Uchrashuv BMT Taraqqiyot Dasturi va YuNESKOning Oʻzbekistondagi vakolatxonalari tomonidan Oʻzbekiston turizm va sport vazirligi bilan yaqin hamkorlikda "Barqaror qishloq hududlari rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash orqali Orolboʻyi mintaqasida inson xavfsizligining dolzarb muammolarini hal qilish" dasturi doirasida tashkil etildi".

Maslahat kengashi davomida COVIDdan keyingi davrdagi turizmning jahon tendentsiyalari va Qoraqalpogʻistonning sayyohlik salohiyatini ilgari surish imkoniyatlari koʻrib chiqildi. Bu Qoraqalpogʻistonning madaniy va tabiiy merosi toʻgʻrisida xalqaro va milliy darajada xabardorlikni oshirishga qaratilgan bir qator loyiha tadbirlarining birinchi uchrashuvidir. Qoraqalpogʻiston ichki va xalqaro sayyohlarga haqiqiy, noma'lum va gavjum boʻlmagan sayohat yoʻnalishlarini taklif qilishi mumkin. Orol dengiziga ekstremal ekologik ekskursiyalardan, Nukusdagi I. Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyiga tashrif buyurishgacha - Qoraqalpogʻistonning boy merosi Oʻzbekistonning boshqa mintaqalaridan ajralib turadigan oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan madaniyat va urf-odatlarni qamrab oladi. Aynan shu sababli Qoraqalpogʻistonda barqaror turizmni rivojlantirishga hissa qoʻshish uchun mintaqadagi turistik takliflarning barcha turlarini oʻrganish, infratuzilma va xizmatlarni takomillashtirish zarur.

Qoraqalpogʻistonning turizm va madaniyat sohasidagi milliy manfaatdor tomonlari ishtirokidagi kengashni barqaror turizm boʻyicha xalqaro Ipak yoʻli mutaxassisi Alla Peresolova xonim (Ispaniya), turizm marketingi boʻyicha mutaxassis Kevin Xarris (Buyuk Britaniya) va Jon Bell, jurnalist va turizm boʻyicha mutaxassis (Buyuk Britaniya) oʻtkazdilar.

Onlayn yigʻilish 2021 yil 23-24 iyun kunlari Nukus shahrida (Qoraqalpogʻiston) "Media va turizm: rivojlanishga yangi yondashuvlar" mavzusidagi ikki kunlik amaliy mashgʻulot bilan, shuningdek, 2021 yil 30 iyundan 6 avgustgacha boʻlib oʻtadigan turizm va Qoraqalpogʻiston

madaniy va tabiiy merosi toʻgʻrisidagi media-tarkibni tayyorlash va yaratish boʻyicha amaliy mashgʻulotlar (onlayn-inkubator) bilan davom etadi.

** BMT Taraqqiyot dasturi va YuNESKOning "Barqaror qishloq hududlari rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash orqali Orolboʻyi mintaqasida inson xavfsizligining dolzarb muammolarini hal qilish" Qoʻshma dasturi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oʻzbekistondagi Orolboʻyi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi boʻyicha koʻpsheriklik trast fondi moliyaviy koʻmagi bilan amalga oshirilmoqda.*

Dasturning maqsadi - Orol dengizi mintaqasining eng zaif hamjamiyatlarining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorligini ekologik muammolarini kompleks echimlari, asosiy xizmatlardan foydalanishni ragʻbatlantirish, hayot darajasini yaxshilash va Qoraqalpogʻistonda barqaror turizmni rivojlantirish orqali bartaraf etish. Bundan tashqari, dasturning maqsadi Qoraqalpogʻistondagi aholi va ekologik turizm asosida daromad olish imkoniyatlarini oshirish va Orol dengizi mintaqasi turizm sohasining inklyuziv barqaror oʻsishiga koʻmaklashish orqali qishloq aholisining, shu jumladan ayollar va yoshlarning ijtimoiy farovonligini oshirishdan iborat. Qoraqalpogʻiston Respublikasida ham soha ravnaqiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maqsad bu yerda zamonaviy turizm tizimini yoʻlga qoʻyib, yurtimiz va xorijlik sayyohlarga namunali xizmat koʻrsatishdir. 2018-2019 yillarda koʻzda tutilgan 42 loyiha aynan shunday ezgu niyatlarga qaratilgan. Ayni paytda Qoraqalpogʻistonda 34 turistik tashkilot faoliyat yuritmoqda, – deydi Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasining Qoraqalpogʻiston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshligʻi Bayram Qusekeyev. – Bu esa hududimizning sayyohlik imkoniyatlaridan dalolat beradi. Hozirgi kunda sohani rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga monand yana bir loyihani rejalashtirganmiz. Bu Quvayt davlatining mahalliy televideniyelarida Qoraqalpogʻiston Respublikasining turistik salohiyatini faol targʻib qilishdir. Bu loyiha amalga oshirilsa, hududimizga keluvchi xorijlik sayyohlarning soni yanada koʻpayadi.

## 21.Mavzu. O’zbekistonning madaniy-tarixiy merosi, ulardan foydalanish va muhofaza qilish

Reja:

11.1. Madaniy – tarixiy merosini muhofaza qilish va saqlashda YUNESKO va BTTning o’rni.

11.2. O’zbekiston shaharlarining arxitektura yodgorliklari va ulardan foydalanish.

11.3. O’zbekiston madaniy merosida etnografiya, urf – odatlar va an’analarni

tutgan o'rni.

11.4. O'zbekistonda mavjud muzeylar va ulardan foydalanish.

## 11.1. Madaniy – tarixiy merosini muhofaza qilish va saqlashda YUNESKO va BTTning o'rni

Jahon madaniyati va turistik faoliyatda boshqarish va standartlashda asosiy rolni YUNESKO va BTT o'tkazadi. Mazkur tashkilotlar turli turli o'tkaziladigan anjumanlar, tadbirlarda mazkur resurslardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib boradi.

Ko'pgina tarixiy obidalar YUNESKO tasarrufida bo'lib, ular muhofaza ostiga olingan. Bu kkbi meroslarni saqlash, muhofaza qilish bo'yicha Mexiko (1981 y) deklaratsiyasi qabul qilingan.

Ko'pgina hududlar o'ziga xos qadimiy shaharlar, arxitektura, tarixiy madaniy yodgorliklarga boy hisoblanadi. Turistik infrastruktura rivojlanishi tarixiy o'zlikni manzarasi buzilmasligi kerak. Har bir tashkil etilayotgan yangi turistik markaz (ob'ekt) Milliylik bilan uyog'unlashgan, qaytarilmas o'ziga xoslikka ega bo'lishi lozim. Albatta, tarixiy-madaniy, arxitektura va madaniy majmualarni milliy qadr-qiymati, tarixiy bahosini tiklash va muhofaza qilish orqaligina turistlar qiziqishini orttirish, bu orqaldi turizmni rivojlantirish mumkin.

Madaniy-tarixiy majmualarni qayta tiklashda umumiy (ansambl) va yakka (individual) uslubida loyihalashtirish qabul qilingan.

Madaniy tarixiy va tabiiy merosni quyidagicha kategoriyalarga bo'lishni mutaxasislar qo'yidagicha taklif etgan:

- asosan turistlar ishlatadigan ob'ektlar (festivallar, namoyishlar, yodgorliklar va h.k.)
- aralash foydalaniladigan ob'ektlar (kamiga tarixiy yodgorliklar va muzeylar, teatrlar, qo'riqxonalar va b;)

- asosan mahalliy aholi foydalaniladigan ob'ektlar (fuqarolar inshootlari, madaniy ob'ektlar, kinoteatrlar, kutubxona va b;)

Madaniy va turizm sohasida asosiy yo'nalishlarida turli tashkilotlarning o'zaro hamkorligini aniqlab olish juda muhim sanaladi.

Turistik rivojlanish siyosati quyidagi talablarni keltirib chiqaradi:

- turistik resurslar ruyxatini tayyorlash, turizmni rivojlanishi uchun madaniy tarixiy, tabiiy merosni tasniflash muhim ob'ektlarni ajratish;
- turistik ahamiyatga ega joy va asosiy turistik hududlarni ajratishni hamda tegishli mahalliy madaniy, tarixiy va tabiiy yodgorliklarni muhofaza qilishni ta'minlash;
- milliy boylik hisoblangan sun'iy va tabiiy, moddiy va nomoddiy ob'ektlar hamda mahalliy aholi yashadiki (san'at,folkor va b.) turizm maqsadida foydalanish;

Mintaqa madaniy merosiga nisbatan hurmat bilan qarashga mahalliy aholi va turistlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlarni o'tkazish.

Hozirgi kunda jamiyatda iqtisodiy ijtimoiy va madaniy rivojlanish jadvallik bilan kechmoqda. Bu esa o'z navbatida misollarda ish yuzasidag harakati, dam olish kunlarini ko'payishi natijasida turisik faoliyatga ehtiyoj oshmoqda.

An'anaviy turizm shakllariga yangicha yondoshishga talab oshmoqda. YA'ni turlarning madaniy tarkibiga mahalliy diqqatga sazovor joylar bilan tanishini ham kiritish katta samara berib, sayohatni mazmunli va uzoq vaqtga cho'zilishiga sabab bo'ladi. Turizm hudud uchun foyda berishdan tashqari, mahalliy aholini o'zining ajratib merosidan farqlanishiga olib keladi. Bu jihatdan foydalanib turistik resurslardan turizm maqsadida samarali foydalanish tizimini yaratish mumkin.

## **11.2.** *O'zbekiston shaharlarining arxitektura yodgorliklari va ulardan* **foydalanish**

Milliy madaniy meros ob'ektlarini ijodiy va ehtiyojli qondiradigan holatda namoyish qilish kerak. Hozirgi ilmiy texnik rivojlanish natijasida hamma mintaqalarda bir xil madaniy ko'rinishlarni namoyon qilgan. SHuning uchun har bir hudud boshqa joylardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. SHundagina ular turistik bozorga taklif etuvchi mahsulotlarga ega bo'ladi.

***Madaniy meros ob'ektlariga*** quyidagilar kiradi:

- arxeologik yodgorliklar;
- madaniy arxitektura;
- landshaft arxitektura yodgorliklari;
- katta va kichik tarixiy shaharlar;
- qishloq joylari;
- muzeylar, teatrlar, ko'rgazma zallari va b.;
- satsiomadaniy infratruktura;
- etnografiya ob'ektlari, xalq udumlari va an'analari amaliy madaniyat

markazlari;

- texnik komplekslar va asbob - anjomlar.

Mamlakatga keluvchi chet ellik sayyoxlar o'rtasida katta talab bilan foydalaniladigan yo'l ko'rsatkichlarni chet tillarda chiqarishda tashabbus ko'rsatishi rus, ingliz, frantsuz va nemis tillarga ustunlik berish lozim. Diqqatda sazovor joylar to'g'risidagi ma'lumotldar yonida shu tillarda yozma yoki ovoz tasviridagi tushuntirishlar berilishi lozim. Mehmonxonalar va sayyoxlar uchun yo'nalish beruvchi axborot markazlarini shaklantirish turizm rivojida muxim axamiyat kasb etadi. Samarqand shahrida turistik axborotlar markazini vujudga keltirish, mehmonxonalarni taklif qilish, diqqatga sazovor joylar xaqidagi materiallarni ko'rsatish va asosiy e'tiborga loyiq hudatlarni reklama qilish muhim ahamiyatga egadir. Markaz tijorat asosida ishlashi ham mumkin (kirish badali, turlar, yo'l ko'rsatkichlar va boshqa xizmatlarga, mehmonxonada joylarni bron qilish hisobiga haq olish, yodgorlik buyunlarini sotish va h.k). Bunda qo'yidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

*Mavjud diqqatga sazovor joylani mustahkamlash:*

- axborot lavhalari, plakatlar, ko'rgazmalar va boshqa shu kabi vositalar yordamida turistlarni asosiy malumotlar bilan ta'minlash bo'yyicha dasturlarni amalga oshirish. Mumkin bo'lgan barcha joylarda oddiy varaqalardan foydalanib bir necha tillarda ma'lumotlarni yetkazib berish;
- ayrim asosiy shaharlarda audio-turlarni tashkil kilish;
- muzey ekspozitsiyalarini kengaytirish va arxeologik kazishmalar amalga oshirilayotgan joylarda (eng qiziqarli punktlarda to'xtab o'tish bilan) piyoda sayir qilishni tashkil kilish juda muxim.

*YAngi diqqatga sazovor joylar:*

- ipak to'lasi ishlab chiqarish bazasida tashrif buyurishning yangi joylarni tasheil qilish;
- ipak to'qishdan boshdab, tayyor mahsulotgacha jarayonlar haqida hikoya qilish bilan eskursiyalar uyushtirish;

Buning uchun juda mos joy Marg'ilon bo'lishi mumkin. U yerda pillaga ishlov berishdan boshlab, ipak matolar ishlab chiqarish bilan tudallanadigan barcha bosqichlarni o'z ichida olgan juda qiziqarli ipakka qo'lda ishlov berish fabrikasi mavjud. Bunga qo'shimcha ravishda Irak to'lasi yetishtirishning barcha jarayonlarini qo'rsatadigan va fabrikali ishlab chiqprish bosqichlarini ancha to'liq tushuntirib beradigan Markaz tashqil qilincha yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekskursiya mavsumi ipak to'lasi yetishtiriladigan xo'jalik (ferma)larga tashrif buyurish bilan boshlanishi mumkin. Ekskursiyaning yakunlovchi bosqichi tayyor mahsulotlar ko'rgazmasi hisoblanadi. Bu yerda ipakdan tayyorlangan buyumlarni taklif qilib, ularning xadid qilish imkoniyatini ham yaratish mumkin.

Milliy turistik mahsulot infratuzilmasini shakllantirish investitsiyalar barqarorligini va uning darajasini o'stirishni taqozo qiladi. Bu davlatda milliy turistik mahsulotni rivojlantirishga va turizmning barqaror o'sishiga yordam ko'rsatishni talab etadi.

Milliy turistik mahsulotni rivojlantirishning xususiy sektoriga va O’zbekistonda turizm infratuzilmasi shakllantirish va takomillashtirishga xalqaro investitsiyalarining jalb qilish va joylashtirish turizm industriyasini rivojlantirishnig muhim omili xisoblanadi.

jadval - 11

**O’zbekistonga chet elliklarning segmentar bo’yicha tashrif buyurishi (1998-2006 yillar, ming kishi)**

| № | Segmentlar | 1998 y | 2000 y | 2006 y |
|---|---|---|---|---|
| | ***Barqaror segmentlar*** | | | |
| 1. | Mahnat ta’tilida keluvchi turist 21(sayyoh)lar | | 36 | 54 |
| 2. | Xalqaro tadbirkorlar | 25 | 33 | 40 |
| 3. | Konferentsiya qatnashchilari | 48 | 75 | 101 |
| | Jami(I) | 94 | 144 | 195 |
| | ***Ikkinchi darajali segmentlar*** | | | |
| 1. | Xususiy tartibda ta’tilga keltiruvchilar | 14 | 24 | 35 |
| 2. | Savdogar va boshqalar | 80 | 132 | 150 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Қариндошлариникида ва диний мақсадларда келувчилар<br>Жами(II) | 212<br><br>306 | 350<br><br>650 | 420<br><br>605 |
| | Жами (I ва II) | 400 | 650 | 800 |

### **11.3.** *O'zbekiston madaniy merosida etnografiya, urf – odatlar va an'analarni tutgan o'rni*

O'zbek xalqi boy tarixiy o'tmishga ega. O'zoq rivojlanish davrida u O'rta Osiyoning boshqa xalqlariga o'xshash, insoniyatga ilm va san'atning buyuk namoyondalarini berdi. Asrlar davomida boy o'ziga xos madaniyat yaratildi. O'rta Osiyoning ko'pgina bosqinchiligi natijasida o'tmish yodgorliklarida turli qadimiy madaniyatlar-yunon, xind, eron, arab-ta'siri ko'rinadi. Ammo bu ta'sirlar o'zbek madaniyatini boyitib, uning o'ziga xosligini yo'qotmadi. O'zbek xalqining san'ati o'zining badiiy an'analarini, ustalik qonunlarini, ifodalash vositalarini ishlab chiqdi. Xalq ijodining turli janrlari yaratildi. Bu bir-biriga ta'sir qilish va bir birini boyitish jarayoni asrlar davomida O'zbekistonga o'zining badiiy madaniyatini keyingi rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari (qoyadagi naqshlar, monumental xaykallar, bareleflar, xaykalchalar va b.), shuningdek bizgacha yetib kelgan yozma manbalar (m.a. 2 asr), o'zbek xalqining musiqa merosining ashula, raqs va kiyimlar qadimiy manbalariga guvoxlik beradi. Ularning O'rta Osiyo xalqlari xayotidagi muhim roli xaqida m.a. 5 asrda YUnon olimi Gerodot yozib qoldirgan.

Musiqiy san'atning yuqori namunalari og'zaki xalq sheriy ijodidir. Folklorning g'oyaviy boyligi va janrining turli tumanligi ruhiy va badiiy qimmatidir. Unda xalq tarixi, xayoti aks ettirilib, eng yaxshi insoniy sifatlar, do'stlikka, sevgiga sodiqlik tasdiqlanadi. Qurg'oqchilikda dexqonlar «Sus xotin» (yomg'ir yog'ishini so'rash) ashulasini, kuchli shamol bo'lganida «Moy-moma» (shamolga murojaat) ashulasini aytish bilan boradigan udumni bajarishadi. Xalq ozaki ijodi doim rivojlanadi, uning ko'p asarlari ajdodlarning dunyo qarashi, ijtimoiy, xo'jalik va oilaviy turmushini aks ettiradi. Xalq she'riyat ijodining asosiy xususiyati asar yaratish va ijro etishning ommaviy xarakteridir.

O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayoti O'rta Osiyo xalqlarining hayoti bilan birlikda shakllandi. Xalqimizda afsonalar, qabila to'g'risidagi bitiklar keng tarqalgan. Jun ishlab chiqishning rivojlanishi kigiz, palas, jundan qilingan gilamlar va yupqaroq jun matolarining-sidirga, naqshli, suratli-chiqarishni oshishiga olib keldi. Mahalliy xalqlar kiyimining o'ziga xosligi, avvaldan iqlim, turmush sharoiti moslashganligi turistlar uchun juda qiziqarlidir. O'rta Osiyo xalqlarining raqs san'ati, ashula sa'nati ham xorijiy turistlarni befarq qoldirmaydi. SHu sababli milliy san'atchilik asosida turli shoular tashkil etish orqali turistlarni yanada jalb qilish lozim.

### **11.4.** *O'zbekistonda mavjud muzeylar va ulardan foydalanish*

Turli kollektsiyaga ega bo’lgan muzeylarning mavjudligi O’zbekistonning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini xususiyatlarini aks etdiradi. Muzeylar madaniy, tarixiy, badiiy me’rosimiz, xalqlar dini va e’tiqoti, ularning an’analari bilan tanishtirib, yoshlarimizni vatanparvarlikka va buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishga o’rgatadi. Davlatimiz mezeylarni rivojlanishi, yodgorliklarni tiklanishga katta ahamiyat beradi. Temuriylar tarixi muzeyining yaratilishi bunga misol bo’la oladi. Respublika muzeylarining ichida 3 ta muzey-qo’riqxona: Samarqand, Buxoro, Xiva («Ichan-Kala»); 3ta yirik badiiy muzeylari: O’zbekiston Davlat san’at muzeyi (Toshkent shahari); Davlat xalq-amaliy san’ti muzeyi, Nukus shaharidagi Savitskiy nomidagi Davlat san’at muzeyi mavjud.

O’zbekistonda yagona bo’lgan (Toshkent sh.) Tabiat muzeyi 120 yildan beri mavjuddir. Muzey jamgarmasida 1.5 mln. ekponatlar bor. Qadimiy muzeylardan biri- O’zbekiston xalqlarining tarixi muzeyi respublika tarixini o’rganish bo’yicha ilmiy tekshiruvlar olib boryapti. A.Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi juda katta kitob va qo’lyozma jamgarmasiga ega. O’zbekiston tibbiyot muzeyi (Toshkent) tibbiyot bilimlari tashviqoti, ekologiya muammolari, sanitariya va gigiyena tarixi bilan tanishtiradi. Abu Ali ibn Sinoga bagishlangan zali bor.

Toshkentda Olimpiya shon-sharafi muzeyi, Urush va mehnat sharafi muzeyi, kino san’ati muzeyi tashkil qilingan; badiiy ko’rgazma direktsiyasi, RTVTS «O’zekspotsentr», U.Tansikbaev, Tamara xonum, A.Qahhor, G’afur G’ulom muzeylari ishlaydi. Har bir viloyatda o’lka muzeylari mavjud. Angren, Sirdaryo, Urganchda badiiy galereyalar ochilgan. Respublika muzeylari shuningdek turli ekskursiya, ma’ruza, adabiyot kechalari, Mustaqillikka, «Navro’zga» bag’ishlagan etnografik ko’rgazmalari va b. o’tkazadi.

O’zbekiston madaniyati vazirligi xalqaro «Oltin meros» xayriya fondi, Badiiy akademiyasi bilan birgalikda muzeylarning kelajak faoliyatini yaxshilash dasturini yaratdi. Respublikaning madaniy hayotidagi yutuqlarini tashviqot qilish maqsadida «Moziydan sado» jurnali yaratildi. Xorij tajribasidan ma’lumki muzeylardan turizm faoliyatida keng foydalaniladi. SHu sababdan mavjud muzeylarimizni keng targ’ibot qilish orqali turizm maqsadida foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

*Nazorat savollari:*

1. Madaniy – tarixiy merosini muhofaza qilish va saqlashda YUNESKO va BTTning o’rni qanday.
2. O’zbekistonning arxitektura yodgorliklariga boy shaharlaridan samarali foydalanish masalalari.
3. O’zbekiston madaniy merosida etnografiya, urf – odatlar va an’analarni tutgan o’rni.
4. O’zbekistonda mavjud muzeylar va ulardan turizm maqsadidafoydalanish xususiyatlari.

**XXII - mavzu. Mintaqaviy turistik resurslardan foydalanishda xalqaro tajribadan foydalanish**

**Reja:**

1.Mintaqaviy turistik resurslardan foydalanishda xalqaro tajribadan foydalanishning ob’ektiv zarurati.

2.Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda yevropa mamlakatlarining tajribasi.

3.Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda Rossiya Federatsiyasi tajribasi.

1.Mintaqaviy turistik resurslardan foydalanishda xalqaro tajribadan foydalanishning ob’ektiv zarurati.

Ma'lum pasayishdan so'ng 2001-2003, 2004 va 2005 yillarda kuzatilgan. transchegaraviy harakatlarning sezilarli darajada oshishi bilan ajralib turadi. 2004 yilda xalqaro turistlarning soni 763 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 808 million kishiga ko'paydi va 2007 yil oxirida. bu ko'rsatkich deyarli 898 million kishini tashkil etadi. Agar biz dunyoning ma'lum mintaqalari bo'yicha statistikani hisobga olsak, unda biz quyidagi ma'lumotlarni olamiz.

2007 yil oxiriga kelib, umuman olganda, Yaqin Sharqqa 46 million sayyoh tashrif buyurdi va dunyoning ushbu mintaqasida davom etayotgan keskinliklarga qaramay, tashrif buyurish joylari bo'yicha eng muvaffaqiyatli hisoblanadi. Ushbu mintaqa tashrif buyurishning yaxshi ko'rsatkichi bilan ajralib turadi va sayyohlar soni yil sayin ortib bormoqda. 2007 yilda ushbu mintaqaga tashrif buyuradigan davlatlar orasida Saudiya Arabistoni va Misrni ajratib ko'rsatish mumkin. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarning kuchli o'sishi sharoitida - 2000 yildan beri har yili 7%, Osiyo va Tinch okeaniga 185 million sayyoh tashrif buyurdi. 2007 yil oxirida 2000 yil bilan taqqoslaganda Yaponiya (+ 14%), Malayziya (+ 20%), Kambodja (+ 19%), Vetnam (+ 16%), Indoneziya (+ 15%), Hindiston (+ 13%) va Xitoy (+ 10%) bu ko'rsatkichlar o'sishda davom etmoqdalar. Jami 44 million xalqaro sayyohlar soni bilan Afrika 2006 yilda yaxshi o'sishni tasdiqladi, chunki uning o'rtacha o'sishi (+ 7%) 2000 yilga nisbatan yomon natija emas (+ 3%).

Turistlarning tashrifi Shimoliy Afrika (+ 8%) ulushiga to'g'ri keladi, bu o'sish umumiy bo'lgan (+ 7%) Saxara mintaqalariga qaraganda bir muncha yaxshi. Amerika bu ko'rsatkichni 2006 yildagi (+ 2%) dan 2007 yil oxiridagi (+ 10%) ga ikki baravar oshirdi, bu juda yaxshi ko'rsatkich.

2007 yilda Evropaga 480 million sayyoh tashrif buyurdi.

Gretsiya (+ 12%), Portugaliya (+ 10%), Italiya va Shveytsariya (+ 7%), Germaniya (+ 12%).

Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi (1-jadval) keltirilgan.

1-jadval. UNWTO bo'yicha hisoblab chiqilgan.

2004 yilda YUNVTO tasnifiga ko'ra, barcha xalqaro turistik tashriflarning 52 foizi hordiq chiqarish, hordiq chiqarish yoki dam olish maqsadida amalga oshirilgan (ya'ni boshqacha aytganda, ularning maqsadi turizm edi); 24% - davolanish kursidan o'tgan diniy do'stlar yoki qarindoshlaringizni ziyorat qilish uchun (shaxsiy safarlar); xizmat safari 16% ni tashkil etdi va kelganlarning 8% uchun safar maqsadi aniqlanmagan. (1-rasm).

1-jadval

2007 yil ma'lumotlari 2004 yilga nisbatan ancha farq qiladi, shuning uchun ROSSTAT ma'lumotlariga ko'ra yil davomida Rossiya Federatsiyasiga xorijiy fuqarolarning tashriflari soni deyarli 23 million kishini tashkil etdi. Chet el fuqarolarining Rossiya Federatsiyasiga kirishi to'g'risidagi ma'lumotlar jadvalda keltirilgan

2-jadval

O'tgan yilda (2007 yilda) kelayotgan sayyohlar oqimining o'sishi Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Italiya, Ispaniya, Avstraliya, Isroil va boshqa mamlakatlar tomonidan kuzatildi.

Rasmiy maqsadlarga mo'ljallangan sayohatlar soni 1 foizga ko'paydi. Tahlil qilinayotgan davrda asosiy yo'naltiruvchi bozorlar bo'yicha ishbilarmonlik turizmining dinamikasi Germaniyadan - 23%, Avstriya, Gollandiya - 21%, Italiya, Shvetsiya - 16%, Buyuk Britaniya, Avstraliya - 13%, Kanada - 10%, Yaponiya - 7% oqimlarining sezilarli darajada o'sishini ko'rsatmoqda. . Mutlaq qadriyatlar bo'yicha olis chet el davlatlari Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Frantsiya.

Dam olish maqsadida an'anaviy sayyohlik sayohatlariga kelsak, Ispaniya (47%), Avstriya (22%), Gollandiya (16%), Isroil (15%), Italiya (12%) va Kanadadan sayohatlarning sezilarli darajada o'sishi diqqatga sazovordir. (13%), Norvegiya (10%), Avstraliya (34%). Ushbu mamlakatlardan kelgan sayyohlarning aksariyati madaniy va ma'rifiy maqsadlarda mamlakatimizga tashrif buyurishadi. Shu bilan birga, chet ellik sayyohlarning dam olish uchun kelishining umumiy soni 8% dan ko'proq kamaydi, bu quvonarli emas, chunki mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar oqimining kamayishi 2006 yildan boshlangan. Bu, birinchi navbatda, mamlakatda xizmatlarga narxlarning oshishi, shuningdek, turistik toifadagi mehmonxonalar sonining qisqarishi hisobiga mehmonxonalar narxining keskin oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu sayyohlarga Rossiyaga sayohat qilishda taklif etilayotgan xizmatlar to'plamining narxining sezilarli darajada oshishiga olib keldi (2-rasm).




Keyingi, men 2007 yilning birinchi choragi bo'yicha xizmatlar bo'yicha qiziqarli statistikani taqdim etaman. 2007 yil birinchi choragida Turizm agentligi tomonidan turistik xizmatlar, shuningdek mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy xizmatlari bo'yicha statistik ma'lumotlarning tahlili quyidagilarni ko'rsatdi.

2007 yilning birinchi choragida mehmonxona xizmatlari va shunga o'xshash turar joy xizmatlari hajmi 2 743 801,3 ming rublga oshdi. 2006 yilning shu davriga nisbatan 17,819,632,7 ming rublni tashkil etdi.

2007 yilning birinchi choragida turistik xizmatlarning umumiy hajmi 7 822 621,0 ming rublni tashkil etdi, bu 2006 yilning yanvar-martiga nisbatan 13,5 foizga ko'p.

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish tarkibida mehmonxonalar va shu kabi turar joy xizmatlari 2007 yilning birinchi choragida 2006 yilning birinchi choragiga nisbatan deyarli o'zgarmadi va 2,5 foizni tashkil etdi (barcha turdagi xizmatlar).

2007 yilning 1 choragida aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi tarkibidagi turistik xizmatlarning ulushi amalda 2006 yilning shu davridagi darajada saqlanib qoldi va 1,1% ni tashkil etdi (barcha turdagi xizmatlar). 2006-2007 yil yanvar-mart oylarida aholiga pullik xizmatlar hajmi to'g'risida ma'lumotlar g) quyidagicha keltirilgan (3-jadval).

3-jadval. Turlar bo'yicha aholiga pullik xizmatlar hajmi.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib, 2006 yil bilan taqqoslaganda, Rossiya sayyohlik sanoatida pullik xizmatlar hajmi sezilarli darajada o'sdi va 2007 yilning birinchi choragida

yuz bergan tiklanish bizni yangi ijobiy raqamlar bilan davom ettiradi, degan taxminlar mavjud. Hech bo'lmaganda (taxminan 580 dollar) turistik tashrifdan keladigan daromad bo'yicha Rossiya dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada (850 dollar) orqada qolmoqda, ammo u turizmni rivojlantirish bo'yicha etakchilar guruhiga kiruvchi bir qator davlatlarni, shu jumladan Men Gonkong, Meksika va hattoki Frantsiyam. Bundan tashqari, ushbu parametrning ahamiyati jihatidan Rossiya Federatsiyasi Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari uchun o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ko'rsatkich Rossiyaning tizimdagi rolini tavsiflash uchun hal qiluvchi emas xalqaro turizm. Uning ahamiyati asosan uchta omilga bog'liq:

Turistlarni qabul qiluvchi mamlakatga etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan transport xarajatlari va aksincha (aksincha, havo yo'llarining yuqori narxi Okeaniya uchun ushbu ko'rsatkichning bunday yuqori bo'lishining asosiy sababi);

Qabul qiluvchi mamlakatda narx darajasi (Skandinaviya mamlakatlarida turistlarning oziq-ovqat, transport va boshqalar uchun kundalik shaxsiy xarajatlari, masalan, Gretsiya yoki Ispaniyada taxminan uch baravar ko'p);

Bir safar davomida sayyohlarga taqdim etiladigan xizmatlarning jozibadorligi va darajasi.

Hozirgi kunda Rossiyaning oldiga mamlakatga chet ellik sayyohlar oqimini maksimal darajada oshirish vazifasi yuklatilgan, shuning uchun turlar narxini va ular bilan bog'liq xarajatlar darajasini oshirish, xususan, Rossiyaga turistik xizmatlarning potentsial iste'molchilarini jalb qilishdan ko'ra qo'rqib ketishi mumkin. Aksincha, umuman turizmni, xususan, ichki turizmni rivojlantirishning hozirgi bosqichida "aniq daromad" ko'rsatkichini keskin oshirishga harakat qilish kerak emas.Bu vazifani keyingi bosqichlarda mamlakatda raqobatbardosh turistik infratuzilma vujudga kelganda va Rossiyaga tashrif buyurganda qo'yish mumkin. Chet el fuqarolarining nazarida, masalan, Frantsiyaga ekskursiya qilishdan ko'ra qiziqroq va obro'li deb hisoblanadi, bu holda kirish manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risida gaplashish mumkin. mamlakatdagi turizm (asosan G'arbiy Evropa, Shimoliy Amerika va Sharqiy Osiyo ulushining ko'payishi hisobiga), shuningdek turistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining sezilarli darajada oshishi bilan ushbu xizmatlarning narxlari tegishli ravishda o'sib borishi mumkin, ammo aniqki, yaqin kelajakda Rossiya duch kelishi kerak. Turizm bozori nafaqat etakchi sayyohlik davlatlari, balki ushbu ulkan bozorning nisbatan yangi ishtirokchilari tomonidan tobora kuchayib borayotgan raqobat.

YUNVTOning "Turizm: Panorama 2020" hisobotida keltirilgan prognozlarga ko'ra, 2010 yilga kelib dunyoga xalqaro sayyohlarning umumiy soni 1 milliard kishidan oshadi va 2020 yilga kelib 1,6 milliardga etadi. Shunday qilib, 2005 yildagi ko'rsatkichdan deyarli ikki baravar ko'p. Shuni ta'kidlash kerakki, uzoq muddatli istiqbolda xalqaro turistlar sonining dinamikasi individual

makroregiyalar darajasida jiddiy tebranishlarga duch kelishi mumkin, bu epidemiyaning tabiiy ofatlari, omillar ta'siri bilan bog'liq. YUNVTOning hisobotida ta'kidlanishicha, uzoq vaqt davomida ushbu omillarning ta'siri sezilarli darajada yo'q qilinadi va bu turistik oqimlarning sezilarli darajada ko'payishini ta'minlaydi.Halqaro turistlarning umumiy sonining taxminan 3% mintaqalararo turizmga to'g'ri keladi, deb taxmin qilinadi. WTTC 2007 - 2016 yillarda sayyohlik sektori taxmin qilinadigan o'n mamlakatning ro'yxatini taqdim etdi. eng yuqori sur'atda rivojlanadi (4-jadval).

4-jadval. 2007 - 2016 yillarda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha etakchi davlatlar

Ushbu ro'yxatga ikkala mamlakat ham, kelgusi davrda, prognozlarga ko'ra, eng tez sur'atlarda o'sadigan mamlakatlar (Xitoy, Hindiston, Vetnam) yoki turizmni jadal rivojlantirish iqtisodiy masala bo'lgan davlatlar kiritilganligi juda muhimdir. "Hayot va o'lim" (Albaniya, Chernogoriya, Kambodja, qisman Ruminiya va Xorvatiya) Rossiyaning ushbu ro'yxatga kiritilmaganligi, ma'lum darajada uning yuqorida aytib o'tilgan ikkita shartga javob bermasligi bilan izohlanishi mumkin.

Sayyohlik haqli ravishda davlat iqtisodiyotining yuqori daromadli va jadal rivojlanayotgan sohasidir. Mamlakatga xorijiy valyutaning manbai bo'lib, u davlatning to'lov balansiga ta'sir qiladi, xalqaro turizm madaniy va ijtimoiy sohalarga ham ta'sir qiladi.

Iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm haqida gap ketganda, quyidagi rasmiy ma'lumotlarni keltirish kerak: YUNVTO va Rossiyadagi Rostourizm ekspertlarining bahosiga ko'ra, YaIMda turizm ulushi 2% ni tashkil qiladi. 2013 yilning birinchi yarmida allaqachon aniq bo'ldiki, Rossiyaga xorijiy fuqarolarning kirishi 2012 yilga nisbatan 11 foizga oshgan (2012 yilda 13 154 723 kishi va 2013 yilda 14 651 487 kishi). Eng ko'p Ukraina (3125239 kishi), O'zbekiston (1.716.362 kishi) va Qozog'iston (1.708.500 kishi) fuqarolari. Ammo to'g'ridan-to'g'ri turizm maqsadida 2013 yilning birinchi yarmida Rossiyaga 1.049.487 ming kishi kelgan. 2012 yilning xuddi shu davrida 993,383 ta sayyoh qayd etilgan, bu o'sish 6% ga teng. Sayyohlik maqsadida bizga Germaniya (142,731 kishi), Xitoy (129,846 ming) va AQSh (67,576 ming) rezidentlari ko'pincha tashrif buyurishadi.

Turizmni rivojlantirishga qiziqish har yili ko'plab mamlakatlarda o'sib bormoqda va Rossiya bundan mustasno emas. Afsuski, Rossiyadagi turizm, masalan, Chexiya, Bolgariya, Frantsiya, Misr, Tailand va boshqa bir qator mamlakatlardagi turizm kabi rivojlanmagan.

Xo'sh, shartnoma nima? Federal davlat statistika xizmatining Rossiya fuqarolarining xorijiy mamlakatlarga kirishlari to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlarini tahlil qilib, ba'zi mamlakatlardan namuna sifatida foydalanish natijasida bir qator xulosalar chiqarish mumkin. Ko'rib chiqish uchun Polsha, Chexiya va Germaniya kabi davlatlarni olamiz. 2000-yillarning boshlarida Rossiyada tashqi turizm tobora kuchayib bordi va odamlar turli xil transport usullarini: temir yo'llar, avtoulovlar, havo

qatnovlarini o'zlashtirdilar. Federal Davlat statistika xizmati ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000 yilda Polshaga 1075 ming, Chexiya Respublikasiga 90 ming, Germaniyaga esa 450 ming sayohat qilingan. Buning sababi, Rossiya fuqarolari uchun Polshaga viza olish Germaniya yoki Chexiya Respublikasiga qaraganda ancha osonlashdi, shuningdek, Polsha hamma uchun eng yaqin ekanligini, ya'ni unga nafaqat havo transporti yoki temir yo'l transporti orqali borishingiz mumkinligini aytishingiz kerak. va mashina bilan. 2003 yilda Polsha va Germaniya o'rtasida avtoulov qurila boshlandi va sayyohlik agentliklari faollashmoqda, Germaniyada "Bonn va Dyusseldorfga ekskursiyalar", "Gent va Bryuggega sayohatlar" singari turistik dasturlar ixtiro qilindi va bu yana o'sishga olib keldi. Sayyohlar soni 2000 yilga nisbatan 56 foizga ko'paydi. 2004 yilga kelib, sayyohlarning o'sishi yana o'sdi, ammo bu safar Germaniyaning eng yirik shaharlarida mehmonxona sektorining rivojlanishi tufayli. Agar 2003 yilda 790 ming marta sayohat qilingan bo'lsa, 2004 yilda u 35 mingga ko'paydi!

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin: sayyohlar qulaylik uchun eng sezgir va talabchan. Qulay sharoitlar nafaqat yashash joyida, balki mehmonxonada ham bo'lishi kerak, ammo muhim omillarni ham hisobga olish kerak: rivojlangan transport infratuzilmasi, sayyohning barcha imtiyozlariga javob beradigan eng yaxshi taklifni tanlay oladigan professional qo'llanmaning mavjudligi.

Germaniya misolida, Chexiya 2004 va 2005 yillarda turli xil sayyohlik turlari (ekskursiya, gastronomik, tibbiy va boshqalar) bilan mamlakat bo'ylab bir qator ekskursiya dasturlarini ishlab chiqdi va bir qator marketing o'zgarishlari natijasida Praga eng mistik shaharga aylandi va Karlovi Vari bu sohada etakchi mavqeni egallay boshladi. davolash. Va Federal Davlat statistika xizmati statistikasidan ko'rinib turibdiki, sayyohlar oqimi 2000 yilga nisbatan 45 foizga oshdi.

Polsha davlatini ko'rsatish juda muhimdir, 2003 yildan keyin to'g'ridan-to'g'ri ushbu mamlakatga turizm uchun kelgan sayyohlar oqimi keskin pasaya boshladi, 2004 yilga kelib turistlar oqimi 52 foizga kamaydi. Tabiiyki, bu pasayishning sababi Polshada sayyohlarning qiziqishi yo'qligi edi. Mamlakat o'z infratuzilmasini biron bir shaklda rivojlantirmadi, xususan mehmonxonalar tarmog'i va diqqatga sazovor joylar rivojlanmadi. Va 2005 yilga qadar hozirgi vaqtda Polsha rivojlangan turizm sohasiga qaraganda ko'proq tranzit hududi hisoblanadi.

Yaqin vaqtgacha Rossiyaning xalqaro turizmda ishtiroki deyarli rivojlanmagan, sanoati rivojlangan davlatlar fonida edi. Xorijiy mamlakatlar turizmni rivojlantirishga qaratilgan aniq takliflarni ishlab chiqmoqdalar va amalga oshirmoqdalar. Rossiya uchun marketing dasturini ishlab chiqish choralarini ko'rish juda muhim: geografiya va madaniyat jihatidan noyob joylar va urf-odatlarga ega

bo'lgan bu mamlakat diniy, sport, piyoda, ot, daryo, madaniy, rekreatsion va ziyoratchilar turizmiga ixtisoslashgan bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda Rossiya mehmonxonalar, transport, diqqatga sazovor joylar va sanatoriy-tibbiy infratuzilmani faol rivojlantirmoqda. Ammo Rossiyada turizmning istiqbollari haqida gapirganda, rivojlanishning asosiy omili - bu xalqaro miqyosdagi yirik tadbirlarni yanada o'tkazishdir. 2014 yilgi Qishki Olimpiya o'yinlari, 2018 yilgi Jahon chempionati, 2019 yilda Krasnoyarskdagi Qishki Universiada - bu tadbirlar qiziqishni kuchaytiradi va mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar oqimini ko'paytiradi. UNWTO ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra, 2020 yilga kelib Rossiyaga kelayotgan sayyohlar oqimi taxminan 47 million kishini tashkil qilishi kerak. chet el turizmini rivojlantirish

Shunday qilib, turizm iqtisodiyotning eng istiqbolli va daromadli sohalaridan biri bo'lib, Rossiyada uning salohiyati to'liq amalga oshirilmagan. Kirish va chiqish sayohatlari o'rtasida ijobiy muvozanatga erishish uchun mamlakatimiz fuqarolari ichki diqqatga sazovor joylar va sayyohlik markazlariga tashrif buyurish va tan olishga intilishlari va nafaqat chet elga safarning dastlabki maqsadlarini belgilashlari uchun ichki turizmni rivojlantirishni rag'batlantirish kerak.

Turistik resurslarga ega, munosib va qiziqarli hikoyaMamlakatimiz dunyoning ko'plab mamlakatlaridan ko'plab sayyohlarni jalb qilishga qodir. Shuni ta'kidlash kerakki, Rossiyada turistik bozorning rivojlanish dinamikasi, xususan, chet ellik sayyohlar sonining ko'payishi tendentsiyalari haqida bormoqda.

Hozirda turizm sohasi hamma joyda rivojlanmoqda. Rossiya ham bundan mustasno emas. Barchaga o'xshab, bu sohada o'zining afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Biz Rossiyaning xalqaro turizm bozoridagi o'rnini tahlil qilishga harakat qilamiz.

2007 yilda Jahon iqtisodiy forumi metodologiyasi bo'yicha hisoblangan sayyohlik jozibadorligi reytingida Rossiya 68-o'rinni egalladi, ammo keyin u yuqoriga ko'tarildi va 2011 yilda reytingda 59-o'rinni egalladi. Ushbu ma'lumotlar Rossiyadagi turizmning hozirgi holatining ikkita muhim xususiyati haqida gapirish mumkin. Bir tomondan, Rossiya Federatsiyasining reytingdagi o'rni unchalik yuqori emas, bu esa past darajada rivojlangan turizm infratuzilmasining ko'rsatkichidir. Boshqa tomondan, taraqqiyot ko'zga tashlanmoqda, Rossiyaning mavqeining o'sishi, bu rivojlanayotganligini ko'rsatadi, turizm sohasi oldinga siljiydi.

Rossiyaning o'ziga xos xususiyatlari orasida turizm xizmatlarini ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Etakchi turoperatorlarning turistik sayohatlar bir yo'nalishda yoki boshqa yo'nalishda qayta taqsimlanishiga e'tibor qaratish lozim. Turistik agentlik va turoperatorlarning bozor segmentlarini ajratib turing. Bundan tashqari, turoperatorlar segmentida ma'lum oligopolistik raqobat mavjud: har qanday sohada 5-10 ta yirik turoperatorlar mavjud bo'lib,

ular butun bozor segmentining 90 foizini egallaydi. Sayyohlik agentliklari segmentida mukammal raqobat mavjud bo'lib, bu bozorga kirishda to'siqlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Iqtisodiy strategiyalar instituti tomonidan 2008 yilda sayyohlik bozorida etakchi kompaniyalar ro'yxati tuzildi. Birinchi o'rinlarni Intourist, Neva, Natali Tours, Tez Tour, Coral Travel, Inna Tour, Capital Tour, Pac Group kompaniyalar guruhi egallab turibdi. Biroq, hatto etakchi kompaniyalar orasida ham hamma narsa muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Masalan, "Tez Tur" kompaniyasi bilan bog'liq vaziyat ma'lum, u "Raqobat to'g'risida" Federal qonunni buzgan va Birinchi kanalda "№1 Tur operatori" shiori bilan videofilmni FAS sayyohlik agentligiga qarshi ma'muriy ish qo'zg'atgan.

Rossiya Federatsiyasida turizmning o'rni va rolini tavsiflash uchun bir qator ko'rsatkichlarni tahlil qilish kerak. Masalan, Rossiyaning yalpi ichki mahsulotiga turizmning ulushi 5,9 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich global o'rtacha ko'rsatkichdan past, ammo 2012 yilga kelib ular 4,6 foizga o'sishini kutmoqdalar. 2011 yilda turizm sohasida band bo'lganlar umumiy bandlikning 5,5 foizini tashkil qildi va 2022 yilga mo'ljallangan prognozga ko'ra, bu 5,9 foizni tashkil etadi. Ko'rib turganimizdek, ushbu ko'rsatkichlarda turizmning ulushi unchalik katta emas, ammo o'sish tendentsiyalari mavjud.

Diqqatga sazovor bo'lgan yana bir narsa fuqarolarning maqsadlar bo'yicha kirish va chiqish safarlaridir.

Biroq, Rossiya fuqarolarining chet elga safarlari soni 2011 yilda xorijiy fuqarolarning Rossiyaga qilgan safarlaridan uch baravar ko'pdir. Buni ijobiy tendentsiya deb atash mumkin emas, chunki jadval tuzilishiga ko'ra, kiruvchi turizm juda kam rivojlangan. So'nggi o'n yil ichida chet elga tashrif buyurgan fuqarolar soni 24 foizga, Rossiya fuqarolarining chet elga safarlari soni esa 198 foizga oshdi. Hech shubha yo'qki, farq juda katta. Bundan tashqari, jadval asosida ushbu tendentsiyani saqlab qolish istiqbollari mavjud.

Agar maqsadlarga sayohatlar haqida gapiradigan bo'lsak, unda asosan Rossiyaga xizmat safarlari, undan so'ng xususiy sayohatlar va turizm taxminan bir xil pozitsiyalarni egallaydi. Ammo rossiyalik sayyohlar asosan chet elga turizm maqsadida borishadi yoki bu shaxsiy sayohatlardir. Shuning uchun aytish mumkinki, ushbu bosqichda Rossiya kiruvchi turizm uchun yoqimsiz mamlakatdir. So'nggi o'n yil ichida turizm maqsadida mamlakatimizga sayohatlarning o'sishi atigi 0,6 foizni tashkil etdi. Va xuddi shu maqsadda Rossiya Federatsiyasidan qilingan sayohatlar sonining o'sishi 230% ni tashkil etdi. Ushbu raqamlar darhol Rossiya Federatsiyasining asosiy muammolarini - xalqaro turizm nuqtai nazaridan past jozibadorlikni aks ettiradi. Boshqa tomondan, Rossiya fuqarolari xalqaro sayyohlik xizmatlarining faol iste'molchilari bo'lib, ular 5-jadvalda ko'rib chiqilgan.

## 23 - mavzu. Mintaqaviy turizm asosida ekskursiya xizmatlarini tashkil etish

### Reja

1. Ekskursiya va ekskursiya xizmatlari tushunchalarining mohiyati va ahmiyati.
2. Ekskursiya xizmatlarining mintaqaviy turizmni rivojlantirishdagi o‘rni va roli.
3. Mintaqalarga ekskursiya dasturlarini ishlab chiqishning asosiy yo‘nalishlari.

Zamonaviy g’arb iqtisodiyotida turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi, qaysiki turist turistik industriya jamiyat, turistik siyosat va iqtisodiyot bir butunlik sifatida qaraladi. Bunda iqtisodiy muammolar turizmning ijtimoiy ekologik aspektlari bilan birgalikda tahlil qilinadi. Gap shundaki bugungi kunda hayotiy strategiya va hayot uslublari qoida bo’yicha bir xil ijtimoiy-siyosiy asoslar ichida shakllanadi, ular shaxsning ijtimoiy tizimidagi muayyan maqomi bilan yuzaga keladi. Ammo shaxs uchun boshqa ijtimoiy guruh vakillarining yashash tarzi ahamiyat kasb eta boshlasa, bu holda ushbu guruhning ahloqiy iste’mol namunalariga mos keluvchi hayot tarziga o’zini namoyon etish yo’li bilan mansubligini ko’rsatishga tayyor bo’ladi. Siyosiy va madaniy bilish turizm talablari segmenti kengaymoqda. Boshqa xalq va davlatlarning madaniyatini, san’tini an’analarini o’rganishga intiluvchi sayohatchilarning katta oqimi yevropaga, Osiyoga va yaqin sharqqa intilmoqda. Sayohatchilarning sport sog’lomlashtirish, davolash va boshqa turdagi turizmlarga siyosiy-madaniy o’rganish motivlarini kengayishi an’anasi kuzatilmoqda. Siyosiy-madaniy o’rganish turizm rivojlanishida xukumat va mahalliy ma’muriyatning madaniy yodgorliklarini avaylab asrash, ularga keluvchi sayyohlar oqimini boshqarishdagi kuch-g’ayratlari muhim o’rin tutadi.

A.Maslouning ta’kidlashicha, o’zini faollashtiruvchi odatlar uchun o’rtacha o’rtacha odamlarning ko’pgina muammolariga xosdir: aybni his qilish, tashvishlilik, g’am ichki konfliktlar kabilar. Ammo ularning asosiy farqi tanlangan ishga va o’z qadriyatlariga sodiqligidir. Bu esa ularni o’z maqsadi uchun kurashda toshbag’ir qilib qo’yadi. Bir qarashda bu toifa boshqa shaxs tipiga nisbatan bog’liq aspektlariga markazlashganligi va hayotning ijtimoiy e’tibor ahamiyatsizligi bois turizm faoliyatiga kiritish uchun kam istiqbollidir. Biroq bu toifadagi ishlarning tegishli darajada tuzilgan strategiyasi uni talablar bozorini aniq segmentiga aylantirishi mumkin. Din, san’at, siyosiy sohadagi nom qozongan tarixiy arboblarning ramzi va obrazi uning uchun muhim bo’lgan joylarga sayohat qilishi mumkin. SHaxs ruxiy ma’naviy sohasining amalga oshirish uchun qo’shimcha sharoitlar yaratadigan safar: bunda u o’zini kasbiy yo’nalishida to’liq namoyon etadi. Marketing izlanishlari u yoki bu yoshli ijtimoiy, siyosiy madaniy tipik xisoblangan hayot uslublarini yuzaga chiqaribgina qolmay balki hayot uslublari ist’mol motivlari va harakati o’rtasidagi o’zaro munosabatini ham belgilash kerak.

Turizm sohasi sayyohlarning o'zlarini hamda ularning maxsulotlarini tashkil etishga bevosita yoki bilvosita safarbar etilgan tashkilotlarning ham ehtiyojini qondirishni nazarda tutadi. U xizmatlarning quyidagi turlarini o'z ichiga oladi.

1.Sayyohlarni joylashtirish bo'yicha (mehmonxona, motellar, kempinglar, pansionatlar, sanatoriyalar, turizm bazalari va boshqalar).

2.Sayyohlarni ovqatlantirishni ta'minlash bo'yicha (restoranlar, kafelar, barlar va boshqalar)

3.Sayyohlarni passajir transportining xilma-xil turlarida mamlakat bo'ylab olib yurish va boshqa mamlakat hududlaridan olib o'tish.

4.Ekskursiya xizmatlari (tarjimonlar, guruhlar ekskursovodlar).

5.Madaniy qiziqishlarini qanoatlantirish bo'yicha xizmatlar (teatrlarga, kino, kontsert zallariga, bog'larga tabiat va tarixiy qo'riqxonalarga sport musobaqalar va boshqa tadbirlarga borish).

6.Sayyohlarning amaliy va ilmiy qiziqishlarini qondirish bo'yicha (kongresslarda, assambleyalarda, ilmiy konferentsiyalarda, semenarlarda, yarmarka va ko'rgazmalarda qatnashishi, umumiy va maxsus maqsaddagi savdo tadbirlarida qatnashishi).

7.Savdo korxonalarining umumiy ham maxsus maqsaddagi savdo xizmatlari (sovg'alar, otkritkalar va boshqalarni sotish)

8.Sug'urta va tibbiy xizmatlar.

9.Reklama va servis (sotish) xizmatlar (sayohatlar yo'nalishlarini ishlab chiqish, transportda, joylashish vositalarida o'rinlarni band qilish).

10.Ma'muriy nazorat organlari xizmatlari (ijara, karantin, valyuta, bojxona, politsiya xizmatlari, shuningdek xujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar viza, pasport).

11.Axborot xizmatlari (er sharining u yoki bu mintaqasidagi turizm resurslari, u yerdagi joylashish vositalari bojxona va chegara rasmiyatchiliklari va berilayotgan mamlakatdagi valyutaning kursi, transport turlarini ularning yo'nalishlari va bahosi haqida gazetalar, jurnallar, sayohatnomalar).

12.Ekologik xizmatlarning tabiat va madaniyat muhofazasi xizmatlari tarixiy va madaniy yodgorliklarni qo'riqlash bo'yicha inspektsiyalar).

O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo'linishi xususida to'xtalib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to'rtta asosiy turistik mintaqa mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga hamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalar va me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati

mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ini mavjudligi ham Farg'ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi. Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm rayonidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiati, boy landshafti, rang-barang o'simlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladigan muhim omildir. Avtomobil va temir yo'llari tarmog'i Toshkent turizmi mintaqasidagi turizm markazlarini bir-biri bilan bog'laydi hamda shahar atrofidagi temir yo'l va avtomobil turizmini rivojlantirishga imkon beradi. Samarqand-Buxoro turizm mintaqasi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarini o'z ichiga hamrab oladi. Samarqand va Buxorodagi butun dunyoga mashhur me'morchilik obidalari ushbu mintaqadagi turizmni rivojlantirilishiga asos hisoblanadi. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o'tuvchi temir yo'l va keng tarmoqdagi shosse yo'llari, Zarafshon tog' tizmasi orqali o'tgan unchalik baland bo'lmagan dovonlar va yaxshi trassalar mintaqada turizmni rivojlantirish uchun g'oyatda qulay omil hisoblanadi. Xorazm turizm mintaqasining salohiyati asosan Xivaning Ichan qal'a qo'riqxonasida joylashgan va jahonda misli yo'q g'oyatda boy tarixiy-me'morchilik yodgorliklariga tayanadi. Faoliyat ko'rsatayotgan turizm mintaqalari bilan bir qatorda yana istiqbolli mintaqalar mavjud bo'lib, ular Jizzax, Qarshi-Termiz va O'rta-Qoraqalpoq mintaqalaridir. Kelajakda bu mintaqalardagi mavjud imkoniyatlarning rivojlantirilishi mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorini yanada kengayishiga olib kelishi mumkin.

## 24- mavzu. Mintaqalarda turizm rivojlanishini ixtisoslashtirish va rejalashtirish yo'llari

**Reja**

1. Turizmni rivojlantirishda mintaqaviy ixtisoslashtirishga e'tiborni qaratish.
2. Mintaqalarda turizmni rivojlantirishda klasterlar usulidan foydalanish.
3. Turizmni rivojlantirishni rejalashtirishda ahamiyat beriladigan jihatlar va omillar.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi qonunlar Oliy Majlis tomonidan belgilab beriladi. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi «Turizm to'g'risida»gi qonuniga muvofiq mamlakatimizda turizmni boshqarish va rejalashtirish organlari tizimi yaratilgan va faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Turizm sohasida markaziy davlat ijroiya hoqimiyati organi «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi hisoblanadi.

«O'zbekturizm» Milliy kompaniyasining kadrlar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Turistlik faoliyatning davlat reestri ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning hisob-kitobini olib boradi.

Turistlik xizmatlarga bo‘lgan talabni o‘rganish va bashorat qilish, talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, turizmni uning barcha bosqichlarida rivojlantirish uchun kompaniya qoshida Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot konsalting markazi tuzilgan.

Milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda turizmni rejalashtirish jarayoni qo‘yidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi (13.1-chizma)[6]. Ko‘rsatilgan bosqichlarning har birini tavsiflaymiz:

***1. Rejalashtirishning maqsadlari, yo‘nalishlari va vazifalarini belgilab olish.*** Turli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mos ravishda va turizmga yetishi mumkin bo‘lgan minimal salbiy ta’sirlarni hisobga olgan holda turizmni rivojlantirish zaruriyati, imkoniyati va yo‘llari baholanadi.

***2. Tadqiqotni tayyorlash.*** Turizmni rivojlantirish sohasidagi istiqbollar ochib beriladi va mo‘ljallar belgilab olinadi, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolar, shuningdek, eng muhim institutsional elementlar (tashkil qilish va boshqarish, qonunchilik va me’yoriy hujjatlar, investitsiyalarni jalb etish va h.k.) ko‘rib chiqiladi. Rejani bajaruvchilarini tanlab olish, mahalliy hoqimiyat organlari va jamoatchilikni jalb qilish, tadqiqotni o‘tkazishni tashkil qilish amalga oshiriladi.

***3. Rejalashtirishning barcha elementlarini tadqiq etish.*** Bunda turizmning barcha jihatlari (geografiya, raqobatlashuvchi turistlik firmalar, turistlarning kelishidagi tendensiyalar, mavjud va potensial diqqatga sazovor joylar, joylashtirish, transport, ovqatlanish vositalari va h.k.) bo‘yicha miqdoriy va sifat omillari va ko‘rsatkichlari aniqlanadi, bevosita joyning o‘zida ob’ektlar tadqiq etiladi, hujjatlar o‘rganiladi, mahalliy hoqimiyat organlari va jamoatchilik vakillari bilan munozarali kengashlar o‘tkaziladi.

***4. Analiz va sintez.*** Turizmning rejalashtirilayotgan turining barcha tashkil etuvchilarini tadqiq qilish natijasida olingan axborotni sifat va son jihatidan qayta ishlash amalga oshiriladi, shuningdek, ishlarning holatini yanada to‘liqroq tushunish uchun tahlilning turli komponentlari birlashtiriladi va integratsiya qilinadi. Turizm bozorining kon’yunkturasi va uni iqtisodiy ta’sirlar, turizmning institutsional elementlari va h.k.lar tahlil qilinadi.

Turizmni rivojlantirishning asosiy imkoniyatlari, unda muammolar va to‘sqinlik qiluvchi omillar aniqlanadi, turistlik biznes sifatini pasaytiruvchi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqiladi. O‘xshash turistlik mahsulotlar va bozorlarga ega mavjud va ehtimol qilingan potensial raqobatchilarning faoliyati hisobga olinadi.

***5. Siyosat va rejani ishlab chiqish.*** Turizmni rivojlantirish siyosati va tegishli tizimiy reja ishlab chiqiladi. Birinchi navbatda rivojlantirishning sarf-harajatlar va foyda muvozanatda bo‘ladigan

muqobil variantlari ko‘rib chiqiladi. Bunda quyidagi mezonlar qo‘llaniladi: rivojlantirish masalalarini hal qilishning ehtimol tutilgan murakkabligi, iqtisodiy foydalarni optimallashtirish, ijobiy ekologik va ijtimoiy-madaniy omillarni kuchaytirish, salbiylarining ta’sirini eng kam darajaga yetkazish, boshqa turistlik korxonalar bilan samarali raqobat qilish. Ko‘p variantli baholash asosida siyosatning so‘nggi yo‘nalishlari va reja tuzilishi aniqlab olinadi.

Rejalashtirishning ushbu bosqichida turizmni rivojlantirish va takomillashtrishning eng maqsadga muvofiq modellarini qabul qilish uchun mahalliy hoqimiyat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan mustahkam aloqa bog‘lash zarur.

***6. Boshqa tavsiyalar.*** Ko‘p variantli modellar tuziladi va ulardan eng maqsadga muvofiqlari tanlab olinadi.

***7. Rejani bajarish va nazorat qilish.*** Rejaning so‘nggi varianti haqqoniy va bajarish mumkin bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan rejani amalga oshirish modellari ishlab chiqiladi.

Rejani amalga oshirish bo‘yicha ishlar davomida uni bajarish muddatlari va bo‘limlari bo‘yicha nazorat qilinadi. Bu yo‘l qo‘yilgan chekinishlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish bo‘yicha tezkor choralar qabul qilishga imkon beradi.

## 13.2. Turizmni rivojlantirish rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, ularning bajarilishini ta’minlash.

Rejalar va dasturlarni ishlab chiqishda birinchi navbatda ratsional rejalashtirish tamoyillarini qo‘llash zarur. Ular biror-bir ekologik yoki ijtimoiy muammolarsiz katta iqtisodiy foyda olishga imkon beradi. Bunda kompleks yondashuvga alohida e’tibor qaratish zarur. U iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatlarning mutanosibligini nazarda tutadi va barcha bosqichlarda turizmning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Kompleks rejalar va tavsiyalar ko‘plab o‘zaro bog‘langan, har xil elementlarni o‘z ichiga olishi zarur. Ulardan asosiylari quyidagilardir:

- turizmni rivojlantirishning iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlari hamda yo‘nalishlari;
- umumiy bazaviy tahlil – mamlakat, mintaqa haqida tarixiy ma’lumotlar olish, ularning qisqacha geografik tavsifi, tabiiy halokatlarga moyilligi (vulqonlar, zilzilalar, bo‘ronlar va h.k.) iqlimiy sharoitlar, atrof-muhitning sifati, mintaqani umumiy rivojlantirish rejalari va dasturlari hamda ularning turizmga ta’siri, demografik, madaniy modellar, iqtisodiyotdagi mavjud sektorlarning modellarini rivojlantirish tendensiyalari (aholining daromadlari, uning bandligi va b.);

- infrastruktura jihatidan tahlil va tavsiyalar – mintaqa yoki mamlakatga turli transport vositalari bilan kirish, oʻtkazish potensiali va turistlar uchun qulayliklar; turistlik zonalardagi kanalizatsiya, telekommunikatsiya; infrastrukturani takomillashtirish boʻyicha mavjud va amalga oshirilayotgan rejalar va dasturlar; turizmning rivojlanishini toʻxtatib qoʻyadigan infrastruktura omillari, infrastrukturani takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar;
- turistlik diqqatga sazovor joylar, ularni yaxshilash boʻyicha faoliyat turlari – mavjud potensial diqqatga sazovor joylarni tadqiq etish va ularni toifalarga boʻlgan holda (tabiiy, madaniy va boshq.) roʻyxatini tayyorlash; diqqatga sazovor joylardan foydalanish nuqtai nazaridan ularni baholash; ularni saqlab qolish boʻyicha tavsiyalar va chora-tadbirlar; sezilarli ijobiy va salbiy omillar (siyosiy beqarorlik, tabiiy haloqatlar, jinoyatchilik va boshqa.);
- mavjud va rejalashtirilayotgan turistlik ob’ektlar va xizmatlarni baholash va ularni yaxshilash – turlar va sayohatlar tashkil qilish, joylashtirish vositalari, restoranlar, banklar, valyuta almashtirish punktlari, magazinlar boʻyicha tavsiyalar;
- turizmning tavsiya qilinadigan hajmlari va shakllari – mamlakat yoki mintaqa (tuman) doirasida turistlik oʻtkazish potensiallarini turistlarning qoniqqanligini hisobga olgan holda aniqlash, turizmning eng maqsadga muvofiq shakllari, hajmlari va koʻlamini asoslab berish;
- bozorni tahlil qilish va bashorat qilish – umumjahon, xalqaro, mintaqaviy va mahalliy modellar; turistlik kelishlarning modeli va tendensiyalari; mazkur mamlakat yoki mintaqaga kelayotgan turistlarning umumiy harakteristikasi; raqobatlashayotgan turistlik ob’ektlarning ta’siri; turistlik diqqatga sazovor joylardan, ob’ektlardan va xizmatlardan mahalliy aholining foydalanishi; bozor maqsadlariga erishish uchun joylashtirish vositalarini bashorat qilish;
- tavsiya qilinadigan turizmni rivojlantirish va strukturaviy reja – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-madaniy omillarni qamrab oladigan strategik koʻrsatma; turistlik diqqatga sazovor joylarning tiplari va joylashishi; turizmni rivojlantirish tumanlari (turistlik zonalar) va transport aloqalari; muddatlar boʻyicha qurilish bosqichlari; turistlik-ekskursiya marshrutlarini koʻrsatgan holda turlarning modellari va dasturlari;
- iqtisodiy tahlil va tavsiyalar – turistlik harajatlarning mavjud va bashorat qilinayotgan hajmi va turlari; turizmning mamlakat (mintaqa) iqtisodiyotiga bashorat qilinayotgan ta’siri, xorijiy valyutadagi daromadlar; tushgan daromadlar; aholining bandligi; davlat daromadlariga qoʻshilgan ulush; turizmning mahalliy, mintaqaviy va milliy darajadagi iqtisodiy foydasini kuchaytirish boʻyicha tavsiyalar;
- ekologik jihatlar va tavsiyalar – turizm bilan bogʻliq mavjud ekologik muammolar va ularni yumshatish boʻyicha tavsiyalar; kelgusida ekologik salbiy oqibatlarni bartaraf etish va ijobiy

ta'sirlarni kuchaytirish, turistlik tumanlarning umumiy ekologik sifatini kuchaytirish, atrof-muhitni saqlash, ekologik merosni asrash sohasidagi siyosat va dasturlarning zarur yo'nalishlarini tanlab olish bo'yicha chora-tadbirlar; aniq turistlik loyihalarning ekologik ta'sirini baholash;

- ijtimoiy-madaniy jihatlar va tavsiyalar – turizm keltirib chiqargan ijobiy va salbiy ijtimoiy-madaniy ta'sirlar; salbiy ta'sirlarni yengillashtirish va ijobiylarini kuchaytirish; turizmga nisbatan ma'rifat dasturlari, turistlarga mahalliy madaniy an'analar va xulq-atvor qoidalarini tushuntirish to'g'risidagi axborot beruvchi materiallar; mahalliy aholining turizmning barcha jihatlarida ishtirok etishi;
- institutsional jihatlar va tavsiyalar – davlat, tijorat va xususiy tuzilmalarning turizm sohasidagi o'zaro hamkorligini baholash, turizmni samarali boshqarish va davlat idoralari, davlat sektori va xususiy sektor o'rtasida faoliyatni muvofiqlashtirish uchun mavjud tuzilmalarga o'zgartirish kiritish yoki yangilarini tuzish; turizm sohasida amaldagi qonun-qoidalarga baho berish, amaldagi tavsiyalarga o'zgartirishlar kiritish yoki yangilarini qabul qilish; turizm sektoriga investitsiyalar keltirish uchun moliyaviy va inson resurslarini baholash; ta'lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlari va boshqalar.

Rejalashtirish jarayonining muhim qirrasi strategiya va reja tavsiyalarini amalga oshirish uslublarini aniqlash hisoblanadi. Buning uchun avvaldan uni bajarish yo'llari va usullarini ishlab chiqish zarur. Keyingi paytlarda maxsus tushuntiruvchi hujjatlar tobora keng tarqalmoqda. U rejani amalga oshirishdagi izchillik bo'yicha rahbariy ko'rsatma hisoblanadi.

Loyihani tegishli darajada (hukumat, mintaqaviy va mahalliy hoqimiyat organlari, firma) har tomonlama ko'rib chiqqach va kelishib olingach, rejaning so'nggi varianti qabul qilinadi va uning moliyaviy asosi tashkil qilinadi. U bajarilishi davomida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Rejani amalga oshirishning uzviy tarkibiy qismi uning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bajarilishini nazorat qilib borish hisoblanadi: turistlik kelishuvlar soni va xususiyati; turistlarning qoniqqanlik darajasi; turizmning ham umumiy, ham alohida aniq loyihalarga nisbatan iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy-madaniy ta'siri.

Rejadagi tadbirlarni bajarish muddatlariga qat'iy amal qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda matematik uslublar va kompyuter texnikasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Uzluksiz boshqarish haqida hech qachon yoddan chiqarmaslik kerak. U quyidagilarni qamrab oladi:

- bozorlardagi o'zgarayotgan tendensiyalarga va mahsulotlarning evolyutsiyasiga moslashish;
- ob'ektlar va xizmatlarning sifatini qo'llab-quvvatlash va oshirish;
- ijtimoiy va geografik jihatdan turizmning foydasini doimiy ravishda oshirib borish;
- muammolar yuzaga kelishi bilan ularni hal qilib borish va h.k.

Shunday qilib, turizmning barqaror rivojlanishi uchun rejalarda ishlab chiqilgan tadbirlarni aniq bajarish va ushbu jarayonni samarali boshqarish talab etiladi.

## 13.3.Turizm indutriyasining rivojlanishini rejalashtirish mexanizmi

Turizm sohasi eng murakkab kompleks tizimdan iborat boʻlib, u oʻz ta’sir kuchi ostiga iqtisodiyoning turli tarmoqlarini jalb qiladi. Shu bilan birga 1990-yilga qadar koʻpgina davlatlar turizmni biror bir rejasiz rivojlantirib keldilar va unga jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishi deb qaraldi. Tajriba shuni koʻrsatdiki, turizmni nazoratsiz, tasodifiy rivojlanishi koʻpgina ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni vujudga keltirdi, bu oʻz navbatida atrof-muhitning tanazzuliga va milliy oʻzlikning yoʻqolishiga va turistlar oqimining kamayishiga, oqibatda iqtisodiy yoʻqotishga olib keldi.

Hozirgi paytda jahon bozorida koʻpgina davlatlar iqtisodiyotining raqobatsizligi sharoitida koʻpgina hukumatlar turizmni xattoki oʻzlarining yagona iqtisodiy rivojlanish imkoniyati deb qarashadi. Turizmga jamiyatni va iqtisodiyoni rivojlantiruvchi usul sifatida yondashish, uning aholi bandligini ta’minlovchi mukammal manba sifatida qaralmoqda. Shuningdek, daromadni koʻpaytirish va turli sabablarga koʻra tabiiy va madaniy yoʻqotishlarni tiklashga yordam beradi deb qaralmoqda. Bu bevosita Oʻzbekiston Respublikasiga ham taalluqlidir.

Shu sababli, ayni vaqtda turizm industriyasi rivojiga ega hamma davlatlar shunday qarorga kelishdiki, turizmni rejalashtirish ular taraqqiyoti rivojlanishining asosini tashkil etadi

Ammo, turizmni rejalashtirishni oʻrganishni va tahlil qilishni boshlashdan oldin turizmni rejalashtirish nima ekanligini va u nima uchun kerakli ekanligini oʻzlashtirish lozim.

Turizmni rejalashtirish sohasidagi mashhur amerikalik mutaxassis va xalqaro maslahatchi ***Edvard Inskip*** bu tushunchani bir qator maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi kelajakni tashkil etish deb tavsiflaydi.

Turizmni rejalashtirishning zarurligi va muhimligi haqida birinchi marta 1989-yilda Gaagada Niderland xalqaro parlament tomonidan uning Xalqaro Parlament Ittifoqi (XPI) va Butunjahon turistlik tashkilotlari taklifi bilan oʻtkazilgan Xalqaro parlament konferensiyasida qabul qilingan mashhur Gaaga deklaratsiyasida bayonot qilindi.

Gaaga deklaratsiyasi birinchi navbatda turizm qishloq xoʻjaligi, , sogʻliqni saqlash, ijtimoiy himoya, ta’lim va shu kabi birinchi darajali tarmoqlar qatorida davlatning murakkab rivojlanish rejalarini tashkil etishi toʻgʻrisida chora-tadbir qabul qilinishi zarurligini ma’lum qildi. Shunday qilib, turizm davlat tomonidan e’tibor qaratilishi zarur boʻlgan boshqa ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlar singari rasmiy tarmoq sifatida qaralishi kerak.

Bu deklaratsiyada quyidagilar uchun samarali tadbirlar qabul qilinishi zarurligi ma’lum qilinadi «barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan turizmni rivojlantirishning murakkab rejalashtirishiga yordamlashish, shuningdek turizm davlat hokimiyati tomonidan turizm industriyasi ishtirokida bosqichma-bosqich rejalashtirilishi kerakligi».

Hozirgi vaqtda xalqaro darajada turizm rivojlanishini rejalashtirish va nazorat qilish uning rivojlanish muvaffaqiyati uchun lozimligi qabul qilindi. Turizmni rejalashtirish yana shu dalil bilan tasdiqlanadiki, rasman birinchi darajali va turizm bo‘yicha dunyoda eng mashhur xalqaro, davlatlararo tashkilot hisoblangan Butunjahon turistlik tashkiloti (BTT) davlatlarga turizmni rivojlantirish mintaqaviy strategiyalarida, turizm siyosatida, o‘ziga xos mintaqalarni hisobga olgan holda turizmni rivojlantirishda, turistlik faoliyatining milliy iqtisodiyot va turizmni rejalashtirishning istiqbolini baholashda amaliy yordam ko‘rsatadi.

Shu bilan birga turizmni rejalashtirishda salbiy ta’sirlarning oldini olishga va jamiyatning maqsad va vazifalarini bajarishga qaratilgan holda aytib o‘tilganidek barqaror rivojlanish prinsiplariga mos holda olib boriladi.

Turizm milliy, mintaqaviy, mahalliy darajalarda, shu bilan birga «destinatsiya» rejasiga yoki «turizmni rivojlantirish mintaqalariga» muvofiq rejalashtiriladi.

Milliy va mintaqaviy darajalar (uzoq muddatli, va turizm rejalashtirish strategik darajasi), turizm rivojlanish siyosatining umumdavlat, mintaqaviy va respublika darajasida shakllanishini ko‘zda tutadi, mazkur rivojlanishning qonunchilik asoslari, turistlik faoliyatni muvofiqlashtirish ham milliy, ham xalqaro darajada, turizm rivojlaninishining boshqa zaruriy elementlarining ko‘rib chiqilishini talab qiladi.

Strategik turistlik rejalashtirishning birinchi galdagi funksiyasi, milliy turistlik siyosat yaratishdan iborat. Bunda ushbu siyosat, turistlik rivojlanishda va mamlakat aholisi hayotida muhim o‘rin egallaydi. Turizm siyosatining boshqarish tizimini yaratish milliy darajada turizmni rejalashtirilishining muhim omili hisoblanadi.

Milliy darajada xorijiy va mahalliy amaliyotdan kelib chiqqan holda boshqa muhim vazifalar qo‘yidagilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- moddiy bazaning strategik rejalashtirilishida, turistlik ko‘rsatuv asosiy ob’ektlari aniqlanib, turistlik rivojlanish mintaqalari va asosiy transport arteriyalari (yo‘nalishlari) ko‘rsatiladi,
- xavfsizlik, kadrlar tayyorlash va ko‘p davlatlarda sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlarning milliy standartlarini yaratish.

Shu bilan birga turizmni rejalashtirishga rahbarlik qiluvchi davlat ijroiya hukumatining turli darajalari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ham eslatib o‘tish lozim. Turizmni rivojlantirishning milliy

va mintaqaviy dasturlari qanchalik muvaffakiyatli amalga oshirilsa, mahalliy shahar va tuman hokimiyatlari shunchalik ko‘proq jalb qilinadi.

Turizmni rejalashtirishning mahalliy darajasi o‘z ichiga turistlik ko‘rsatadigan ob’ekti mahalliy dasturlarni tuzishni va rivojlantirishning tafsilotlarini, diqqatga sazovor joylarni, xordiq chiqarish mintaqalarini, turli xildagi shahar turizmi, madaniyat, fan va boshqalarni qamrab oladi.

Uzoq muddatli va strategik rejalardan farqli o‘laroq, turizmni rejalashtirishning mahalliy darajasi aniq mintaqalar, ob’ektlar, xizmatlar yoki muassasaviy elementlar bilan bog‘liq tezkor savollarga javob berish va yechishga qaratilgan.

Shuni ham eslatib o‘tish kerakki, turizm rivojining mahalliy darajasi mintaqaviy va milliy rivojlanishga asosan olib borilib va o‘z mazmuni jihatidan ularga zid bo‘lmasligi kerak.

Odatda mahalliy darajadagi turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatga quyidagilar misol bo‘ladi:

- rekratsion mintaqalarni funksiyaviy zonalashtirish, ularni rejalashtirish yechimini aniqlash, manzaralarni loyihalashtirish, alohida ob’ektlarni arxitektura-rejalashtirish tashkilotlarini joylashtirish va ularning prinsiplari;
- mahalliy normativ-huquqiy aktlarni tuzish va ularga rioya qilish;
- turizm rivojiga qiziquvchi barcha odamlar va tashkilotlarning bu jarayonga qatnashishiga yordamlashish;
- joylardagi turistlik infrastrukturusini rejalashtirish, jumladan suv, issiqlik va elektroenergiyalaridagi talablarni hisobga olgan holda;
- mahalliy aholi uchun barcha turistlik ob’ektlariga kirish mumkinligini ta’minlash;
- rekratsion va maishiy xizmatlar bilan turistlarga qanday bo‘lsa mahalliy aholi uchun ham shunday ta’minlash;
- kasbiy ta’lim, mahalliy turizm industriyasi uchun kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatishga va boshqa xizmatlarga yordamlashish;
- turizm rivojini moliyalashtirish;
- mahalliy diqqatga sazovor joylarning marketingi va turistlik dasturlarini oldinga siljitish;
- soliq solish muammolari.

Qator davlatlar tajribasida mahalliy ma’muriyatning turizmni rejalashtirish jarayonida qatnashishi turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bilan belgilanadi. Masalan, mahalliy ma’muriyat turizmni rivojlantirish mintaqasini belgilashda, uning boshlangich ishtiroki katta bo‘ladi: mahalliy hokimiyat arxitektorlarni, muhandislarni, iqtisodchilarni, sotsiologlarni, ekologlarni va boshqa mutaxassislarni ishga yo‘llaydi. Dasturni amalga oshirish tadbirlari

jarayonlarida ma’muriyat asta-sekinlik bilan faoliyatini kamaytiradi va moliyani tashkillashtirishda, mutaxassislarni va maslahatchilarni yo‘llashda, qurilishda, turizm infrastrukturasini va xizmatni boshqarishda yetakchilik faoliyatini xususiy sektordagi kompaniyalarga beradi.

Turizmni rejalashtirish g‘oyat mehnattalab va murakkab ish hisoblanadi, shuning uchun turizmdagi har qanday faoliyatni rejalashtirishda va amalga oshirishda turizm faoliyatining yo‘nalishiga va natijasiga haqiqiy ta’sir ko‘rsata olishga qodir bo‘lgan shaxslar va tashkilotlar qatnashishadi. Odatda ularga quyidagilar kiradi:

- mahalliy aholi;
- biznes sohasi (xatto ba’zan turizmga bog‘liq bo‘lmaganlari ham);
- siyosiy va boshqa rasmiy shaxslar;
- malakaviy birlashmalar va turizm sohasidagi ishchilarining jamoaviy tashkilotlari;
- turizm qonunini ishlab chiqaruvi va rivojlanishi bilan bog‘liq rasmiy hukumat vakillari va har qanday darajadagi ma’muriyatlar.

Ushbu sanab o‘tilgan vakillar o‘ziga xos ulush bilan kelib, umumiy qaror qabul qilish stoliga o‘z bilimlarini va takliflarini qo‘yadilar. Yana bir bor ta’kidlab o‘tish lozimki, ularning ishtiroki asosan rejalashtirish jarayonining boshlang‘ich pog‘onasida umumiy qo‘llab-quvvatlash uchun muhim va bu jarayonning barqarorligini ta’minlaydi, shuningdek kelajakda turli sabablarga ko‘ra turizmni rejalashtirishning birinchi pog‘onasida qatnasha olmagan shaxslar va tashkilotlar tomonidan paydo bo‘ladigan muammolar ehtimolini kamaytiradi.

Turizmni rejalashtirish murakkab jarayon bo‘lib, o‘z ta’siri ostiga turli faoliyat sohalaridan ko‘p shaxslarni va tashkilotlarni jalb qiladi. Biroq, xalqaro tajriba ko‘rsatishicha, murakkab turizmni rejalashtirish dastlab amalga oshirilmasa, turistlik markazlarida vaqti-vaqti bilan muammolar (asosan ekologik va ijtimoiy xususiyatli) yuz beradi, bu birinchi navbatda turistlarga ayon bo‘ladi va raqobatning qattiq bosimi ostidagi zamonaviy turizm bozorida turistlar darhol o‘zlariga boshqa joyni tanlashadi.

Shu bilan birga turizmni rejalashtirish, xuddi boshqa turdagi ishni rejalashtirish kabi muvaffaqiyatga erishish maqsadini, muammoga yo‘l qo‘ymaslikni va uni bartaraf qilishni talab qiladi. Ma’lumki, murakkab rejalashtirish vaqt va uzoq davom etadigan muhokama va bahslarni talab qilishi mumkin, chunki turli siyosiy partiyalar, hokimiyat va ma’muriyat strukturalari hamda mahalliy aholi o‘zlarining shaxsiy maqsad va qiziqishlari bilan qatnashadilar.

Ammo rejalashtirishning umumiy mazmuni shundaki, uni rivojlanishning asosiy yo‘nalishi va turi qilib belgilash, ustunligini baholash taklif qilingan rivojlanish konsepsiyasidagi

yetishmovchiliklarni aniqlash lozim, agar shunday qilinmasa yo‘l quyilgan xatolar juda qimmatga tushadi yoki ular hech qachon tuzalmaydigan holga keladi.

Shunday qilib, turizm puxta va mukammal rejalashtirilganda ko‘plab bevosita va bilvosita iqtisodiy foydalar keltirishi mumkin.

## 25-mavzu. Mintaqalarda agroturistik resurslarni o‘ziga xos xususiyatlari

1.Agroturistik resurslar to‘g‘risida tushuncha.

2.Agroturizmning tabiiy geografik jihatlarini aniqlash.

3.“O‘zbekiston Respublikasining agroturistik rayonlari” kartasi ishlab chiqish.

4.Agroturlarni aniqlash va marshrutlarni ishlab chiqish.

5.O‘zbekistonning tog‘, tog‘ oldi, tekislik, botiqlarda agroturistik faoliyatni tashkil etish.
6.Argoturistik ob’ektlar va ulardan foydalanish imkoniyati. Agroturizmning hududiy farqlari.

**Turistik rayonlashtirish** - hududlar maxsus belgilari bilan aniqlangan va bir-biridan farq qiladigan turistik tumanlar va alomatlarning og'irligi darajasiga ajratilgan hududga a'zolik jarayoni. JST dunyoning beshta yirik sayyohlik mintaqasini ajratadi: Evropa, Amerika, Janubiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo Okeaniya, Afrika, o'rta va Yaqin Sharq.
Hududning sayyohlik rayonlari juda muhim vazifadir, chunki uning echimi katta samaradorlikka, shuningdek, odamlarni dam olish va ularning madaniyatini rivojlantirish uchun minimal darajada ta'sir qilish. Turistik rayonlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va ularni yanada rivojlantirish hali ham rivojlanmagan joylarda turizmni rivojlantirish uchun yangi sayyohlik resurslari va turizmni rivojlantirish uchun yangi turistik manbalar va boshqa shartlarni aniqlash imkonini beradi; turli buyurtmalardagi yangi sayyohlik yo'nalishlarini ajratish va yaratish; ularning sayyohlik ixtisosligini to'g'ri aniqlang; ba'zi joylardan sayyohlikni rivojlantirish tajribasiga dosh berish, shunga o'xshash sharoitlar bilan boshqa joylargacha; Turistik hududlar sharoitida turli xil darajada.

Yu. A. Sleden sayyohlik rayonlashtirishning ettita printsipini ajratib turadi:

1. Benuqsonlik - sayyohlik tumani yagona va ajralmas tabiiy-jamoat makonidir.

2. Turistik faoliyat turlarini boshqarish.

3. Nuklei tashkilotning tashkiliy markazlarini ajratishdir.

4. Viloyat doirasida yurishi kerak bo'lgan sayyohlik yo'nalishlarini yopish.

5. Turistik hududlar ierarxiyasi.

6. Rivojlanish darajasi turistik infratuzilma.

7. Tarixiy va turistik rivojlanishning tarixiy hamjamiyati.

Aholining sayyohlik shirkatining uy sharoitida rayonlashtirish tizimining quyidagi tizimi qo'llaniladi: zona, maydon, er, mikrodika, mikrodika, ob'ekti, ob'ekt (korxona). Ostida *turistik zonasi* Bu tushuniladi: sayyohlarni jalb qilish, boshqa sayyohlik ob'ektlari (mehmonxonalar, sanatoriya, sayyohlarni o'z ichiga olgan hududning ikki yoki undan ortiq markazi mavjud bo'lgan milliy hududning bir qismi uylar va boshqalar). Geografik fanda "Turistik zonasi" tushunchasi turizm sohasidagi hududiy buxgalteriya hisobini keng qamrovga ega va aks ettiradi.

Darvozalarning navbatdagi bosqichida ustunlik, diqqatga sazovor bo'lib, turistik korxonalarning etakchi funktsiyalariga e'tibor qaratildi: terapevtik, quduq, sayyohlik, ekskursiya. Ushbu shakllar joylashtirilgan. Ostida *sayyohlik tumani* Holiy hudud tushuniladi, ular sayyohlik infratuzilmasi va ixtisoslashuv ob'ektlariga ega tabiiy va tarixiy va madaniy resurslar kombinatsiyasi bilan ajralib turadi.

Tumanlar davomida ajratish *turistik hudud* geografik joylashuvi, bir hil turistik resurslar va sayyohlik muassasalariga ixtisoslash uchun bir xil turistik manbalar va tor imkoniyatlar bilan tavsiflanadi. Sayyalistlar erida dam olish maskanlari, dam olish maskanlari va turizmiga asoslangan zaruriy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ostida *sayyohlik mikrosika* Bu turistik institutlar va ixcham hududda joylashgan turli turistik institutlar va aloqa bo'limlarining markazlashtirish va hamkorligi bilan o'zaro bog'langan muhandislik va ichki tizimlarning kombinatsiyasi sifatida tushuniladi.

Turistik rayonlashtirishning alohida guruhi turistik markazlar va ob'ektlar, shuningdek ularning majmualari. Zamonaviy fanlarda *sayyohlik markazi* opredelyaetsya kak mestnost, raspolagayuщaya pomimo turistskix resursov sootvetstvuyuщey infrastrukturoy (transport, predpriyatiya razmeщeniya, pitaniya, servisnogo obslujivaniya, razvlecheniya) dlya obslujivaniya znachitelnых turistskix kontingentov, a takje privlekayuщaya turistov v silu nalichiya spetsificheskix turistskix resursov, udobstv transportno-geograficheskogo polojeniya i dostupnoy dlya turista informatsii u haqida. *Sayyohlik ob'ekti* Sayyohlarni beriladigan xizmatlarni taqdim etish va ixtisoslashtirilgan sayyohlik dasturlarini amalga oshirish bo'yicha maxsus shaharlarni rejalashtirish bo'yicha maxsus ta'limni ko'rib chiqishi kerak.

Ko'pincha turistik zonalar turistik atamalar va turistik resurslarga boy ajratilgan. Ushbu atama turizm yaxshi rivojlangan joylar uchun ishlatiladi, ya'ni hududning aksariyati sayyohlar tomonidan jadal tashrif buyuradi. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning individual hududlari va butun mamlakatlar, shuningdek ularning landshaftlari, aholining hayoti, aholining hayoti, iste'mol resurslarini, iste'mol resurslarini va boshqalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu hududlarning qiyofasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, ko'pincha ularning ixtisosligini o'zgartiradi, bu esa muhim hududni shakllantiruvchi omil sifatida harakat qiladi.

Dam olish joyiga, shuningdek xalqaro turizm sohasida ushbu sohani rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng birlashtirilgan talablar: 1) tabiiy-iqlim jozibadorlik; 2) madaniy va tarixiy resurslar; 3) yuqori sifatli mehmonxonalar va turistik turar joy, ovqatlanish, sayyohlik infratuzilmasida mavjud bo'lgan jahon standartlari, madaniy va ekskursiya dasturlari mavjudligi; 4) operatsion transport va ma'lumotlar mavjudligi; 5) mintaqadagi siyosiy barqarorlik va shaxsiy xavfsizlik kafolati; 6) xalqaro shuhrat va saytning obro'si (rasm Image).

**Sayyohlik mintaqasi: tushuncha, belgilar va rivojlanish tsikllari**.Bizlar majmui taklif etadigan tizim har doim ham aniq chegaralar mavjud emas. Bu mintaqaning bir qismi va sayyohlarni joylashtirishni tashkil etish uchun barcha zarur moddiy bazaga ega bo'lgan sayyohlik markazi bo'lishi mumkin. Bunday hudud har qanday sohani, mamlakat va hatto bir guruh mamlakatlarni, sayyoh sayohat maqsadida sayyoh tanlaydi.
Yu. P. Kovalyovning fikriga ko'ra, turizmning asosiy fazoviy xususiyatlari, birinchi navbatda quyidagilarni ajratish kerak:

Ø Turistik bo'shliq uchta asosiy elementni qamrab oladi: sayyohlarni qabul qilish va xizmatlarni yollash, "Turistik mintaqa", "Turistik mintaqa", "Sayyohlik hududi", "Turistik mintaqa", "Sayyohlik hududi", "Turistik hudud", "Sayyohlik hududi", "Sayyohlik hududi", "Sayyohlik hududi") va ular orasida bog'lovchi. Ta'minot va etkazib berish hududining uzoqligi transport vositalaridan foydalanish zarurligini olib keladi.

Ø Turizm iqtisodiyotning sektori bo'lib, ular asosan "Xizmatlar - xizmat sotuvchisi" munosabatlarida va faqat shartnomani amalga oshirishda amalga oshiriladigan xizmatlarni amalga oshiradi. Bu juda katta fazoviy qiymatiga ega, chunki sayyoh turistik va rekreatsion xizmatlarning turistik qadriyatlari taklif etilishi kerak.

Ø Kosmik vaqti va sayohatning tarkibiy oqimlarining kuchli o'zgarishlari mavjud. Bir vaqtning o'zida sezilarli umumiy, madaniyat, o'yin-kulgi, go'zallik, dam olish potentsiali iqtisodiy va salbiy o'zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishning turli xil ijobiy va salbiy o'zgarishlariga olib kelishi mumkin.

~ Turizmning o'zgarish omili sifatida turistik hududlar deb belgilangan turizm hududlarining jozibador yo'nalishlari uchun eng muhim yo'nalish hisoblanadi. Ta'minot va bog'lab qo'yilgan hududlardagi genezis, sayyohlik hududlarining zaruriy qismi ekanligiga qaramay, turistik hududlar genezisidan keskin farq qiladi. Tashqi muhit va turistik mintaqaning mazmuni o'rtasidagi farqlarni, shuningdek, turistik mintaqa faqat keng qamrovli element ekanligini aniqlash muhimdir.

Ø Turistik heterogenatli qadrlanadi. Soyachilarning bir qismi tabiiy, qolgan qismi shaxs tomonidan yaratilgan. Ularning turli xil "geografiya" bor. Birinchi holatda, ikkinchi sun'iy muhitda o'zgargan tabiiy tabiiy muhit bilan belgilanadi. Ushbu ikki ob'ekt o'rtasidagi chegara keskin emas, chunki inson faoliyatining tabiiy muhiti o'zgarishi natijasida yaratilgan ob'ektlar mavjud. Asl turistik qadriyatlarni mahalliylashtirish hududlarning turistik ixtisosligi bilan shakllanishini aniqlaydi.

Ø Turistik mintaqaning faoliyatining xarakteristik xususiyatlari kuchli mavsumiylikdir. Yil davomida notekis tabiiy boylik va ijtimoiy tashkilotning ta'siri ostida bo'sh vaqtdan foydalanishda tabiiy qadriyatlar va kuchli o'zgarishlar bilan izohlanadi.

Ø mintaqaviy sayyohlik - bu sanoat va funktsional sohadir. Turistik mahsulotlar bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlar bo'lishi mumkin (agar ularga bo'lgan talab paydo bo'lsa) turistik mintaqadagi hududni avtomatik o'zgartirish degani emas. Bunday holda, biz turizmning potentsial rivojlanishi zonalari haqida gaplashishimiz mumkin.

Ø Turistik mintaqa sezilarli darajada, chunki ba'zi parametrlari va xususiyatlari o'lchanishi mumkin. Agar uning farqlarini boshqalardan namoyish etish imkonsiz bo'lsa, mintaqaning rasmini yaratish mumkin emas. Ishlatilgan birlik, uning fazoviy rejalashtirishda, marketingda va hokazolarda foydalanish qanchalik muhim bo'lsa, uning katta hajmi kamroq ahamiyatga ega, ammo ularning ma'lumot roli oshadi.

Ø Turizmning xususiyatlaridan biri bu fazoviy rejalashtirishda kichik bo'lgan ixtisoslashgan sayyohlik mintaqalarining mavjudligidir, ammo turistik fanlar faoliyatining muhim porai

hisoblanadi. Sayyohlik oblasti turizm va fazoviy tasniflash shakli sifatida turizmning satrlari va fazoviy tasnifi katta ma'lumot va didaktik qiymatga ega. Bu turistik xizmatlarning iste'molchilari uchun asosiy qiymati.

"Turistik mintaqa" tushunchasida biz asosiy nuqtai nazarni ko'rib chiqamiz va biz uni kontseptsiyasiz deb ta'riflaymiz. JSTni aniqlaydi **sayyohlik mintaqasi** Dam olish yoki tiklanishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan maxsus tuzilmalar va xizmatlarning katta tarmog'i bo'lgan hudud sifatida. Turistik mintaqa, sayyohlar tomonidan, turistlar tomonidan turistik mintaqada bo'lish uchun barcha zarur sharoitlarga ega bo'lishi kerak, bu turistik mintaqa sayyoh tanlaydi yoki sayyohlar guruhi yoki bir guruh sayyohlar va xizmat ko'rsatadigan joy sifatida belgilanishi kerak Xizmatlar ishlab chiqaruvchisi tomonidan sotiladi. Shunday qilib, turistik mintaqa sayohatning maqsadi va turistik mahsulot Xuddi shu paytni o'zida.

L. V. Kovinevani aniqlaydi **sayyohlik mintaqasi** Uning faoliyatini ta'minlaydigan tabiat bilan birlik va fizik-iqtisodiy, etnik va ma'muriy va ma'muriy va ma'muriy va ma'muriy va ma'muriy va ma'muriy va ma'muriy va ma'muriy va ma'muriy va ma'muriy va huquqiy xususiyatlarga ega bo'lgan alohida hududiy birlik sifatida. Turistik mintaqa - bu ma'muriy-hududiy bo'limiga (masalan, Saratov, Primosk, PRIV, Perm) yoki hududni tashkil etuvchi ma'muriy-hududiy bo'linmasi (masalan, Kirov, Perit) bilan shug'ullanishi mumkin Bir necha ma'muriy-yigirilgan donalar ichida (Kuban, rus shimoliy) ichida.

## 29. Mavzu. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda turistik resurslardan samarali foydalanish

**Reja:**

9.1.Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda turistik resurslarni o'rni.
9.2.Turistik resurslardan samarali foydalanishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.
9.3. O'zbekistonda turizm infrastrukturasi holati va uni yaxshilash chora – tadbirlari.
9.4.Turistik mahsulotlariga bo'lgan talabning mavsumiyligini optimallashtirish yo'llari.

### 9.1. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda turistik resurslarni o'rni

Hozirgi davrda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholini ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilashda yangi ish o'rinlarini ochish katta ahamiyatga ega. SHuning uchun qaysi tarmoqlarda yangi ish o'rinlari ochish imkoniyati bo'lsa, undan samarali foydalanish lozim. Bugungi kunda turizm jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes

ko’rinishlaridan biriga aylangan. U bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo’lib, danyoning ko’pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo’jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo’jaligi, iste’mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o’z o’rniga ega bo’lmoqda. Iqtisodiyotimizda turistik resurslardan samarali foydalanishda sohada yangi ish o’rinlari ochish katta ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda jahon xo’jaligida bu sohada band ishchi kuchining ulushi yildan – yilga oshmoqda. Butunjahon sayyohlik va turizm kengashi (World Travel and Tourism Council) ma’lumotlariga ko’ra 1996 yil turizm sohasida 225 mln. ish o’rni mavjud bo’lgan bo’lsa, 2006 yilga kelib, yana 130 mln. ish o’rni ortishi bashorat qilingan edi. Hozirgi vaqtda turizm sohasida jahondagi mavjud har 10 ta ishchi kuchining biri band. Ayrim mamlakatlarda bu ko’rsatgich yanada yuqori. Masalan, Ispaniyada turizm sohasida iqtisodiy faol aholining 8,3 foizi, Barbadosda – 10,5 foizi, Maltada – 15 foizidan ortig’i band.

Mustahkam ko’p tarmoqli iqtisodiyotga ega bo’lish uchun iqtisodiy qaram bo’lmaslikkina emas, balki xar bir davlat o’z iqtisodiyotini mustaqil yaratishga va rivojlantirishga xarakat qilishi lozim. Bu jarayon davrida ushbu davlat halqning turmush darajasi yomonlashmasligi, hamda jamoatchilikdan talab qilinadigan sarf xarajat juda kam miqdorni tashkil qilishini maqsadga muvofiq deb xisoblaydi. Xar qanday davlat uchun esa turizm ana shunday amaliy yo’nalishlardan biri xisoblanadi, ayniqsa xalqaro turizm iqtisodiyotning boshqa muhim manbaa tarmoqlariga nisbatan katta sarmoya talab qilmaydi. Demak, iqtisodiyotning ana shu tarmog’ini rivojlantirish uchun boshlang’ich manba bo’lishi shart. Biroq bu xarajatlarning o’rni keyinroq to’ldiriladi, chunki turizmning rivojlaninshi xorijiy investitsiyalarning kelishini ta’minlaydi, bu esa o’z navbatida davlat byudjetining valyuta rezervini ko’tarilishiga olib keladi.

Dengiz va okeanlarga chiqish imkoniga ega bo’lish, sayohatchilarning davlatlarga jalb etilishida alohida o’rin tutadi, biroq O’zbekiston bunday imkoniyatlarga ega bo’lmasligiga qaramay, u Markaziy Osiyoning yo’llar tuguni chorrahasida joylashgan. Bu esa nafaqat xarakatlarning, tovar almashish, tkxnologiyalar va uskunalar ayirboshlash uchun, balki turizmni rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratadi. Masalan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo’qon, SHaxrisabz kabi qadimiy shaxarlarimiz bugungi kunda butun dunyoga mashxur Respublikamiz xududidagi 4 mingdan ortiq arxitektura yodgorliklari YUNESKO himoyasiga olingan. O’zbekistonning rekreatsiya resurslari yil mobaynida sayohatchilarning qabul qilish va ular uchun turli xildagi sayohat yo’nalishlarini tashkil etish imkoniga ega. Ko’pgina xorijiy ekspertlarning fikriga ko’ra, Markaziy Osiyo mintaqasi, ayniqsa O’zbekiston kuchli turistik potentsialga ega, bu esa ko’pgina sayohatchilarni oqimini o’ziga jalb etadi. Bu esa o’z navbvtida, bizning respublikaga keladigan xorijiy turistlar sonini ko’paytirish, ularga yuqori malakali servis xizmatlarini tashkil qilishgina emas, balki vatandoshlarimizning boshqa davlatlarga turistik yo’nalishlar bo’yicha chiqishlari uchun qulay sharoitlarni ham yaratadi. Bizning davlatimizda turizm faqatgina tarixiy obidalari borligi uchungina emas, balki

xukumatimiz tomonidan e’tibor kuchaytirilganligi, turistik biznes sohasiga oid bir qator meyoriy – xuquqiy  xujjatlarning qabul qilinaytgani sababli ham rivojlanib bormoqda.

chizma - 4

Uzbekistonda turizm rivojlanishining iktisodiy natijalari

*(2010-2020 yillarda "Uzbekturizm" MK buyicha)*




4 - chizmadan ko'rinib turibdiki, mamlakat eksportida turxizmat eksporti o'tgan yillarga nisbatan o'sib borgan. Lekin shu ahvolda ham YAIMda turizmning ulishi yuqori emas. Hozirgi kunda O'zbekiston YAIMda turistik xizmatlarning ulushi 0,4 dan 0,6% gachani tashkil etadi. Bu ko'rsatkich ham mavjud turistik resurslardan samarali foydalana olmayotganligimizni bildiradi.

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik resurslarga boy hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimizning betakror tabiati, tog' va tekislik, daryolari, cho'l va vaholari, ko'p va turli landshaft zonalari asosiy rekreatsiya resurslaridir. Mamlakatimizda yosh tarmoq hisoblangan turizm, kundan kunga rivojlanmoqda. Bu esa, ko'pgina ish o'rinlari ochish imkoniyati mavjudligini bildiradi.

O'zbekistonda tarixiy – madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7 mingdan ortiq ob'ektlar mavjud. Ekspert B. To'raev fikricha ulardan 545 tasi – arxitektura, 578 tasi – tarixiy, 1457 tasi – san'at yodgorliklari va 5500 dan ortig'i arxeologik ahamiyatiga jalb etilgan. 200 dan ortiq ob'ektlar ta'mirlanmoqda, 500 tasi esa ta'mirlanishga muhtoj. Ko'p mamlakatlar tajribasiga ko'ra, ta'mirlanish jarayonini o'zi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan ortiq mezeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat ob'ektlari miqdori bo'yicha Toshkentda -144 ta, Samarqandda – 118 ta, Buxoroda -201 ta, Xiva -310 tani

tashkil etadi. Ammo asosiy turistik resurslarimizdan turizm maqsadidafoydalanish tashkil etilmagan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turizmni iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida shakllantirish uchun hozirgi kundagi qilinadigan xarajatlar albatta kelajakda o'z samarasini beradi. Albatta, bunda O'zbekistonga keladigan sayyohlarning qancha vaqt turishi yoki davomiyligi ham katta ahamiyatga ega. SHuning uchun turistik resurslarni aniqlash va undan samarali foydalanish turistik infratuzilmani shaklantirish va turistik marshrutlarni kengaytirish, turistik xizmatlarni yaxshilash kabi ko'plab muammolarni hal etishimiz kerak.

Qo'yidagi 7 - jadval orqali ko'rish mumkinki, O'zbekiston ko'pgina turistik resurslarga ega mintaqadir. Ulardan madaniy – tarixiy, ekologik turizm resurslari hamda diniy turizm resurslari alohida ajralib turadi.

jadval - 7

*O'zbekistonning turli hududlarida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari*

| Туризм турлари | Шаҳар | Шаҳардан 10-20 км ўзоқликда | Қишлоқ жойлари | Одамлар яшамайдиган худудлар |
|---|---|---|---|---|
| Тарихий – танишув | 3 | 2 | 1 | 0 |
| Археологик туризм | 2 | 3 | 3 | 2 |
| Экологик туризм | 0 | 2 | 2 | 3 |
| Саргузашт туризми | 1 | 2 | 2 | 3 |
| Фермерлик ёки қишлоқ туризми | 0 | 2 | 3 | 1 |
| Сув (денгиз) туризми | 0 | 0 | 2 | 3 |
| Этнографик туризм | 1 | 2 | 3 | 0 |
| Конгресс – бизнес туризм | 3 | 1 | 1 | 0 |
| Ихтисослашган туризм | 1 | 2 | 2 | 2 |
| Курорт ва санотория лар | 1 | 3 | 3 | 3 |
| Диний туризм | 3 | 3 | 2 | 0 |
| Ёшлар туризми | 1 | 2 | 2 | 3 |
| Геронтологик туризм | 2 | 3 | 2 | 1 |
| Шоп - турлар | 3 | 2 | 1 | 0 |

Izoh: 3 - yuqori darajada imkoniyat, 2 - o'rta darajada imkoniyat, 1 - past darajada imkoniyat, 0 – umuman imkoniyatning yo'qligi.

*Manba: N.Tuxliyev, T.Abdullaeva. Natsionalnыe modeli razvitiya turizma. T.: 2006.*

Ayni kunlarda respublikamizda iqtisodiy faol aholining turizm sohasida bandlik ulushi juda ham oz. Bu sohada yangi ish o'rinlarini ochish uchun resurslar yetarli. Ammo turizmda xizmat turlarini takomillashtirish shu kunning asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda.Bu jihatlar, O'zbekistonda turizm servisini rivojlantirish borasida olib borayotgan siyosatida ham o'z ta'kidini topgan. Turizmda xizmat turlari 4 guruhga bo'linadi :

- Mehmonxona xizmati;

- Transport xizmati;
- Ovqatlantirish;
- Ekskursiya xizmati.

Bu xizmat turlarini rivojlanishi bilan bir qancha turizm sohalari shakllanadi, hamda yangi ish o'rinlari ochiladi. Mamlakatimiz mehnat resurslariga boy hisoblangan holda, turizm sohasida ham malakali ishchi kuchiga talab oshmoqda. Bu boradaToshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti hamda Samarqand iqtisodiyot va servis institutida turizm sohasi bo'yicha yo'nalishlarni ochilishi katta ahamiyatga ega. Bunda, yangi yetishib chiqayotgan bu malakali mutaxasislardan samarali foydalanish, ya'ni ularni o'z o'rniga qo'yish katta natija beradi.

Turizm sohasida ish o'rinlarini ochishning yana bir asosiy manbai tadbirkorlikdir. Hozirgi kunda respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Turizmda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'pgina jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Bunda:

- bozor munosabatlari sharoitida turizmda tadbirkorlikni rivojlanishi uchur sharoit yaratish;
- xizmat turlari shu jumladan, auditorlik, konsalting, turagentlik, turoperatorlik faoliyati bilan bog'liq xizmat turlarini hajmini oshirish;
- ko'p mablag' talab qilmaydigan xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yo'lga qo'yish;
- kichik va xususiy firmalarni ishga tushirish kerak bo'ladi.

Tizimning isloh qilinishi tufayli ko'plab yangi ish o'rinlari ochiladi, hamda turizm industrisi rivojlanadi. Hozirgi davrda turizm jahon iqtisodiyotida juda tez va jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda bu sohaga e'tibor yildan – yilga oshmoqda. SHuning uchun respublikamizda turistik bozorni shakllantirish o'ta muhim hisoblanadi. Turistik resurslardan samarali foydalanishning ikkinchi jihati bu, turistik bozorni shakllantirish hisoblanadi.

Turistik bozorga tushuncha beradigan bo'lsak, turistik bozorga tayyorlanayotgan yoki shu bozorda harakat qilayotgan korxona uchun bozor tushunchasining aniq bo'lishligi o'ta muhimdir. SHunga ko'ra bozorning faoliyat ko'rsatish davridagi aniq va doimiy raqobatchilarni, talabgorlarni va sotiladigan mahsulotlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Turistik bozorni hozirgi vaqtda va aniq manzilga qaratilgan turistik mahsulotlarni oldi-sotdi borasidagi talab va takliflarni birlashtiruvchi jamoaviy iqtisodiy bir holat sifatida belgilash mumkin.

Umuman olganda turistik bozorni ta'riflashda quyidagi holatlarni hisobga olish zarur:

- xarid qilish va sotishning asosiy predmeti xizmatlar ekanligi ;
- sayyohlik bozorining mexanizmiga sotuvchi va xaridordan tashqari talab va takliflarni ta'minlovchi bir qator vositachi (o'rtada turuvchi ) qismlar mavjudligi;
- turistik xizmatlarning moddiy imkoniyatlariga qarab iste'molchilarning turliligi;

- turistik takliflar, shuningdek, sayyohlik mahsulotlarning va xizmatlarning uch xil xususiyatda (tabiiy resurslar, yaratilgan resurslar, turistik xizmatlar) namoyon bo'lishi.

Bunga ko'ra sayyohlik bozorining quyidagi turlari yuzaga keladi:

- ichki turizm bozori (milliy turizm), mavjud mamlakatdagi ichki sayyohlik almashinuvi;
- xalqaro turizm bozori, mamlakat tashqarisidagi sayyohlik va chetdan kelgan sayyohlikni o'z ichiga oladi.

## 9.2. *Turistik resurslardan samarali foydalanishda xususiy tadbirkorlikni* **rivojlantirish**

Hozirgi kunda mamlakatimizda xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor berilmoqda. SHu kabi turistik bozorni rivojlanishida xususiy tadbirkorlikka keng o'rin berish, katta iqtisodiy samara beradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda turizm industriyasi shakllanayotgan davrda turistlarga xizmat ko'rsatish asosan xususiy firmalarga to'g'ri kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2008 yilning boshiga kelib, 400 dan ortiq tashkilot turistik faoliyat ko'rsatishga ruxsat beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan. Ulardan 350 tasi xususiy firmalarni (87,5%) tashkil kiladi. Xususiy biznes zimmasiga turistlar oqimining 95%, ularga ko'rsatilgan xizmatning 90%ga yaqini to'g'ri kelmoqda. O'zbekistonga kelgan va chiqib ketayotgan turistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar soni o'sib borayotgan bo'lsa ham soha xizmatlarining o'zoq muddatli rentabilligi pasayib bormokda.Xususiy biznes uchun asosiy yo'naltiruvchi omil daromaddir. Ammo agar 90-yillarda har bir turistdan daromatning uchdan bir qismi sof foyda hisoblansa, bugun o'sha daromad juda kam.

Turizm sohasidagi asosiy mulk(avvalo yirik mehmonxonalar) turizmga qarashli davlat korxonalari va tashkilotlari qulida bo'lib, u yerda boshkaruvning uta markazlashganligi va eng asosiysi bor mulkdan samaradorlikni oshirish uchun qilingan harakatdan manfaatdorlikning yo'qligi, menejment darajasining pastligiga olib kelgan . Ekspertlar fikriga ko'ra O'zbekiston turizm bozori oldiga qo'yilgan bu muammolarni bartaraf etish, belgilangan vazifani tez va samarali hal qilish uchun soxada quyidagi islohotlarni amalga oshrish lozim deb hisoblanadi:

- Iqtisodning bu sohasini kelajakda rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida chora – tadbirlar kompleksini amalga oshirish;
- Turizm bozorida kichik korxonalar ishtirokini faollashtirish.

Bugun O'zbekistondagi barcha turistik tashkilotlar faoliyatini boshqarish va nazorat kilish vazifasi MK «O'zbekturizm» zimmasiga yuklatilgan. Boshqaruvdagi mavjud tizim mehmonxona xizmatlarini baholashga ham ta'sir qiladi. Agar «O'zbekturizm» tizimiga qarashli otellar narx belgilash masalasida mustaqil bo'lganlarida edi, respublikaga kelayotagan sayyohlar oqimi ancha ko'paygan bular edi.

Ammo hozircha turistik klassdagi mehmonxonalar xizmati uchun narx summasini yuqori tashkilotlar tomonidan belgilanadi.

### **9.3.** *O'zbekistonda turizm infrastrukturasi holati va uni yaxshilash chora – tadbirlari*

Turizm infratuzilmasi deganda – turistlarning turistik resurslaridan foydalanishni ta'minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kammunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, yo'llar, turizmning xilma-xil korxonalari hamda turizm korxonalarining ishlatilishini ta'minlashga imkon yaratadi. Bu avtomobil va temir yo'llar, yo'l harakatini, havo yo'llarini, dengiz va daryo yo'llari harakatini tartibga soluvchi tizimlar, issiqlik, elektr va telefon aloqalari bilan ta'minlash va boshqalardir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida "Turizm to'g'risida" gi qonun 2006-2010 yilgacha O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida qator me'yoriy hujjatlar turistik infratuzilmalarni rivojlanitirish uchun kuchli turtki bo'ldi. Respublikamizda 20 dan ziyod turistik yo'nalishlar chet ellik turistlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Bu yo'nalishlar asosan YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan madaniy tanishuvlar dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi muvofiqlashtiruvchi markazlardan biri sifatida ko'rsatilgan.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlantirishda barcha infrastruktura ob'ektlarini jahon andozalariga yetkazib, turistlar talabini qondirish kerak. Buning uchun turizm infrastrukturasining tarkibiy qismlari mehmonxona, transport, oziq-ovqat, dam olish, davolash va boshqa ko'ngil ochar xizmatlarni yuqori darajada ko'tarishimiz mumkin.

Hozir 24 mamlakat bo'yicha 44 marshrutda xalqaro reyslarni xaftada 5-6 marta muntazam bajarmoqdalar. Transport infrastrukturasi O'zbekiston miqiyosida yaxshi rivojlanmagan. Masalan, "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy Aviakompaniyasi strukturasidagi barcha viloyatlar markazini bog'lovchi 12 ta aeroportdan faqat 5 tasi xalqaro andozalarga javob bermaydi, lekin ushbu aeroportlarda hozirda ta'mirlash va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash ishlari olib borilmoqda.

Ovqatlantirish infrastukturasida yutuqlarimiz ko'proq, mehmonxonalar qoshidagi yoki yakka tarzda restoran, bar, kafelar, yaxshi ishlab nafaqat turistlarga, ballki mahalliy aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Ayrim oqvatlantirish ob'ektlarining ahvoli, xizmat ko'rsatish darajasi talabga javob bermaydi. Agar ovqatlantirish ob'ektlari sanitariya holati nazorat qilinib, ovqatlar va xizmat ko'rsaishning turli ish shakllari joriy etilsa, ijobiy yutuqlarga erishgan bo'lamiz.

Turizmni rivojlanitirishda mamlakatimizning diqqatga sazavor joylari faoliyatini kengaytirish muhimdir. SHuning uchun ham tarixiy va zamonaviy arxitektura ob'ektlari ahvolini saqlash har birimizning burchimizdir. Agar Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida xalqaro turizm uchun maxsus ochiq iqtisodiy hududlar tashkil qilish bo'yicha qonunlar amalda joriy etilsa, tarixiy obidalarimizni rekonstruktsiyalashga jiddiy e'tibor beriladi. CHunki bu obidalar mamlakatimizning buyuk o'tmishi, allomalari va unitilmas tarixidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda turizm bozorida juda keskin raqobat vaziyati xukm surmoqda, shuning uchun iqtisodiy qonunlar, menejment, marketing bilimlarini o'rganmasdan turib, biznesdagi raqobat kurashida g'olib bo'lish mumkin emas. Aynan shu bilimlar turistik biznes mutaxassislariga zarur qarorlarni qabul qilishga, faoliyatini rejalashtirishga xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka, korxonani gullab yashnashga imkon yaratadi.

O'zbekistonda 4000 turistik ob'ektlardan faqat 500 ga yaqini xizmat ko'rsatib, qolganlari esa restavlatsiyalash duchun yirik miqdordagi investitsiyani talab qiladi. SHuning uchun ham turizm moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan sifati va darajasini oshirish uchun “O'zbekturizm” Milliy kompaniyasi investitsion programma ishlab chiqqan bo'lib, u 1998-2005 yillarni o'z ichiga olgan edi.

### **9.4.** *Turistik mahsulotlariga bo'lgan talabning mavsumiyligini optimallashtirish yo'llari*

O'zbekiston xalqaro turistlarni qabul qilish va barcha xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga, turizm tashkilotlari kerakli resurslar bilan ta'minlangan. Xalqaro turistlarning O'zbekistonga oyma-oy kelishini tahlil qilish natijasida quyidagi mavsumiy o'zgaruvchanlik aniqlandi. 10-, 9-, 1-oylarida xalqaro turistlarning kelishi past bo'lib 6-, 7-, 8-oylarda esa ancha yuqori. Respublika bo'yicha bu ko'rsatkich 2000-2006 yillarga hisoblangan.

Turistlarning kelishi O'zbekistonda mavsumiy bo'lib, 10-oyda va 8-oyda eng ko'p tashriflar qayd etiladi. YAngi yil oldidan xalqaro turistlarning kelishi dam olish turizmining motivlariga asosan yuqori ko'rsatkichlarda ega.

Turizmning mavsumliyligi tahlilining ilmiy natijalari: birinchidan,turistlarni qabul qilish bo'yicha 1-5-oylarida rezervlar mavjud bo'lib, ulardan unumli foydalanish mumkin; ikkinchidan, O'zbekistonga keluvchi turistlarga 9-, 10- oylarida turmahsulot bahosini 30-50% kamaytirib, ko'proq turist qabul qilishi mumkin.

CHet ellarda O'zbekiston turistik maxsulotiga bo'lgan talab yuqori bo'lib, bir-ikk haftalik turmahsulot sotilishi tavsiya qilinadi. Xalqaro turistlar O'zbekstonda kam kelgan paytlariga ichki turizmni rivojlantirish maqsadida 1- 3 kunlik, dam olish kunlari uchun alohda turizm mahsulotlarini sotish samarali hisoblanada. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi turizm tashkilotlari turistlarga xizmat ko'rsatish, turistlarni qbul qilish va jo'natish bo'yicha bajargan asosiy natijalari quyidagi jadvalda ifodalangan.

jadval - 8

***O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatining 2010-2020 yillardagi o'sishi***

*(ming kishi)*

| Йиллар | Қабул қилиш | | Жўнатиш | | | Жами |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Халқаро туристлар | Миллий туристлар | Узоқ хорижий давлатлар | МДҲ давлатларига | Ўзбекистон Республикасига | |
| 2001 | 231,4 | 298,5 | 36,8 | 8,4 | 117,6 | 712,8 |
| 2002 | 198,1 | 247,4 | 39,9 | 21,4 | 202,3 | 709,2 |
| 2003 | 230,4 | 240,9 | 53,0 | 16,3 | 179,2 | 720,0 |
| 2006 | 262,8 | 254,7 | 32,8 | 22,7 | 165,7 | 738,7 |

O'zvekiston jami turistlar soni 2001-2006 yillarda 103,6% ga oshgan. YUqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, turistlarning kelishi yil sayin o'syapti bu O'zbekistonda ma'lum darajada valyutani kalishiga ijobiy ta'sir qiladi. Turistlar soni 2001- yilgacha kelishi, qabul qilish va jo'natish turlari bo'yicha ham ko'paygan.O'zvekiston bo'yicha turistlar kelishining moliyaviy ta'sirining tahlillari, asosiy turizmning (Toshkent,

Samarqand va Xorazm) viloyatlari bo'yicha tahlil quidagi jadvallarda ifodalangan.

jadval - 9

***O'zbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy natijalari** (2010-2020yillarda*

| № | **Кўрсаткичлар** | **2000** | **2005** | **2010-й** | **2020-й** |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Туризм хизмати, жами млн.сўм | 11,3 | 811,1 | 6882,1 | 17549,8 |
| 2. | Фойда, жами млн.сўм | 2,1 | 236,7 | 443 | 58,3 |
| 3. | Хизмат кўрсатиш, минг туристлар | 461,02 | 458,4 | 770,2 | 738,7 |
| | *Шу жумладан:*<br>Қабул қилиш | 332,82 | 305,8 | 552,8 | 480,5 |
| | Хорижий турист | 92,35 | 92,02 | 278 | 868,8 |
| | Жўнатиш | 125,22 | 152,6 | 217,4 | 128,6 |
| | Чет элга | 34,35 | 43,36 | 49,04 | 59,2 |
| | МДҲга | 36,64 | 14,52 | 14,3 | 18,8 |
| | Давлат ичида | 54,23 | 94,62 | 154,06 | 180,2 |
| 4. | Турист - кун | 1526,2 | 1315,0 | 1741,3 | 1406,0 |
| 5. | Турхизмат экспорти, минг АҚШ $ | 6000 | 8000 | 27295 | 28020 |

*«O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasi bo'yicha)*

Xalqaro va ichki turistlarning o'zgarishiga asosan quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1. talab va taklif o'zgarishi va turizm xizmatlarining sifatini oshirish.
2. Turmahsulotga bo'lgan bahoni optimallashtirish va inflyatsiya jarayoni pasaytirish.
3. turistlarning kelishini ta'sir qiladigan asosiy to'siqlarni kamaytirish.
4. turmahsulotga bo'lgan mavsumiylikni yengillashtirish.

5. turizm kon'yukturasini o'rganib, xalqaro turizm bozorlarida milliy turmahsulotni sotish.
6. turizm sohasi uchun iqtisodiy, xalqaro biznes, xalqaro xuquq va marketing bilimlariga ega bo'lgan mutixasislar tayyorlash.

Ko'pgina mamlakatlar va mintaqalar o'z xududlarida turizmni rivojlantirishda manfaatdor bo'ladilar, lekin hamma ham buning uchun imkoniyatga ega emas. Sayohatchi uchun hatto Antarktika yoki kosmos ham jozibador bo'lishi mumkin, ammo buning uchun ancha kapital mablag'lar zarur bo'ladi. Bunda infratuzilma va ekologiya muhim rol o'ynaydi. Turizmning rivojlanishi mintaqa iqtisodiyoti uchun ham, shuningdek, aholi uchun ham foydalidir. Eng avvalo, yangi ish o'rinlari va korxonalar ochiladi. O'zbekistonda 350 ga yaqin korxonalar (xususiy sayyohlik operartorlari, mehmonxonalar, avtotransport korxonalari) turizm bilan shug'ullanishi mumkin.

«O'zbekturizm» MKning ma'lumotlariga ko'ra, faqat 2006 yilda bevosita sayyohlik sohasida 30 ming, shu jumladan, kompaniyalar tarkibida 5,6 ming kishi, transport xizmatida 4,7 ming savdo xizmatida 3,8 ming sayyohlik ob'ektlari qurilishida 2,6 ming, madaniy muassasalarda 30 ming, yodgorliklar va tabiatni muxofaza qilishda 1,7 ming, kichik qo'shma va xususiy sayyohlik korxonalarida 2.2 ming kishi ishlaydi. YAqin kelajakda bandlarning soni 5-8 %ga oshadi. Turizm sohasi respublikaning iqtisodiy jihatdan faol aholining (hunarmandlar, oziq-ovqatda ishlovchi xodimlar, tikuvchilar, shifokorlar, aviatsiya, rassomlar va boshqalarning) kamida 5%ni ish bilan bilvosita ta'minlaydi. Xalkaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra jahonda ditta sayyohga 3 ta ishchi joyi to'g'ri keladi. SHunday qilib, agar 2005 – yilda jahonda 625 mln tashrif bo'lgan bo'lsa, 1,8 mlrd kishi ularga xizmat ko'rsatishda bevosita yoki bilvosita band bo'lgan.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasi shakllantirish va rivojlantirishga (asosan joylashtirish sohasiga) chet mamlakatlar xususiy sektori investitsiyalarini jalb qilish bu tarmoq industriyasini kapital mablag'lar bilan ta'minlashning qulay va samarali vositasi bo'lib xisoblanadi. Eski mehmonxonalar imkoniyat tug'ilishi bilan tegishli investorlarga sotilishi zarur. Ular kelajakda turizm foydasiga hamda o'zlarining xususiy tadbirkorlik manfaatini hisobga olib, mehmonxonalarni ta'mirlashi va foydalanishdagi layokatlarini namoyish kilishlari mumkin. Sotishning shartlari belgilangan vaqt davomida real investitsiyalash va zamonaviy ta'mirlashni tugatish bo'lishi lozim. Zamonaviylashtirish barcha nomerlarni, umumiy binolarni, restoran, barlar savdo qatorlari xizmat ko'rsatish byurolari, dam olish joylari, inshootlarning tashqi ko'rilishlari va boshqa barcha infratuzilmalarni to'liq yangilashni o'z ichiga oladi.

*Nazorat savollari:*

1.Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda turistik resurslarni o'rni qanday.
2.Turistik resurslardan samarali foydalanishda xususiy tadbirkorlik o'rnini tushuntiring.
3.O'zbekistonda turizm infrastrukturasi holati va uni yaxshilash chora – tadbirlari nimalardan iborat.

4.Turistik mahsulotlariga bo’lgan talabning mavsumiyligini optimallashtirishyo’llarini tushuntiring.

## MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mintaqaviy turizmdan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarining tahlili.

Mintaqalarning turistik resurlarini tasniflash usullari.

Mintaqalarning turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash mezonlari.

Mintaqalarda ekologik turizmni rivojlantirish resurslari va ulardan foydalanish yo'llari.

Mintaqalarda ziyorat turizmi markazlari va ulardan samarali foydalanish yo'llari.

Mintaqalarda qishloq turizmini rivojlantirish samarali yo'llari.

Mintaqaviy rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik–iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash.

Turizm industriyasida raqobatbardosh omillarni aniqlash.

Markaziy Osiyo turizmi imkoniyatlarini taxlil qilish usullari.

O'zbekistonni turistik rayonlashtirishdagi yetakchi omillar tahlili.

Toshkent turistik mintaqasi imkoniyatlari.

Samarqand turistik mintaqasi rivojlanishi tahlili.

Buxoro-Navoiy turistik mintaqasi imkoniyatlarini baholash.

Xorazm turistik mintaqasi faoliyati tahlili.

Farg'ona turistik mintaqasi imkoniyatlarini baholash.

Jizzax-Sirdaryo turistik mintaqasi ochilmagan imkoniyatlar.

O'zbekistonning Janubiy turistik mintaqasi imkoniyatlari tahlili.

Qoraqalpog'iston turistik mintaqasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

Mintaqalarning madaniy-tarixiy merosi, ulardan foydalanish imkoniyatlari.

Mintaqaviy turistik resruslardan foydalanishda xalqaro tajribadan foydalanish yo'llari.

## «MINTAQAVIY TURIZM VA TURISTIK RESURSLAR» FANI BO'YICHA GLOSSARIY

**AVTOBUSLI MARSHRUTLAR-** bunda turistlar mamlakatlarni, butun turistlik destinatsiyalarni bir punktdan ikkinchi punktga harakatlanib kesib o'tadilar, umuman turistlar avtobuslarda juda oz uxlaydilar, asosan uxlash uchun qimmat bo'lmagan mehmonxona yoki otellar kuzda tutiladi.

**AGENT-** turistlarni qabul qilish va xizmat ko'rsatish, turpaketlarni sotish topshiriqlarini bajaruvchi turistik agentlik vakili.

**AKVIZITSIYA-**mamlakatga xorijiy turistlarni jalb qilish.

**AKTIV TURIZMGA** har - xil sarguzashtli sayohatlarni kiritish mumkin:sarguzashtli turizm (adventure tour), ekzotik joylarga, vulqonlarga, orollarga, sharsharalarga va shu kabi joylarga borishga aytiladi **ANNULYATSIYA-** turistlar safarini bekor qilish.

**BIRINCHI KLASS** – bu ham nisbatan yuqori darajali xizmat ko'rsatish bo'lib, 4-5 yulduzli mehmonxonalarga joylashtirish, biznes klass darajadagi samalyotlarda uchishni, obro'yli restoranlarda ovqatlanishni, individual transfertni, gid xizmatlarini nazarda tutadi.

**BOTEL-** Mos ravishdagi jihozlangan kichik kema sifatida foydalanuvchi suvdagi uncha kata bo'lmagan mehmonxona.

**BUYURTMALI TUR.** Buyurtmali turlarni sotishda dasturni shakllantirish va xizmatlar tarkibini yaxlitlash turist xohishiga binoan, uning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

**GURUHLI TURIZM.** Nisbatan arzon, ko'p sonli turistlar uchun hamyonbop, ammo guruhli turizmda guruhning barcha a'zolari o'rnatilgan tartibga bo'ysu-nishlari lozim.

**GO'ZAL TOG'LI MAVZELARGA SAYOHAT**, tog'larda sayr qilish, guzal joylarni tomosha qilish.Masalan: Grand Kanon, Tosh barmoqlar vodiysi (Avstraliya), Ulkan sharsharalar (Niagara, Viktoriya). Turistlar uchun ularni tomosha qiladigan maydonchalar, moslamalar o'rnatilgan.

**DINIY TURIZM-** (haj safari Makkayu Madina va Umra safar, ziyorati) hozirgi vaqtda juda yuqori talabga ega bo'lib, ommaviy tus olmoqda.

**IJTIMOIY TURIZM** – bu davlat tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratiladigan mablag'lar hisobidan sayohat qilish hisoblanadi. Ijtimoiy turizmning maqsadi foyda olish emas, balki daromadi kam bo'lgan kishilarni dam olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish uchun ularni qo'llab quvvatlash hisoblanadi.

**ILMIY TURIZM.** O'qish, ta'lim olish maqsadida, malaka oshirish maqsadida safar qilish xalqaro turizmning nisbatan yangi turlari safiga kiradi.

**INDIVIDUAL TUR**. Turistlarga ko'proq erkinlik va mustaqil harakatlanish imkonini beradi. Guruhli turlarga nisbatan qimmatroq, chunki individual turlar tarkibiga kiruvchi ichki marshrutdagi transport, gid xizmatlari va ba'zi boshqa xizmatlar uchun to'lov to'lig'icha turist zimmasiga tushadi.

**INKLYUZIV TUR** (IT) Bu oldindan rejalashtirilgan va dam olishning yoki turizmning ma'lum turi, hamda turistlarning ma'lum ijtimoiy guruhiga va uning yoniga yo'naltirilgan qat'iy xizmatlar to'plamidir.

**ICHKI TURIZM** - o'z davlati chegarasi doirasida doimiy yashovchi fuqarolarni vaqtinchalik tashrif buyurovchi joyda (to'lanadigan faoliyatsiz) turistik maqsadlarda sayohat qilishi.

**IQTISODIY BO'G'IN (KLASS) MEHMONXONASI-** Kichik yoki o'rta

sig'imli korxonalar (150 o'rinli va undan ortiq) magistral yo'l yoqalarida joylashadi. Xizmatlar to'plamini cheklanganligi, oddiy va tez xizmat ko'rsatish bilan ajralib turadi. Iste'molchilari – ko'rsatilgan (istiye'mol qilingan) xizmatlar uchun haqiqiy to'lovni amalga oshirishga intiluvchi va to'liq pansionga muhtoj bo'lmagan biznesmenlar, xususiy turistlar uchun mo'ljallangan.

**IXTIYORIY SERTIFIKATLASH** qo'yidagi holatlarda qo'llaniladi, uchinchi shaxslar yoki qo'shma korxonadagi chet el sheriklari ishlab chiqariladigan tovarlar va taqdim etiladigan xizmatlar uchun qo'shimcha sertifikatni talab etgan vaziyatlarda foydalaniladi.

**KIRUVCHI TURIZM-** faoliyati to'lanmaydigan turistlik maqsadlarda doimiy yashamaydigan shaxslarni o'zga mamlakat hududiga tashrifi, sayohati.

**KO'NGIL OCHAR TURLAR**– (entertainment) turizm dasturlarida ma'lum ma'noda turistlar uchun qo'shimcha xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan.

«Turistning yaxshi ko'ngil ochishi» uchun xizmatlarning barcha qirralarini ochishda yordam beradi. Bu faol o'yinlar (golf, kriket, kegli), otlarda sayr qilmoq, attraktsionlarga borish (tematik bog'lar, masalan, Disneylend, Delfi kari, zooparklar), restoranlar, dangsinglar, disko klublar, magazinlar, kazino va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

**LYUKS KLASS.** Ushbu klass bo'yicha turlarni tashkil qilishda odatda eng yuqori darajali xizmatlar jalb qilinadi: 5 yulduzli xashamatli mehmonxonalar, birinchi klass va biznes aviatsiya samalyotlarida uchish, xashamatli restoranlarda ovqatlanish, alohida transport lyuks klass mashinalarida, alohida gid xizmatlari va h.k. Bunday turlar VIP-xizmat ko'rsatish turkumi (razryadi) bo'yicha taqdim etiladi.

**MALAKAVIY ISH TURIZMI.** Turizmning mazkur turiga ish maqsadlari bilan safarlar kiradi. Hozirgi zamonaviy taraqqiy etgan jamiyatda hayot xalqaro aloqalarni bog'lash zaruriyatini chiqarmoqda. So'ngi yillarda ishchan soha vakillarining, tadbirkorlarning tashriflari ommaviy tus olmoqda.

**MAROSIM TURIZMI** – (ritual tour) odatda qarindoshlarning qabrlari yoki janglarda vafot etganlar dafin etilgan joylarga uyushtiriladi. Qarindoshlar yoki yaqinlar qabrlari va maqbaralarini ziyorat qilish marosim turizmining asosini tashkil etadi.

**MEHMONXONA-APARTAMENT (APART-OTEL)-** Sig'imi bo'yicha kichik yoki o'rta o'lchamli (400 o'ringacha) yirik shaharning doimiy bo'lmagan aholisiuchun xosdir. Vaqtinchalik turar joy sifatida ko'p yillarda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishdan foydalaniladigan kvartira (ijara) tipidan tashkil topadi. Mehmonxonani mazkur tipida narxlar qoidaga ko'ra joylashuv muddatiga bog'liq ravishda (turlanib) turadi. Uzoq muddatga to'xtab o'tuvchi oilaviy turistlar, biznesmenlar va ijarachilarga xizmat ko'rsatadi.

**MEHMONXONA-HOVLI-** Otellardan sig'imi, xizmat ko'rsatishi, sodda standartligi bilan ajralib turuvchi korxona, uchrashuvlar va mehmonlar tashrifi uchun qator jamoa xonalarini mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Mehmonxona-hovli tarkibi (strukturasi)da restoran yoki barni mavjud bo'lishi majburiydir.

**MOTEL**-SHahar tashqarisida, shahar bo'yida, magistral yo'l yoqalarida joylashgan oddiy bir yoki ikki qavatli binolar. Bu kichik yoki o'rta korxonalardir (400 o'ringacha). Kam sonli xodimlarni o'rta darajali xizmat ko'rsatishi harakterlidir. Mijozlari bo'lib havaskor avtoturizmiga urg'u berilgan turli kategoriyadagi turistlar hisoblanadi.

**OTEL-GARNI-** Mijozlarga cheklangan miqdordagi xizmatlarni: joylashuv va kontinental nonushtani taqdim etuvchi korxonalar.

**OTEL-LYUKS-** O'z sig'imi bo'yicha mehmonxonani mazkur tipi kichik yoki o'rta korxonalar safiga kiradi. Odatda shahar markazida joylashadi. YAxshigina ta'lim olgan personal-xodim konferentsiya, xizmat uchrashuvlari ishtirokchilari biznesmenlar bo'lib hisoblangan talabchan mijozlarga servisni juda yuqori darajasini ta'minlaydi. Barcha

mumkin bo'lgan xizmat turlarini o'z ichiga oluvchi nomerlarni narxlari ancha qimmat turadi.

**OTEL-KURORT-** O'z sig'imi bo'yicha mehmondorchilikni to'liq xizmatlar to'plamini taklif etish bilan ajralib turadigan korxona. Bundan tashqari, bu yerda parhez taomlar va mahsus tibbiy xizmat ko'rsatish kompleksini olish mumkin. Kurort mintaqalarida joylashadi.

**PANSION -** bu uch martalik ovqatlanishdir. Qimmatbaho xizmat ko'rsatish variantlarida butun kun davomida va xattoki tunda istalgan vaqtda va istalgan miqdorda ovqatlanish hamda ichimliklar (spirtli ichimliklarni ham qo'shib hisoblaganda) ichish imkoniyati nazarda tutilishi mumkin.

**PIYODA** – (walking or hiking tour) – turistlik yo'nalishlari. Traking tour - piyoda yo'nalish yoki sayr qilish turizmidir. Odatda yo'nalishning uzunligi 2–6 km.dan xattoki 20-50 km.gacha cho'zilishi mumkin.

**REKREATSION TURIZM** – dam olish maqsadidagi turizm bo'lib, qator davlatlar uchun turizmning ommaviy shakli bo'lib hisoblanadi. Ispaniyaga, Italiyaga, Frantsiyaga, Avstriyaga chet el turistlarini tashrifi avvalo mana shu maqsadni ko'zda tutadi.

**ROTEL-** Tunash uchun mo'ljallangan kreslolar joylashtirilgan bir yoki ikki o'rinli vagonlardan tashkil topuvchi harakatlanadigan mehmonxonadir. Xojatxona, oshxona, muzlatgich va keyinish uchun mo'ljallangan xonalar mavjud.

**SARGUZASHTLI TURIZM** – o'ziga xos tarzda dam olishni bir turi bo'lib, turistlarni nafaqatgina ular uchun jalb qiluvchi joylar bilan ta'minlash, balki g'alati, g'ayritabiiy faoliyat turi bilan shug'ullanishga jalb qiladi.

**SAFARI SAFARY TOUR-** qo'riqxonaga hayvonlarni tomosha qilish uchun sayr, ovchilik, baliq ovi maqsadidagi sayohat, fotoovchilik, Keniya yoki JAR qo'riqxonalariga sayr, tabiatda ajoyib hayvonlarni erkin holda ko'rish maqsadidagi sayrlar.

**SERTIFIKATLASH** – bu aholi salomatligini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida tayyorlangan korxona mahsulotlari yoki xizmatlari sifatini tartibga solish jarayonidir. Turizm va mehmonxona xizmatlari sertifikatlashda majburiy hisoblanadi.

**SOG'LOMLASHTIRUVCHI DAM OLISH TURIZMI** o'ta shaxsiy individual harakter kasb etadi. Lekin ko'pgina holatlarda, kira haqiga chegirmalar olish maqsadida hamkorlik uchun turistlar birlashadilar. Turizmni boshqa turlariga nisbatan davolanish uchun turlar odatdagi muddatlardan ko'proq bo'lib 24-28 kunni tashkil etadi.

**SOG'INISH, QO'MSASH TURIZMI**. Turizmni mazkur turi qarindoshlarinikiga, tug'ilgan joylarga va yaqinlarinikiga tashrif qilish ehtiyojiga asoslangan va xalqaro turistlik almashuvda muhim o'rinni egallaydi.

**SUVDA SAYOHAT QILISH MARSHRUTLARI** – (water tour) shulardan eng ko'p tarqalgani suv sayyohligi - boat tour - qayiqlarning har - xil turlarida, yaxtalarda, poroxod-kemalarda sayr qilib, dam olishni o'z ichiga oladi.

**TANISHUV (EKSKURSION) TURIZM.** Turizmni bu turi o'z ichiga tanishuv (bilish, ko'rish va eshitish) maqsadlari bilan bog'liq tashrif va sayohatlarni o'z ichiga oladi.

**TASHKIL ETILGAN TURIZM** – bu tur tashkilotlar tomonidan tashkil etilagan alohida shaxslarni yoki bir guruh turistlarning sayohatidir. Tashkil etilgan turistlar, turistlar yo'llanmasini harid qilish yo'li bilan sayohat xuquqini qo'lga kiritadilar.

**TEMIRYO'L TURISTLIK MARSHRUTI** – (rail adenture tour) – bunda turistlar safar davomida ko'pgina joy va mintaqalar bilan tanishadilar, bu davrda ular vagonlarning juda ham qulay kupelarida yashaydilar, ko'chib yuruvchi restoranlarda ovqatlanadilar.

**«TUNASH VA NONUSHTA» XILIDAGI XUSUSIY MEHMONXONA-**

AQSHda keng tarqalgan. Bu mehmonxona kichik (ba'zida o'rta) sig'imli. SHaharatrofida yoki qishloq joylarda joylashgan. Xizmat ko'rsatishga, qoidaga ko'ra, nonushta va uy sharoitidagi yengil tamaddi kiradi. Mijozlari bo'lib uy sharoitiga intiladigan tijoratchilar va yo'nalishdagi turistlar hisoblanadi.

**TUR -** muayyan yo'nalish bo'yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat.

**TURIZMNING PASSIV TURIGA** turistlik sayyohlikning tinchroq vakam kuch sarf qilinadigan, jismoniy zuriqishga xos bo'lmagan turi kiradi. **TURIZM STRATEGIYASI** turizmni rivojlantirish va qayta tashkillashtirish sohasidagi davlat faoliyatini belgilaydi. Bu faoliyatavvalo amalga oshirish uchun vaqt va kattagina moliyaviy resurslarni talab etuvchi maqsadli dasturlar va rivojlanishning umumiy kontseptsiyasini ishlab chiqishga qaratilgan.

**TURISTIK AGENTLIK-** xorij yoki mamlakat ichida turistik safarlarga tayyorgarlik ko'rishda ma'lum ishlarini bajaradigan tashkilot.

**TURISTLIK KLASS** 2-3 yulduzli mehmonxonalarda joylashtirishni doimo aviareyslarning iqtisod klasslarida uchishni, shved stoli bo'yicha ovqatlanishni, guruhli transfertni nazarda tutuvchi eng ommalashgan xizmatko'rsatish turidir.

**TURTO'PLAM** (turpaket) – iste'molchilarga guruhli yoki individual variantlar bo'yicha taqdim etiladigan xizmatlar to'plamiga kiradi.

**TURIZM TAKTIKASI** – bu aniq sharoitlarda qo'yilgan maqsadga erishish usullari va aniq chora tadbirlardir (masalan, xalqaro turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi, turizmda narxni shakllantirish, soliqqa tortish va h.k.). Turizm taktikasining maqsadi mazkur xo'jalik vaziyatida yanada maqbulyechimni tanlashdan iboratdir.

**TURISTLIK TALAB -**to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan aholining turmahsulotga bo'lgan talabi tushiniladi. Turistlik talab amaldagi narx- navolarda aholi tomonidan aniq bir turistlik-ekskursiya xizmatlarini sotib olishi bilan belgilanadi

**TURIZMDA TAKLIF**-bozordagi talabga muvofiq vujudga keladi, ya'ni turist uchun uning dam olishi va sayohati jarayonida lozim bo'lgan turli xildagi xizmatlar shular jumlasiga kiradi. Takliflar-bu mahsulot ishlab chiqaruvchining bozorga talab qilinadigan aniq mahsulotni yetkazib berish uchun ideal tayyorgarlik va aniq imkoniyatga ega bo'lishi tushuniladi.

**FLAYTEL-** Agromehmonxona yoki «uchuvchi otel». Favqulodda qimmat va mehmonxonani kamyob turi hisoblanadi. Qo'nish maydonchasi va meteorologik xizmat aloqalari bilan jihozlangan.

**FLOTEL-** Ko'p hollarda «suvdagi kurort» deb nomlanuvchi katta mehmonxona. Turistlarga keng turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi shinam nomerlar: basseyn, suv chang'ilari, baliq ovlash uchun sharoit yaratadigan, suv ostida suzish, suv osti ovi, trenajer zallari, konferentsiya va kongresslar uchun zallar, kutubxona, turli-tuman ta'minotlar (telefon, telefaks,teletayn, televizor, va x.k).

**FAMILIARIZATION TRIP YOKI FAMTRIP**, ya'ni tanishtiruvchi, reklama safari. Marshrutni qaytadan batafsil ishlash va uning shartlari bilan tanishish uchun reklamali sayohatlarga asosan turli dilerlar va turoperatorlar yoki turistlik agentliklar ishchilari borishadilar. Ular butun marshrutni to'laligicha bosib o'tishadi va yashash sharoitlarini, ekskursiya dasturlarini, ovqatlanish asosini, transferni, madaniy va ko'ngil ochar dasturlarni aniqlashadilar.

**XALQARO TURIZM** –vaqtinchalik kelgan joyida faoliyati to'lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqarigaturistlik maqsadlarda safar qilishi.

**CHIQUVCHI TURIZM** – bir mamlakat hududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga faoliyati to’lanmaydigan sayohati, tashrifi.

**SHAXSIY YOKI IJARADAGI AVTOMOBILLARDAGI TURIZM** (self drive itinerarries) o'z mashinasidan ajralmagan holda sayohat qiladigan turistlar guruhi ham mavjud. Ular bir qancha tranzit vizalar olib, murakkab marshrutlar bo'ylab bir necha mamlakatlarni kesib o'tishadi, ayrimvaqtlarda ular mashinalari orqasida ko'chib yuruvchi uylarni sudrab yuradilar, unda ular taom tayyorlashadilar, ovqatlanishadilar va tunashadilar.

**SHOP-TURLAR** Rossiya va SNG davlatlari uchun xosdir. Xorijga tashrifning asosiy maqsadi bo'lib, olib yana qayta sotish uchun halq iste'moli tovarlarini harid qilish hisoblanadi (poyafzal, trikatoj va boshqa tovarlar – Turkiyada, Italiya, Portugaliya, Suriyada; yozgi to'qima kiyimlar – Indoneziyada; pustinlar – Gretsiya va Argentinada; mebel – Polsha va Italiyada; tele-radio mahsulotrlar BAA da; avtomashinalar Germaniyada, SHvetsiyada, Finlandiyada, Gallandiyada).

**EKZOTIKA (G'ALATI, AJIB) TURIZMI**. Keyingi yillarda o'zining ajibligi bilan taajublanarli turlar paydo bo'la boshladi. Bular qatoriga ko'yidagilarni kiritsa bo'ladi: «Manos trevel» nomli grek turfirmasi Oyga sayohatni rejalashtiradi.

**EKOTURIZM** atrof muhitni saqlashda iqtisodiy raxbatlantirish uchun sharoit yaratadi. «Ekoturizm» tushunchasi sayohatlarni juda keng qirralarini qamrab oladi, ya'ni, o'quvchilar uchun uncha katta bo'lmagan tanishuv turlaridan tortib, to milliy parklar va qo'riqxonalarlarga uzluksiz turistlik sayohatlarni qamrab oladi.

**YARIM PANSIONDA** (ikki marta ovqatlanish) ertalabki nonushta va tushlik yoki kechki ovqat nazarda tutilgan bo'ladi.

**O'RGANUVCHI TURIZM - SONNOISSCUR TOUR.** Turizm markazlariga biror narsa o'rganish uchun borishdan iborat. Bular dunyoga mashhur Nyu- York (har yili 32 mln turist bu yerga o'rganish maqsadida borishadi), Parij, Madrid, Rim, Peterburg, Qoxira, Singapur, Gongkong, Rio-de-Janero va shu kabi shaharlardir. Turistlarning qiziqish ob'ekti bo'lib qadimgi joylar, muzeylar, haykallar, shaharlarning chiroyli landshaftlari xizmat qiladi.

**O'RTA (KLASS) BO'G'INLI MEHMONXONA-** O'z sig'imi bo'yicha oteldan katta (400-200 o'rinli) shahar markazida yoki shahar atrofida joylashgan. yetarli darajada keng xizmatlar turini taqdim etadi, ulardagi narxlar u joylashgan mintaqa darajasiga teng yoki undan bir muncha yuqoriroq bo'lishi mumkin. Biznesmenlar, xususiy turistlar, kongress, konferentsiya ishtirokchilarni va hakozolarni qabul qilishi mumkin.

**QISHLOQ TURIZMI - FARM TOUR, RIRAL TOUR.** Dam olish vaqti har qanday shaharlik uchun qishloqdami yoki dala xovlidami juda ham maroqlidir. Bu xayot talabi bo'lib, doimo dala xovlilarini yoki boshqa joylarni ko'p yillar davomida sinalgan va tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijaraga olinadi

**QUMSASH TURIZMI** – bu asosan qarindosh yoki do'stlarini ziyorat qilishga mo'ljallangan bo'lib, o'z mamlkatlaridan ayrim sabablarga ko'ra ko'chib ketgan kishilar bilan bog'liq.

**HAVO ORQALI TASHISH TURIZMI.** Tashishning kattagina qismini havo orqali tashishlar tashkil etib, ular uzoq masofalarga tashishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bundan tashqari qit'alararo, okeanlar orqali tashish ham kiradi. Yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan yuqori tezlikka ega va xavfsiz havo laynerlarining yaratilishi bilan turistlarni qit'alararo tashish oshib ketdi. Turistlarni tashishda mavjud marshrutlar bilan bir qatorda «charter» yo'nalishlari ham amalga oshiriladi.



**HAYVONLAR BILAN HARAKATLANADIGAI MARSHRUTLAR** (fil,

tuya, eshak, ot, itlarda). Norse riding tour - ot bilan sayr qilish turistilik marshruti keng tarqalgan. Turistlar texnika vositalari bilan borish qiyin bo'lgan tabiatning diqqatga sazovor joylariga ana shu vositalaryordamida borishlari mumkin.

# ILOVALAR

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

## 2021-2022 YILLARDA XORAZM VILOYATINING TURIZM SALOHIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO’G’RISIDA

Xorazm viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada rivojlantirish, zamonaviy turizm infratuzilmasi, yangi dam olish maskanlarini barpo etish, ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, turizm sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish hamda yangi ish o’rinlarini tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi 2021-2022 yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi (keyingi o’rinlarda —Dastur) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan «turizm mahallalari»ni tashkil etish;

tashrif buyuruvchi turistlar uchun qo’shimcha xizmat turlari va qulay shart-sharoitlar yaratish, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish;

madaniy ko’ngilochar tadbirlar va festivallarni tashkil etish hamda yoshlarni sportga jalb etish;

ekoturizm, tibbiyot, ta’lim hamda etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish;

turizm loyihalariga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni hamda moliya institutlarining grand mablag’larini jalb qilish.

Belgilansinki, Dasturga kiritilgan tegishli chora-tadbirlar mahalliy byudjet parametrlarida nazarda tutilgan mablag’lar va ijrochilar mablag’lari doirasida moliyalashtiriladi.

2. Belgilansinki, 2021 yil 1 iyuldan boshlab Xiva shahridagi YUNESKO Umumjahon merosi ro’yxatiga kiritilgan hududlar va moddiy madaniy merosning ko’chmas mulk ob’ektlarining qo’riqlanadigan tegrasidan tashqari, yer uchastkalari mehmonxonalar qurish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga «E-IJRO AUKSION» yagona elektron savdo maydonchasidagi elektron auktsion orqali taqdim etiladi va quyidagi qo’shimcha investitsiya majburiyatlari yuklanadi:

maydoni 6 sotixdan 15 sotixgacha bo’lgan yer uchastkasini ajratishda — 50 ta xonadan kam bo’lmagan mehmonxona;

maydoni 15 sotixdan 30 sotixgacha bo’lgan yer uchastkasini ajratishda — 100 ta xonadan kam bo’lmagan mehmonxona;

maydoni 50 sotix va undan ortiq maydonga ega yer uchastkasini ajratishda — 200 ta xonadan kam bo’lmagan, 3 — 5 yulduzli toifadagi standartlarga mos keladigan mehmonxona qurish.

Bunda, savdoga qo’yiladigan yer maydonlari YUNESKO ishlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan kelishilishi zarur.

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2020 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi 119-son qaroriga muvofiq «SHovot» kichik turizm zonasi (keyingi o’rinlarda — «SHovot» KTZ) tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

«SHovot» kichik turizm zonasi chegaralarining tavsifi 2-ilovaga muvofiq;

«SHovot» kichik turizm zonasining turizm salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi 3-ilovaga muvofiq;

«SHovot» kichik turizm zonasi hududida yo’l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xorazm viloyati hokimligi, O’zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi huzuridagi Kadastr agentligi (keyingi o’rinlarda — Kadastr agentligi) va Qurilish

vazirligining «SHovot» KTZ faoliyatini samarali tashkil etish, unda zamonaviy mehmonxona komplekslari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va turizm ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa ob'ektlarni qurish uchun investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, zamonaviy muhandislik infratuzilma ob'ektlarini tashkil etish maqsadida «SHovot» kichik turizm zonasi direktsiyasi» davlat unitar korxonasini (keyingi o'rinlarda — Direktsiya) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

6. Xorazm viloyati hokimligi:

bir hafta muddatda Direktsiyaning ustavini tasdiqlasin va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin;

bir oy muddatda «SHovot» KTZning rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqsin va Turizm va sport vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlasin.

7. Belgilansinki:

Direktsiya faoliyatini tashkil etish Kichik turizm zonasining mustaqil byudjeti mablag'lari va ular moliyaviy barqarorlikka erishgunga qadar, lekin 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga Tog'li va olis hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi;

Direktsiyaning faoliyatini moliyalashtirish uning o'z faoliyatidan olgan daromadlari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

Direktsiyaning rahbarlari va ularning boshqa ma'muriy-boshqaruv xodimlari Xorazm viloyati erkin iqtisodiy zonalari va kichik sanoat zonalari ma'muriy kengashi (keyingi o'rinlarda — Ma'muriy kengash) tomonidan Turizm va sport vazirligi bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi;

Direktsiyaning xodimlarini ishga qabul qilish Ma'muriy kengash tomonidan belgilanadigan shartlarga muvofiq tanlov o'tkazish orqali amalga oshiriladi;

Direktsiyaning xodimlari mehnatiga haq to'lash shartnoma asosida amalga oshiriladi;

Direktsiya «SHovot» KTZ hududida yo'l-kommunal va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va qurish loyihalarini amalga oshirishda buyurtmachi hisoblanadi.

8. O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi Direktsiyaga:

2021-2022 yillarda saqlash uchun keyinchalik qaytarish sharti bilan Tog'li va olis hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan asoslangan hisob-kitoblar bo'yicha zarur mablag'lar;

bitta avtotransport vositasi xarid qilish uchun zarur mablag'lar, shuningdek, uni saqlash uchun limit ajratsin.

9. Direktsiya Xorazm viloyati, Urganch shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 1-uy manziliga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilsin.

10. Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Turizm va sport vazirligi hamda Kadastr agentligi Urganch-Xiva yo'nalishidagi yo'l bo'yi hududlarini o'z ichiga olgan «Xiva turistik transport koridori»ni tashkil etish hamda ularda zamonaviy mehmonxona majmualari, savdo-ko'ngilochar va turizm ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa ob'ektlar qurish, shuningdek, zamonaviy muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

11. Xorazm viloyati hokimligi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda Urganch-Xiva yo'nalishining yo'l bo'yi hududidagi yer maydonlarini belgilangan tartibda xatlovdan o'tkazsin hamda turizm infratuzilmasi ob'ektlarini tashkil qilish uchun bo'sh yer maydonlarining aniq chegaralarini belgilasin;

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan birgalikda turizm infratuzilmasi ob'ektlarining loyihasini belgilangan tartibda davlat ekologik ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlasin;

Qurilish vazirligi, Turizm va sport vazirligi bilan birgalikda 2021 yil 1 sentyabrga qadar «Xiva turistik transport koridori»ni batafsil rejalashtirish loyihasini ishlab chiqsin va xatlovdan o'tkazilgan yer maydonlarini belgilangan tartibda «E-IJRO AUKSION» yagona elektron savdo maydonchasidagi elektron auktsion orqali tadbirkorlik sohasidagi qonunchilik hujjatlariga hamda shaharsozlik norma va qoidalariga asosan turizm sohasidagi infratuzilma ob'ektlarini tashkil qilish maqsadida ajratilishini ta'minlasin;

2021 yil 1 noyabrga qadar «Xiva turistik transport koridori» hududida ishga tushirishning aniq muddatlarini belgilagan holda quriladigan turizm infratuzilmasi ob'ektlarining manzilli ro'yxatini tasdiqlasin;

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda belgilangan tartibda «Xiva turistik transport koridori» hududida Wi-Fi zonalarini tashkil etsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Xorazm viloyati hokimligi bilan birgalikda «Ichan qal'a» davlat muzey qo'riqxonasida 2021 yil 1 avgustdan boshlab:

turizm mavsumi (mart — iyun, avgust — noyabr) davomida har kuni soat 5:00 dan 24:00 gacha ish rejimini mehnat qonunchiligi talablari asosida (smenali) o'rnatilishini;

turistlar uchun turizm xizmatlarini monetizatsiyalashga qaratilgan tegishli tadbirlar (spektakl shoulari, havo sharida ekskursiya, majmua tarixi haqida qisqa metrajli filmlar namoyishi va boshqalar) tashkil etilishini;

ob'ekt hududida turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshiruvchi axborot-ko'rsatkich belgilari o'rnatilishini ta'minlasin.

13. Xorazm viloyati hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi hamda Qurilish vazirligi 2021 yil 1 iyulga qadar «Madaniy meros LITI» DUK tomonidan Xiva shahridagi «Ichan-qal'a» va «Deshan-qal'a» hududlari bo'yicha batafsil rejalashtirish loyiha takliflarini belgilangan tartibda YUNESKO Umumjahon merosi markazi bilan kelishish uchun hujjatlar yuborilishini ta'minlasin.

14. O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Xorazm viloyati hokimligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu qarorda belgilangan vazifalarning o'z muddatida va sifatli bajarilishini ta'minlasin, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axborot, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga har chorak yakuni bilan keyingi oyning o'ninchi sanasiga qadar taqdim etib borsin.

## FAN DASTURI

**ISHCHI DASTUR**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS**

**TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»**

Ro‘yxatga olindi: O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor q.x.f.n.,

№ BID-5610300-3-02 dotsent _________M.Atajonov

“___”____________2021 yil “___”____________2021 yil

# MINTAQAVIY TURIZM VA TURISTIK RESURSLAR FANINING ISHCHI – O`QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 600000 | - Xizmatlar sohasi |
| **Ta’lim sohasi:** | 610000 | - Xizmat ko‘rsatish sohasi |
| **Ta’lim yo‘nalishi**: | 5610300 | - Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) |

Umumiy o‘quv soati – 330 soat
Shu jumladan:
Ma‘ruza – 70 soat (3-semestr - 36 soat, 4-semestr - 34 soat )
Amaliy mashg‘ulot – 80 soat (3-semestr - 40 soat, 4-semestr - 40 soat)
Mustaqil ta`lim – 180 soat (3-semest-90 soat, 4-semestr - 90 soat )



**Andijon – 2021**

Fanning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 20__ yil “___” _____dagi ___ -sonli buyrug‘i bilan (buyruqning ___ -ilovasi) tasdiqlangan “Mintaqaviy turizm va turistik resurslar” fani dasturi asosida tayyorlangan.

Ishchi o‘quv dasturi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnodlogiyalar instituti Kengashining 2021 yil “___” _________dagi “___” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

G.A.Zufarova - “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” kafedrasi dotsenti i.f.n.
I.Ergashev - “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” kafedrasi assistenti.
A.Ergashev - “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” kafedrasi assistenti.

Taqrizchi:

***Keys tavsifi:*** *Mazkur keys "dala tadqiqotlari" toifasiga kiradi va syujetsiz hisoblan.Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhasiz bo'lib, vaziyat davriy ketma – ketlikda o'tmishdan bugungi kun tartibida bayon etilgan. Keysning asosiy ob'ekti shaxsga yo'naltirilgandir. Bu tashkiliy institutsional keys bo'lib, ma'lumotlar vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.*

*Ushbu keysdan "Iqtisodiy psixologiya" va "Iqtisodiy masalalar yechish amaliyoti"* ***fanlarida foydalanish mumkin.***

## KIRISH

"Iqtisodiy psixologiya fani predmeti, dolzarb muammolari" mavzusidan keys "Iqtisodiy psixologiya" fanidan muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha amaliy mashg'ulotda reysga asoslangan o'qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan. Keysga asoslangan o'qitish texnologiyasining asosiy maqsadi ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o'rganilgan o'quv mavzusi bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko'nikmalarini egallashga, ijodiy va o'rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi.

Iqtisodni rivojlantiruvchi asosiy kuch bu – insondir. Inson yashashi, kamol topishi va ma’lum bir faoliyat bilan mashg’ul bo’lishi, hayotiy ehtiyojlari – kiyim – kechak, oziq – ovqat, uy – ro’zg’or buyumlariga ega bo’lish, bilim olish kabi ehtiyojlar uchun zarur bo’lgan pul daromadlarini qaerdan, nima hisobiga topish kerak degan muammolarga duch keladi. Demak, bugungi kunda bizlar iqtisodiy bilimlarga ega bo’lishimiz, iqtisodiy ongni yanada rivojlantirmog’imiz zarur. Iqtisodiy bilim o’z ichiga iqtisodiy tushunchalar, iqtisodiy qonuniyatlar va iqtisodiy strukturani qamrab olsa, tejamkorlik tarbiyasi esa iqtisodiy hayotga bo’lgan munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan bo’ladi.

Talabalarda pul tejamkorligi tarbiyasini shakllantirish aql-zakovat bilan mustaqil xayotga tayyorlash, iqtisodiy ongni shakllantirishga imkon yaratadi.

Bugungi kunning bosh muammosi bu cheklangan resurslar sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish, hamda shu bilan birga yosh avlodni shu cheklangan resurslar sharoitida pul mablag’larini to’g’ri taqsimlashga o’rgatishdir. CHunki, bozor iqtisodiyoti pul bilan tirik, bu yerdagi iqtisodiy aloqalar pul bilan amalga oshadi. SHu sababli pul topish muammosi hammani harakatga soladi. Jamiyatda o’z o’rnini topish, o’z ehtiyojlarini qondirish, har bir kishini uylantiradigan masala bo’lganligi tufayli har bir shaxsni yoshligidan pulni to’g’ri sarf qilishga o’rgatish muhim vazifadir.

Keysda masalaning yechimi orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- mazkur mavzu bo’yicha bilimni chuqurlashtirish;
- individual va guruhlarda muammoning yechimi tahlilini va qaror qabul qilish ko’nikmalarini ishlab chiqish;
- mantiqiy fikr yuritishni jonlantirish;
- mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalariga ega bo’lish;
- o’quv ma’lumotlarni o’rganish darajasini tekshirish.
- talabalarda pul tejamkorligini shakllantirish usullarini o’rganish

**1-muammoli vaziyat: “O’zbeklar va gollandiya gullari”**

Abbos Axmedov biznes bilan shug’ullanishini boshlaganida turli yo’nalishlarni tanlashiga to’g’ri keldi. U bitta narsani bir joydan olib boshqa joyda sotishga harakat qildi, lekin bu faoliyat tufayli uning daromadi unchalik ko’paymadi. SHuning uchun u keyinchalik ko’chmas mulk bilan shug’ullandi. Bu o’z navbatida uning daromadi oshishiga olib keldi. Lekin bu faoliyat turi ham raqobatli ekanligi uchun uning yangi ish qidirishiga olib keldi. U tadbirkorlik bilan astoydil shug’ullanmoqchi bo’ldi. SHuning uchun o’rtoqlari va do’stlarining biznes va tadbirkorlikkka oid fikrlarini o’rgandi. U gul sotish biznesi juda katta daromad olib kelishini eshitganidan keyin, shu bilan foyda olish darajasi anchagina katta bo’lishini bilib oldi. SHuning uchun u gollandiyalik sheriklarining Gollandiyadan gullarni yuborish to’g’risidagi taklifidan foydalanmoqchi bo’ldi. Gullarni Gollandiyadan olib kelish narxi Gollandiya bozorida sotiladigan gullar narxidan 3 baravar past edi. Buketlari esa xatto yevropaliklar uchun ham ma’qul edi. Abbosning o’zi shaxsiy do’koni yo’q edi, biroq u bir tanishi orqali mini-marketdan joy ajratib berishlariga kelishib oldi va unga galanteriya bo’limdan joy ajratilib, sotuvchilarga gul sotish vazifasi yuklatildi. Gul sotish vaqti juda qulay edi, bir xaftadan keyin 8 mart bayrami, u ulgurji xaridorlarga gullarni sotishni hayoliga ham keltirmagan edi. Bir oy o’tdi, lekin mini-marketining yangi sektsiyasi atigi 10 foiz ham Abbos keltirgan gullarni sotgani yo’q. Sotuvchilar va xaridorlarning fikrilariga ko’ra, Gollandiya uchun past hisoblangan narxlar O’zbekiston xaridorlari uchun juda baland bo’ldi, xaridorlarning ko’p qismi bayramga o’zimizning gvozdika (chinnigullar) ni olishdi. Puli bor biznesmenlar chiroyli gollandiya gullari to’g’risida kechikib qolgan reklama orqali bilganda, mini –market ko’rsatayotgan xizmatlardan foydalana olmadi, chunki magazin oldida avtomashinalarni qo’yish mumkin emas edi.

Savollar:

1. O'zining tadbirkorlik g'oyasini hayotga tadbiq etish uchun Abbos qanday xatolarga yo'l qo'ydi?
2. Gollandiyalik gullarni yetkazib beruvchilar oldida Abbos biror bir afzalliklarga ega bo'lganmi, marketing nuqtai nazaridan gullarni sotish uchun unga nima to'sqinlik qilgan?
3. Kelgusida yo'lga qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun Siz nimalarni unga masalahat berar edingiz?

**2-muammoli vaziyat: "Gilam to'qish tsexi"**

Rahim akani maktabga direktor bo'lganiga 3 yil to'ldi. Maktabning moddiy ta'minlanganlik sharoiti uncha yaxshi emas edi. Sinf xonalari remont talab, parta va stullar eskirgan, isitish batareyalari yaxshi ishlamaydi va xakozo. Buning ustiga maktab kutubxonasining fondi eskirgan, kantstovarlar yegishmaydi yangisini olishga esa mablag' yo'q edi.

Direktor bo'lmasidan oldin ozroq biznes bilan shug'ullangan Rahim aka mablag' topish yo'llarini qidira boshladi. U bir gilam to'quvchi tanishi Abdulla aka bilan kelishib maktabning bo'sh yotgan katta xonasini ijaraga berdi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu qishloq aholisi azaldan o'zining gilam to'qish san'ati va gilam to'qishdagi o'ziga xos bilan mashhur edi. Tez orada dastgohlar o'rnatilib ishga tushirib yuborildi. Ushbu tsex to'quvchilarini asosan maktabni yaqindagina tugatgan yosh qizlar tashkil qilishar edi. Bundan tashqari maktabning yuqori sinf o'quvchi qizlari o'zlarining kasb amaliyoti darslarini shu yerda o'tkazishar edi.

Rahim akaning ushbu tsexni yo'lga qo'yishdan maqsadi xam joy ijarasidan tushgan mablag' evaziga maktabning moddiy ta'minotini yaxshilash, xam o'quvchi qizlarni kasbga o'rgatish, ularning ba'zilarini esa ishga joylashtirish edi.

Biroq, ushbu tsex ishlab chiqargan gilamlarning bozori chaqqon emas edi. Ularning sifati yaxshi emasligi, to'qish texnologiyalariga to'liq rioya etilmaganligi, gilamlar dizayn standartlarga javob bermasligi sababli sotilmas edi.

TSex ishga tushishdan oldin to'plangan barcha sarmoyalar sifatsiz gilamlar ko'rinishida yotar, boshqa xom-ashyo sotib olish uchun aylanma mablag'lar yo'q edi. Rahim aka va Vosit akalarning boshi qotgan va endi ishni qanday davom ettirishni bilmay xayron edilar.

Savollar.

1. Ushbu tsexni ishga tushirishda qanday xatolarga yo'l qo'yildi?
2. Endi moliyaviy axvolni yaxshilash uchun nima ishlar qilish kerak?
3. YAngi moddiy resurslarni jalb qilish uchun qaysi g'oyani ishlab chiqish va kuchaytirish zarur?



**3-muammoli vaziyat: "Omadli taklif"**

90-yillarning boshi, sobiq SSSRning ijtimoiy-iqtisodiy tartibida katta o'zgarishlar davri. Har bir odam o'z biznesining rivoji uchun biron-bir qulaylik topishga xarakat qilayotgan davr. Milliy

Universitetning iqtisodiyot fakultetini bitirgan, Valijon agrosanoat majmuasining rivojlanish muammolariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasining muvaffaqiyatli yoqlangandan so'ng, o'zining muvaffaqiyati va olgan bilimlarining saviyasidan mamnun edi.

Bir kuni uyda o'tirib, o'zining erishgan muvaffaqiyatlarini bo'lg'usi mutaxassislarni o'qitish va tayyorlashga bag'ishlash haqida o'ylar edi. Birdan shu vaqtda uni do'sti telefonda chaqirib qoldi va "Buxgalteriya hisob-kitobi bo'yicha" qisqa kurs tinglovchilariga ma'ruzalar kursini o'qib berishini taklif qildi. To'lov shartlarini oldindan aniqlab olgach, Valijon rozi bo'ldi.

Uch oy davomida yosh olim yuqorida aytilgan qisqa kursning tinglovchilarining 2 guruhiga – 140 odamga ma'ruza o'qidi. Valijon o'z mehnatiga olgan daromadidan xursand edi. Bir kuni, tinglovchilarning biri bilan bo'lgan tasodifiy suhbat vaqtida o'ziga berilgan haq o'qish uchun tinglovchilar to'lagan haqning atiga 12% tashkil qilishini bilib qoldi (har bir tinglovchi to'lagan haq 350 shartli birlikni tashkil qilar edi).

Valijon kurs dasturi bilan tanishib chiqdi va o'qitishga sarflanadigan chiqim atiga 12%, boshqa sarflar va to'lovlar esa 8% tashkil qilishini hisoblab aniqladi.

Bunday faoliyatning yuqori daromadliligi, bunga o'xshash kurslarni o'zi ham tashkil qilishi mumkinligi haqida o'ylashga majbur qildi. 3-oy davomida u ishni buxgalter-menejerlarni tayyorlash va aholiga boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi korxona "Dilovar"ni ochdi. Muvaffaqiyat Valijonni ruhlantirdi va u uda tez muddatda o'zining kurslarini yana o'nta qishloq tumanlarida ochdi, bu kurslarda minnga yaqin tinglovchilat o'qitilar edi. O'qitishning o'rtacha bahosi 300 shartli birlikni tashkil qilar edi.

Savollar:

1. Valijon o'zining tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga nima sabab bo'ldi?
2. Siz bu vaziyatda qanday maqsadni ko'zlar edingiz va qanday biznes maslahatni shakllantirar edingiz?
3. Agar siz Valijonning o'rnida bo'lsangiz, kursni yanada rivojlantirish uchun nimalarni amalga oshirar edingiz?

## II. AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA – BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

| Ish bosqichlari | Maslahatlar va tavsiyanomalar |
|---|---|
| 1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish | Avvalo keys bilan tanishing. "Iqtisodiy psixologiyaning predmeti va dolzarb muammolari" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang |
| 2. Berilgan vaziyat bilan tanishish | Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling. |
| 3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish | Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling:<br>**1-muammo**. "O'zbeklar va gollandiya gullari"<br>1. O'zining tadbirkorlik g'oyasini hayotga tadbiq etish |

| | |
|---|---|
| | uchun Abbos qanday xatolarga yo'l qo'ydi?<br>2. Gollandiyalik gullarni yetkazib beruvchilar oldida Abbos biror bir afzalliklarga ega bo'lganmi, marketing nuqtai nazaridan gullarni sotish uchun unga nima to'sqinlik qilgan?<br>3. Kelgusida yo'lga qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun Siz nimalarni unga masalahat berar edingiz?<br>**2-muammo.** "Gilam to'qish tsexi"<br>1. Ushbu tsexni ishga tushirishda qanday xatolarga yo'l qo'yildi?<br>2. Endi moliyaviy axvolni yaxshilash uchun nima ishlar qilish kerak?<br>3. YAngi moddiy resurslarni jalb qilish uchun qaysi g'oyani ishlab chiqish va kuchaytirish zarur?<br>**3-muammo. "Omadli taklif"**<br>1. Valijon o'zining tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga nima sabab bo'ldi?<br>2. Siz bu vaziyatda qanday maqsadni ko'zlar edingiz va qanday biznes maslahatni shakllantirar edingiz?<br>3. Agar siz Valijonning o'rnida bo'lsangiz, kursni yanada rivojlantirish uchun nimalarni amalga oshirar edingiz?<br><br>Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammo ostidagi muammolar asosiy muammo bilan qanday o'zaro bog'liqligiga izoh bering. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob'ektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling. Iqtisodiy psixologiya predmeti bilan bog'liq tomonlarni ko'rsatib bering. |
| . Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash | Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq yechimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting |

**Muammoli vaziyatning tahlili va yechimi jadvalini to'ldiring**

| Muammoli vaziyat turi | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari |
|---|---|---|
| **1-muammo**. "O'zbeklar va gollandiya gullari"<br>1. O'zining tadbirkorlik g'oyasini hayotga tadbiq etish uchun Abbos qanday xatolarga yo'l qo'ydi?<br>2. Gollandiyalik gullarni yetkazib | | |

| | | |
|---|---|---|
| beruvchilar oldida Abbos biror bir afzalliklarga ega bo’lganmi, marketing nuqtai nazaridan gullarni sotish uchun unga nima to’sqinlik qilgan?<br>3. Kelgusida yo’lga qo’yilgan xatolarni tuzatish uchun Siz nimalarni unga masalahat berar edingiz? | | |
| **2-muammo.** “Gilam to’qish tsexi”.<br>1. Ushbu tsexni ishga tushirishda qanday xatolarga yo’l qo’yildi?<br>2. Endi moliyaviy axvolni yaxshilash uchun nima ishlar qilish kerak?<br>3. YAngi moddiy resurslarni jalb qilish uchun qaysi g’oyani ishlab chiqish va kuchaytirish zarur? | | |
| **3-muammo. “Omadli taklif”**<br>1. Valijon o’zining tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga nima sabab bo’ldi?<br>2. Siz bu vaziyatda qanday maqsadni ko’zlar edingiz va qanday biznes maslahatni shakllantirar edingiz?<br>3. Agar siz Valijonning o’rnida bo’lsangiz, kursni yanada rivojlantirish uchun nimalarni amalga oshirar edingiz? | | |

**Keys bilan ishlash natijalari yozma shaklda ilova etiladi**

**Keys – uchun yozma ish talablari**

1. Ish A4 standartdagi varog’ning bir tomonida (2-varog’dan oshmagan holda) tezis shaklida yozilishi kerak.
2. YOzma ishni jihozlash tartibi:
- birinchi betda, o’ng tomonda talaba ismi, sharifi va guruhini yozishi kerak;
- varog’ning markazida keysning mavzusi yoziladi;
- keyin esa keys bilan ishlash natijalari tezis shaklida yoziladi

**Keys bilan ishlash qoidalari**

Keysda vaziyat tavsifi va axborot ta’minoti har xil hajmda bo’lishi (bir varog’dan bir necha yuz varog’gacha), tahlil etish uchun taklif etilayotgan vaziyatlar tavsifida detallashtirish darajasi ham turlicha bo’lishi, axborot ko’pligi darajasi ham o’zgarishi mumkin bo’lgan – tahlilga aloqasi bo’lmagan ma’lumotlar ham bo’lishi mumkin. Amaliy vaziyatni tahlil qilish vaqtida:

- taklif etilayotgan axborotlarni ko’rib chiqishda adashmang, ular orasida eng zarurini belgilang;

**Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

(**M**ustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun
baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

| Talabalar ro'yxati | Muammoning asosiy mazmuni ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan mak. 6 b | Muammoli vaziyatni tahlil qilish ob'ekti aniq ko'rsatilgan mak. 4 b | Muammoning aniq yechimini topgan mak. 10 b | Jami mak. 20 b |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |

**Auditoriyada bajarilgan ish uchun**
**baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

| Guruhlar ro'yxati | Guruh faol mak. 1 b | Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi mak. 4 b | Javoblar to'liq va aniq berildi mak. 5 b | Jami mak. 10 b |
|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |

8-10 ball – a'lo
6- 8 ball – yaxshi
4- 6 ball – qoniqarli
0 -4 ball – qoniqarsiz

**Kichik guruhlarda ishlash qoidasi**

Ilova (1.1)

Kichik guruxlarda ishlash qoidasi.

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lmogi lozim.
2. Guruxlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik gurux oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruxlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida ogoxlantirilishi zarur.
5. Gurux ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda xam muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

Ilova (1.2)

**«T - sxema» texnikasi**

- bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mav-zularni o'rganishga qaratilgan; bunda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, bir g'oyaning ikki tomoni, foyda va zararlari;

- tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaf-faqiyatli rivojlantirishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi;

ma'ruza yakunida qo'llaniladi

T-sxema qonun-qoidalari bilan tanishib chiqadi.
YAkka tarkibda yoki juft-juft bo'lib T-sxemani to'ldiradi

O'z g'oyalarini yozma ravishda o'ng va chap taraflarida yozib chiqadilar. G'oyalar qarama-qarshi bo'lishi mumkin

Sxemadagi g'oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to'ldirilishi mumkin

Har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin

**O'quv-uslubiy materiallar**

***Iqtisodiy ong*** - o'z qarashlari, maqsadlari, dunyoqarashiga ega bo'lgan inson ongida bevosita ishlab chiqarish, o'zlashtirish va foyda olishga aloqador ob'ektlarning aks etishi.
***Iqtisodiy xulq*** - ishlab chiqarish shart-sharoitlari, vositalari va stimullari ta'sirida namoyon bo'ladigan xatti-harakat va xulq-atvor.
***Iqtisodiy psixologiya*** – shaxsni ishlab chiqarish munosabatlarining ham sub'ekti, ham ob'ekti sifatida iqtisodiy munosabatlarga kirishishdagi xususiyatlarini o'rganadi

*Iqtisodiy psixologiya predmeti*

SHaxs ongi va xulqida xo'jalik va ishlab chiqarish munosabatlarining aks etish jarayoniga aytiladi.

SHaxs - bu jarayonlarda ob'ekt va sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi.

*Iqtisodiy psixologiya* fan sifatida shaxsni ishlab chiqarish munosabatlarining ham sub'ekti, ham ob'ekti sifatida o'rganar ekan, avvalo uning o'z mehnati mazmuni va mohiyatini, o'zi bilan hamkorlik qilayotgan shaxslarga munosabatlarini, baholarini, fikr-o'ylarini, his-kechinmalarini, ijtimoiy ustanovkalarini, professional sifatlari yoki nuqsonlarini, mehnat faoliyati jarayonida o'z xulq-atvorini tashkil etish mexanizmlarini o'rganadi.

*Iqtisodiy psixologiya*

Turli vaziyatlarda ishlab chiqarish munosabatlariga kiritish orqali xo'jalik yuritishni maqsad qilgan shaxslar hamda yaxlit guruh va jamoalarining iqtisodiy tafakkuri va iqtisodiy xulq-atvoriga aloqador umumiy qonuniyatlar va xatti-harakat mexanizmlarini, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir xo'jalik sub'ekti ongida aks etishini o'rganadi.

Iqtisodiy psixologiya predmetidagi *asosiy kategoriyalar:*

- *iqtisodiy ong;*
- *iqtisodiy xulq.*

IQTISODIY ONG

Iqtisodiy ong - o'z qarashlari, maqsadlari, dunyoqarashiga ega bo'lgan inson ongida bevosita ishlab chiqarish, o'zlashtirish va foyda olishga aloqador ob'ektlarning aks etishidir.

IQTISODIY XULQ

Iqtisodiy xulq - ishlab chiqarish shart-sharoitlari, vositalari va stimullari ta'sirida namoyon bo'ladigan xatti-harakat va xulq-atvordir.

*Iqtisodiy ongni tashkil etuvchilar:*
emotsiyalar va his kechinmalar;
pertseptiv idrok elementlari;
iqtisodiy tasavvurlar; bilimlar, tushunchalar, g'oyalar, ko'nikma va malakalar.

*Iqtisodiy hulqni tashkil etuvchilar:*
iqtisodiy motivlar;
shart-sharoitlar;
sababiy munosabatlar tizimi;
vositalar; stimullar.

## III KEYSNI yeCHISH VA TAHLIL QILISH VARIANTI

**Keysdagi asosiy muammo**

SHaxsning iqtisodiy munosabatlardagi namoyon bo'ladigan iqtisodiy tafakkuri, iqtisodiy xulqini, motivini o'rganish masalalari va ularning yechimi.

**Muammoli vaziyatni yechish yo'llari**

**1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishamiz.**

Muammoni yechish darajasini aniqlaymiz.

**2. Berilgan vaziyat bilan tanishamiz.**

- Ma'lumotlarni yana diqqat bilan o'qib chiqib, biz uchun muhim bo'lgan satrlarni tagiga chizib olamiz. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'yamiz.

**3. Asosiy muammo va kichik muammolarni aniqlaymiz.**

Vaziyatni tavsif qilishga harakat qilib asosiy muammo va muammo osti muammolarni aniqladik:

**1-muammo**. "O'zbeklar va gollandiya gullari"

1. O'zining tadbirkorlik g'oyasini hayotga tadbiq etish uchun Abbos qanday xatolarga yo'l qo'ydi?
2. Gollandiyalik gullarni yetkazib beruvchilar oldida Abbos biror bir afzalliklarga ega bo'lganmi, marketing nuqtai nazaridan gullarni sotish uchun unga nima to'sqinlik qilgan?
3. Kelgusida yo'lga qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun Siz nimalarni unga maslahat berar edingiz?

**2-muammo.** "Gilam to'qish tsexi".

1. Ushbu tsexni ishga tushirishda qanday xatolarga yo'l qo'yildi?
2. Endi moliyaviy axvolni yaxshilash uchun nima ishlar qilish kerak?
3. YAngi moddiy resurslarni jalb qilish uchun qaysi g'oyani ishlab chiqish va kuchaytirish zarur?

**3-muammo. "Omadli taklif"**

1. Valijon o'zining tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga nima sabab bo'ldi?
2. Siz bu vaziyatda qanday maqsadni ko'zlar edingiz va qanday biznes maslahatni shakllantirar edingiz?
3. Agar siz Valijonning o'rnida bo'lsangiz, kursni yanada rivojlantirish uchun nimalarni amalga oshirar edingiz?

Asosiy muammo shaxsning iqtisodiy munosabatlardagi iqtisodiy tafakkuri, ongi, motivlari jamiyat taraqqiyotini rivojlanishiga asos bo'lishga qaratilganini aniqladik. Muammo ostidagi muammolar esa shaxsning iqtisodiy tafakkuriga ahamiyat berishimiz, biznesni tashkil etishda insonlarning asosiy ehtiyojlari, motivlari, talablari, an'analari mohiyatini ochib berish lozimligini taqozo etadi.

## III. KEYSOLOGNING XUSUSIY JAVOB VARIANTI

**1.Muammoli vaziyatning tahlili va yechimi jadvali**



| Muammoli vaziyat turi | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari |
|---|---|---|
| **1-muammo**. "O'zbeklar va gollandiya gullari" deb atalgan bo'lib, | - talab va taklifning inobatga olinmaganligi;<br>- insonlarning ehtiyojlari muhim ekanligini unutmaslik; | - insonlarning talabini o'rganish;<br>- insonlar ehtiyojini tadqiq etish; |

| | | |
|---|---|---|
| bu boradagi muammolarni aniqlash va yechimini topish.<br>1. Tadbirkorlik g’oyasini amalga oshirish uchun qanday xatolarni qilmaslik.<br>2. Marketing nuqtai nazaridan vaziyatni tahlil etish.<br>3. Kelgusida iqtisodiy samaraga erishish uchun amaliy maslahatlar. | - xaridorlar uchun maxsus marketlar, tovarlar turini inobatga olinib, faoliyat yuritishini bilish;<br>- iqtisodiy samaraga erishish uchun iqtisodiyotning haraktlantiruvchi kuchi bo’lmish reklamani inobatga olish zarurligi;<br>- aholining qatlamini hisobga olish;<br>- aholi daromadini inobatga olish zarurligi;<br>- birlamchi tajriba o’tkazilmasdan ko’p miqdorda tovarni sotish ishi olib borilganligi;<br>- iqtisodiy ongni ishga solinmasdan biznes faoliyati tashkil etilganligi. | - reklamani tashkil etish;<br>- birlamchi xisob-kitob qilish;<br>- maxsus marketlarni tashkil etish;<br>- aholi daromadini hisobga olish;<br>- kichik tarmoqli marketni rivojlantirish;<br>- xaridor va sotuvchi munosabatlarida shaxsiy omilni inobatga olish;<br>- iqtisodiy ongni imkoniyatidan foydalanish. |
| **2-muammo.** “Gilam to’qish tsexi” deb atalgan bo’lib, bu boradagi muammolarni topish va yechish.<br>1. Ushbu tsexni ishga tushirishda qanday xatolarga yo’l qo’yilganligini aniqlash.<br>2. Moliyaviy axvolni yaxshilash uchun nimalarga e’tiborni qaratish lozimligi.<br>3. YAngi moddiy resurslarni jalb qilish uchun zarur amaliy maslahatlar. | - talab va taklifning inobatga olinmaganligi;<br>- insonlarning ehtiyojlari muhim ekanligini unutmaslik;<br>- ishchilarning tajribasini inobatga olish;<br>- tovarlar turini inobatga olinib, faoliyat yuritishini bilish;<br>- iqtisodiy samaraga erishish uchun iqtisodiyotning haraktlantiruvchi kuchi bo’lmish reklamani inobatga olish zarurligi;<br>- aholining qatlamini hisobga olish;<br>- aholi daromadini inobatga olish zarurligi;<br>- birlamchi tajriba o’tkazilmasdan ko’p miqdorda tovarni ishlab chiqarish ishi olib borilganligi;<br>- iqtisodiy ongni ishga solinmasdan biznes faoliyati tashkil etilganligi. | - insonlarning talabini o’rganish;<br>- insonlar ehtiyojini tadqiq etish;<br>- reklamani tashkil etish;<br>- birlamchi xisob-kitob qilish;<br>- maxsus marketlarni tashkil etish;<br>- aholi daromadini hisobga olish;<br>- kichik tarmoqli marketni rivojlantirish;<br>- xudud faoliyatini tahlil qilish;<br>- iqtisodiy ongni imkoniyatidan foydalanish. |
| **3-muammo.** “Omadli taklif”deb atalgan muammo bo’lib, bu boradagi ishlarni amalga oshirish uchun<br>1. Tadbirkorlik faoliyatini boshlashga nima sabab bo’ladi?<br>2. Biznesni boshlashda qanday | - talab va taklifning inobatga olinmaganligi;<br>- insonlarning ehtiyojlari muhim ekanligini unutmaslik;<br>- aholining to’lov qobiliyatini inobatga olish;<br>- aholi talabini inobatga olinib, faoliyat yuritishini bilish;<br>- iqtisodiy samaraga erishish uchun iqtisodiyotning haraktlantiruvchi kuchi bo’lmish reklamani inobatga olish zarurligi; | - insonlarning talabini o’rganish;<br>- insonlar ehtiyojini tadqiq etish;<br>- reklamani tashkil etish;<br>- birlamchi xisob-kitob qilish;<br>- aholi daromadini hisobga olish;<br>- kichik tarmoqli marketni rivojlantirish; |

| | | |
|---|---|---|
| yo'l tutish kerak bo'ladi?<br>3. Kursni rivojlantirish uchun qanday amaliy tadbirlarni amalga oshirish lozimligini keltirish. | - aholining qatlamini hisobga olish;<br>- aholi daromadini inobatga olish zarurligi;<br>- birlamchi tajriba o'tkazish;<br>- iqtisodiy ongni ishga solinmasdan biznes faoliyati tashkil etilganligi. | - xudud faoliyatini tahlil qilish;<br>- iqtisodiy tafakkurni imkoniyatidan foydalanish. |

**2. Biznesda yordam beradigan (+) va halaqit beradigan (-)qiyosiy tahlillar va natijalar "T - sxema" jadvalida**

Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob'ektning holati aniqlangandan so'ng, muammoning asosiy qirralariga e'tibor qaratib, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olib, "T - sxema" jadvalini to'ldiramiz.

| **Biznes faoliyatini boshlash uchun nimalar bizga yordam beradi?** | **Biznes faoliyatini boshlash uchun nimalar bizga halaqit beradi?** |
|---|---|
| **- vaziyatni atroflicha tahlil qilib olish;<br>- insonlarning talab va taklifini inobatga olish;<br>- xududning an'analari, mentalitetini hisobga olish;<br>- odamlarning ehtiyojlarini bilish;<br>- reklamani tashkil etish;<br>- yaxshi mutaxassislarni ishga jalb etish;<br>- barcha narsada aql, fikr, tafakkur xususiyatlarini inobatga olish.** | **- vaziyatni atroflicha o'rganmaslik;<br>- odamlarning fikri, qiziqishini inobatga olmaslik;<br>- aql bilan ish ko'rmaslik;<br>- reklamani tashkil etmaslik;<br>- xudud xususiyatlarini bilmaslik;<br>- mutaxassislar bilan maslahatmaslik;<br>- birlamchi xisob-kitobni qilmaslik;<br>- turli omillarni o'rganmaslik;<br>- tahlil va taqqoslashni olib bormaslik.** |

**YAkuniy xulosa**

Iqtisodiy munosabatlarda shaxs samaraga erishishi uchun iqtisodiy tafakkur, ong, motiv, sharoit, stimullar, ehtiyojlar, narx-navo, tovarni xarid quvvatini oshirish uchun reklama, talab va taklif kabi bir qator omillarni inobatga olishi darkor. YA'ni, har doim aql bilan ish ko'rishi kerak bo'ladi.

## IV. Muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha amaliy mashg'ulotda o'qitish texnologiyasi (keys - stadi)

### 4.1. O'qitish texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| 1 mavzu, 2 soat | Ta'lim oluvchilar soni: 21 kishidan oshmasligi lozim |
| Mavzu | Iqtisodiy psixologiyaning predmeti va dolzarb muammolari |
| Amaliy mashg'ulot rejasi | 1. Keysga kirish.<br>2. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida "Blits - so'rov" o'tkazish.<br>3. Muammoni va uni yechish vazifalarini aniq ifoda etish.<br>4. Keysni guruhlarda yechish.<br>5. Natijalar taqdimoti va muhokamasini |

| | |
|---|---|
| | o’tkazish.<br>6. Muhokama etilayotgan muammoni “T-sxema” jadvali asosida tahlil etish.<br>7. YAkuniy xulosa chiqarish. Erishilgan o’quv natijalariga ko’ra talabalar faoliyatini baholash |
| Mashg’ulotning maqsadi: YOshlarning iqtisodiy ongi va tafakkurini rivojlantirish, biznes faoliyatini tashkil etishda inobatga olish kerak bo’lgan omillar ta’sirini aniqlashga o’rgatish. | |
| Pedagogik vazifalar: | O’quv faoliyati natijalari:. |
| • keys mazmunini mustaqil o’rganish uchun asos yaratadi;<br>• “Iqtisodiy psixologiyaning predmeti va dolzarb muammolari” muammosiga oid vaziyat bilan tanishtiradi;<br>• muammoni ajratib olishga o’rgatadi, taqqoslashga, tahlil qilishga umumlashtirishga ko’mak beradi;<br>• muammoni hal etish bo’yicha aniq harakatlar ketma – ketligini tushuntirib beradi;<br>• muammoli vazifalarni yechishga shart-sharoit yaratadi;<br>mantiqiy xulosa chiqarishga ko’mak beradi | • keys mazmuni bilan oldindan tanishib chiqib, yozma tayyorgarlik ko’radi;<br>• “Iqtisodiy psixologiyaning predmeti va dolzarb muammolari” mavzusini yechish bo’yicha aniq vaziyatlarning ketma–ketligini aniqlaydi;<br>• muammoli vazifalarni yechishda nazariy bilimlarini qo’llaydi;<br>• muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topadi;<br>• yakuniy mantiqiy xulosalar chiqaradi. |
| O’qitish usullari va texnika | Keys – stadi, Blits-so’rov, Muammoli vaziyat uslubi, T-sxema, Bahs-munozara |
| O’qitish vositalari: | Keys, uslubiy ko’rsatmalar, markerlar, qog’ozlar, doska, bo’r |
| O’qitish shakllari | Individual, guruhlar va jamoaviy ishlash |
| O’qitish shart-sharoiti | Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya |
| Monitoring va baholash | Og’zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash |

### 4.2.Amaliy mashg’ulotning texnologik xaritasi

| Ish jarayonlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | o’qituvchi | talaba |
| Tayyorlov bosqichi | Avvaldan keysni talabalarga tarqatadi. Uslubiy ko’rsatmalar beradi. Vazifalar berib, bu vazifalarni mustaqil o’rganishni taklif etadi.<br>Keys vazifasi shaxsni turli biznes faoliyatini olib borish uchun iqtisodiy ong xususiyatlarini taxlil qilishga o’rgatish va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtirish. Keys mazmuni bilan | Tinglaydilar |

| | | |
|---|---|---|
| | yanada yaqinroq tanishib chiqishlari uchun talabalarga materiallarni tarqatib chiqadi/<br>Keysda bor bo'lgan materiallarni muhokama qilishni tashkillashtiradi, diqqatni keys bilan ishlash qoidalariga, muammoni yechish algoritmiga va vazifani aniqlashtirishga qaratadi. Mustaqil ravishda uyda yozib kelingan vaziyat tahlilini o'tkazishni taklif qiladi. | |
| I - bosqich.<br>Mavzuga kirish<br>(10 daqiqa) | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi, vazifalari va o'quv faoliyati natijalarini aytadi, dolzarbligi va ahamiyatiga to'xtalib o'tadi. | Tinglaydilar |
| | 1.2. Mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida blits – so'rov o'tkazadi (1-ilova) | Savollarga javob Bildiradi |
| | | |
| II - bosqich.<br>Asosiy<br>(60 daqiqa) | 2.1.Talabalarni 3 ta kichik guruhlarga ajratadi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni "Muammoli vaziyat" uslubidan foydalanilgan holda tarqatadi (2-ilova) | Guruhlarga ajraladi topshiriqlar ustida ishlaydilar Muhokama qiladilar |
| | 2.2. Kichik guruhlarda keys bilan yakka tartibda bajarilgan ishlar natijalarini muhokama qilishni tashkillashtiradi. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi | Faol qatnashadilar |
| | 2.3. Har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishi qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi | Jamoa bo'lib bajarilgan ishning taqdimotini o'tkazadilar, baxs-munozara yuritadilar, qo'shimchalar qiladilar, baholaydilar, xulosa chiqaradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.4. Talabalarning fikrlarini umumlashtirib bo’lgach, o’qituvchi iqtisodiy munosabatlarda shaxsning iqtisodiy tafakkurini ta’siri, tahlil etish zarurligi, motivlar, shart-sharoitlarni inobatga olish zarurligiga oid fikrlarini davom ettiradi. SHu sababli ushbu muammodan kelib chiqqan holda har bir guruhga “T - sxema” jadvalidan foydalanilgan holda “Biznes faoliyatini tashkil etishda nimalar yordam beradi?”, “Biznes faoliyatini tashkil etishda nimalar xalaqit beradi?” – deb savol bilan murojaat qiladi (3- ilova) | Tinglaydilar. Guruhlarda berilgan topshiriqni bajaradilar. Taqdimotini o’tkazadilar. Mavzu bo’yicha yakuniy xulosa chiqaradilar |
| | 2.5. Talabalarning taqdimotda ko’rsatilgan fikrlarini umumlashtiradi | Tinglaydilar |
| III - bosqich. YAkuniy (10 daqiqa) | 3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Bugungi mavzu dolzarb ekanligiga to’xtalib o’tadi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag’batlantiradi. | Eshitadi. Aniqlaydi |
| | 3.2. Tavsiya etilgan muammo yechimlariga izoh beradi. YAna bir bor keysning ahamiyatiga atroflicha to’xtalib o’tadi | Tinglaydilar |

1-Ilova

**Blits-so’rov savollari**

| № | Savol | Javob |
|---|---|---|
| 1. | Iqtisodiy psixologiya | turli vaziyatlarda ishlab chiqarish munosabatlariga kiritish orqali xo’jalik yuritishni maqsad qilgan shaxslar hamda yaxlit guruh va jamoalarining iqtisodiy tafakkuri va iqtisodiy xulq-atvoriga aloqador umumiy qonuniyatlar va xatti-harakat mexanizmlarini, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir xo’jalik sub’ekti ongida aks etishini o’rganadi. |
| 2. | Iqtisodiy ong | - o’z qarashlari, maqsadlari, dunyoqarashiga ega bo’lgan inson ongida bevosita ishlab chiqarish, o’zlashtirish va foyda olishga aloqador ob’ektlarning aks etishidir. |
| 3. | Iqtisodiy xulq | ishlab chiqarish shart-sharoitlari, vositalari va stimullari ta’sirida namoyon bo’ladigan xatti-harakat va xulq-atvordir. |
| 4. | Iqtisodiy ongni tashkil etuvchilari | emotsiyalar va his kechinmalar, iqtisodiy munosabatlarning turli jihatlarini idrok qilish va tushunishga taalluqli pertseptiv idrok elementlarini, iqtisodiy tasavvurlar va iqtisodiy tafakkurni, uning oqibati bo’lmish bilimlar, tushunchalar, g’oyalar, ko’nikma hamda malakalarning aql-farosatga tegishli xususiyatlarini kiritish mumkin. Iqtisodiy ong |

| | | |
|---|---|---|
| | | murakkab psixologik tuzilma bo'lib, u bevosita iqtisodiy vaziyatlar va shart-sharoitlarning shaxs ongi va shuuriga ta'siridan hosil bo'ladi. |
| 5. | Iqtisodiy xulqni tashkil etuvchilari | iqtisodiy motivlar, ya'ni ishlab chiqarish shart-sharoitlaridan va shaxsning ularga munosabatlaridan kelib chiqadigan sababiy munosabatlar tizimi |

Ilova (1.3)

**1 - topshiriq**
**Guruhlarda ishlash uchun ekspert varog'lari**

**1-guruh**.

**1-muammo**. "O'zbeklar va gollandiya gullari"

1. O'zining tadbirkorlik g'oyasini hayotga tadbiq etish uchun Abbos qanday xatolarga yo'l qo'ydi?
2. Gollandiyalik gullarni yetkazib beruvchilar oldida Abbos biror bir afzalliklarga ega bo'lganmi, marketing nuqtai nazaridan gullarni sotish uchun unga nima to'sqinlik qilgan?
3. Kelgusida yo'lga qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun Siz nimalarni unga maslahat berar edingiz?

**"Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring**

| Muammoli vaziyat turi | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari |
|---|---|---|
| | | |

**2- guruh**.

**2-muammo.** "Gilam to'qish tsexi".

1. Ushbu tsexni ishga tushirishda qanday xatolarga yo'l qo'yildi?
2. Endi moliyaviy axvolni yaxshilash uchun nima ishlar qilish kerak?
3. YAngi moddiy resurslarni jalb qilish uchun qaysi g'oyani ishlab chiqish va kuchaytirish zarur?

**"Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring**

| Muammoli vaziyat turi | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari |
|---|---|---|
| | | |



**3- guruh**.

**3-muammo. "Omadli taklif"**

1. Valijon o'zining tadbirkorlik faoliyatini boshlashiga nima sabab bo'ldi?
2. Siz bu vaziyatda qanday maqsadni ko'zlar edingiz va qanday biznes maslahatni shakllantirar edingiz?

3. Agar siz Valijonning o’rnida bo’lsangiz, kursni yanada rivojlantirish uchun nimalarni amalga oshirar edingiz?

**“Muammoli vaziyat” jadvalini to’ldiring**

| Muammoli vaziyat turi | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari |
|---|---|---|
| | | |

Ilova (1.4)

**2 - topshiriq**

**“T-sxema” jadvalini to’ldiring**

| Biznes faoliyatini tashkil etishda nimalar yordam beradi?” | “Biznes faoliyatini tashkil etishda nimalar xalaqit beradi?” |
|---|---|
| | |

**Keys bilan ishlashni baholash mezonlari**

86-100% / 8,6 - 10 ballgacha – «a’lo»
71-85% / 7,1 – 8,5 ballgacha – «yaxshi»
55-70% / 5,6- 7 ballgacha – «qoniqarli»

**Guruhlarning ishlashini baholash jadvali**

| Guruh | Baholash mezonlari | |
|---|---|---|
| | Taqdimot (mazmuni, ma’nosi va xulosalarning isboti uchun)<br><br>A’lo – 2 ball<br>YAxshi – 1,5 ball<br>Qoniqarli – 1 ball<br>Qoniqarsiz – 0,5 | Muammoli masalaning yechimi uchun (to’g’riligi va yechimning ketma-ketligi uchun)<br>A’lo – 2 ball<br>YAxshi – 1,5 ball<br>Qoniqarli – 1 ball<br>Qoniqarsiz – 0,5 ball |
| 1 | | |
| 2 | | |



**Ilovalar**

Ilova (1.5)

**Muammolarni hal qilish variantlarini baholash jadvali (ballarda)**

| Ishtirokchilar | Muammoni hal qilishning alternativ variantlari |
|---|---|

| | 1 | 2 | 3 | **4** | **N** |
|---|---|---|---|---|---|
| A | | | | | |
| B | | | | | |
| N | | | | | |
| Jami | | | | | |

Ilova (1.6)

**Baholash ko’rsatkichlari va mezonlari**

| Guruh | Savol mohiyatini yoritilishi | Xulosa | Guruhning faolligi | Jami | Baho 2-3- «a’lo» 1-2- «yaxshi» 0,5-1- «qon-li» |
|---|---|---|---|---|---|
| | (1,2) | (1,2) | (0,6) | (3,0) | |
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |
| 4 | | | | | |

## Asosiy adabiyotlar


1. Dmitriyev. M.N. ekonomika turistskogo rinka. Uchebnik. - M.: YUNITI-DANA, 2010. – 312 str.
2. Zdorov A.B. «Ekonomika turizma» Uchebnik, 3-e izdaniye Moskva-2011g. – 255 str.
3. Ushakov D.S. «Ekonomika turistskoy otrasli» 2-e izdaniye Moskva-2010 g. – 450 str.


## Qo‘shimcha adabiyotlar


1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2014. - 46 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi “Turizm to‘g‘risida” gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi 2020 yil 2 martdagi PF5953-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 15 yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 13 avgustdagi PF-5781-sonli Farmoni.
6. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
7. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017.–47 b.
8. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
9. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 103
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4795-sonli qarori.


## Internet saytlari


4. www.gov.uz
5. www.stat.uz
6. www.economyworld.org



4. www.zamonaviy.uz – veb sayti
5. www.bitnovosti.com – veb sayti
6. https://bitcoin.org– Bitkoinning rasmiy sayti
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/- Vikipediadagi sahifa